**Kirish.** Bugungi kunda kichik va xususiy biznes iqtisodiyotda hal qiluvchi oʻrinni egallab, bozorni zarur tovarlar va xizmatlar bilan toʻldirishning asosiy manbai, aholi daromadlari va farovonligining oʻsishi, bandlik muammolarini hal qilishning eng muhim omiliga aylandi. Bu

sohani rivojlanishi nafaqat iqtisodiy oʻsishga, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni taʼminlashga, yangi ish oʻrinlarini yaratishga, innovatsiyalarni joriy etishga va raqobatni oshirishga olib keladi. Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish vositalari tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqariladigan va realizatsiya qilinadigan tovarlar, bajariladigan ishlar, koʻrsatiladigan xizmatlarning inson hayoti va sogʻligʻi uchun xavfsizligini, uning qonuniy manfaatlari himoyasini taʼminlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, shuningdek, davlat xavfsizligini taʼminlash va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida faqat normativ-huquqiy va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar asosida joriy etiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish evolyutsiyasining oʻziga xosligini oʻrganish davlatning ijtimoiy — iqtisodiy rivojlanishidagi kichik korxonalarning zamonaviy rolini obyektiv baholash uchun muhim uslubiy ahamiyatga ega.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish tizimi borasida Rossiya iqtisodchisi V.N.Bykova tadqiqot olib borgan boʻlib, u oʻz tadqiqotida bu tizimning rivojlanish bosqichlarini qismlarga ajratadi. Birinchi davrda xorijda 1929-1938-yillardagi inqirozlarga qarshi choralar ishlab chiqilib, shu tariqa turli mamlakatlarda tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash vositalari shakllandi. Soʻnggi davrda bu tizim dunyoning rivojlangan mamlakatlarida Yaponiya, AQSh, Gʻarbiy Yevropada rivojlangan boʻlib, bu davr XX asrning ikkinchi yarmiga toʻgʻri keladi. Bu davrda kichik biznesni qoʻllab-quvvatlovchi vakolatli davlat organlari, davlat apparati va maxsus boshqaruv organlari tashkil qilinib, kichik biznesni qoʻllab-quvvatlovchi davlat infratuzilmasi yaratildi.[1]

Kichik va oʻrta biznesni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanishini muammoli jihatlarini oʻrgangan rossiyalik olimlar O.V.Gleba va V.S.Shpekalar "Kichik va oʻrta biznesning innovatsion faoliyatini qoʻllab-quvvatlash nuqtai-nazaridan shuni taʼkidlash kerakki, ushbu tadbirkorlik subyektlarining rivojlangan mamalakatlarda faoliyat koʻrsatishi ularning muvaffaqiyati innovatsiyalar bilan chambarchas bogʻliqligini koʻrsatadi." degan fikrlarni ilgari surishgan. Iqtisodchi Y.I.Levina esa raqamli iqtisodiyot rivojlanib borayotgan davrda kichik biznes boshqaruvida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanishi juda muhim deb hisoblaydi. Uning fikricha kichik va oʻrta biznesni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashning rivojlanishi bilan iqtisodiyot demonopolizatsiyasi, yangi ish oʻrinlarini paydo boʻlishi, hududlarda bozorlarning shakllanishi va innovatsion faoliyatning rivojlanishini taʼminlaydi.[1]

Jon Lesterning "Kichik biznesni qoʻllab-quvvatlovchi siyosat aralashuvi: asoslar, natijalar, va tavsiyalar" nomli maqolasida u kichik biznes va tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha federal tashabbuslarni 3 ta ajratish haqida soʻz yuritadi. Bular moliyalashtirish dasturlari, ilmiy-tadqiqotlarni qoʻllab-quvvatlash va soliq choralaridir.[2]

Oʻzbekiston Respublikasi rivojlanishining hozirgi bosqichida kichik biznes alohida rol oʻynaydigan ijtimoiy omilning ahamiyati sezilarli darajada oshmoqda. Bu borada tadbirkorlikni davlatimiz tomonidan qoʻllab quvvatlash orqali tadbirkorlarni erkin faoliyat yuritishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga asosan Tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning aniq maqsad va chegaralarini belgilash, tadbirkorlik subyektlari tomonidan yangi mahsulot va xizmat turlarini joriy etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali ular uchun tartibga solish yukini kamaytirish, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi

“2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-60-son Farmoni ijrosini taʼminlash maqsadida Adliya vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambagʻallikni qisqartirish vazirligi, Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish boʻyicha vakil hamda Savdo-sanoat palatasining davlat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini faqatgina quyidagi tadbirkorlik subyektlarini davlat roʻyxatidan oʻtkazish;tadbirkorlik subyektlari faoliyatining ayrim turlari boʻyicha litsenziyalash, ruxsat berish hamda xabardor qilish tartib-taomillarini joriy etish, texnik jihatdan tartibga solish; tarif va notarif tartibga solish, qonunda belgilangan tartibda tadbirkorlik subyektlarining javobgarligini majburiy sugʻurta qilish, davlat nazorati, raqobatni himoya qilish, vositalar orqali tartibga solish toʻgʻrisidagi taklifi maʼqullandi.

Davlatning boshqaruvga oid chora-tadbirlari tadbirkorlik faoliyatini himoya qilish, huquqiy muhitni yaxshilash, bozorni tartibga solish va soliq tizimini optimallashtirishga yordam beradi. Bularning barchasi kichik biznesning rivojlanishiga, oʻz faoliyatini yanada samarali yuritishiga imkon yaratadi. Uchinchi ahamiyatli tomoni shundaki, kichik biznes va tadbirkorlik koʻpincha innovatsion gʻoyalarni amalga oshirishda yetakchi rol oʻynaydi, yaʼni bunda innovatsiyalarni joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Innovatsiyalar orqali kichik bizneslar yangi mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqishi, yangi texnologiyalarni joriy etishi, iqtisodiyotning oʻsishini taʼminlashga yordam beradi.

Kichik biznesni tartibga solishning eng soʻnggi ahamiyatli jihati ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish hisoblanib, bu kichik biznesning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy oʻsish, balki ijtimoiy rivojlanishga ham katta taʼsir koʻrsatadi. Kichik bizneslarning faoliyati, ayniqsa, qishloq joylarida yangi ish oʻrinlarini yaratish va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishga yordam beradi. Buning natijasida ijtimoiy farovonlik va turmush darajasi yaxshilanadi.

Mazkur sohani davlat tomonidan tartibga solish, jumladan, uning yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish va bandlikni taʼminlashdagi ulushini oshirish, texnologik tarkibiy tuzilishini takomillashtirish, kredit resurslariga bo’lgan ehtiyojini qondirish va qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish kabi yo’nalishlarda tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shu kabi muhim islohotlar natijasida 2023 yil yakuniga ko’ra kichik biznes va tadbirkorlikning ulushi yalpi ichki mahsulotda 55,0 foiz, sanoat mahsulotlari hajmida 40,6 foiz, qishloq xo’jaligi mahsulotlari hajmida 98,4 foiz, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmida 35,8 foizga yetdi. Ish bilan band jami aholining 77,9 foizi mazkur tarmoqda mehnat qilmoqda.[3]

**1-jadval**

**Xorazm viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi.[4]**

| Yil | YaHM | Sanoat | Qurilish |
|---|---|---|---|
| 2010 | 71,8 | 30,0 | 83,3 |
| 2011 | 74,1 | 32,7 | 85,0 |
| 2012 | 73,5 | 34,6 | 83,8 |
| 2013 | 73,8 | 36,8 | 79,1 |
| 2014 | 73,9 | 29,7 | 80,9 |
| 2015 | 74,1 | 38,9 | 82,1 |
| 2016 | 74,2 | 47,7 | 88,9 |
| 2017 | 78,3 | 42,1 | 87,4 |
| 2018 | 79,1 | 37,1 | 89,9 |
| 2019 | 76,4 | 30,2 | 92,1 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 2020 | 77,4 | 29,5 | 88,7 |
| 2021 | 75,8 | 22,0 | 88,1 |
| 2022 | 71,9 | 16,0 | 89,7 |
| 2023 | 72,7 | 16,3 | 92,2 |
| 2024 | 72,3 | 21,0 | 90,8 |

Endi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini Yalpi hududiy mahsulot kesimida Xorazm viloyati misolida tahlil qiladigan boʻlsak, bu koʻrsatkich 2022 yil 71,9 % ni tashkil qilgan boʻlsa, 2023 yilda 72,7 % ni, 2024 yil dekabr oyida esa 72,3 % ni tashkil qilgan. Bu esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini Yalpi hududiy mahsulot kesimida oshganligidan dalolat beradi. Bu koʻrsatkichlarni sanoat va qurilish sohasida tahlil qilinganda 2022 yil vohada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushining 16,0 % sanoatga, 92,2 % qurilish sohasiga toʻgʻri kelgan. 2024 yilda esa bu sohalarda ijobiy oʻsishga erishilgan va bu koʻrsatkich sanoatda 21,0 % ga, qurilishda esa 90,8 % ga oʻsgan. Yuqoridagi jadvaldan koʻrinib turibdiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning Yalpi hududiy mahsulot kesimidagi ulushini 2022 yil va 2024 yillarni taqqoslaganimizda sanoat sohasida 5 %, qurilish sohasida 0,3 % oʻsish kuzatilgan. 2023 yilni 2024 yilga taqqoslaganimizda esa bu koʻrsatkich sanoat sohasida 5 % ga oshgan boʻlsa, qurilish sohasi hisobiga -1,1 % ga pasaygan. Bu esa viloyatimizda qurilish sohasini yanada isloh qilish lozimligini anglatadi.[4]

**Xulosa.** Kichik biznesni tartibga solishning ahamiyatli tomoni shundaki, bunda birinchidan, iqtisodiy barqarorlik va raqobatni oshirishni taqozo qiladi. Aynan, kichik biznes va tadbirkorlikni tartibga solish orqali davlat iqtisodiy barqarorlikni taʼminlaydi. Masalan, soliq imtiyozlari, subsidiya dasturlari va kreditlash tizimi orqali kichik biznesga yordam berish, ularning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, kichik biznesning rivojlanishi iqtisodiyotda yangi ish oʻrinlarini yaratishga va ijtimoiy barqarorlikni taʼminlashga xizmat qiladi. Ikkinchidan tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash maqsadida huquqiy muhitni yaxshilash lozim. Kichik biznesning rivojlanishiga turtki berish uchun davlat tomonidan qonun va qoidalarni, huquqiy bazani toʻgʻri shakllantirish zarur.

**Adabiyotlar/Литература/References:**


1. Liang tan va Boon-Chye Li. Small and Madium Enterprises in Singapore and the New Economy. LEE, Boon Chye and TAN, Wee Liang. Small and Medium Enterprises in Singapore and the New Economy.(2002). The role of SMEs in National Economies in East Asia. 347-369. Research Collection Lee Kong Chian School Of Business.
2. Joze Luis Polo-Otero.Are the business regulations creating new entrepreneurship? Contaduria y Administracion 65 (2), 2020,1-21
3. www.stat.uz -Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат статистика Агентлиги расмий сайти.
4. OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY STATISTIKA QOʻMITASI XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI https://www.xorazmstat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# SUN'IY INTELLEKT — XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH VOSITASI SIFATIDA

**Abdullaev Jamshid Obidovich**
Biznes boshqaruvi va aniq fanlar
kafedrasi assistenti SamDU Urgut filiali,
E-mail: jamshed1980@gmail.com

**Hayitov Afruz Xurshidovich**
Sh.Rashidov nomidagi Sam DU Urgut filiali talabasi
E-mail: hayitovafruz@gmail.com

**Xusenov Muxammadali Murodulla o'g'li**
Sh.Rashidov nomidagi Sam DU Urgut filiali talabasi

**Annotatsiya.** Bozor iqtisodiyotini tizimli inqirozdan chiqarish va yangi texnologik tartibga o'tishning eng samarali usullaridan biri bu sun'iy intellekt va jamiyatning raqamli transformatsiyasidan foydalanishni kengaytirishdir. Shu munosabat bilan, xizmat ko'rsatishning turli sohalarida sun'iy intellekt algoritmlarini joriy etish istiqbollarini baholashga bag'ishlangan ushbu maqola mavzusi dolzarbdir. Maqolada sun'iy intellektning turli modellari va xizmatlaridan foydalanish bo'yicha to'plangan jahon tajribasi va amaliyoti tizimlashtirildi, turli biznes jarayonlarida neyron tarmoqlardan foydalanishning ijobiy va salbiy oqibatlari aniqlandi. Shuningdek, aniq misollar va texnologik sikllarda mashina algoritmlarini qo'llash samaradorligi keltirildi. Turli xil xizmat sohalarida sun'iy intellekt algoritmlarini joriy etish natijalarini tushunish, bu esa sun'iy intellekt tizimlarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini, shuningdek, muammolar ko'lamini aniqlash imkonini berdi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, xizmat ko'rsatish, algoritm, neyron tarmoqlar, IT texnologiyalari, innovatsiyalar, biznes, samaradorlik.

# ARTIFICIAL INTELLIGENCE AS A TOOL FOR INCREASING EFFICIENCY IN THE SERVICE FIELD

**Abdullaev Jamshid Obidovich**
Assistant teacher, Department of Business
Administration and Exact Sciences of SamGU
Urgut branch
E-mail: jamshed1980@gmail.com

**Hayitov Afruz Khurshidovich**
student of Urgut branch of the SamSU
named after Sh. Rashidov
E-mail: hayitovafruz@gmail.com

**Khusenov Mukhammadali Murodulla uglu**
student of Urgut branch of the SamSU
named after Sh. Rashidov

**Abstract.** One of the most effective ways to bring the market economy out of the systemic crisis and transition to a new technological order is the expansion of the use of artificial intelligence and the digital transformation of society. In this regard, the topic of this article, which is devoted to assessing the prospects for the implementation of artificial intelligence algorithms in various areas of service provision, is relevant. The article systematizes the world experience and practice of using various models and services of artificial intelligence, identifies the positive and negative consequences of using neural networks in various business processes. Also, specific examples and the effectiveness of using machine algorithms in technological cycles were given. Studying the results of the implementation of artificial intelligence algorithms in various areas of services, which made it possible to determine the main directions for further development of artificial intelligence systems, as well as the range of problems to be solved.

**Keywords:** artificial intelligence, service provision, algorithm, neural networks, IT technologies, innovations, business, efficiency.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N03

**Kirish.** XXI asrda insoniyatning aqlli mashina yaratish haqidagi azaliy orzusi amalga oshmoqda, agar u barcha muammolarni hal qilmasa, insonning sodiq yordamchisiga aylanadi. Mutaxassislarning fikriga koʻra, 2023 yilga kelib sun’iy intellekt elementlari barcha yangi dasturiy mahsulotlar va xizmatlarda mavjud boʻladi [1]. Sun’iy intellekt dunyodagi kompaniyalarning 1/3 qismidan koʻprogʻi tomonidan investitsiyalar uchun ustuvor yoʻnalishga aylanadi va global yalpi ichki mahsulot (YaIM) oʻsishi uchun asos boʻladi [2, 3, 4].

Insonlar tomonidan koʻp vaqt sarflash orqali bajariladigan vazifalarni sun’iy intellekt bir necha soniya ichida bajarishi mumkin. Bugungi kunda sun’iy intellekt yordamida ular bank hisob raqamlarini ochishlari va xaridlarni oʻn barobar tezroq amalga oshirishlari, yangi dori-darmonlarni ishlab chiqishlari, fond bozoriga sarmoya kiritishlari va parvozning kechikish vaqtini daqiqalargacha aniqlik bilan aniqlashlari mumkin. Sun’iy intellekt “yangi elektr” deb ataladi: u butun xizmat koʻrsatish sohalarini oʻzgartiradi va kelajakda u butun sivilizatsiya qiyofasini oʻzgartirishi mumkin.

Techtarget.com professional media-resursiga koʻra, sun’iy intellekt – bu texnologiyalarning intellektual faoliyatga taqlid qilish, masalan, axborot va berilgan qoidalardan oʻrganish, mantiqiy xulosalar chiqarish va oʻz qarorlarini toʻgʻrilash qobiliyatidir. Sun’iy intellekt ekspert tizimlarini yaratish, tabiiy til ma’lumotlarini qayta ishlash, nutqni aniqlash va mashinani koʻrish hamda boshqalar uchun ishlatiladi [2] Yuqorida aytilganlar bilan bogʻliq holda, mazkur yoʻnalishda tadqiqotlar olib borish yanada dolzarbdir.

Shu sababli biznesning turli sohalarida yuqori intellektual yechimlardan foydalanish natijalarini tahlil qilish va biznes jarayonlariga sun’iy intellekt algoritmlarini joriy etishning istiqbolli yoʻnalishlarini aniqlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** L.I. Arxipov, V.N. Babich va E.A. Kirillova tadqiqotlarida oxirgi 30 yil ichida insoniyat tomonidan yaratilgan ma’lumotlar hajmi avvalgi 3 ming yillikdagi hajmga teng va tez sur’atlarda oʻsishda davom etmoqda hamda shu tariqa sun’iy intellektdan foydalanmasdan samaraga erishish mumkin boʻlmagan ulkan ma’lumotlar massivlarini (Big Data) hosil qilishi yetarlicha yoritib berilgan [2, 3].

N.V. Gorodnova tomonidan sun’iy intellekt algoritmlarini inson hayotiga qoʻshimcha imkoniyatlarga ega yordamchi sifatida kiritish bunday integrasiyaning asosiy ustunligini olish imkonini bermshm – bu nafaqat qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirish, balki ularning sifatini sezilarli darajada yaxshilashga olib kelishi asoslangan [5].

V.V.Jilin, O.A. Safaryanlarning tadqiqotlarida bugungi kunda kompaniyalar-ning 37 foizi algoritmik xizmatlar va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishi, bu kelajakda yangi

yuqori intellektli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari doimiy ravishda oshib borishidan dalolat berishi yoritib oʻtilgan [6].

L.I. Arxipov tomonidan 2018 yilda dunyoda Big Data va biznes-analitika xizmatlaridan foydalanishdan tushgan daromad hajmi 168,8 milliard AQSh dollarini tashkil etishi, prognozga koʻra, 2022 yil oxiriga bu koʻrsatkich 274,3 milliard AQSh dollaridan oshishi tahlillar asosida yoritib berilgan [2].

Bugungi kunda xizmat koʻrsatish sohasida qoʻllaniladigan sun'iy intellekt xizmatlarining asosini onlayn-doʻkonlar va virtual yordamchilarning (masalan, Alex, Cortan va Siri, My.Gov.uz) sun'iy intellekt boʻyicha tavsiyalari tashkil etadi [7]. Sun'iy intellekt kontentni foydalanuvchining afzalliklari va ommabopligiga koʻra saralaydi, matnlarni taniydi, tushunadi hamda mustaqil ravishda yozadi, spamlarni filtrlaydi va bloklaydi, inson nutqini taniydi, odamlarni fotosurat, selfi va boshqa usullar bilan aniqlaydi. Bu iqtisodchilar va ekspertlarni bunday ta'sirning salbiy oqibatlari toʻgʻrisidagi cheklangan ma'lumotlar tufayli sun'iy intellektning mehnat bozoriga ta'siri haqida qarama-qarshi xulosalarga olib keladi [5, 8].

Shuningdek, mijozlar bilan muloqot qilish uchun sun'iy intellekt kompaniyalari oʻzaro aloqada boʻlgan va savollarga javob beradigan chatbotlardan foydalanadilar. Sun'iy intellekt tizimlari telekommunikasiya xizmatlarini koʻrsatishda, avtomobilsozlik va moliya sektorida faol qoʻllaniladi. Ushbu texnologiyalar chakana savdo tarmoqlarida, FMCG (fast moving consumer goods) ishlab chiqarishda, media-biznesda va boshqalarda ham joriy etilmoqda [9, 10].

Yuqoridagilarga asolangan holda bugungi kunda biznes faoliyatni rivodlantirish, mijozlar bilan oʻzaro muloqot qilish, har bir jarayonni tezkorlik bilan tahlil qilish va qarorlar qabul qilish jarayonlarini tezlashtirishda sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanishni taqozo etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Xizmat koʻrsatish turli sohalarida sun'iy intellekt dasturlari va xizmatlarini tatbiq etish natijalarini oʻrganish boʻlib, bu sun'iy intellekt tizimlarini yanada rivojlantirishning asosiy yoʻnalishlarini aniqlash imkonini berdi. Sun'iy intellekt va axborot texnologiyalarining hayotda keng qoʻllanilishi bilan bogʻliq asosiy muammolar, xavf va tahdidlar jamiyat, shaxs va davlat miqyosida ularni joriy etish ahamiyati yoritildi. Sun'iy intellekt xizmatlarini joriy etishning asosiy maqsadi texnologik va biznes jarayonlarida odamni toʻliq almashtirish emas, balki inson mehnati samaradorligini va umuman biznes samaradorligini oshirishdir.

**Tahlil va natijalar.** Sun'iy intellekt tizimlarining jadal rivojlanishi uni chuqur oʻrganish neyron tarmoqlari asosida oʻzini yaxshilash imkonini beradi. 2015 yildan 2018 yilgacha boʻlgan davrda 3465 milliard dollarga, AQShda esa 1393 milliard dollarga etgan sun'iy intellekt startaplarining oʻsishi buni tasdiqlaydi. 2017 yilda bunday sun'iy intellekt kompaniyalarining eng koʻp soni AQShda roʻyxatga olingan, oʻsha paytda 2905 birlik bor edi. DataProt axborot portali ma'lumotlariga koʻra, 2027 yilga borib sun'iy intellektning global bozori 267 milliard dollarga etadi. Aksariyat sun'iy intellekt kompaniyalari mashinani oʻrganish dasturlarini ishlab chiqishga sarmoya kiritmoqda, ya'ni 2020 yilda sun'iy intellektga asoslangan ishlanmalarga yoʻnaltirilgan investitsiyalar hajmi 67,9 milliard AQSh dollarini tashkil etdi [10]. 2020 yilda sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga xususiy sarmoyalarning ulushi 9,3 foizga oʻsdi va 40 milliard dollarni tashkil etdi [7]. Shuningdek, inson nutqini taniy oladigan dasturlarga

katta moliyaviy resurslar sarflanadi. Ushbu segment, tahlilchilarning fikriga koʻra, 2020 yilda 12,5 milliard AQSh dollaridan ortiqni tashkil etdi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari chakana savdo, qurilish, axborot texnologiyalari, ta'lim va boshqalar kabi turli xizmat koʻrsatish sohalarida keng qoʻllaniladi. Ushbu biznes sohalarining har biri iste'molchilarning xatti-harakatlarini boshqarish, bozorning kelajakdagi tendensiyalarini oʻrganish va turli muntazam jarayonlarni avtomatlashtirish uchun texnologiyalardan foydalanadi. Quyida sun'iy intellekt imkoniyatlarini qoʻllash xizmat koʻrsatish sohalarini koʻrib chiqamiz:

1. Turizm. Turli sayyohlar ta'bi, byudjeti va qiziqishlariga asoslangan holda turizm xizmatlarini taklif qiladi: Qiziqishlar va oldingi sayohatlarga asoslangan mehmonxonalar, restoranlar, muzeylarni tavsiya qilishi. Netflix uslubidagi "Siz uchun tavsiyalar" modeli turizmda ham joriy etilmoqda. Chatbot yoki AI-assistent orqali shaxsiy marshrut tuzadi.

2. Transport. Inson aralashuvisiz toʻliq avtonom haydash qobiliyatiga ega sun'iy intellekt algoritmlaridan foydalangan holda oʻzi boshqariladigan avtomobillar transport tizimini sezilarli darajada oʻzgartirishi mumkin. Sun'iy intellektdan foydalanadigan mashinalar transport va muqobil marshrutlarni tahlil qilib, sayohat vaqtini qisqartiradi [6].

3. Sogʻliqni saqlash. Avtonom jarrohlik robotlari, tibbiy xodimlar uchun virtual yordamchilar va avtomatik tasvir diagnostikasi soʻnggi ishlanmalar boʻlib, ular tufayli sun'iy intellekt sogʻliqni saqlash sohasining texnologik taraqqiyotida, shuningdek, teletibbiyot xizmatlarini rivojlantirishda hal qiluvchi rol oʻynay boshlaydi [5].

4. Koʻngilochar soha. Neyron tarmoqlarga asoslangan mashinani oʻrganish foydalanuvchilarning xatti-harakatlari ssenariylarini bashorat qilish va filmlar, musiqalar, telekoʻrsatuvlar hamda iste'molchini qiziqtirgan boshqa kontentni tanlash boʻyicha tavsiyalar berish imkonini beradi. Sun'iy intellekt foydalanuvchining xohishiga qarab, reklamaning shaxsiylashtirilgan tanlovini amalga oshiradi, bu maqsadli reklama nuqtai nazaridan marketing samaradorligini oshirishga va sotishni oshirishga yordam beradi.

5. Sport. Sun'iy intellekt algoritmlari bilan ta'minlangan bashoratli tahlil va avtomatlashtirish biznes qarorlarini qabul qilish, chiptalarni sotish va sportchilarning natijalarini bashorat qilish uchun ishlatiladi. Ta'kidlash kerakki, biznesda qoʻllaniladigan sun'iy intellekt barcha sohalarda ish faoliyatini yaxshilashga yordam beradi.

Masalan, sun'iy intellekt ma'lum tor yoʻnaltirilgan vazifalarni hal qiladigan jarayonlarga quyidagilar kiradi:

1. Narx belgilash. Sun'iy intellekt statistik ma'lumotlarni oʻrganadi va ma'lum bir turdagi mahsulot uchun narxlarni eng maqbul taqsimlashni tanlash uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlagan holda bashorat qilish funksiyalarini bajaradi. Bu kompaniyaning daromadlari hajmini bir necha bor oshirish imkonini beradi.

2. Xavfsizlik. Oʻz-oʻzini oʻrganadigan neyron tarmoqlar mijozlarning xatti-harakatlarini tahlil qiladi va shubhali tranzaksiyalarni hisoblab chiqadi, shu bilan kiberfiribgarlar va kiberjinoyatchilar harakatlarining salbiy oqibatlarini sezilarli darajada kamaytiradi, bu esa moliyaviy yoʻqotishlarni sezilarli darajada kamaytirishga, tizim xavfsizligini oshirishga va foydalanuvchi ishonchini oshirishga olib keladi [5].

3. Marketing sohasi. Oldingi sotuvlarni oʻrganish va bozorni chuqur oʻrganishga asoslangan sun'iy intellekt tizimlari voqealar rivojlanishi uchun ssenariylarni bashorat qiladi. Algoritmlar mijozlarning aloqa ma'lumotlarini, tranzaksiyalar miqdorini va ular sotib olgan

tovarlar yoki xizmatlarni oʻrganadi [1]. Bundan tashqari, sun'iy intellekt samarali va muvaffaqiyatsiz qarorlar va harakatlarni solishtirish uchun raqobatchilarning xatti-harakatlarini tahlil qiladi. Bu kompaniyaga yuqori ehtimollik bilan moliyaviy muvaffaqiyat bilan yakunlanadigan malakali marketing strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini beradi.

4. Ma'lumotlarni qayta ishlash tezligi. Big Data (katta ma'lumotlar) sun'iy intellekt ishi uchun asosiy vositadir. Sun'iy intellekt sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni tez va samarali tahlil qilish, javob yoʻllarini ishlab chiqish va strategik rejalashtirishni yaratish imkonini beradi. Misol tariqasida ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirishda sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, an'anaviy dasturiy ta'minot algoritmlari oldindan tayyorgarliksiz tez oʻzgaruvchan sharoit va ma'lumotlarga mustaqil ravishda moslasha olmaydi. Sun'iy intellekt algoritmlari bunday imkoniyatni taqdim etadi va birjadagi ish unumdorligini oshiradi [3].

5. Avtomatlashtirish jarayonlari. Xodimlar ishida mumkin boʻlgan xatolarga olib keladigan koʻplab omillar mavjud. Ma'lumotlar, funksiyalar va texnologiyalardan foydalangan holda, insonga xos boʻlgan his-tuygʻularga ega boʻlmagan sun'iy intellekt xatosiz va aniq ishlashga imkon beradi [6]. Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, sun'iy intellektga inson xabarlarida kinoya va ikki tomonlama ma'noni aniqlash imkonini beruvchi bir qator tadqiqotlar allaqachon olib borilmoqda. Xususan, Markaziy Florida universitetining amerikalik olimlari neyron tarmoqlarni oʻqitish va oʻrganish asosida sun'iy emotsional intellektni yaratdilar. Bu inson his-tuygʻularining namoyon boʻlishini taniy oladigan va izohlay oladigan istiqbolli sun'iy intellekt quyi tizimidir. Buning yordamida inson va sun'iy intellekt oʻrtasidagi yanada tabiiy va qulay oʻzaro ta'sirga erishiladi [5].

6. Virtual yordamchilar. Chatbotlar, Siri va Ok Google bular yagona misol emas [4]. Masalan, Tinkoff internet-banking ilovasida qoʻllanilgan Oleg chatboti bank mijozlari bilan raqamli qurilmalar orqali muloqot qilish uchun nutqni tanishdan foydalanadi va standart bank operatsiyalarini, masalan, pul oʻtkazmalarini amalga oshiradi. Xuddi shu funksiyalarni Sber ekotizimining dunyodagi birinchi Salyut virtual yordamchilari oilasi bajaradi [8].

***Xizmat koʻrsatish sohasida sun'iy intellektni rivojlantirishning istiqbolli yoʻnalishlari***

Sun'iy intellektni qoʻllashning istiqbolli yoʻnalishlari — bu inson harakatlari kuzatiladigan va takrorlanadigan jarayonlar. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kunda bunday texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish insonni mutlaqo hamma narsada almashtiradigan darajada rivojlanmagan. Yirik texnologiya kompaniyalari kompyuterni koʻrish, harakatni boshqarish modullarini yaratish, nutqni tushunish, tashkil qilish va kompyuterni oʻrganishdan foydalangan holda ma'lumotlarga kirishni ta'minlash bilan bogʻliq ajoyib natijalarga erishdi [7]. Sun'iy intellekt tizimlarining eng mashhur ilovalari orasida yuzni aniqlash tizimlari, tabiiy tilni qayta ishlash va nutq sintezi, shuningdek, natijalarni bashorat qilish uchun avtomatlashtirilgan analitik tizimlar mavjud. Shunga qaramay, zamonaviy kompaniyalarda inson koʻzlari yoki nutq uchun mas'ul boʻlgan individual miya sohalari ishining aniqligini takrorlay oladigan yetarlicha ishonchli intellektual texnologiyalar mavjud emas [10].

Sun'iy intellekt sayyoramizning ekologik muammolarini hal qilish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Ushbu sohadagi asosiy xavflar texnologiya xavfsizligi va nazorati bilan bogʻliq. Shuningdek, sun'iy intellektdan foydalanishning axloqiy masalalari va ijtimoiy-iqtisodiy

oqibatlarini hisobga olish kerak. Shunga qaramay, yangi texnologiyalar odamlarga oʻsimliklar va hayvonlarning holatini nazorat qilishda yordam beradi va iqlim sharoitiga taʼsir qiladi.

***Raqamli kompaniyalarda sunʼiy intellektdan foydalanish istiqbollari***

Qayd etish joizki, Facebook neyron tarmoqlarda axborotni saqlashning Expire-Span deb nomlangan yangi usulini ishlab chiqdi. Usul alohida maʼlumotlar boʻlaklariga ularning dolzarbligi va ahamiyatiga qarab amal qilish muddatini belgilash prinsipiga asoslanadi.

Sunʼiy intellekt tizimlari turli maʼlumotlarning ahamiyatlilik darajasi va ozchiligini hali ajrata olmaganligi sababli, yangi modelni joriy etish neyron tarmoqlarga maʼlumotlarni tashkil qilish va saqlashda tezkorlikni oshirishga imkon beradi hamda shu bilan algoritmlarning hisoblash resurslarini sezilarli darajada tejaydi [6].

Koʻp vazifalarni bajarishga qodir kuchli sunʼiy intellekt insonga oʻxshash kognitiv qobiliyatlarga ega boʻlishdir. Bir vaqtning oʻzida bir nechta kontekstlarda muammolarni hal qilish uchun uning funksionalligi deyarli cheksizdir: masalan, shaxmat oʻynash, sheʼr yozish, matematik muammolarni hal qilish, biznes tahlili va alohida shaxs sifatida oʻz intellektidan xabardorlik. Mutaxassislarning fikricha, kuchli sunʼiy intellekt 2040-2075 yillar oraligʻida paydo boʻladi.

Shuni taʼkidlash kerakki, sunʼiy intellekt va Big Data rivojlanishi bir-biri bilan chambarchas bogʻliq. Mashinani oʻrganish katta hajmdagi maʼlumotlarni talab qiladi [2,6]. Neyron tarmoqlarni oʻrganish jarayoni uchun dastlabki maʼlumotlarni toʻgʻri tanlash qobiliyati ixtisoslashgan mutaxassislarning oʻziga xos vakolatlaridan biridir, ammo bu yagona emas. Sunʼiy intellektni oʻrganish jarayoni ham kuzatilishi va sozlanishi kerak. Misol uchun, agar neyron tarmoqlarning ishlashi natijasida notoʻgʻri yoki shubhali natijalar olingan boʻlsa, dastlabki maʼlumotlar toʻplamlarini oʻzgartirish va tizimni “qayta tayyorlash” talab qilinadi. Oʻquv jarayonini har doim ham toʻliq avtomatlashtirish mumkin emas, aksariyat vazifalar uchun “mashinani oʻrganish” bilan bir qatorda “mutaxassislarni oʻrganish” ham talab qilinadi, bunda inson sunʼiy intellekt tizimiga berilgan topshiriqning qaysi yechimlari toʻgʻri va qaysi biri ekanligini ekanligini qoʻlda koʻrsatadi.

Koʻrib turganingizdek, nosozliklarni tuzatish kerak, bu tanish dasturlash jarayonidan butunlay boshqacha koʻrinadi. Albatta, yaratilgan natija har qanday boshqa tizim kabi sinchkovlik bilan tekshirilishi kerak.

**Xulosa va takliflar.** XXI asrning innovatsion raqamli texnologiyalarini rivojlantirish jarayoni biznesni boshqarish samaradorligini oshirish uchun avtomatlashtirish, aniqlik va boshqa imkoniyatlar mavjudligi orqali iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantiradi. Raqamli transformatsiya va sunʼiy intellekt algoritmlari turli biznes jarayonlarida qoʻllaniladi, chunki ular muayyan individual resurslardan maqsadli foydalanish orqali baʼzi tizimli qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etishga yordam beradi. Bu iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish va biznes jarayonlarini yanada optimallashtirish uchun zamin yaratadi.

Bugungi kunda sunʼiy intellekt algoritmlarini kichik va oʻrta biznesda qoʻllash, agar sunʼiy intellekt boʻyicha samarali oʻqitish jarayonini qurishni taʼminlaydigan yetarli hajm va sifatli maʼlumotlar mavjud boʻlsa buni amalga oshirish mumkin. Shu maqsadda mashinani oʻrganish uchun oʻz kuchlari va vositalarini taʼminlaydigan bir qator mavjud platformalar mavjud, misol uchun, Amazon (Azure), Yandex, Mail.ru yuqori ixtisoslashgan platformalardir. Sunʼiy intellekt algoritmlari yordamida banklar va doʻkonlardan shaxsiy takliflar, qidiruv

tizimlaridagi ma’lumotlar, individual imtiyozlarni hisobga olgan holda, onlayn shifokor bilan bog‘lanish va hokazolarni olish mumkin.

Britaniya Gartner ma’lumotlariga ko‘ra, 2022 yilda global kompaniyalar sonining 1/3 qismi sun’iy intellekt tizimlariga sarmoya kiritadi. Sun’iy intellektdan foydalanish tufayli 2030 yilga borib jahon yalpi ichki mahsuloti (YaIM) 14 foizga oshib, 15,7 trillion AQSh dollarini tashkil etadi [6]. Shu o‘rinda sanoat ishlab chiqarishining 900 foizga o‘sishi kutilmoqda.

Yuqoridagi tahlillarga asoslanib, mazkur tadqiqotda zamonaviy xizmat ko‘rsatish, texnologiya, servis sun’iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanayotganligi haqidagi asosiy xulosaga kelindi. Mutaxassislar sun’iy intellekt startaplari va mashinani o‘rganishga asoslangan turli mobil ilovalar sonining ko‘payishini bashorat qilmoqdalar, ba’zi ish o‘rinlari mutlaqo yangi ish o‘rinlari bilan almashtiriladi, vazifalarni qayta taqsimlash, ijodiy va murakkab faoliyat insonda qoladi, ya’ni insonlar qo‘l mehnatidan voz kechib aqliy mehnat bilan shug‘ullanishga o‘tadilar.

Kelajakda robot komplekslari va sun’iy intellekt algoritmlari inson uchun raqib emas, balki sherik bo‘lishi kerakligi haqidagi gipotezani shakllantirish imkonini berdi. Shunday qilib, sun’iy intellekt sohasidagi texnologik yutuq hozirda kuzatilayotgan global iqtisodiy tanazzul muammosiga yechim bo‘ladi.

## Adabiyotlar/Литература/References:

1. Galyamov, I. R. (2020). *Sifrovizasiya ekonomiki: tendensii i vizovi dlya biznesa*. M.: Institut innovatsionnogo razvitiya.
2. Yusupov, A. M. (2021). *Sifrovaya transformatsiya v Uzbekistane: podxodi i perspektivi razvitiya*. Tashkent: Uzbektexnologiya.
3. Pereira, P., & Silva, P. (2021). *Artificial Intelligence in Startups: Transforming the Digital Economy*. Journal of Technology and Innovation, 12(3), 45-59.
4. Minsifri Uzbekistana (2020). *Strategiya «Sifrovoy Uzbekistan – 2030»*. Tashkent: Ministerstvo razvitiya informasionnix texnologiy i kommunikasiy Respubliki Uzbekistan.
5. Shkor O.N., Sevzyuk Ch.A. Iskusstvenniy intellekt v Digital-marketinge // Big Data and Advanced Analytics. – 2020. – № 6-3. – c. 38-41.
6. Arxipov L.I. Bolshie dannie i iskusstvenniy intellekt v biznese: razvitie i regulirovanie // Big Data and Advanced Analytics. – 2020. – № 6-3. – c. 122-127.
7. Buxtiyarova T.I. Sifrovaya ekonomika: osobennosti i tendensii razvitiya // Biznes i obshestvo. – 2019. – № 1(21). – c. 22.
8. Kitzmann H., Yatsenko V., Launer M. Artificial intelligence and wisdom // Innovasii v menedjmente. – 2021. – № 1(27). – p. 22-27.
9. Leksin V.N. Iskusstvenniy intellekt v ekonomike i politike nashego vremeni. Statya 2. Iskusstvenniy intellekt kak tovar i usluga // Rossiyskiy ekonomicheskiy jurnal. – 2020. – № 5. – c. 3-33. – doi: 10.33983/0130-9757-2020-5-3-33.
10. Askarov, R. X. (2020). *Razvitie startap-ekosistemi v Uzbekistane: vizovi i vozmojnosti*. Tashkent: Ekonomika i finansi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# ДОННИ ҚАЙТА ИШЛАШ КОРХОНАЛАРИДА МАҲСУЛОТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ХАРАЖАТЛАРИ ҲИСОБИНИ ЮРИТИШ ВА ТАННАРХ КАЛКУЛЯЦИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

**Абдуллаев Алтинбек Янгибаевич**
ТДАУ «Бухгалтерия ҳисоби, таҳлил ва аудит»
кафедраси профессори, и.ф.д.

**Аннотация.** Ушбу тадқиқотда донни қайта ишлаш корхоналарида ун ва омихта ем маҳсулотларини ишлаб чиқариш харажатлари ҳисобини юритиш ва таннарх калкуляциясини бошқариш юзасидан дуч келадиган молиявий қийинчиликлар ўрганилади. Эмпирик тадқиқотнинг миқдорий ёндашуви асосида донни қайта ишлаш корхоналарида алоҳида ун ва омихта ем маҳсулотларини ишлаб чиқариш харажатларининг ҳисобини юритиш ва таннарх калкуляциясини молиявий бошқаришни муваффақиятсизликка олиб келадиган асосий омилларни аниқлаш, ишлаб чиқилган сценарийлар орқали ун ва омихта ем маҳсулотлари бирлиги бўйича ишлаб чиқариш харажатларининг ҳисобини юритиш ва таннарх калкуляциясини молиявий бошқарув қоидаларининг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш, сунъий интеллект технологиялари асосида ун ва омихта ем маҳсулотлари бирлиги бўйича ишлаб чиқариш харажатларининг ҳисобини юритиш ва таннарх калкуляциясини бошқаришнинг молиявий стратегияси бўйича сценарийли прогноз кўрсаткичлари илмий асосланган оптимал қарорларни қабул қилишга қаратилади

**Калит сўзлар:** узоқ муддатли прогноз кўрсаткичлари, ишлаб чиқариш харажатларини ҳисобга олиш, таннарх калкуляциясини молиявий бошқариш, ишлаб чиқариш харажатларининг самарадорлигини баҳолаш, ахборотларни тўплаш, ҳужжатлаштириш, қайта ишлаш, мақбул қарорлар қабул қилиш.

# IMPROVING PRODUCTION COST ACCOUNTING AND COST CALCULATION IN GRAIN PROCESSING ENTERPRISES

**Abdullayev Altinbek Yangibayevich**
TSAU, Professor of the «Accounting, analysis and audit»
department, doctor of economic sciences, professor

**Abstact.** This study examines the financial difficulties encountered in managing the production costs of flour and compound feed products and cost calculation in grain processing enterprises. Based on the quantitative approach of empirical research, the main factors leading to the failure of accounting for the production costs of individual flour and compound feed products and financial management of cost calculation at grain processing enterprises are identified, the economic efficiency of the rules for accounting for the production costs of flour and compound feed products and financial management of cost calculation are assessed through the developed scenarios, and the scenario forecast indicators for the financial strategy for accounting for the production costs of flour and compound feed products and financial management of cost calculation are based on artificial intelligence technologies, which are aimed at making scientifically based optimal decisions.

**Key words:** long-term forecast indicators, accounting for production costs, financial management of cost calculation, assessment of the effectiveness of production costs, information collection, documentation, processing, making appropriate decisions.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N04

**Кириш.** Донни қайта ишлаш корхоналарининг маҳсулотларини ишлаб чиқаришда харажатларнинг ҳисобини юритиш ва маҳсулот таннархининг калкуляциясини такомиллаштириш масаласи илмий-тадқиқот ишларининг долзарб муаммоларидан бири ҳисобланади. Маҳсулот ишлаб чиқаришда харажатларнинг ҳисобини юритиш ва маҳсулот таннархининг калкуляциясини самарали ташкил этиш технологик жараёнларнинг исталган босқичида ресурслардан фойдаланиш устидан мукаммал назорат қилиш ва бошқарув мақсадларига эришиш учун зарарий бухгалтерия ҳисобининг ахборотларидан самарали фойдаланишни тақозо этади.

Сўнгги йилларда дон маҳсулотларини қайта ишлаш корхоналари фаолиятининг технологик ва ташкилий жиҳатларини такомиллаштириш тадбирлари ишлаб чиқариш харажатларининг таркибига ва маҳсулот таннархига сезиларли даражада таъсир кўрсатмоқда, аммо донни қайта ишлаб чиқариш соҳасида маҳсулот ишлаб чиқаришнинг иқтисодий самарадорлигини таъминлаш даражаси белгиланган талабларга тўлиқ жавоб бермайди.

Ушбу муаммонинг ечимини топишда комплекс ташкилий ва бошқарув чора-тадбирлар тизими, шунингдек, ишлаб чиқариш харажатлари ва маҳсулот таннархи тўғрисидаги ахборотларни тўплаш, ҳужжатлаштириш, маълумотларни қайта ишлаш ва умумлаштиришда хилма-хил усулларни харажатларнинг ҳисобини юритиш ва маҳсулот калькуляциясини такомиллаштириш муҳим роль ўйнайди.

Амалиёт шуни кўрсатадики, сўнгги йилларда дон маҳсулотларини қайта ишлаш корхоналари фаолиятининг сифат кўрсаткичларини яхшилаш, харажатлар сарфланиши ва кўрилган зарарларнинг юқори даражасини аниқлаш, ишлаб чиқаришнинг ички захираларини излаб топишга етарлича эътибор қаратилганича йўқ. Бу ҳолат ишлаб чиқаришда ортиқча харажатларнинг сарфланишига, тайёр маҳсулотларнинг йўқотилишига сабаб бўлмоқда. Ишлаб чиқариш жараёнининг объектив тавсифи харажатларнинг илмий асосланган бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш ва юритиш, маҳсулот таннархининг калкульяцияси учун имконият яратади. Бу эса ишлаб чиқарувчиларга корхонада ишлаб чиқариш фаолиятининг натижаларини оптималлаштиришни тақозо этади [2; 97 - 113].

Бозор иқтисодиёти шароитида маҳсулот ишлаб чиқариш харажатлари ва таннарх тўғрисидаги ахборотларнинг етарлилиги ва ишончлилиги бизнесга раҳбарлик қилиш ва бошқаришда рақобатдош устунликларга эришиш усулларидан биридир. Амалиётда ишлаб чиқариш фаолиятига мувофиқликни оширишга қаратилган харажатларнинг ҳисобини юритиш ва маҳсулот таннархининг калкуляцияси усулларини ишлаб чиқиш, ишлаб чиқариш харажатларини ҳисобга олишнинг жорий усули тизимида турли даражадаги бошқарув қарорларини қабул қилишда харажатларга таъсир этувчи усулларнинг хилма-хиллигини аниқлайдиган қоидалар билан таъминлаш муҳим аҳамият касб этади.

Бугунги кунга қадар донни қайта ишлаш корхоналарида маҳсулот ишлаб чиқариш харажатларининг ҳисобини юритиш ва таннарх калкуляцияси усулларининг мақсади ва уларни соҳаларда қўллаш тўғрисидаги ахборотлар мавжуд илмий ишларда тўлиқ ёритиб берилмаган, ҳатто умумлаштирилмаган. Ҳисоб юритишнинг услубий

таъминотлари ишлаб чиқилмаганлиги донни қайта ишлаш корхоналарида ҳисоб юритиш назарияси ва амалиётида мавжуд усуллардан фойдаланиш ва уларнинг тармоқ хусусиятларига мос келадиган техникалар билан бойитиб боришига ёрдам беради. Бироқ харажатлар ҳисобини юритишни такомиллаштириш билан боғлиқ масалалар, шунингдек, харажатларнинг ҳисобини юритиш ва маҳсулот таннархи калкуляциясини бошқаришнинг самарадорлигини муайян усуллар ва ёндашувлардан фойдаланмасдан ҳал қилиб бўлмайди.

Халқаро амалиётга кўра, маҳсулот ишлаб чиқариш харажатларининг ҳисобини юритиш ва таннарх калкуляциясининг ички ва ташқи фойдаланувчиларни маҳсулот таннархини камайтириш ва харажатларнинг тақсимланишини самарали бошқаришга доир фойдали ахборот билан таъминлашга кўмаклашади. Тўпланган ахборотлар корхонанинг иқтисодий барқарорлигини таъминлаш ва самарали бошқарув қарорларини қабул қилиш учун кўмак беради.

Демак, маҳсулот ишлаб чиқариш харажатларини ҳисобга олиш ва таннарх калкуляцияси методологиясини такомиллаштиришдан асосий мақсад - ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш, [аражатларни камайтириш мақсадида ишлаб чиқаришнинг ички захираларни излаб топиш, корхонанинг ички салоҳиятдан оптимал фойдаланиш ва иқтисодий самарадорликка эришишдан иборат.

Аммо бугунги кунда корхоналарда маҳсулот ишлаб чиқариш харажатларининг ҳисобини юритиш ва таннарх калкуляциясига сезиларли эътибор бермаслик, номукаммал режалаштириш, бошқарувни ташкил этиш қоидаларининг бузилиши муайян камчиликларнинг юзага келишига сабаб бўлмоқда. Хусусан, донни қайта ишлаш корхоналарида ун маҳсулотлари ва омихта ем ишлаб чиқариш ҳажми сезиларли даражада камайди, корхоналар ўртасида рақобатчилик кучайди. Бу ҳолат маҳсулот нархининг номутаносиблиги ва монополлашувига, олинган маҳсулотларга ўз вақтида ҳақ тўлаб бермаслик, ресурслар нархининг ошиб кетиши ва назорат самарадорлигининг сусайишига сабаб бўлмоқда. Шу нуқтаи-назардан қараганда, донни қайта ишлаш корхоналарида маҳсулот ишлаб чиқариш харажатларининг ҳисобини юритиш ва таннарх калкуляциясини самарали бошқариш, харажатларни камайтиришнинг ички захираларни излаб топиш, харажатларни оптимал тақсимлаш орқали корхоналарнинг банкротлик жараёнларидан қочиш имкониятни яратиш, сифатли маҳсулот ишлаб чиқариш суръатининг мақбул вариантларини ишлаб чиқиш мақола мавзусининг долзарблигини белгилайди.

Адабиётлар таҳлили. Қайта ишлаш коналарида маҳсулот ишлаб чиқариш харажатларининг ҳисобини юритиш ва таннарх калкуляциясини такомиллаштириш масалалари устида C. Drury, Киселева О.В., Макарова Е.Н., Кочетов В.Л., Изыкова А.В., Бондин И.А. каби иқтсодчи олимлар илмий тадқиқот олиб борган. Хусусан, Бондин И.А.нинг тадқиқотида ишлаб чиқариш харажатлари назариясини тизимлаштириш асосида қишлоқ хўжалиги корхоналарининг ишлаб чиқариш харажатларини бошқариш концепцияси яратилган; ишлаб чиқариш харажатларини бошқариш механизмини мақсадлилик, ахборотлаштириш, ресурсларнинг ўзаро алмашинуви, қишлоқ хўжалигида ишлаб чиқаришни ташкил этиш ва техник жиҳозлашда инновациялар услуби, усуллари ва воситалари ёрдамида харажатларни камайтириш ва самарадорликни ошириш таклиф этилган; таннарх элементлари билан ишлаб чиқариш

харажатларига таъсир этувчи омиллар аниқланган; бошқарувнинг турли даражаларида ишлаб чиқариш харажатларининг иқтисодий - статистик моделлари тузилган; корхоналар фаолиятини тавсифловчи кўрсаткичларнинг маҳсулот бирлигининг таннархига таъсири баҳоланган; ишлаб чиқариш харажатларини камайтиришга қаратилган бошқарув қарорларини қабул қилишга имкон берадиган молиявий режалар тузилган; корхоналарнинг кредитга лаёқатлигини комплекс баҳолашнинг холислигини таъминлаш учун амалиётда қўлланиладиган кўрсаткичлар (мутлақ ликвидлик коэффициенти, дебитор ва кредитор қарздорлик) рўйхатини кенгайтиришни назарда тутадиган услубий ёндашув ишлаб чиқилган; маҳсулот ишлаб чиқарувчиларининг кредитга лаёқатлилигини комплекс баҳолаш орқали бюджет маблағларини табақали тақсимлаш механизми таклиф этилган [3; 24].

Киселева О.В. ўзининг тадқиқотида бухгалтерия ҳисобида ягона ёндашувнинг мавжуд эмаслиги сабабли маҳсулот ишлаб чиқариш харажатларини ҳисобга олиш ва таннарх калкуляциясини ҳисоблаш усули шакллантирилди; ишлаб чиқариш харажатларини ҳисобга олиш усулининг таснифлари ва таннарх калкуляцияси усули таклиф этилади, аниқланган хусусиятларнинг тўлиқлиги бошқа ёндашувлардан фарқ қилади; янгича ёндашув харажатларнинг ҳисобини юритиш корхона фаолиятининг хусусиятлари билан белгиланади, ишлаб чиқариш харажатларининг ҳисобини юритишнинг модели ишлаб чиқилган бўлиб, унда ишлаб чиқариш харажатларининг ҳисобини юритиш ва маҳсулот таннархининг калькуляцияси усули ва уларни тартибга соладиган қоидалар шакллантирилган [6; 24].

Макарова Е.Н. ўзининг тадқиқотида бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботининг халқаро стандартлари тавсияларини ҳамда қайта ишлаш корхоналарида ишлаб чиқариш харажатларини ҳисобга олишнинг ўзига хос хусусиятларини инобатга олган ҳолда маҳсулот бирлиги таннархининг моддалари бўйича номенклатуралар аниқланган; корхоналарда ҳақиқий харажатларнинг меъёрий харажатлардан четланишини оператив акс эттириш схемаси ва уларни ҳисобга олиш бўйича услубий тавсиялар ишлаб чиқилган; фаолиятга мувофиқлаштирилган ишлаб чиқариш харажатларини ўрта муддатли прогноз методологияси тавсия этилган; жорий ҳисоб-китоб тизимини янги иқтисодий шароитларга мослаштирган ҳолда қайта ишлаш корхоналарида ишлаб чиқариш харажатларини бошқариш тизимини ҳисобга олиш ва таҳлилий таъминлаш моделини ишлаб чиқилган; қайта ишлаш корхоналарининг ишлаб чиқариш харажатларини оптималлаштириш имконини берувчи корхоналарнинг тармоқ хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда ишлаб чиқариш харажатларини таҳлил қилиш усули таклиф этилган; ишлаб чиқариш харажатларини таҳлил қилишда маржинал ёндашув билан мослашувчан бюджетлаштиришдан фойдаланиш тавсия этилган; ишлаб чиқариш харажатларини оптималлаштиришда бухгалтерия ҳисоби билан таҳлилий маълумотларнинг самарадорлиги шакллантирилган [7; 24]..

Кочетов В.Л.нинг тадқиқотида эса ун саноати корхоналарида ҳар бир марказ бўйича харажатлар билан самарадорлик кўрсаткичлари тўғрисидаги маълумотларни умумлаштириш ҳамда баҳолаш имкониятини берадиган фойда марказлари томонидан таннархни бошқариш таклифи берилган; ишлаб чиқариш жараёнининг ҳар бир иштирокчиси учун таннархни назорат қилиш жараёнини ун ишлаб чиқариш комплексининг ташкилий тузилмасига мувофиқлаштириш, қарорлар қабул қилишда

мослашувчанликни ошириш, рақобат муҳитида корхона фаолиятининг самарадорлигини оширишга ёрдам берадиган тавсиялар ишлаб чиқилган; бирламчи бухгалтерия ҳужжатлари асосида харажат оқимлари бўйича тақсимлаш таклиф этилган; таркибий таҳлил усулларидан фойдаланган ҳолда харажатларнинг асосий манбалари таннарх моддалари бўйича умумлаштирилган ва тизимлаштирилган [5; 193-198].

Изыкова А.В. ўзининг тадқиқотида ишлаб чиқариш харажатларининг таркибий элементлари аниқланган; ишлаб чиқариш харажатлари ижтимоий такрор ишлаб чиқаришнинг умумий тоифаси сифатида ўрганилган; ишлаб чиқариш харажатлари билан таннархни шакллантиришнинг назарий ва услубий жиҳатлари очиб берилган; меҳнат кўрсаткичлари орқали харажатлар билан таннарх ўртасидаги фарқлар аниқланган ва баҳоланган; маҳсулот таннархи билан ишлаб чиқариш харажатларига сезиларли таъсир кўрсатувчи омиллар аниқланган ва баҳоланган; корхоналарда маҳсулот ишлаб чиқариш таннархини пасайтириш захиралари аниқланган ва корхонада ишлаб чиқариш тузилмасини оптималлаш бўйича иқтисодий - математик моделлар тузилган [4; 24].

Аммо юқоридаги илмий ишларда эмпирик тадқиқотнинг миқдорий ёндашуви асосида донни қайта ишлаш корхоналарида алоҳида маҳсулотларнинг ишлаб чиқариш харажатларини тақсимлаш ва маҳсулот таннархининг калкуляциясида муваффақиятсизликка олиб келадиган омилларни аниқлаш, ишлаб чиқилган сценарийлар орқали дон маҳсулотларининг алоҳида маҳсулотларнинг ишлаб чиқариш харажатларини оптимал тақсимлаш ва маҳсулот таннархининг калкуляцияси самарадорлигини баҳолаш, донни қайта ишлаш корхоналарида маҳсулот ишлаб чиқариш харажатларининг ҳисобини юритиш ва таннарх калкуляциясини самарали баҳолаш моделларини яратиш, сунъий интеллект технологиялари асосида ун ва омихта ем маҳсулотларининг харажатларини тақсимлаш ва маҳсулот таннархининг калкуляциясини бошқаришнинг молиявий стратегияси бўйича сценарийли прогноз кўрсаткичларни илмий асослаш билан боғлиқ тадқиқотлар олиб борилмаган.

**Методология.** Айтиш жоизки, донни қайта ишлаш корхоналарида маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмининг интенсив ўсиши ишлаб чиқариш харажатларини ҳисобга олиш ва маҳсулот таннархига таъсир этувчи омилларнинг таъсири билан таъминланади. Бу ҳолат айнан, маҳсулот ишлаб чиқариш харажатларини ҳисобга олиш ва таннарх калькуляциясини илмий асослаб беришни тақозо этади. Мақсадимиз – донни қайта ишлаш корхоналари фаолияти самарадорлигини ошириш, маҳсулот ишлаб чиқариш харажатларининг ҳисобини юритиш ва таннарх калкуляциясининг методологиясини такомиллаштириш, харажатларни камайтиришнинг ички захираларни излаб топиш, харажатларни оптимал тақсимлаш орқали корхоналарнинг банкротлик жараёнларидан қочиш имкониятни яратиш, сифатли маҳсулот ишлаб чиқариш суръатининг мақбул вариантларини ишлаб чиқиш ҳамда улар билан боғлиқ бўлган элементларни умумлаштириш ва яхлит тизимлаштиришдан иборат.

Бугунги кунда донни қайта ишлаш корхоналарида маҳсулот ишлаб чиқариш харажатларининг ҳисобини юритиш ва таннарх калкуляциясини самарали баҳолаш моделлари мавжуд эмас. Шу сабабли маҳсулот ишлаб чиқариш харажатларининг ҳисобини юритиш ва таннарх калкуляциясининг таркибига математик тавсиф бериш учун уларни ифодаловчи миқдор ва сифат кўрсаткичларига жиддий эътибор қаратмоқ

зарур. Донни қайта ишлаш корхоналарида маҳсулот ишлаб чиқариш харажатларининг ҳисобини юритиш ва таннарх калкуляцияси жараёнларига математик тавсиф бериш шартларига мувофиқ ун маҳсулотлари ва омихта ем ишлаб чиқариш харажатларининг ҳисобини юритиш ва таннарх калкуляцияси жараёнларини ҳисоблаш моделлари ва алгоритмларини ишлаб чиқдик.

**I.** Донни қайта ишлаш корхоналарида ун маҳсулотлари ишлаб чиқариш харажатлари ҳисобини юритиш ва маҳсулот таннархининг калкуляциясини ҳисоблаш алгоритмлари қуйидаги тартибда ишлаб чиқилди:

1. Доннинг дастлабки улгуржи қийматининг бирлиги (Duqe ) ун маҳсулоти ишлаб чиқариш учун сарфланадиган дон миқдори (Ddm) билан дон улгуржи баҳоси (bdu) кўпайтмасининг ишлаб чиқарилган ун маҳсулотлари (Mum) нисбатига тенг

Duqe = (Ddm * bdu) : Mum

2. Доннинг жами улгуржи қийматининг бирлиги (Dtqe) (транспорт харажатлари қўшилган ҳолда) ун маҳсулотларини ишлаб чиқариш учун сарфланадиган доннинг умумий улгуржи қиймати (Duq), темир йўл харажатлари (Xty), автомобил харажатлари (Xav), ички ташиш харажатлари (Xit) ва жамғарма фоизи (Xjf) йиғиндисининг ишлаб чиқарилган ун маҳсулотлари (Mum) нисбатига тенг

Dtqe = Duqe + (Xty + Xav + Xit + Xjf) : Mum

3. Қўшимча маҳсулотлар қийматининг бирлиги (Mqqe) кепак маҳсулоти (Mkp) билан буғдой чиқиндиси (Mbc) қийматининг йиғиндисининг ишлаб чиқарилган ун маҳсулотлари (Mum) нисбатига тенг

Mqqe = (Mkp + Mbc) : Mum

4. Қўшимча маҳсулотлар қиймати ажратилгандан кейинги доннинг умумий қийматининг бирлиги (Dyqe) транспорт харажатлари қўшилган дон қиймати бирлиги (Dtqe) билан қўшимча маҳсулотлар қиймати (Mqqe) айирмасига тенг

Dyqe= Dtqe - Mqqe

5. Мол етказиб берувчилар ва пудратчилар тўланадиган сарф-харажатлар бирлиги (Xmpe) электроэнергия сарфи (See), сув ресурслари сарфи (Ssr), газ сарфи (Sgz) ва бошқа ресурслар сарфи (Sbr) йиғиндисининг ишлаб чиқарилган ун маҳсулотлари (Mum) нисбатига тенг

Xmpe = (See + Ssr + Ssr + Ssr) : Mum

6. Маҳсулотни ишлаб чиқариш учун ишлатиладиган ҳар хил турдаги бошқа материаллар сарфи бирлиги (Sbme) ип (Sip), этикетка (Sek), қоп (Sqp) ва бошқа материаллар сарфи (Stm) йиғиндисининг ишлаб чиқарилган ун маҳсулотлари (Mum) нисбатига тенг

Sbme = (Sip + Sek + Sqp + Stm) : Mum

7. Бевосита ва билвосита харажатлар бирлиги (Xbbe) ёқилғи (Syq), эҳтиёт қисмлар (Seq), қурилиш материаллар (Sqm), ҳар хил турдаги бошқа материаллар (Sbm), мол етказиб берувчилар ва пудратчилар тўланадиган сарф-харажатлар (Smb), иш ҳақи (Sis), ягона ижтимоий тўлов (Sit), асосий воситалар амортизацияси (Sam) ва бошқа харажатлар (Sbs) йиғиндисининг ишлаб чиқарилган ун маҳсулотлари (Mum) нисбатига тенг

Xbbe = (Syq + Seq + Sqm + Sbm + Smb + Sis + Sit + Sam + Sbs) : Mum

8. Маҳсулот ишлаб чиқариш таннархи бирлиги (Tise) дон қиймати бирлиги

(Dyqe), ташиш, сақлаш ва ишлаб чиқаришда йўқотилган дон қийматининг (Qyb) ишлаб чиқарилган ун маҳсулотларига (Mum) нисбати, бевосита ва билвосита харажатлар бирлиги (Xbbe) йиғиндисига тенг

Tise = Dyqe + Qyb: Mum + Xbbe

9. Бошқа операцион харажатлар бирлиги (Xboe) ер солиғи (SQer), сув солиғи (SQsv), мулк солиғи (SQms), солиқнинг бошқа турлари (SQbt) ва бошқа турдаги харажатлар (Xbt) йиғиндисининг ишлаб чиқарилган ун маҳсулотлари (Mum) нисбатига тенг

Xboe = (SQer + SQms + SQbt + Xbt) : Mum

10. Давр харажатлари бирлиги (Xdre) маъмурий – бошқарув харажатлари (Xmb), сотиш харажатлари (Xrl) ва бошқа операцион харажатлар (Xbo) йиғиндисининг ишлаб чиқарилган ун маҳсулотлари (Mum) нисбатига тенг

Xdre = (Xmb + Xrl + Xbo) : Mum

11. Умумий ишлаб чиқариш харажатлари бирлиги (Xume) ишлаб чиқариш таннархи бирлиги (Tise), давр харажатлари бирлиги (Xdre) ва молиявий фаолият бўйича харажатларнинг (Xmf) ишлаб чиқарилган ун маҳсулотларига (Mum) нисбати йиғиндисига тенг

Xume = Tise + Xdre + (Xmf : Mum)

12. Умумхўжалик фаолияти фойдасининг бирлиги (Fuxe) маҳсулотнинг улгуржи қиймати бирлиги (Qsse) (қўшилган қиймат солиғисиз) билан умумий харажатлар (Xume) айирмаси бирлигига тенг

Fuxe = Qsse - Xume

13. Фойда солиғи (Sfse) солиқ тўлангунга қадар фойда (Fts) билан фойда солиғи ставкаси (Fss) кўпайтмасининг ишлаб чиқарилган ун маҳсулотлари (Mum) нисбатига тенг

Sfse = (Fts * Fss) : Mum

14. Қўшилган қиймат солиғи (Qqs) сотиладиган маҳсулот билан (Mrq) солиқ ставкаси (Sqs) кўпайтмасига тенг

Qqs = Mrq * Sqs / (Sqs + 100)

15. Маҳсулотнинг улгуржи сотиш қиймати (қўшилган қиймат солиғи билан бирга) бирлиги (Quqe) маҳсулотнинг улгуржи қиймати (Qss) (қўшилган қиймат солиғисиз) билан қўшилган қиймат солиғи (Qqs) айирмасининг ишлаб чиқарилган ун маҳсулотлари (Mum) нисбатига тенг

Quqe = (Qss - Qqs) : Mum

16. Соф фойда бирлиги (Fsfe) умумхўжалик фаолиятининг фойдаси бирлиги (Fuxe) билан солиқ тўлангунга қадар фойда (Fts) айирмасининг ишлаб чиқарилган ун маҳсулотлари (Mum) нисбатига тенг

Fsfe = Fuxe - Fts : Mum

17. Рентабеллик даражаси:

17.1. Ишлаб чиқариш таннархига нисбатан рентабеллик даражаси (Rut) соф фойда бирлигининг (Fsfe) ишлаб чиқариш таннархи бирлигига нисбат кўринишида ифодаланади:

Rut = Fsfe * 100 / Tise

17.2 Умумий харажатларга нисбатан рентабеллик даражаси (Rix) соф фойданинг (Fsfe) умумий харажатларга (Xume) бўлган нисбат кўринишида ифодаланади:

Rix = Fsfe * 100 / Xume

15. Ун маҳсулотлари ишлаб чиқариш харажатларининг ҳисобини юритиш ва таннарх калкуляциясининг шартлари қуйидаги тенгсизликлар кўринишида ифодаланади:

Duqe < Dtqe; Mqqe< Dtqe; Tise > Xbee; Xume > Tise; Fsfe < Fuxe

II. Донни қайта ишлаш корхоналарида омихта ем маҳсулотлари ишлаб чиқариш харажатларининг ҳисобини юритиш ва маҳсулот таннархининг калкуляциясини ҳисоблаш алгоритмлари қуйидаги тартибда ишлаб чиқилди:

1. Хом ашё умумий қийматининг бирлиги (Qxa) кепак (Xkp), тариқ (Xtr), макка дони (Xmd), ун (Xun), арпа (Xar), буғдой чиқиндиси (70 – 85%) (Xch), буғдой чиқиндиси (50 – 70%) (Xsh), оҳак уни (Xou) ва механик йўқотшлар миқдорлари (Xmy) улар ҳар бирининг баҳолари кўпайтмаси йиғиндисининг ишлаб чиқарилган омихта ем маҳсулотлари (Moe) нисбатига тенг
2. Qxae = (Xkp * bkp+ Xtr * btr + Xmd * bmd + Xun* bun + Xar * bar + Xch * bch + + Xsh * bsh + Xou * bou + Xmy) : Moe
3. бу ерда bkp, btr, bmd, bun, bar, bch, bsh, bou, bmy – хом ашёларнинг баҳоси
4. Маҳсулот ишлаб чиқариш таннархининг бирлиги (Tice) хом ашёнинг умумий қийматининг бирлиги (Qxae) билан ёрдамчи материаллар (Sym), электроэнергия сарфи (See), темир йўл харажатлари (Xty), автомобил харажатлари (Xav), ички ташиш харажатлари (Xit), эҳтиёт қисмлар (Seq), иш ҳақи (Sis), ягона ижтимой тўлов (Sit), асосий воситалар амортизацияси (Sam), ускунани сақлаш харажатлари (Xus) ва бошқа харажатлар (Sbs) йиғиндисининг ишлаб чиқарилган омихта ем маҳсулотлари (Moe) нисбатига тенг
5. Tice = Qxae + (Sym+ See+ Xty+ Xav+ Xit+ Seq+ Sis+ Sit+ Sam+ Xus+ Sbs) : Moe
6. Бошқа операцион харажатлар бирлиги (Xboe) ер солиғи (SQer), сув солиғи (SQsv), мулк солиғи (SQms), солиқнинг бошқа турлари (SQbt) ва бошқа турдаги харажатлар (Xbt) йиғиндисининг ишлаб чиқарилган омихта ем маҳсулотлари (Moe) нисбатига тенг
7. Xboe = (SQer + SQms + SQbt + Xbt) : Moe
8. Давр харажатлари бирлиги (Xdre) маъмурий – бошқарув харажатлари (Xmb), сотиш харажатлари (Xrl) ва бошқа операцион харажатлар (Xbo) йиғиндисининг ишлаб чиқарилган омихта ем маҳсулотлари (Moe) нисбатига тенг
9. Xdre = (Xmb + Xrl + Xbo) : Moe
10. Умумий ишлаб чиқариш харажатлари бирлиги (Xume) ишлаб чиқариш таннархи бирлиги (Tise), давр харажатлари бирлиги (Xdre) ва молиявий фаолият бўйича харажатларнинг (Xmf) ишлаб чиқарилган омихта ем маҳсулотларига (Moe) нисбати йиғиндисига тенг
11. Xume = Tise + Xdre + (Xmf : Moe)
12. Умумхўжалик фаолияти фойдасининг бирлиги (Fuxe) маҳсулотнинг улгуржи қиймати бирлиги (Qsse) (қўшилган қиймат солиғисиз) билан умумий харажатлар (Xume) айирмаси бирлигига тенг
13. Fuxe = Qsse – Xoee

14. Фойда солиғи (Sfse) солиқ тўлангунга қадар фойда (Fts) билан фойда солиғи ставкаси (Fss) кўпайтмасининг ишлаб чиқарилган ун маҳсулотлари (Moe) нисбатига тенг

15. Sfse = (Fts * Fss) : Moe

16. Қўшилган қиймат солиғи (Qqs) сотиладиган маҳсулот билан (Mrq) солиқ ставкаси (Sqs) кўпайтмасига тенг

17. Qqs = Mrq * Sqs / (Sqs + 100)

18. Маҳсулотнинг улгуржи сотиш қиймати (қўшилган қиймат солиғи билан бирга) бирлиги (Quqe) маҳсулотнинг улгуржи қиймати (Qss) (қўшилган қиймат солиғисиз) билан қўшилган қиймат солиғи (Qqs) айирмасининг ишлаб чиқарилган омихта ем маҳсулотлари (Moe) нисбатига тенг

19. Quqe = (Qss - Qqs) : Moe

20. Соф фойда бирлиги (Fsfe) умумхўжалик фаолиятининг фойдаси бирлиги (Fuxe) билан солиқ тўлангунга қадар фойда (Fts) айирмасининг ишлаб чиқарилган омихта ем маҳсулотлари (Moe) нисбатига тенг

21. Fsfe = Fuxe - Fts : Moe

22. Рентабеллик даражаси:

17.1. Ишлаб чиқариш таннархига нисбатан рентабеллик даражаси (Rut) соф фойда бирлигининг (Fsfe) ишлаб чиқариш таннархи бирлигига нисбат кўринишида ифодаланади:

Rut = Fsfe * 100 / Tise

17.2 Умумий харажатларга нисбатан рентабеллик даражаси (Rix) соф фойданинг (Fsfe) умумий харажатларга (Xoee) бўлган нисбат кўринишида ифодаланади:

Rix = Fsfe * 100 / Xoee

23. Омихта ем маҳсулотлари бўйича маҳсулот ишлаб чиқариш харажатларининг ҳисобини юритиш ва таннарх калькуляцияси шартлари қуйидаги тенгсизликлар кўринишида ифодаланади:

Tise > Xbee; Xoee > Tise; Fsfe < Fuxe

Демак, ушбу модель ва алгоритмлар маълум бир давр (ой, чорак, йил) учун маҳсулот ишлаб чиқариш харажатларининг ҳисобини юритиш ва таннарх калкуляциясини ифодалаш қоидаси сифатида фойдаланишга имконият беради. Уларнинг типик шартлари режа даврига мутаносиб равишда миқдор ва сифат жиҳатдан ҳисобга олиб умумлаштирилади ва тизимлаштирилади.

Муҳокама ва натижалар. Сунъий интеллект технологиялари шароитида маҳсулот ишлаб чиқариш харажатларининг ҳисобини юритиш ва таннарх калкуляцияси билан боғлиқ бўлган бошқарув қарорларини ишлаб чиқиш муаммолар ечимини топишда икки ёки ундан кўпроқ вариантларни таққослаган ҳолда улардан оптимал вариантини танлаб олишни тақозо этади. Бунинг учун ЭҲМ да эмпирик тадқиқотни амалга оширишда функционал, дастурий, ахборот таъминоти ва бошқа тадбирлар ишлаб чиқиш тақозо этилади.

Функционал таъминот донни қайта ишлаш корхоналарида маҳсулот ишлаб чиқариш харажатлари ҳисобини юритиш ва таннарх калкуляцияси хусусиятлари ҳисобга олган ҳолда ишлаб чиқариш дастурининг моделлари ва алгоритмларига асосланади. Улар ўртасидаги алоқадорлик ягона маълумотлар базасига асосланади.

Ахборотларни қайта ишлашда ахборот манбаига киритиладиган ва чоп этиладиган натижалар алоҳида гуруҳларга ажратилади. Хотирага киритиладиган ахборотлар маҳсулот ишлаб чиқариш харажатларининг ҳисобини юритиш ва таннарх калкуляцияси билан боғлиқ ахборотлар тўпламини ташкил этади [1; 459 - 471].

ЭҲМ хотирасидаги маълумотлар асосида маҳсулот ишлаб чиқариш харажатларининг ҳисобини юритиш ва таннарх калкуляцияси кўрсаткичлари тизими таҳлил қилинади. Тадқиқотда ҳисоб-китоб итерацияларидан олинган натижаларга қараб, тажрибани давом эттириш ёки тугатиш борасида қарор қабул қилинади. Қўйилган масаланинг тизимли ахборот ва мантиқий алоқалар қоидасига асосланиб функционал, дастурий ва ахборот таъминоти асосида донни қайта ишлаш корхоналарида маҳсулот ишлаб чиқариш харажатларининг ҳисобини юритиш ва таннарх калкуляцияси самарадорлигини баҳолаш схемасини ишлаб чиқдик (1-расм).



**1 – расм. Маҳсулот ишлаб чиқариш харажатларининг ҳисобини юритиш ва таннарх калькуляциясини баҳолаш механизми**

Маҳсулот ишлаб чиқариш харажатларининг ҳисобини юритиш ва таннарх калькуляциясини самарали бошқариш мақсадида ишлаб чиқилган сценарийлар орқали дон маҳсулотларининг алоҳида турлари бўйича комплекс ишлаб чиқариш харажатларини ҳисобга олиш ва таннарх калькуляциясини баҳолаш мумкин. Бунда турли даражадаги менежерлар ахборотлар базасига мурожаат қилганда эришилган натижалар қаноатлантирмаса, процедура ижобий натижа эришилгунга қадар такрорий мурожаат қилиб, муқобил вариантлар бўйича қарорлар қиёсий баҳоланади.

**1 – жадвал. "Дўстликдомаҳсулотлар" АЖ да ун маҳсулотларининг сценарий бўйича ишлаб чиқариш харажатлари ва маҳсулот бирлиги таннархининг калькуляцияси***

**(сўм/тонна)**

| Кўрсаткичлар | Ҳақиқатда | Сценарийлар | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 1 | 2 | 3 |
| Ун маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажми, тн | 1 | 1 | 1 | 1 |
| Сарфланадиган дон миқдори, тн | 43509,12 | 43509,12 | 43509,12 | 43509,12 |
| Доннинг улгуржи баҳоси | 55,70 | 55,70 | 55,70 | 55,70 |
| Доннинг дастлабки улгуржи қиймати | 1797826,00 | 2423253,02 | 2423253,02 | 2423253,02 |
| Транспорт харажатлари - жами | 87493,98 | 88368,92 | 89243,86 | 90118,80 |
| шундан: | | | | |
| а) темир йўл харажатлари | 0,00 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |
| б) автомобил харажатлари | 44950,99 | 45400,50 | 45850,01 | 46299,52 |
| в) ички ташиш харажатлари | 15575,99 | 15731,75 | 15887,51 | 16043,27 |
| г) жамғарма фоизи | 26967, 00 | 27236,67 | 27506,34 | 27776,01 |
| Доннинг умумий қиймати транспорт харажатлари билан бирга | 1885320,09 | 2511621,95 | 2512496,89 | 2513371,83 |
| Қўшимча маҳсулотлар - жами | 320169,01 | 323370,70 | 326572,39 | 329774,08 |
| шундан: | | | | |
| а) кепак | 292100,99 | 295022,00 | 297943,01 | 300864,02 |
| б) дон чиқиндиси | 28068,02 | 28348,70 | 28629,38 | 28910,06 |
| Қўшимча маҳсулот ажратилгандан кейинги доннинг умумий қиймати | 1565151,08 | 1580802,59 | 1596454,10 | 1612105,61 |
| Ташиш, сақлаш ва ишлаб чиқаришда йўқотилган дон қиймати | 57507,00 | 58082,07 | 58657,14 | 59232,21 |
| Бевосита ва билвосита харажатлар | 416071,00 | 420231,72 | 424392,43 | 428553,14 |
| Ёқилғи | 2533,00 | 2558,33 | 2583,66 | 2608,99 |
| Эҳтиёт қисмлар | 13927,00 | 14066,27 | 14205,54 | 14344,81 |
| Қурилиш материаллари | 2004,00 | 2024,04 | 2044,08 | 2064,12 |
| Бошқа материаллар - жами | 65862,00 | 66484,26 | 67142,52 | 67800,78 |
| шундан: | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| а) витамин | 28379,00 | 28662,79 | 28946,58 | 29230,37 |
| б) ип | 250,00 | 252,50 | 255,00 | 257,50 |
| в) этикетка | 1105,00 | 1116,05 | 1127,10 | 1138,15 |
| г) қоп | 31143,00 | 31454,43 | 31765,86 | 32077,29 |
| д) бошқалар | 4949,00 | 4998,49 | 5047,98 | 5097,47 |
| Мол етказиб берувчилар ва пудратчиларга тўланадиган харажатлар | 52825,00 | 53353,25 | 53881,50 | 54409,75 |
| шундан: | | | | |
| а) электроэнергия харажатлари | 39461,00 | 39855,61 | 40250,22 | 40644,83 |
| б) сув харажатлари | 510,00 | 515,10 | 520,20 | 525,30 |
| в) газ харажатлари | 0,00 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |
| г) бошқалар | 12854,00 | 12982,54 | 13111,08 | 13239,62 |
| Меҳнат ҳақи | 187992,00 | 189871,92 | 191751,84 | 193631,76 |
| Ягона ижтимоий тўлов | 22559,01 | 22784,60 | 23010,19 | 23235,78 |
| Асосий воситалар амортизацияси | 68405,00 | 68405,00 | 68405,00 | 68405,00 |
| Ишлаб чиқариш таннархи - жами | 2038729,09 | 2059116,38 | 2079503,67 | 2099890,96 |
| Давр харажатлари - жами | 95681,86 | 96068,48 | 96455,10 | 96841,72 |
| шундан: | | | | |
| а) маъмурий-бошқарув харажатлар | 13648,00 | 13784,48 | 13920,96 | 14057,44 |
| б) сотиш харажатлари | 25014,00 | 25264,14 | 25514,28 | 25764,42 |
| в) бошқа операцион харажатлар | 57019,86 | 57019,86 | 57019,86 | 57019,86 |
| шундан: | | | | |
| ер солиғи | 11337,00 | 11337,00 | 11337,00 | 11337,00 |
| сув солиғи | 114,00 | 114,00 | 114,00 | 114,00 |
| мулк солиғи | 8301,00 | 8301,00 | 8301,00 | 8301,00 |
| бошқа харажатлар | 37267,86 | 37267,86 | 37267,86 | 37267,86 |
| Молиявий фаолият харажатлари | 5064,00 | 5064,00 | 5064,00 | 5064,00 |
| шундан: | | | | |
| кредит фоизи | 5064,00 | 5064,00 | 5064,00 | 5064,00 |
| Жами ишлаб чиқариш харажатлари - ҳаммаси | 2139474,95 | 2160248,86 | 2181022,77 | 2201796,68 |
| Умумхўжалик фаолиятининг фойдаси | 21395,05 | 22229,84 | 23064,63 | 23899,42 |
| Даромад солиғи тўлангунга қадар фойда | 3209,26 | 3334,48 | 3459,69 | 3584,91 |
| Маҳсулотнинг улгуржи сотиш қиймати | 2160870,00 | 2182478,70 | 2204087,40 | 2225696,10 |
| Қўшилган қиймат солиғи | 570608,75 | 576314,84 | 582020,93 | 587727,01 |
| Ун маҳсулотининг улгуржи қиймати (қўшилган қиймат солиғи билан) | 2731478,75 | 2758793,54 | 2786108,33 | 2813423,11 |
| Соф фойда | 18185,79 | 18895,36 | 19604,93 | 20314,50 |
| Таннархга нисбатан рентабеллик | 0,89 | 0,92 | 0,94 | 0,97 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Харажатларга нисбатан рентабеллик | 0,85 | 0,87 | 0,90 | 0,92 |

1 – жадвалдаги маълумотларга кўра, сценарийлар бўйича корхонада 1 тн ун маҳуслоти бирлигини тайёрлашда ишлаб чиқариш харажатлари учун 2139474,95 сўм, 2160248,86 сўм, 2181022,77 сўм ва 2201796,68 сўм маблағ сарфланиши мумкин. Бунда маҳсулот бирлигининг таннархи мос равишда 2038729,09 сўмни, 2059116,38 сўмни, 2079503,67 ва 2099890,96 сўмни ташкил этади. Натижада корхонада 1 тн ун маҳуслоти бирлигидан олинадиган соф фойда мос равишда 18185,79 сўм, 18895,36 сўм, 19604,93 сўм ва 20314,50 минг сўмга; таннархга нисбатан рентабеллик даражаси 0,89%, 0,92%, 0,94% ва 0,97% га; ишлаб чиқариш харажатларига нисбатан рентабеллик даражаси 0,85%, 0,87%, 0,90% ва 0,92% га кўпаяди.

**2 – жадвал. "Дўстликдомаҳсулотлар" АЖ да омихта ем маҳсулотлари сценарийлари бўйича ишлаб чиқариш харажатлари ва маҳсулот бирлиги таннархининг калкуляцияси***

(сўм/кгда)

| Кўрсаткичлар | Ҳақиқатда | Сценарий | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 1 | 2 | 3 |
| Омихта ем маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажми, тн | 1 | 1 | 1 | 1 |
| Хом-ашё миқдори сарфи - жами, тн | 101,00 | 101,00 | 101,00 | 101,00 |
| а) кепак, тн | 54,44 | 54,44 | 54,44 | 54,44 |
| б) тариқ, тн | 2,23 | 2,23 | 2,23 | 2,23 |
| в) макка дони, тн | 0,00 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |
| г) ун, тн | 2,93 | 2,93 | 2,93 | 2,93 |
| д) оҳак уни, тн | 2,00 | 2,00 | 2,00 | 2,00 |
| е) буғдой чиқиндиси (70 – 85%), тн | 1,41 | 1,41 | 1,41 | 1,41 |
| ё) буғдой чиқиндиси (50 – 75%), тн | 28,28 | 28,28 | 28,28 | 28,28 |
| ж) арпа, тн | 4,90 | 4,90 | 4,90 | 4,90 |
| Хом-ашёнинг баҳоси: | | | | |
| а) кепак | 925,45 | 934,70 | 943,96 | 953,21 |
| б) тариқ | 2200,00 | 2222,00 | 2244,00 | 2266,00 |
| в) макка дони | 3043,48 | 3073,91 | 3104,35 | 3134,78 |
| г) ун | 1130,00 | 1141,30 | 1152,60 | 1163,90 |
| д) оҳак уни | 390,00 | 393,90 | 397,80 | 401,70 |
| е) буғдой чиқиндиси (70 – 85%) | 876,16 | 884,92 | 893,60 | 902,44 |
| ё) буғдой чиқиндиси (50 – 75%) | 626,16 | 632,42 | 638,68 | 644,94 |
| ж) арпа | 2825,00 | 2853,25 | 2881,50 | 2909,75 |
| Хом-ашёлар қиймати: | | | | |
| а) кепак | 503804,64 | 508842,68 | 513931,11 | 519070,42 |
| б) тариқ | 26664,00 | 26930,64 | 27199,95 | 27471,95 |
| в) макка дони | 175213,03 | 176965,16 | 178734,81 | 180522,16 |
| г) ун | 33097,70 | 33428,68 | 33762,96 | 34100,59 |
| д) оҳак уни | 7878,00 | 7956,78 | 8036,35 | 8116,71 |
| е) буғдой чиқиндиси (70 – 85%) | 12388,86 | 12512,75 | 12637,88 | 12764,25 |
| ё) буғдой чиқиндиси (70 – 85%) | 177078,05 | 178848,83 | 180637,32 | 182443,69 |
| ж) арпа | 139809,25 | 141207,34 | 142619,42 | 144045,61 |
| Механик йўқотишлар – 1% | 0,00 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |
| Хом–ашёнинг умумий қиймати-жами | 1075934,52 | 1086692,86 | 1097559,79 | 1108535,38 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Электроэнергия | 6696,00 | 6762,96 | 6829,92 | 6896,88 |
| Транспорт харажатлари - жами | 4967,46 | 5017,13 | 5066,81 | 5116,48 |
| шундан: | | | | |
| а) темир йўл харажатлари | 0,00 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |
| б) автомобил харажатлари | 3356,25 | 3389,82 | 3423,38 | 3456,94 |
| в) ички ташиш харажатлари | 1611,21 | 1627,32 | 1643,43 | 1659,54 |
| Эҳтиёт қисмлар | 6800,10 | 6868,10 | 6936,10 | 7004,10 |
| Меҳнат ҳақи | 76146,00 | 76907,46 | 77668,92 | 78430,38 |
| Ягона ижтимоий тўлов | 9137,2 | 9228,90 | 9320,27 | 9411,65 |
| Асбоб-ускунани сақлаш | 14152,53 | 14152,53 | 14152,53 | 14152,53 |
| Асосий воситалар амортизацияси | 19686,96 | 19686,96 | 19686,96 | 19686,96 |
| Бошқа харажатлар | 15955,79 | 15955,79 | 15955,79 | 15955,79 |
| Ишлаб чиқариш таннархи - жами | 1229475,88 | 1241272,68 | 1253177,08 | 1265190,15 |
| Давр харажатлари - жами | 104035,58 | 104035,58 | 104035,58 | 104035,58 |
| шундан: | | | | |
| а) маъмурий-бошқарув харажатлар | 15743,68 | 15743,68 | 15743,68 | 15743,68 |
| б) сотиш харажатлари | 3938,58 | 3938,58 | 3938,58 | 3938,58 |
| в) бошқа операцион харажатлар | 84353,32 | 84353,32 | 84353,32 | 84353,32 |
| шундан: | | | | |
| ер солиғи | 3232,35 | 3232,35 | 3232,35 | 3232,35 |
| сув солиғи | 0,00 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |
| мулк солиғи | 4092,00 | 4092,00 | 4092,00 | 4092,00 |
| бошқа харажатлар | 77028,96 | 77028,96 | 77028,96 | 77028,96 |
| Молиявий фаолият харажатлари | 3577,58 | 3577,58 | 3577,58 | 3577,58 |
| Жами ишлаб чиқариш харажатлари - ҳаммаси | 1337089,03 | 1348885,84 | 1360790,24 | 1372803,31 |
| Умумхўжалик фаолиятининг фойдаси | 63055,97 | 65260,61 | 67497,68 | 69767,49 |
| Даромад солиғи тўлангунга қадар фойда | 9458,00 | 10404,23 | 11350,07 | 12295,91 |
| Маҳсулотнинг улгуржи сотиш қиймати | 1400145,00 | 1414146,45 | 1428287,91 | 1442570,79 |
| Қўшилган қиймат солиғи | 210021,75 | 212121,97 | 214243,19 | 216385,62 |
| Маҳсулотининг улгуржи қиймати (қўшилган қиймат солиғи билан бирга) | 1610166,75 | 1626268,42 | 1642531,10 | 1658956,41 |
| Соф фойда | 53597,57 | 54856,38 | 56147,60 | 57471,57 |
| Таннархга нисбатан рентабеллик | 4,36 | 4,42 | 4,48 | 4,54 |
| Харажатларга нисбатан рентабеллик | 4,01 | 4,07 | 4,13 | 4,19 |

2 – жадвалдаги маълумотларга кўра, сценарийлар бўйича корхонада 1 кг омихта ем маҳсулоти бирлигини тайёрлашда ишлаб чиқариш харажатлари учун 1337089,03 сўм, 1348885,84 сўм, 1360790,24 сўм ва 1372803,31 сўм маблағ сарфланиши мумкин. Бунда 1 кг омихта ем маҳсулоти бирлигининг таннархи мос равишда 1229475,88 сўмни, 1241272,68 сўмни, 1253177,08 ва 1265190,15 сўмни ташкил этади. Натижада корхонада 1 кг омихта ем маҳсулоти бирлигидан олинадиган соф фойда мос равишда 53597,57 сўм, 54856,38 сўм, 56147,60 сўм ва 57471,57 минг сўмга; таннархга нисбатан рентабеллик даражаси 4,36%, 4,42%, 4,48% ва 4,54% га; ишлаб чиқариш харажатларига нисбатан рентабеллик даражаси 4,01%, 4,07%, 4,13% ва 4,19% га кўпаяди.

Демак, «Дўстлик дон маҳсулотлари» акциядорлик жамиятида ўтказилган эмпирик тадқиқотларга кўра, корхонада ун маҳсулоти соф фойдасининг 0,89 фоиздан 0,97 фоизли бандга ва омихта ем маҳсулоти соф фойдасининг 4,36 фоиздан 4,54 фоизли бандга кўпайганлиги ун ва омихта ем маҳсулотлари ҳажмининг кўпайиш тенденциясига

сарфланган харажатлар ижобий таъсир кўрсатади ва фаолиятнинг иқтисодий самарадорлигини оширишда ижобий тенденцияни юзага келтиради, маҳсулотларни ишлаб чиқариш тенденциясига харажатлар омилининг таъсири маҳсулотлар ҳажмининг кўпайишига олиб келади.

Хулоса. Ўтказилган эмпирик тадқиқотда донни қайта ишлаш корхоналарида ун ва омихта ем маҳсулотларини ишлаб чиқариш харажатларининг ҳисобини юритиш ва таннарх калкуляцияси жараёнларининг алгоритмлари ишлаб чиқилди маҳсулотнинг алоҳида турининг самарадорлиги баҳоланди, сунъий интеллект технологиялари асосида ун ва омихта ем маҳсулотлари бирлиги бўйича ишлаб чиқариш харажатларининг ҳисобини юритиш ва таннарх калкуляциясини бошқаришнинг молиявий стратегияси бўйича сценарийли прогноз кўрсаткичлари асосида илмий асосланган оптимал қарорларни қабул қилиш прогнози илмий асослаб берилди. Тадқиқот натижасига кўра, омихта ем маҳсулотлари ун маҳсулотларига нисбатан корхонага йирик миқдорда пул тушумлари олиб келади ҳам соф фойданинг миқдорини кўпайтиради.

Сунъий интеллект технологиялари асосида ун ва омихта ем маҳсулотлари бирлиги бўйича ишлаб чиқариш харажатларининг ҳисобини юритиш ва таннарх калкуляциясини бошқаришнинг молиявий стратегияси бўйича сценарийли прогноз кўрсаткичлари асосида илмий асосланган оптимал қарорларни қабул қилиш, ҳаражатларни камайтириш учун ишлаб чиқаришнинг ички захираларни излаб топиш, сифатли ун ва омихта ем маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш корхонанинг иқтисодий самарадорлигини оширишга имконият яратади.

**Adabiyotlar/Литература/References:**


1. Abdullayev A.Ya.@ Abdullayev J.A. Methods of assessmentand risk assessment of economic security of banks in Uzbekistan // Journal of Hunan University（Natural Sciences). Vol. 49. No. 09 September 2022. https://johuns.net/index.php/abstract/423.html
2. Abdullayev A.Ya. Korxonaning kompleks ishlab chiqarish xarajatlari va qoʻshimcha mahsulot ishlab chiqarish hisobini yuritishning uslubiy asoslarini takomillashtirish // Ijtimoiy — gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. № 3 (5) — 2025. https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I3Y2025N11
3. Бондин И.А. Механизм управления издержками производства в сельскохозяйственных организациях //Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. – Саранск: Издательство Мордовского университета, 2011. – с. 45.
4. Изыкова А.В. Издержки производства молока: основные факторы и резервы снижения //Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Москва: Центр оперативной полиграфии ФГОУ ВПО РГАУ — МСХА им. К.А. Тимирязева, 2006. – с. 24.
5. Кочетов В.Л. Разработка инструментов управления издержками производства на предприятиях мукомольной промышленности //Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Таганрог: Издательский центр Ростовского государственного педагогического университета, 2004. – с. 24.

6. Киселева О.В. Развитие учета затрат на производство и калькулировано себестоимости сельскохозяйственной продукции: теория и практика //Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Рязань: ООО «Партнеры по прибыли», 2009. – с. 26.
7. Макарова Е.Н. Учетно-аналитическое обеспечение управления издержками производства перерабатывающих предприятий потребительской кооперации //Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. — Саратов: Издательский центр Саратовского государственного социально-экономического университета, 2005. — с. 20.
8. Colin Drury (2018). Management and Cost Accounting. South-Western Cengage Learning: Printed in China by RR Donnelley. 866 p. http: //116.206.63.139:8080/xmlui/bitstream/handle/123456789/1303/cl18_Drury_MgtCostAcc10e-wm.pdf?sequence=1&isAllowed=y

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# TIJORAT BANKLARI TRANSFORMATSIYASI BORASIDA NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLAR

**Ziyadullayev Zuxriddin Ilxom oʻgʻli**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** COVID-19 epidemiyasi natijasida raqamli iqtisodiyotning butun Jahon iqtisodiyotida keng tarqalishini tezlashtirdi, bu esa moliya sohasida "kontaktsiz" xizmatlarga talabning keskin oshib ketishiga olib keldi. Va buning natijasida tijorat banklari transformatsiyasiga talab ortdi. Ushbu maqolada tijorat banklarining transformatsiya jarayoni, uning nazariy negizlari va huquqiy jihatlari atroflicha oʻrganilgan. Avvalo, bank tizimining iqtisodiyotdagi oʻrni, tijorat banklarining vazifalari va ular faoliyatidagi zamonaviy oʻzgarishlar tahlil qilingan. Transformatsiya tushunchasi, uning turlari va bosqichlari, shuningdek, bank tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali amalga oshirilayotgan islohotlar ilmiy asosda yoritilgan.

Undan tashqari maqolada Oʻzbekistonda tijorat banklari transformatsiyasining huquqiy bazasi, xususan, "Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida"gi Qonun, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari asosida tahlil qilingan. Shu bilan birga, xalqaro amaliyotdagi yutuqlar va ularning milliy bank tizimiga tatbiq etish imkoniyatlari koʻrib chiqilgan.

Ishning dolzarbligi shundaki, u bank sektoridagi zamonaviy islohotlarning nazariy-huquqiy asoslarini chuqur oʻrganish va ularni amaliyotda samarali tatbiq etishdagi masalalarga bagʻishlangan. Xulosalar va takliflar orqali bank tizimini yanada mustahkamlash boʻyicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit soʻzlar:** Global moliya, MDH, Transformatsiya, Induktiv, deduktiv, likvidlik, Dokumental, diversifikasiya.

# THEORETICAL AND LEGAL CONSIDERATIONS REGARDING THE TRANSFORMATION OF PRIVATE BANKS

**Ziyadullaev Zukhriddin Ilkhom Ugli**
Tashkent State Law University, independent researcher

**Abstact.** The COVID-19 epidemic has accelerated the widespread spread of the digital economy throughout the global economy, which has led to a sharp increase in demand for "contactless" services in the financial sector. And as a result, the demand for the transformation of commercial banks has increased. This article examines in detail the transformation process of commercial banks, its theoretical foundations and legal aspects. First of all, the role of the banking system in the economy, the tasks of commercial banks and modern changes in their activities are analyzed. The concept of transformation, its types and stages, as well as the reforms implemented in the banking system through the introduction of digital technologies are scientifically covered.

This article analyzes the legal framework for the transformation of commercial banks in Uzbekistan, in particular, based on the Law "On Banks and Banking Activities", Presidential Decrees and Cabinet of Ministers Resolutions. At the same time, achievements in international practice and the possibilities of their implementation in the national banking system are considered.

The relevance of the work is that it is devoted to an in-depth study of the theoretical and legal foundations of modern reforms in the banking sector and issues of their effective implementation in practice. Through

conclusions and proposals, practical recommendations have been developed to further strengthen the banking system.

**Key words:** Global finance, CIS, Transformation, Inductive, deductive, liquidity, Documentary, diversification.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N05

**Kirish**

Bugungi globallashuv va raqamlashuv davrida moliya bozorlarining tezkor rivojlanishi, raqobatning kuchayishi hamda mijozlar talablarining oʻzgarib borishi tijorat banklari faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda. Shu munosabat bilan, bank tizimining samaradorligini oshirish, mijozlarga koʻrsatilayotgan xizmatlar turini kengaytirish va zamonaviy texnologiyalar asosida ularni yanada qulay va shaffof qilish maqsadida tijorat banklari transformatsiya jarayoniga kirishmoqda.

Transformatsiya – bu faqatgina texnik yangilanish emas, balki boshqaruv, biznes jarayonlari, korporativ madaniyat hamda huquqiy asoslarni qamrab oluvchi murakkab va koʻp bosqichli jarayondir. Mazkur maqolada tijorat banklari transformatsiyasining nazariy jihatlari, yaʼni uning mohiyati, zaruriyati va turlari hamda ushbu jarayonni tartibga soluvchi huquqiy asoslar tahlil qilinadi. Shuningdek, Oʻzbekiston bank tizimi misolida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida transformatsiyaning ahamiyati va istiqbollari koʻrib chiqiladi.

**Metodologiya**

Tadqiqotning nazariy va metodologik asosini tijorat banklari transformatsiyasi haqidagi nazariy jihatlar, xalqaro tijorat bank tashkilotlari bilan tijorat banklari transformatsiyasi sohasidagi hamkorlik masalalariga oid ilmiy adabiyotlar tashkil etadi.

Ushbu maqolani yozishda ilmiy-tadqiqot metodlarining turli shakllari qoʻllanildi. Asosiy eʼtibor tijorat banklari transformatsiya jarayonini nazariy va huquqiy jihatdan oʻrganishga qaratilib, tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslandi:

Tarixiy-tahliliy usul – bank tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, shuningdek, bank transformatsiyasi jarayonlarining evolyutsiyasi oʻrganildi. Bu orqali hozirgi tendensiyalarning ildizlari va ularning rivojlanish manbalari tahlil qilindi.

Qiyosiy tahlil usuli – turli mamlakatlar (asosan rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar)dagi bank tizimida amalga oshirilayotgan transformatsiya jarayonlari qiyosiy tahlil qilinib, Oʻzbekiston sharoitidagi amaliyot bilan taqqoslash asosida xulosalar chiqarildi.

Huquqiy tahlil usuli – tijorat banklari faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari, normativ-huquqiy bazalar, markaziy bankning qaror va farmoyishlari tahlil qilindi. Bu orqali mavjud huquqiy asoslarning banklar transformatsiyasiga taʼsiri oʻrganildi.

Induktiv va deduktiv usullar – xususiy holatlardan umumiy xulosalar chiqarish va aksincha, umumiy nazariy qoidalarni aniq misollarda tatbiq etish usullari tadqiqot jarayonida samarali qoʻllanildi.

Iqtisodiy-statistik usullar – banklar faoliyatiga oid maʼlumotlar (aktivlar, passivlar, kapital yetarliligi, daromadlar va boshqalar) tahlil qilinib, transformatsiyaning moliyaviy koʻrsatkichlarga taʼsiri baholandi.

Dokumental tahlil usuli – rasmiy manbalar, banklar hisobotlari, xalqaro moliyaviy tashkilotlar materiallari va normativ hujjatlar tahlil qilinib, maqolaning ilmiy asosli boʻlishi taʼminlandi.Ushbu metodologik yondashuvlar maqoladagi nazariy xulosalarning ishonchliligi va amaliyotga yaqinligini taʼminlashga xizmat qildi. Tadqiqot jarayonida zamonaviy ilmiy-amaliy manbalar, milliy va xalqaro tajriba keng qamrab olindi.

**Natija**

Bugungi kunda, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev boshchiligida Respublikada iqtisodiyotning barcha sohalarida keng koʻlamdagi reformalar amalga oshirilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2020 — 2025-yillarga moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi toʻgʻrisida” toʻgʻrisidagi 2020-yil 13-maydagi PF-5992-sonli farmonini qabul qilinishi oʻz navbatida xorijiy tajribalar hamda xorijiy moliya sohasidagi tendensiyalar asosida mamlakat bank tizimining isloh qilinishiga yana bir ijobiy turtki berdi.

Ushbu oʻtgan davr iqtisodiy inqirozidan salbiy asoratlarni qisqartirish borasida Oʻzbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimovning “Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, Oʻzbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yoʻllari va choralari” asarida aytib oʻtilgan. Unda keng qamrovli chuqur tahlil va xulosalarga tayanib, inqirozning mazmuni, kelib chiqish sabablari va salbiy taʼsiri oqibatlari, Oʻzbekiston sharoitida bu oqibatlarning oldini olish va yumshatishga asos oʻluvchi omillar, davlat iqtisodiyotini modernizatsiyalash va yangilashni izchil davom ettirish borasidagi ustuvor yoʻnalishlar bayon etilgan. Ushbu asarda taʼkidlashicha “2008-yilgi xalqaro moliyaviy-iqtisodiy inqiroz AQSh ipotekali kreditlash tizimida yuzaga kelgan tanglik holatidan boshlandi. Keyinchalik bu jarayonining miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, yaʼni toʻlov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi.

Xalqaro moliya bozorlarida eng yirik kompaniyalar indeks koʻrsatkichlari va aksiyalarning bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi, oʻz navbatida koʻplab davlatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy oʻsish surʼatlarining keskin pasayib ketishi bilan bogʻliq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi. Mazkur asarda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini keltirib chiqargan sabablar va uning salbiy oqibatlarini Oʻzbekistonga jiddiy taʼsir koʻrsatmagani qator sabablar bilan izohlangan. Jumladan Oʻzbekistonda moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlari barqaror hamda uzluksiz ishlashini taʼminlash uchun yetarli darajada mustahkam zahiralar yaratilganligi va zarur resurslar bazasi mavjudligi, bank tizimlari barqaror va himoya mexanizmlari kuchliligi aytib oʻtilgan[1].

Bundan tashqari, bugungi kundagi xalqaro siyosiy notinchliklar, shu jumladan Sharqiy Yevropada kuzatilayotgan ziddiyatlar sababli Oʻzbekistonnning yirik strategik hamkori boʻlgan Rossiya Federatsiyasiga nisbatan qoʻllanilgan sanksiyalar Oʻzbekistonga iqtisodiy maʼnoda oʻz taʼsirini oʻtkazmasdan qolishi eʼtibordan holi emas.

Taʼkidlash lozimki, Oʻzbekiston tijorat banklarida xalqaro hamkorlikda diversifikasiya tushunchasi rivojlanmagan. Yaʼni, mamlakat tijorat banklari tashqi hamkorlik aloqalarining koʻp qismi Rossiya Federatsiyasi moliya institutlari bilan bogʻliq.

2021 yilda Rossiya Oʻzbekistonning asosiy savdo sherigi maqomiga ega boʻldi va 2014-yildan beri ushbu maqom birinchi marta Xitoydan Rossiyaga oʻtkazildi. Oʻtgan yil davomida davlatlar oʻrtasidagi tovar ayirboshlash qiymati 7,51 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi, bu Oʻzbekiston va MDH davlatlari oʻrtasidagi umumiy savdo hajmining 47,4% tashkil etmoqda.

Oʻzbekiston eksporti hajmi 38,5 foizga oshib, 2,05 mlrd. AQSh dollarini, import hajmi esa 30,7% ortib, 5,45 mlrd. AQSh dollarini tashkil qildi. Oʻzbekiston va Rossiya oʻrtasidagi eksport-import hajmi yillar kesimida quyidagi rasmda ifodalangan[2]:

**1.1-jadval.**
**Oʻzbekiston va Rossiya oʻrtasidagi eksport-import hajmi[3]**

| Davr | 2019 | 2020 | 2021 |
|---|---|---|---|
| Jami mln. AQSh dollar | 6 669,6 | 5 659,5 | 7 517,0 |
| Oʻzbekiston eksporti | 2 531,9 | 1 485,8 | 2 058,9 |
| Rossiyadan import | 4 137,7 | 4 173,8 | 5 458,1 |

Oʻzbekiston Respublikasi hukumati hamda tijorat banklari tomonidan soʻnggi yillarda Rossiyadan tijorat banklari va moliya institutlaridan katta miqdorda kredit mablagʻlari jalb qildi.

“Global finance” xulosasiga muvofiq xalqaro bank sektori arenasida 2017-2018 yillarda J.P.Morgan Chase & Co.(AQSh) dunyoning eng yaxshi raqamli banki sifatida tan olingan va 2021 yilda ham mazkur unvonni saqlab qoldi va korporativ/institutsional raqamli banklar orasida yetakkchilik qildi[4].

Shuningdek, mazkur nufuzli nashriyotning 2021-yilgi hisobotiga koʻra sharqiy va markaziy yevropa hududlaridagi eng yaxshi raqamli bank sifatida Rossiyaning Cber banki tan olindi [The World’s Best Banks 2021 Global Finance the winners].

Ta’kidlash lozimki, har bir xoʻjalik faoliyati bilan shugʻullanuvchi tashkilotlar kabi tijorat banki faoliyatida ham mijozlarning extiyojlari, milliy qadriyatlarining talablari hamda boshqa qator faktorlardan kelib chiqib maxsulotlar ishlab chiqiladi va faoliyati olib boriladi.

Jumladan, Oʻzbekiston bank-sektori modelining oʻziga xosligi hamda AQSh, gʻarbiy yevropa va boshqa uzoq mamlakatlardan koʻra Rossiya Federatsiyasi bank tizimining oʻxshashlik jihatlari koʻpligini inobatga olib ushbu dissertasiya ishida Rossiya Federatsiyasi tijorat banklarining transformatsiya yoʻlidagi tajribalarini oʻrganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yuqorida aytib oʻtilganidek, Rossiya banklari orasida bugungi kunda yuridik va jismoniy hamda korporativ mijozlarga mijozlarga xizmat koʻrsatish boʻyicha Cberbank yetakchilik qilib kelmoqda.

Cberbankning aktiv oʻsish davri 2016-yildan boshlangan. Jumladan, bank sof foydasi 2015-yilda 223 mlrd. rublni tashkil etgan boʻlsa, 2016-yilga kelib bu koʻrsatkich 542 mlrd. rublga koʻtarildi, oʻz navbatida chakana aktiv mijozlar soni 96,3 mln., korporativ mijozlar soni 2,6 mln. hamda oʻz-oʻziga xizmat koʻrsatish uskunalari va bankomatlar soni esa 77 minga yetdi [Отчет Сбер груп по реализации трансформации].



1.1. rasm. Cberbankning daromadlilik dinamikasi [Отчет Сбер груп по реализации трансформации]

Bu darajada yuqori suratdagi oʻsish tendensiyasiga eng avvalo 2008-yilda ishlab chiqilgan transformatsiya strategiyasi sabab boʻldi. Taʼkidlash lozimki, global pandemiya sababli joriy etilgan cheklovlarning bank foydasiga taʼsirini 2020-yil koʻrsatkichida aks etganini koʻrishimiz mumkin.

**Xulosa**

Xammamizga ma’lumki, O’zbekicton bank cektorida, ayniqca davlat ulushi bor tijorat banklarida, bugungi kunga qadar hujjatlar qog’oz shaklida racmiylashtirilib borilmoqda, bank boshqaruv tizmi va qarorlar qabul qilinishi markazlashgan holatda qolib ketgan. Bu eca faoliyat jarayonlarini cekinlashtiradi va incon omillari ta’cirini ortishiga cabab bo’ladi.

Mazkur kamchiliklar boracida Cberbank tomonidan amalga oshirilgan trancoformatsiyada boshqaruv tizimi modernizatsiya qilish, zamonaviy yangi maxculotlar ishlab chiqish, faoliyatdagi jarayonlarni tezlashtirish kabi o’zgarishlarga katta e’tibor berilganligini hamda ctrategiyani tadbiq qilishda yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etishdagi yo’llarini tahlil qilib, andoza cifatida ko’rishimiz mumkinligi ma’lum boʻldi.

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.А. Каримовнинг “Жаҳон молиявий иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари” асари, 2009 йил
2. Ўзбекистон миллий аҳборот агентлиги (https://uza.uz/uz)
3. https://uza.uz/uz
4. The World’s Best Banks 2017 Global Finance names the winners of its 24th annual awards for the World’s Best Banks, by region and by country.
5. nformatsiya o zasedanii Soveta rukovoditeley migratsionnыx organov gosudarstv – uchastnikov Sodrujestva Nezavisimыx Gosudarstv (28 sentyabrya 2023 goda)//https://e-cis.info/cooperation/3091/112728/
6. https://cis.minsk.by/news/26139/v_tashkente_sostojalos_zasedanie_soveta_rukovoditelej_migracionnyh_organov_gosudarstv_sng
7. YeOII matbuot xizmati. (2024). Oʻzbekiston va YeOII uch yillik hamkorlik rejasini imzoladi. [URL: http://www.eurasiancommission.org/press/news/2024/10/15

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# YASHIL IQTISODIYOT VA ATROF MUHIT MUAMMOLARI

**Alimova Saboxat Gaziyevna**
Toshkent tibbiyot akademiyasi
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti, iqt.f.n.
E-mail: saboxat.alimova@mail.ru

**Erkinova Sevinch**
Toshkent tibbiyot akademiyasi
Menejment yoʻnalishi 1 — bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot konsepsiyasi va Ekoponika modeli ekologik muammolarga yechim sifatida oʻrganiladi. Yashil iqtisodiyot tamoyillari, ekologik muammolar va Ekoponikaning barqaror rivojlanishdagi oʻrni tahlil qilinadi. Tadqiqot hujjatlar tahlili va statistik ma'lumotlar asosida olib borilgan. Natijalar shuni koʻrsatadiki, Ekoponika resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish orqali iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlaydi.

**Kalit soʻzlar:** yashil iqtisodiyot, ekologik muammolar, barqaror rivojlanish, Ekoponika, ekologik texnologiyalar.

# GREEN ECONOMY AND ENVIRONMENTAL PROBLEMS

**Alimova Sabokhat Gaziyevna**
Tashkent Medical Academy
Associate Professor of the Department of Social Sciences,
candidate of Economic Sciences
E-mail: saboxat.alimova@mail.ru

**Erkinova Sevinch**
Tashkent Medical Academy
Student of the 1st stage of the
Management Department

**Abstact.** This article studies the concept of a green economy and the Ecoponics model as a solution to environmental problems. The principles of a green economy, environmental problems and the role of Ecoponics in sustainable development are analyzed. The research was conducted on the basis of document analysis and statistical data. The results show that Ecoponics ensures economic and environmental sustainability through the efficient use of resources, waste reduction and the use of renewable energy.

**Key words:** green economy, environmental problems, sustainable development, Ecoponics, environmental technologies.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N06

**Kirish**. Bugungi kunda iqtisodiy rivojlanish bilan birga atrof-muhit muammolari ham ortib bormoqda. Iqlim oʻzgarishi, resurslarning kamayishi va ekologik ifloslanish global

darajada dolzarb masalaga aylangan. Ushbu muammolarni hal qilish uchun yashil iqtisodiyot tamoyillariga oʻtish muhim sanaladi. Ekoponika modeli yashil iqtisodiyotning asosiy yoʻnalishlaridan biri boʻlib, u resurslardan samarali foydalanish, qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish va chiqindilarni kamaytirish orqali barqaror rivojlanishga yordam beradi [1, 16-b]. Ushbu maqolada Ekoponikaning atrof-muhit muammolarini hal etish va iqtisodiy barqarorlikni taʼminlashdagi oʻrni tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – Ekoponikaning afzalliklarini oʻrganib, uning amaliy qoʻllash imkoniyatlarini aniqlashdir[2, 90].

**Adabiyotlar tahlili.** Ekoponika va yashil iqtisodiyot boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, ekologik muammolarni hal qilish uchun iqtisodiy jarayonlarni barqarorlashtirish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlarning aksariyati resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish zarurligini taʼkidlaydi. Xalqaro iqtisodchilar va ekologlar yashil iqtisodiyot tamoyillarining global rivojlanishdagi rolini oʻrgangan boʻlib, bu borada P. Viktor (2018), X. Dali (2020) va D. Pirs (2021) kabi olimlarning ishlari muhim oʻrin tutadi. Ularning tadqiqotlari yashil iqtisodiyotning iqtisodiy oʻsishga va ekologik muhitga ijobiy taʼsirini asoslab bergan. Shuningdek, BMT va Jahon banki hisobotlari yashil iqtisodiyotga oʻtish strategiyalarini tahlil qilib, Ekoponika kabi modellar orqali barqaror rivojlanishga erishish yoʻllarini koʻrsatgan. Mahalliy manbalarda esa Markaziy Osiyo davlatlarining yashil iqtisodiyotga oʻtish tajribasi va Ekoponika modelining ahamiyati boʻyicha tahlillar mavjud. Adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, Ekoponika modeli yashil iqtisodiyotning muhim yoʻnalishlaridan biri boʻlib, ekologik va iqtisodiy manfaatlarni uygʻunlashtirishga xizmat qiladi. Ilmiy manbalar va amaliy tadqiqotlar Ekoponikaning ekologik muammolarni hal qilishdagi samaradorligini tasdiqlaydi.

**Metodologiya**: Ushbu tadqiqotda Ekoponika modelining yashil iqtisodiyot va atrof-muhit muammolarini hal etishdagi oʻrnini baholash maqsad qilingan. Tadqiqot davomida taqqoslash va tahlil qilish usullari qoʻllanildi, bunda anʼanaviy iqtisodiy modellar va yashil iqtisodiyot yondashuvlari oʻrganildi. Birinchidan, nazariy tahlil usuli orqali yashil iqtisodiyot, ekologik innovatsiyalar va barqaror rivojlanish tamoyillari boʻyicha ilmiy manbalar tahlil qilindi. Ikkinchidan, empirik tahlil vositasida Ekoponika modeli asosida amalga oshirilgan loyihalar va ularning natijalari oʻrganildi. Shuningdek, turli mamlakatlarning yashil iqtisodiyotga oʻtish tajribasi bilan solishtirish amalga oshirildi. Tadqiqotda statistik maʼlumotlardan foydalangan holda Ekoponikaning iqtisodiy va ekologik samaradorligi baholandi. Bu esa modelning real iqtisodiyotga taʼsirini koʻrsatish imkonini berdi. Umuman olganda, tadqiqotda nazariy va amaliy yondashuvlar uygʻunlashgan boʻlib, Ekoponika modelining yashil iqtisodiyotdagi oʻrni va uning atrof-muhitga taʼsiri chuqur tahlil qilindi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, Ekoponika modeli yashil iqtisodiyot rivojlanishiga xizmat qiladi. U resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik texnologiyalarni joriy etish orqali barqarorlikni taʼminlaydi. Ushbu yondashuvning samaradorligi davlat, biznes va jamiyatning hamkorligiga bogʻliq. Hukumat ekologik tashabbuslarni qoʻllab-quvvatlashi, xususiy sektor innovatsiyalarga sarmoya kiritishi va jamiyat ekologik ongni oshirishi zarur. Ekoponika tabiiy muhitni asrash va iqtisodiy barqarorlikni taʼminlash uchun muhim yechim hisoblanadi [3].

**Muhokama.** Jahon amaliyotida hududlarni barqaror rivojlantirish, ularning iqtisodiy hamda ekologik tizimlarini oʻzaro samarali uygʻunligida oʻrganishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, mamlakatlar rivojlanishi bevosita hududlar barqarorligiga bogʻliq

boʻlib, mazkur masalaning ijobiy jihatlari innovatsion iqtisodiyotni kengaytirish asosida resurslardan oqilona hamda samarali foydalanishni oʻz ichiga qamrab olmoqda. Jumladan, iqtisodiyotda ishlab chiqarish faoliyatini toʻgʻri tashkil qilish, soha davomiyligi va oʻsishini taʼminlash resurslar mavjudligiga bogʻliq. Bu esa, hududlarning barqarorligini taʼminlashda iqtisodiy va ekologik tizimlarning uygʻunligini taʼminlashga qaratilgan boshqaruv qarorlarining samarali amal qilishi bilan bogʻliqdir [4]. Qayta tiklanadigan energiya manbalarini ishlab chiqarish uglerod chiqindilarini kamaytirish SO2, yashil texnologiyali issiqxonalarni koʻpaytirish, yashil texnologiyalar asosida suvni qayta ishlab chiqish va yetkazib berish, “yashil” tranport vositalari, avtomobillarni elektrlashtirish, “yashil” uy xoʻjaliklari, shaharlarda toza ekologik mahsulotlar ishlab chiqarish, qishloq xoʻjaligida ekologik toza, organik oziqovqatlarni ishlab chiqarish bugungi kunda muhim hisoblanadi. “Yashil” iqtisodiyotni shakllantirish va uning barqaror rivojlanishiga oʻtish global darajada ham, Oʻzbekiston uchun ham ustuvor vazifalardandir. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi insoniyat kelajagi uchun muhim manba boʻlib, u BMTning qaror va hujjatlarida oʻz ifodasini topgan. Barqaror rivojlanishning iqtisodiyekologik asosi, bu “yashil” iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir. Hozirgi beqaror tendensiyalarni bartaraf etish uchun 2015 yilda BMTning 2030 yilgacha boʻlgan davr uchun 17 ta “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadlarining oʻziga xos mezonlari aniqlandi.

Moʻtadil sharoitlarni vujudga keltirilishi natijasida oʻsimliklarda kechadigan fotosintez jarayoni faollashadi va koʻplab organik moddalar toʻplanib oʻsimliklarni oʻsishi rivojlanishi va moʻl xosil berishi taʼminlanadi [5].

Gidroponikaning asosiy avzalliklari:

- ✓ tuproq va goʻngdan umuman foydalanilmaydi;
- ✓ suv 60-70% gacha iqtisod qilinadi;
- ✓ gidroponikada issiqlik oddiy issiqxonalarga nisbatan 25-30% gacha tejaladi;
- ✓ sabzavot ekinlarini pishib yetilish davri 20-30 kungacha qisqaradi, ularni hosil
- ✓ berish davri esa 50- 60 kungacha uzayadi;
- ✓ gidroponika sharoitida sabzavot ekinlarining hosildorligi oddiy issiqxonalardagiga nisbatan 2-2,5 barobar koʻp boʻlishligi aniqlangan;
- ✓ suv va ozuqa eritmalarini tomchilatib sugʻorish tizimi orqali oʻsimlik ildiziga toʻgʻridan-toʻgʻri yetkazib berishligi;
- ✓ yerni ekishga tayyorlash, yerni organik oʻgʻitlar bilan boyitish, ishlov berish, sugʻorish uchun egatlar ochish, mineral oʻgʻitlar sepish, begona oʻtlarga qarshi kurashish tadbirlari talab qilinmaydi;
- ✓ umumiy ekologik muhitga salbiy taʼsiri yoʻq, qabul qilingan texnologiyada (ekinlar uchun berilgan mineral oʻgʻitlar va kasallik, zararkunandalarga qarshi sepilgan preparatlar qoldigʻi tuproqda toʻplanib turli salbiy ekologik oqibatlarni keltirib chiqaradi).

Keling bir hisob kitob qilib koʻraylik 1 $m^2$ uchun oddiy dehqonchilik va gidroponikadan keladigan foyda:

1.Oddiy dehqonchilik:

Hosildorlik: 1 $m^2$ dan 4-6 kg hosil (yilda 2 marta hosil).

Mahsulot narxi: 1 kg = 8,000 soʻm.

Yillik daromad:

4 kg x 8,000 = 32,000 soʻm.

6 kg x 8,000 = 48,000 so‘m.
Yillik xarajatlar: 40,000 so‘m.
Sof foyda:
Minimal holat: 32,000 – 40,000 = -8,000 so‘m (ziyon)
Maksimal holat: 48,000 – 40,000 = 8,000
so‘m foyda
2.Gidroponika:
Hosildorlik: 1 $m^2$ dan 30-45 kg hosil (yil davomida 3-4 marta hosil).
Mahsulot narxi: 1 kg = 20,000 so‘m.
Yillik daromad: • 30 kg x 20,000 = 600,000 so‘m.
45 kg x 20,000 = 900,000 so‘m.
Yillik xarajatlar: 130,000 so‘m.
Sof foyda:
Minimal holat: 600,000 – 130,000 = 470,000 so‘m
Maksimal holat: 900,000 – 130,000 =
770,000 so‘m
1 $m^2$ maydonga gidroponikada ketadigan taxminiy xarajatlar:

**1. Asosiy sarmoya (bir martalik xarajatlar):**

Gidroponik tizim uskunalari (quvurlar, nasoslar, baklar): 200,000 so‘m
Suv aylanma tizimi va filtrlar: 50,000 so‘m
Yoritish uskunalari (LED lampalar): 70,000 so‘m
Issiqxona yoki boshqa nazorat tizimlari (agar mavjud bo‘lsa): 100,000 so‘m
Nazorat sensorlari va avtomatlashtirilgan tizim: 50,000 so‘m
Umumiy asosiy sarmoya: 470,000 so‘m (bir marta)

2. **Operasion xarajatlar (yillik):**

O‘g‘itlar va ozuqa moddalar: 50,000 so‘m
Suv sarfi (kam suv sarflanadi): 10,000 so‘m
Elektr energiyasi: 30,000 so‘m
Texnikaviy xizmat va ta’mirlash: 40,000 so‘m
Umumiy yillik operasion xarajatlar: 130,000 so‘m

**Jami xarajatlar:**

Birinchi yil (asosiy sarmoya + operasion): 470,000 + 130,000 = 600,000 so‘m
Keyingi yillar (faqat operasion xarajatlar): 130,000 so‘m.

**Xulosa**. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Ekoponika modeli yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi [6]. U resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish orqali ekologik muammolarni hal qilishga yordam beradi. Bu esa iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydi. Ekoponikaning samaradorligi davlat siyosati, biznes sektori va jamoatchilikning qo‘llab-quvvatlashiga bog‘liq. Hukumat ekologik loyihalarni rag‘batlantirishi, xususiy sektor innovatsion texnologiyalarni joriy etishi va jamiyat ekologik ongi oshishi zarur. Bu omillar uyg‘unlikda ishlasa, yashil iqtisodiyotga o‘tish tezlashadi. Umuman olganda, Ekoponika ekologik muammolarni bartaraf etish bilan birga iqtisodiy barqarorlikni ham ta’minlovchi samarali yechimdir. Uni keng qo‘llash orqali kelajak avlodlar

uchun sog‘lom ekologik muhit yaratish va barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish mumkin. Shu bois, Ekoponika modeli davlat siyosati va iqtisodiy strategiyalarda muhim o‘rin egallashi lozim.

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Alimova S.G. «Green logistics-the principle of sustainable development» Novateur publications Journal NX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 9 том, ISSUE 12 ISSN No: 2581 — 4230, 2023/12, 15-18 стр.
2. Алимова С.Г. «Зелёная экономика с точки зрения биоэтики» Тиббий таълимда этика ва интеграtsiя масалалари. ТТА конференция материаллари. 2 том, 2021. 90-93 бет.
3. Pearce, D., & Barbier, E. (2005). Blueprint for a Green Economy. Earthscan.
4. UNEP (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. United Nations Environment Programme.
5. Ellen MacArthur Foundation (2015). Circular Economy and Sustainable Growth.
6. World Bank (2020). The Economics of Nature-Based Solutions.
7. IPCC (2021). Climate Change 2021: The Physical Science Basis.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# GLOBAL PENSIYA TIZIMLARI BARQARORLIGI VA YETARLILIGI TAHLILI

**Zokirova Gavxar**
Termiz davlat universiteti,
Moliya kafedrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada global pensiya tizimlarining moliyaviy barqarorligi va yetarlilik darajasi tahlil qilingan. Allianz Global Pension Report 2025 hisobotining natijalari asosida jahon mamlakatlari pensiya tizimlari holati baholangan va barqarorlik hamda yetarlilik o'rtasida muvozanatga erishishning dolzarbligi ta'kidlangan. Maqolada API indeksi metodologiyasi, pensiya tizimlarining kuchli va zaif tomonlari, shuningdek, mehnat bozorining ahamiyati alohida o'rganilgan. Daniya va Indoneziya kabi muvaffaqiyatli mamlakatlar tajribasi hamda O'zbekiston va Shri-Lanka kabi tizimida kamchiliklar mavjud bo'lgan mamlakatlar misolida tahlil olib borilgan. Shuningdek, pensiya tizimini isloh qilish uchun ustuvor yo'nalishlar, shu jumladan pensiya yoshini demografik o'zgarishlarga moslashtirish, ko'p ustunli modellarni joriy etish va mehnat bozorini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** global pensiya tizimlari, moliyaviy barqarorlik, yetarlilik, Allianz Pension Index, pensiya islohotlari, mehnat bozori, pensiya yoshi, norasmiy sektor, pensiya qamrovi, kapitallashtirilgan tizimlar, demografik o'zgarishlar, strategik pensiya siyosatlari.

# ANALYSIS OF THE STABILITY AND SUFFICIENCY OF GLOBAL PENSION SYSTEMS

**Zokirova Gavkhar**
Teacher, Department of Finance,
Termez State University

**Abstact.** This article analyzes the financial sustainability and adequacy of global pension systems based on the findings of the Allianz Global Pension Report 2025. It assesses the current status of pension systems across various countries and highlights the importance of achieving a balance between sustainability and adequacy. The study explains the methodology of the Allianz Pension Index (API), explores the strengths and weaknesses of different pension systems, and emphasizes the critical role of labor market conditions. Case studies of successful reforms in countries like Denmark and Indonesia, as well as challenges faced by Uzbekistan and Sri Lanka, are examined. The article also provides practical policy recommendations for pension reform, including gradual increases in retirement age linked to demographic changes, the development of multi-pillar pension models, and improvements in labor market inclusiveness.

**Key words:** global pension systems, financial sustainability, adequacy, Allianz Pension Index, pension reforms, labor market, retirement age, informal sector, pension coverage, funded schemes, demographic changes, strategic pension policies.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N07

**Kirish.** Pensiya tizimlari jahon bo'ylab keksayib borayotgan aholining moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Uzoq umr ko'rish darajasining oshishi va tug'ilish darajasining pasayishi kabi demografik o'zgarishlar bu tizimlarga tobora ko'proq bosim o'tkazmoqda. Ushbu demografik siljish qaramlik nisbatini o'zgartirib, ishga layoqatli

aholiga kattaroq nafaqaxoʻr aholini qoʻllab-quvvatlash uchun koʻproq yuk qoʻymoqda. Uzoq umr koʻrish darajasining ortishi shuni anglatadiki, odamlar nafaqada koʻproq yil oʻtkazadilar va bu pensiya tizimlaridan koʻproq resurslar talab qiladi. Tugʻilish darajasining pasayishi esa bu tizimlarga kelajakda kamroq ishchi kuchining hissa qoʻshishini anglatadi va bu tabiiy ravishda moliyaviy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi [5].

BMTning soʻnggi prognozlariga koʻra, 2050-yilga borib dunyo boʻyicha 65 yosh va undan katta yoshdagi aholi soni qariyb ikki baravarga koʻpayib, 857 milliondan 1,578 milliard kishiga yetishi kutilmoqda. Shu bilan birga, ishga yaroqli aholi ulushi pasayayotgani tufayli 2050-yilga kelib har 100 nafar mehnatga layoqatli shaxsga 26 nafar pensioner toʻgʻri keladi (hozirgi kunda 16 nafar). Bunday demografik oʻzgarishlar sharoitida jamoatchilik haqli ravishda savol qoʻymoqda: pensiya tizimlari kelgusidagi oʻzgarishlarga tayyormi? Pensiya tizimi bir vaqtning oʻzida ikki asosiy maqsadga erishishi kerak: bir tomondan, uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikka erishib, kelajakdagi yosh avlod zimmasiga ortiqcha yuk hoshlamasligi lozim; ikkinchi tomondan, keksa yoshli fuqarolarni munosib hayot darajasi bilan taʼminlashi zarur, aks holda tizimning jamoatchilik tomonidan qabul qilinishi va unga ishonch susayadi. Faqat amaldagilar hisobiga toʻlanadigan (joriy soliq va badal tushumlari evaziga joriy pensionerlarni taʼminlaydigan) anʼanaviy pensiya tizimlari bu ikki talabni uzoq muddat davomida birdek qondirishga qodir emasligi ayon boʻlib qoldi. Demografik oʻsish va qarish sharoitida nafaqalarni barqaror moliyalashtirish hamda ularning yetarliligini taʼminlash oʻrtasida toʻgʻri muvozanatni topish pensiya siyosatining asosiy vazifasiga aylandi [1].

Shu sababli, koʻplab mamlakatlar pensiya tizimini isloh qilishga kirishgan boʻlib, bu islohotlar mohiyatida pensiya taʼminoti ustunlarini diversifikatsiya qilish va mehnat bozorini yangi realliklarga moslashtirish yotadi. Jumladan, uzoq umr koʻrish tendensiyasini hisobga olgan holda pensiya yoshini oshirish va uni kelgusi hayot davomiyligi oʻzgarishiga bogʻlash gʻoyalari yildan-yilga koʻproq davlatlar kun tartibiga kirmoqda. Xususan, ayrim mamlakatlarda yoshi katta xodimlarni mehnat bozorida uzoqroq qolishini ragʻbatlantiruvchi siyosat choralari (masalan, ishdan pensiyaga bosqichma-bosqich oʻtish imkoniyati) joriy etilmoqda, bu jarayon muayyan holatlarda mehnat bozorida malakali kadrlar yetishmovchiligi kuchaygani uchun tezlashdi. Shu bilan birga, baʼzi yurtlarda avval eʼlon qilingan yoki qabul qilingan pensiya islohotlari suslashttirildi yoki kechiktirildi. Yevropa mintaqasida ayrim davlatlar soʻnggi yillarda koʻchmanchilar va qochqinlarning kirib kelishi hisobiga mehnat resurslari koʻpayib, aholi qarishi surʼati sekinlashgani tufayli qayta taqsimlovchi (pay-as-you-go) tizimga tayangan holatlar kuzatildi. Biroq mutaxassislarning taʼkidlashicha, immigratsiya uzoq muddatda pensiya tizimini qutqaruvchi yechim boʻlolmaydi, zero bugun ishchi kuchini yetkazib beruvchi mamlakatlar ham erta-in kech aholi qarishi muammosiga duch kelishadi. Nihoyat, koʻplab rivojlanayotgan davlatlarda mehnat bozorining norasmiy sektori ulushi yuqoriligicha qolmoqda – bu esa pensiya tizimi bilan qamrovni kengaytirishga toʻsqinlik qiluvchi asosiy omilligicha qolmoqda. Ushbu omillarni bartaraf etish – pensiya tizimlarini kelajakka tayyorlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [7].

**Adabiyotlar tahlili.** Maqolani tayyorlashda asosiy manba sifatida Allianz Global Pension Report 2025 hisoboti foydalanildi. Unda global pensiya tizimlarining moliyaviy barqarorligi va yetarlilik darajasi API indeks asosida tahlil qilingan hamda pensiya yoshini oshirish, koʻp ustunli modellar joriy etish va mehnat bozorini takomillashtirish boʻyicha tavsiyalar berilgan. Shu bilan birga, Global Pension Assets Study 2025 tadqiqoti orqali

kapitallashtirilgan sxemalarning ahamiyati, The Value of Active Strategies in Old-Age Provision maqolasi orqali moliyaviy savodxonlik va shaxsiy jamg‘armalarning rolini oshirish zarurligi yoritilgan. Allianz Global Investors’ intervyusi esa pensiya fondlarida mustahkam boshqaruv va shaffoflikni ta’minlash masalasini asoslab berdi. Jahon banki, Xalqaro mehnat tashkiloti va Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari orqali pensiya tizimlariga demografik va mehnat bozori omillarining ta’siri baholandi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda Allianz Global Pension Report 2025 hisoboti va boshqa xalqaro manbalar asosida global pensiya tizimlarining moliyaviy barqarorlik va yetarlilik darajalari tahlil qilindi. Mavjud ilmiy adabiyotlar asosida pensiya tizimiga oid asosiy nazariy modellar tizimlashtirildi va turli mamlakatlar (Daniya, Indoneziya, O‘zbekiston, Shri-Lanka) tajribasi qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, umumlashtirish va qiyosiy tahlil metodlari qo‘llanildi. API indeks parametrlari orqali pensiya tizimlarining muvaffaqiyat omillari va mavjud muammolari empirik ma’lumotlarga tayanilgan holda baholandi.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.** Allianz Pension Index (API) – 2025-yilda jahon pensiya tizimlarini kompleks baholovchi ko‘rsatkich hisoblanadi. U 71 mamlakatning pensiya tizimini 40 ta parametr asosida uch yo‘nalishda baholab, har bir parametrni 1 dan 7 gacha shkalada o‘lchaydi (1 – islohotga hojat yo‘q, 7 – islohot juda zarur). 2025-yil uchun APIning o‘rtacha umumiy ko‘rsatkichi 3,7 ni tashkil etdi, bu esa aksariyat davlatlarda pensiya sohasida hali ham muntazam islohotlarga ehtiyoj mavjudligini anglatadi. Ushbu ko‘rsatkich dunyo bo‘ylab pensiya tizimlarida barqarorlik va yetarlilik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash uchun qo‘shimcha chora-tadbirlar talab etilishidan dalolat bermoqda [3].

API uchta sub-indeksdan iborat: “boshlang‘ich shart-sharoitlar” (demografik o‘zgarish sur’ati, davlat qarzi darajasi va umumiy yashash standarti kabi tizimdan tashqari omillar), “barqarorlik” (pensiya tizimining aholi qarishiga moliyaviy tayyorgarlik holati) va “yetarlilik” (keksa yoshdagilarni pensiya yoshida kafolatlangan daromad bilan ta’minlash darajasi). Har bir yo‘nalish alohida baholanib, so‘ngra integral indeks hisoblab chiqiladi. 2025-yilda “boshlang‘ich shart-sharoitlar” bo‘yicha o‘rtacha ball 4,0 ga teng bo‘ldi, “barqarorlik” bo‘yicha 3,7 va “yetarlilik” bo‘yicha 3,5 ballni tashkil etdi. Shu tarzda, jahon pensiya tizimlarida o‘rtacha holat qisman mos yoshdagi aholini munosib darajada ta’minlashga qaratilib, uzoq muddatli barqarorlikni yaxshilash ikkinchi darajali vazifa bo‘lib qolayotgani kuzatilmoqda.

API reytingida eng yuqori natija Daniyaga to‘g‘ri keldi (umumiy ball 2,3), bu ushbu mamlakat pensiya tizimi islohotga deyarli muhtoj emasligini anglatadi, eng past natija esa Shri-Lankada qayd etildi (5,0 ball) va bu pensiya sohasida islohot zarurati eng yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi. Hech qaysi mamlakat uchchala yo‘nalish bo‘yicha birdek yetakchi emas: faqat Daniya va Shvetsiya har uch sub-indeksning har biri bo‘yicha “eng kam islohotga muhtoj o‘nlik” qatoriga kiradi. API ko‘rsatkichlari shu tariqa har bir davlat uchun pensiya tizimining qaysi jihatlarida islohot talabi yuqoriligini ko‘rsatib berib, islohotlar uchun ustuvor yo‘nalishlarni belgilashga asos yaratadi.

Barqarorlik va yetarlilik tushunchalari pensiya tizimi samaradorligida o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi mezonlar sifatida namoyon bo‘ladi. Barqarorlik deganda tizimning moliyaviy jihatdan uzluksiz faoliyat ko‘rsata olishi, ya’ni keyingi avlodlar zimmasiga ortiqcha tashqi yuklamalar tushmasligi nazarda tutiladi. Yetarlilik esa nafaqalarning keksa yoshdagi insonlarga munosib darajada hayot kechirish imkonini berishi, ularning og‘ir holatga tushib

qolmasligini ta'minlashi tushuniladi. Pensiya tizimi bu ikki maqsadga bir vaqtning oʻzida erishishi lozim, biroq amalda bu oson emas. Masalan, faqat taqsimot (davlat) tizimiga asoslangan an'anaviy pensiya modellari uzoq muddatda ham moliyaviy barqarorlikni, ham yuqori pensiya darajasini uzluksiz ta'minlab bera olmaydi. Shu bois koʻp mamlakatlar pensiya ta'minotining faqat davlat resurslariga bogʻliq boʻlib qolmasligi uchun uni diversifikatsiya qilishga intilmoqda. Ya'ni pensiya tizimidagi yagona manba – ishlovchi aholidan yigʻiladigan badallar hisobidan toʻlanadigan joriy nafaqalar bilan cheklanib qolmasdan, qoʻshimcha kapitallashgan (jamgʻarma) ustunlar ham shakllantirilmoqda. Aralash (koʻp ustunli) tizim demografik oʻzgarishlarga chidamliroq boʻlib, uzoq muddatda barqarorlik va yetarlilik oʻrtasidagi muvozanatni saqlashga koʻmaklashadi. Albatta, bunday muvozanatga erishish har bir mamlakatning oʻziga xos sharoitini hisobga olgan holda ketma-ket va uzluksiz islohotlarni talab etadi. Qisqa muddatli manfaatlarni koʻzlab islohotlarni kechiktirish yoki siyosiy bahslarga berish esa, aksincha, vaqt oʻtishi bilan muammoni chigallashtirib, keyingi avlodlar zimmasiga ogʻirroq yuk tushishiga sabab boʻladi. Shuning uchun barqarorlik va yetarlilik oʻrtasidagi muvozanatni ta'minlash nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy adolat nuqtai nazaridan ham ahamiyatli vazifadir.

API reytingida eng yuqori bahoni qoʻlga kiritgan Daniya va barqarorlik sub-indeksi boʻyicha yetakchi davlatlardan biri boʻlgan Indoneziya pensiya tizimini isloh qilishdagi muvaffaqiyatli yondashuvlarga misol boʻla oladi. Ular pensiya tizimini zamonaviy talablarga moslashtiruvchi muhim islohotlarni joriy etish orqali oʻz natijalarini yaxshilagan. Jumladan, Indoneziya soʻnggi yillarda pensiya yoshini bosqichma-bosqich oshirib, pensiya ta'minotiga kapitallashgan xususiy elementlarni kiritdi. Natijada ushbu mamlakat pensiya tizimining barqarorligi boʻyicha API koʻrsatkichlarida eng yaxshi natijalardan birini qayd etdi. Daniya ham aholi qarishi kuchayib borayotgan sharoitda pensiya yoshini uzaytirish, uni umr davomiyligiga bogʻlash va xususiy hamda ish beruvchi tomonidan toʻlanadigan pensiya jamgʻarmalarini keng joriy etish orqali tizimning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga erishdi. Darhaqiqat, ushbu ikki mamlakat (shuningdek, Bolgariya) pensiya islohotlarining eng muhim choralarini (pensiya yoshini oshirish, jamgʻarma ustunini joriy etish va h.k.) samarali tatbiq etgani tufayli pensiya tizimi barqarorligi boʻyicha islohotga ehtiyoj eng past darajada signal berilgan davlatlar sirasiga kirdi. Ayni paytda, Daniya nafaqalarning umumiy darajasi va qamrovi boʻyicha ham dunyoning yetakchi mamlakatlaridan biri sanaladi: bu yerda davlat pensiyasiga qoʻshimcha tarzda ish beruvchi toʻlovlari va shaxsiy jamgʻarma hisoblaridan iborat kuchli tashkil etilgan ustun mavjud boʻlib, pensiya ta'minotining asosiy qismini tashkil qiladi. Koʻp ustunli bunday tizim Daniyaga keksalar uchun ham munosib nafaqalar toʻlash, ham yosh avlodga tushadigan yukni cheklangan holatda saqlash imkonini bergan. Natijada Daniyaning umumiy API bahosi eng yaxshi koʻrsatkich (2,3) boʻldi va mamlakat pensiya tizimi demografik oʻzgarishlarga eng tayyor ekani tasdiqlandi [2].

2020-yilgi Allianz hisobotida Oʻzbekiston umuman tilga olinmagan boʻlsa, 2023-yilgi tahlilda u 75 davlat orasida 71-oʻrinni egallab, 4,5 ballik umumiy API koʻrsatkichi bilan "kritik" toifaga kiritildi. "Asosiy shartlar" subindeksi 4,4 ball, "Barqarorlik" - 3,6 ball, "Adekvatlik" esa 5,3 ballga tushgan, bu past baholar asosan norasmiy bandlik yuqoriligi, moliyaviy xizmatlarga yetarli kirish imkoniyati yoʻqligi va yuqori badallar (12–25 %)ga qaramay past almashtirish koeffitsiyenti (55 %) bilan izohlanadi. Shuningdek, keksa yoshdagi aholi mehnat bozorida kam ishtirok etayotgani ham tizim samaradorligini pasaytiradi. 2025-yilgi hisobot esa 71 ta

mamlakatni qamrab olgan boʻlib, Oʻzbekiston unda alohida tilga olinmagan mamlakat marjinal ahamiyatga ega boʻlganini anglatishi mumkin [1].

Shri-Lanka ham API reytingida 5,0 ball bilan soʻnggi oʻrinni egalladi va "Barqarorlik" subindeksida ham eng past natijani koʻrsatdi. Bosh sabab - qonuniy pensiya yoshining oʻta pastligi: ayollar uchun 50 yosh, erkaklar uchun ham shunga yaqin. Uzoq umr koʻrish sharoitida bu tizimga ogʻir moliyaviy bosim yuklaydi, pensiya yoshi oshirilmasa, zaxiralar juda tez tugaydi. Ijtimoiy qamrov ham zaif, pensiya fondlari aktivlari yetarli emas, shuning uchun koʻpchilik keksalar kam taʼminlanishi mumkin.

Har ikki mamlakat misoli shundan dalolat beradiki, pensiya tizimining barqarorligi va yetarliligi, avvalo, mehnat bozoridagi rasmiy qamrov, moliyaviy infratuzilma va realistik pensiya yoshi siyosatiga bogʻliq. Oʻzbekiston uchun bu demografik "dividend" tugamasidan oldin tizimni diversifikatsiya qilish va norasmiy sektorni qisqartirish zarurligini, Shri-Lanka uchun esa pensiya yoshini zudlik bilan koʻtarish va kapitallashgan ustunlarni rivojlantirish zarurligini koʻrsatadi.

Pensiya tizimini isloh etish faqat qonunchilik yoki moliyaviy oʻzgarishlar bilan cheklanmaydi balki mehnat bozorining holati va undagi tendensiyalar ushbu islohotlarning samaradorligiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Ayniqsa, koʻplab rivojlanayotgan mamlakatlar uchun mehnat bozorini rasmiylashtirish, yaʼni norasmiy sektor ulushini kamaytirish orqali koʻproq fuqarolarni pensiya tizimi qamroviga jalb etish dolzarb vazifadir. Rivojlangan mamlakatlarda esa aholi qarishi sharoitida mehnat bozorini yoshi katta xodimlar ehtiyojlariga moslashtirish va eydjizmga (yoshga qarab kamsitishga) barham berish muhim hisoblanadi. Pensiya yoshini oshirishga qaratilgan choralarga nisbatan jamoatchilik qarshiligi koʻpincha aynan keksa yoshli xodimlarning mehnat bozorida duch keladigan qiyinchiliklari bilan bogʻliq boʻladi. Masalan, bir qator mamlakatlarda yoshi katta insonlar ishsiz qolgan taqdirda qayta ish topishi qiyin, ularning ishsizlik davri yoshlarga nisbatan uzoqroq davom etadi. Shu bois pensiya yoshini oshirish bevosita pensiyaga chiqish oldidan uzoqroq muddat ishsiz qolish va natijada oladigan nafaqaning kamayishi xavfi bilan tenglashtiriladi. Shu sababli, pensiya islohotlarining muvaffaqiyati uchun mehnat bozorini keksa yoshli kadrlar uchun yanada inklyuziv etish talab etiladi. Bunda ish joylarini yoshi katta xodimlar imkoniyatlariga moslashtirish muhim hisoblanadi: masalan, ishxonalarni ergonomik jihatdan qayta jihozlash, yorugʻlik va shovqin muhitini yaxshilash, shuningdek, mehnat sharoitlarini oʻzgartirish – mehnat vazifalari taqsimotini qayta koʻrib chiqish, ish va dam olish vaqtlarini qayta tashkil etish, masofaviy va qisman ishlash imkoniyatlarini kengaytirish kabi choralar taklif etilmoqda [6].

Dunyo mamlakatlari mehnat bozorlarida yoshi kattalarning ishtirok darajasida katta tafovut mavjud. Yaponiya, Singapur va Janubiy Koreya kabi davlatlarda 65 yoshdan oshgan erkaklarning 30–51% hali ham mehnat faoliyatida ishtirok etayotgan boʻlsa, shu davlatlarda (va Yangi Zelandiyada) keksa yoshli ayollar mehnat faolligi darajasi ham 19–32% ni tashkil etmoqda. Boshqa aksariyat rivojlangan mamlakatlarda esa bu koʻrsatkich nisbatan past boʻlib, yoshi kattalarni mehnat bozoriga jalb etish borasida zaiflik mavjudligini koʻrsatadi. Shu bilan birga, rivojlanayotgan dunyodagi koʻplab jamiyatlarda pensioner yoshdagilarning mehnatda faol qolishi koʻpincha pensiya nafaqalarining kamligi va yalpi daromadni toʻldirish zarurati bilan izohlanadi. Demak, pensiya tizimini barqarorlashtirish uchun, bir tomondan, rasmiy sektor qamrovini kengaytirish juda muhim boʻlsa, ikkinchi tomondan, yoshi kattalar uchun pensiya taʼminotining oʻzi yetarli boʻlishini taʼminlash talab etiladi.

Pensiya yoshini oshirish va uni demografik oʻzgarishlarga moslashtirish koʻpchilik mamlakatlar uchun islohotlarning asosiy tarkibiy qismiga aylandi. Bugungi kunda juda koʻp davlatlarda qonuniy belgilangan pensiya yoshi 60–65 atrofida yoki undan pastroqdir. Hatto 23 ta mamlakatda ayollarning rasmiy pensiya yoshi erkaklarnikiga nisbatan past koʻrsatkich boʻlib qolmoqda – bunga qaramay, statistikaga muvofiq ayollar erkaklarga nisbatan uzoqroq umr koʻradi. Hozirda 30 ga yaqin mamlakat 2050-yilgacha pensiya yoshini bosqichma-bosqich oshirishni rejalashtirgan, biroq bu oʻzgarishlar kutilgan umr davomiyligi oʻsishini toʻliq qoplamasligi taxmin qilinmoqda. Faqat 15 ta davlatda pensiya yoshi avtomatik ravishda umr davomiyligi oʻzgarishlariga bogʻlangan boʻlib, bu pensiyada oʻtkaziladigan vaqtning ish faoliyati davomiyligiga nisbatini barqaror saqlash imkonini beradi. Baʼzi mamlakatlarda anʼanaviy qatʼiy pensiya yoshi oʻrniga "meʼyoriy yosh" (reference age) yoki pensiya yoshi uchun "koridor" joriy etish gʻoyasi ilgari surilmoqda: bunda belgilab qoʻyilgan maʼlum yosh pensiya toʻla toʻplanishi uchun mos yosh sifatida qabul qilinib, fuqaroga ushbu yoshgacha yoki undan keyin qisman ishlash va qisman nafaqa olish imkoniyati beriladi. Shuningdek, ayrim ekspertlar umr davomiyligi kamaygan yillarda (masalan, pandemiya davrida) pensiya yoshini vaqtincha pasaytirish mexanizmini joriy etish taklifini ham ilgari surganlar (bunday yondashuv Portugaliya misolida amalga oshirilgan) [1].

Nihoyat, pensiya tizimining moliyaviy barqarorligi uchun qoʻshimcha zaxiralarni yaratish muhim. Koʻplab mamlakatlar davlat pensiya jamgʻarmalarini tashkil etib, kelajakdagi toʻlovlar uchun xazina toʻplashga kirishgan. Masalan, 17 ta davlatda shunday jamoat pensiya zaxira fondlari mavjud boʻlib, ularning aktivlari Ispaniyada yalpi ichki mahsulotning 0,4%idan Janubiy Koreyada 46%igacha yetadi. Albatta, bunday jamgʻarma elementlarini moliyalashtirish uchun qoʻshimcha resurslar talab etiladi – masalan, qoʻshimcha sugʻurta badallarini joriy etish yoki davlat tomonidan subsidiya ajratish, aks holda bunday fondlar uchun sarf xarajatlari pensiya toʻlovlari hisobidan qoplanishiga toʻgʻri keladi. Shu sabab, har bir mamlakat oʻz imkoniyatidan kelib chiqib, pensiya tizimida rezerv zaxira yaratish masalasini ham kun tartibiga qoʻymoqda.

Aniqki, mehnat bozoridagi vaziyat va ish bilan taʼminlash darajasi pensiya tizimi islohotlarining muvaffaqiyatida hal qiluvchi oʻrin tutadi. Mehnat bozorini ragʻbatlantirish, pensiya yoshini demografik realliklarga mos ravishda oshirish va pensiya jamgʻarmalarini shakllantirish orqali pensiya tizimlarini uzoq muddatli barqaror va samarali holga keltirish mumkin.

Quyidagi 1-jadval global pensiya tizimlarining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari hamda tahdidlarini (SWOT) bir qatorda koʻrsatib, islohotlarni qaysi yoʻnalishda ustuvorlash kerakligini aniqlashga yordam beradi.

**1-jadval**

**Global pensiya tizimlarining SWOT tahlili[1]**

| Kuchli tomonlar (Strengths) | Zaif tomonlar (Weaknesses) |
|---|---|
| 1. Barqarorlik va yetarlilik muvozanatiga eʼtiborning kuchayishi: Tizimlarning uzoq muddatli moliyaviy sogʻlomligi va pensionerlar uchun yetarli daromadni taʼminlashga intilish. | 1. Past qamrov (ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda): Norasmiy bandlikning keng tarqalganligi tufayli koʻplab ishchilarning pensiya tizimidan chetda qolishi. |

[1] "Allianz Global Pension Report 2025" hisoboti asosida muallif tomonidan tuzilgan.

| | |
|---|---|
| 2. Moslashuvchan siyosat instrumentlari: Nafaqa yoshini va toʻlov davrlarini oshirish kabi choralar orqali tizim barqarorligini oshirish tendensiyasi. | 2. Pensiya jamgʻarmalaridagi tafovut xavfi: Kelajak avlodlar, ayniqsa yoshlar uchun kutilayotgan pensiya miqdori va munosib hayot uchun zarur boʻlgan mablagʻ oʻrtasidagi farqning oʻsishi ehtimoli. |
| 3. Diversifikatsiyaga intilish: Davlat tomonidan taqsimlanuvchi tizimlarga yukni kamaytirish va umumiy pensiya taʼminotini kuchaytirish maqsadida qoʻshimcha kapitallashtirilgan pensiya sxemalariga (2 – va 3-ustunlar) qiziqishning ortishi. | 3. Moslashishdagi qiyinchiliklar: Anʼanaviy pensiya modellarining oʻzgarib borayotgan mehnat bozorlariga (masalan, gig-iqtisodiyot, nostandart bandlik shakllari) moslashishdagi sustligi. |
| 4. Mehnat bozori bilan bogʻliqlikni anglash: Pensiya islohotlari muvaffaqiyati mehnat bozorining holatiga (rasmiylashtirish, keksa ishchilar ishtiroki) bogʻliq ekanligini tan olish. | 4. Muvozanatga erishishdagi qiyinchilik: Barqarorlikni taʼminlash va yetarli pensiya miqdorini taklif qilish oʻrtasidagi murakkab muvozanatga erishishdagi turli darajadagi muvaffaqiyat. |
| **Imkoniyatlar (Opportunities)** | **Tahdidlar (Threats)** |
| 1. Mehnat bozorini isloh qilish: Rasmiy bandlikni ragʻbatlantirish, keksa yoshdagi ishchilarning faolligini qoʻllab-quvvatlash va yoshga oid kamsitishga qarshi kurashish orqali pensiya tizimiga ijobiy taʼsir koʻrsatish. | 1. Demografik bosim: Aholining global miqyosda qarishi va tugʻilish darajasining pasayishi pensiya tizimlariga uzoq muddatli va kuchayib boruvchi yuk boʻlib tushmoqda. |
| 2. Kapitallashtirilgan tizimlarni rivojlantirish: Ixtiyoriy va kasbiy pensiya rejalarini yanada rivojlantirish va ommalashtirish orqali davlat tizimiga tushadigan yukni kamaytirish va umumiy taʼminotni oshirish. | 2. Siyosiy beqarorlik va aralashuv: Pensiya fondlarining katta moliyaviy resurslari va ijtimoiy ahamiyati ularni siyosiy taʼsirlarga moyil qilib qoʻyishi, bu esa uzoq muddatli barqarorlik va islohotlar samaradorligiga putur yetkazishi mumkin. |
| 3. Innovatsion yondashuvlar: Yangi bandlik shakllarini hisobga oluvchi, moslashuvchan va keng qamrovli pensiya mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish. | 3. Mehnat bozorining oʻzgaruvchanligi: Bandlikning nostandart shakllarining kengayishi va mehnat munosabatlarining oʻzgarishi anʼanaviy pensiya tizimlarining moliyaviy asoslari va qamroviga tahdid solishi mumkin. |

Tahlil natijalari shuni koʻrsatadiki, barqarorlik-yetarlilik muvozanatiga erishishda diversifikatsiya, mehnat bozorini rasmiylashtirish va moliyaviy savodxonlikni oshirish kabi imkoniyatlardan foydalanish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, aks holda demografik bosim va siyosiy beqarorlik kabi tahdidlar tizim samaradorligini pasaytiradi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, jahonda kuzatilayotgan demografik oʻzgarishlar sharoitida pensiya tizimlarini moliyaviy barqaror va aholi uchun yetarli darajada saqlab qolish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Allianz Global Pension Report 2025 hisoboti natijalari koʻrsatmoqdaki, koʻpchilik davlatlarda pensiya islohotlari sust surʼatda bormoqda va

hatto eng ilgʻor tizimlarda ham yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Oʻzbekiston misolida esa, 2023-yilgi hisobotda aniq koʻrinib turganidek, tizim jiddiy muammolarga duch kelmoqda, jumladan, past yetarlilik va barqarorlik koʻrsatkichlari, bunga norasmiy bandlikning yuqoriligi va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi sabab boʻlmoqda. Shu bilan birga, Daniya kabi mamlakatlar tajribasi pensiya taʼminotida taqsimot (davlat) va jamgʻarma ustunlarining uygʻunlashuvi orqali barqarorlik va yetarlilikni bir vaqtda taʼminlash mumkinligini namoyon etdi – bu esa uzoqni koʻzlagan strategik yondashuv va siyosiy irodani talab qiladi. Umuman olganda, pensiya sohasidagi siyosatning bosh maqsadi barqarorlik va yetarlilik muvozanatiga erishishdan iborat boʻlib, bu tamoyil pensionerlarni munosib taʼminlash bilan birga kelajak avlodlar zimmasiga nomutanosib yuk tushishining oldini olishga qaratilgan. Oʻzbekiston ham ushbu muvozanatga erishish va 2023-yilgi hisobotda koʻrsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish yoʻlida faol harakat qilishi zarur.

Pensiya tizimini isloh qilishda endilikda ortga surib boʻlmaydigan quyidagi ustuvor yoʻnalishlar mavjud:

Birinchidan, pensiya yoshini demografik tendensiyalarga mos holda bosqichma-bosqich oshirib borish talab etiladi. Bunda pensiya yoshini umr davomiyligiga bogʻlash yoki ularning nisbatini barqaror ushlab turuvchi elastik mexanizmlardan foydalanish tavsiya qilinadi.

Ikkinchidan, pensiya tizimini diversifikatsiya qilish zarur – davlat tomonidan toʻlanadigan pensiyaga qoʻshimcha ravishda ish beruvchi va xususiy jamgʻarmalar (korporativ pensiya fondlari, shaxsiy hissa jamgʻarish rejalari va h.k.)ni rivojlantirish lozim. Koʻp ustunli bunday tizim pensiya taʼminoti xavflarini kamaytiradi va aholining keksalikdagi daromad manbalari turfaligini taʼminlab, umumiy farovonlikka xizmat qiladi.

Uchinchidan, mehnat bozorini yanada takomillashtirish talab etiladi: norasmiy sektor ulushini qisqartirish, xotin-qizlar va yoshi katta xodimlarning mehnat faolligi ulushini oshirish, ular uchun maxsus qulay mehnat sharoitlarini yaratish orqali pensiya tizimiga koʻproq fuqarolarni jalb etish mumkin.

Toʻrtinchidan, pensiya muammolarini faol va oʻz vaqtida hal qilish zarur. Kelajakda yanada keskin va ogʻriqli islohotlarga yoʻl qoʻymaslik uchun hozirdan qatʼiy choralar koʻrish lozim. Bu demografik va iqtisodiy oʻzgarishlarga tez moslashish, pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini taʼminlash va aholining ishonchini saqlashga yordam beradi.

Beshinchidan, moliyalashtirishga muvozanatli yondashuvni qoʻllash muhim. Har bir mamlakatning demografik, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlariga mos ravishda taqsimlash (davlat pensiyalari) va kapitallashtirish (xususiy jamgʻarmalar) usullarining optimal aralashmasini yaratish talab qilinadi. Bu tizimning moslashuvchanligini oshiradi va turli xavflarga qarshi barqarorlikni taʼminlaydi.

Oltinchidan, kuchli mehnat bozori siyosatini yoʻlga qoʻyish lozim. Rasmiy bandlikni ragʻbatlantiruvchi, yoshga nisbatan kamsitishga qarshi kurashadigan va keksa yoshdagi xodimlarning mehnat bozorida faol ishtirok etishiga yordam beruvchi choralar pensiya tizimiga koʻproq fuqarolarni jalb qiladi. Bu, masalan, qayta oʻqitish dasturlari yoki moslashuvchan ish jadvallari orqali amalga oshirilishi mumkin.

Yettinchidan, moliyaviy savodxonlikni oshirish va foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Ayniqsa, kapitallashtirilgan pensiya tizimlarida shaxslarga oʻz nafaqa jamgʻarmalarini boshqarishda ongli qarorlar qabul qilish uchun yetarli bilim va resurslar taqdim etilishi kerak. Bu aholining moliyaviy xavfsizligini mustahkamlaydi va tizimga

ishonchni oshiradi.

Sakkizinchidan, mustahkam boshqaruv va tartibga solish tizimini joriy qilish muhim. Pensiya fondlarining shaffof, hisobdor va mustaqil boshqaruv tuzilmalari benefitsiarlar manfaatlarini himoya qiladi va nafaqa jamgʻarmalarining uzoq muddatli xavfsizligini taʼminlaydi. Bu korrupsiya xavfini kamaytirib, tizimning barqarorligini oshiradi.

2-jadval "Allianz Global Pension Report 2025" hisobotidan chiqarilgan asosiy xulosalar va ularga mos amaliy tavsiyalarni bir qarashda koʻrish imkonini beradi, shuningdek, har bir tavsiyaning qanday muammoga javob berishini ochib beradi.

**2-jadval**

**Asosiy xulosa va tavsiyalar**[1]

| № | Asosiy xulosalar | Asosiy tavsiyalar |
|---|---|---|
| 1 | Global pensiya tizimlari moliyaviy barqarorlik va yetarli nafaqa miqdorini taʼminlashda muammolarga duch kelmoqda. | Pensiya yoshini uzoq umr koʻrish darajasiga muvofiq ravishda bosqichma-bosqich oshirish. |
| 2 | Demografik oʻzgarishlar (aholining qarishi, tugʻilish darajasining pasayishi) asosiy muammolar hisoblanadi. | Keksa yoshdagi ishchilarni mehnat bozorida uzoqroq qolishga ragʻbatlantiruvchi moslashuvchan siyosatlarni joriy etish. |
| 3 | Ideal yagona pensiya tizimi mavjud emas, aralash moliyalashtirish tizimlari yaxshiroq natijalar bermoqda. | Qoʻshimcha kapitallashtirilgan pensiya sxemalarining rolini kuchaytirish va rivojlantirish. |
| 4 | Pensiya tizimlari samaradorligi mehnat bozori holati va tuzilishiga bogʻliqdir. | Rivojlanayotgan mamlakatlarda mehnat bozorlarini rasmiylashtirishga ustuvor eʼtibor qaratish. |
| 5 | Rivojlanayotgan mamlakatlarda norasmiy sektorning keng tarqalishi pensiya tizimi qamrovini cheklamoqda. | Yoshi katta xodimlarning mehnatdagi ishtirokini kengaytirish, yoshga nisbatan kamsitishga qarshi kurashish. |
| 6 | Kapitallashtirilgan pensiya sxemalari daromad xavfsizligini oshirishda muhim rol oʻynamoqda. | Barcha pensionerlar uchun munosib hayot darajasini taʼminlovchi yetarli pensiya darajasini va qamrovni taʼminlash. |

Bu chora-tadbirlar pensiya jamgʻarmasiga tushumlarni koʻpaytirib, kelajak pensionerlar nafaqasini hozirdan shakllantirish imkonini beradi. Oʻzbekiston sharoitida, ayniqsa, norasmiy sektor ulushi yuqori boʻlgani uchun, rasmiy bandlikni kengaytirish va koʻp ustunli model joriy etish jamgʻarma bazasini sezilarli oshiradi. Nihoyat, har qanday islohotning samarasi qatʼiy siyosiy iroda va jamoatchilik ishonchiga bogʻliq. Endi "gapdan ishga oʻtish vaqti keldi" – Daniya singari muvaffaqiyatli tajribaga ega mamlakatlar qatorida Oʻzbekiston kabi muammolarga duch kelayotgan davlatlar ham pensiya tizimini modernizatsiya qilish yoʻlida aniq va qatʼiy choralarni kuchaytirishi zarur. Bugun qabul qilinadigan qarorlar ertangi keksalarning hayot darajasini belgilabgina qolmay, yosh avlod zimmasiga tushadigan yukning adolatli taqsim etilishini ham taʼminlaydi.

[1] "Allianz Global Pension Report 2025" hisoboti asosida muallif tomonidan tuzilgan

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Allianz Global Pension Report 2025: Time to walk the talk.
2. Global Pension Assets Study — 2025 — Thinking Ahead Institute.
3. The value of active strategies in old-age provision — Allianz Global Investors.
4. Interview with — Allianz Global Investors.
5. Gavkhar Zokirova (2023). Changes in the State Pension System in Uzbekistan. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 10(1), 274-279.
6. Gavxar Zokirova (2024). Oʻzbekiston pensiya tizimi islohotlarida xorijiy tajribani qoʻllash. Muhandislik va iqtisodiyot, 2(5), 9–14.
7. Gavxar Zokirova (2024). Oʻzbekistonda pensiya tizimini isloh qilish zarurligi. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2(12), 10–14.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

## 09.00.00- FALSAFA FANLARI – PHILOSOPHICAL SCIENCES

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# TASAVVUFDA INSON MA'NAVIY KAMOLOTI MASALASI

**Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna**
Alfraganus universiteti ijtimoiy
fanlar kafedrasi professor v.b. f.f.d. (DSc)

**Muxtorov Muxsin Jabborovich**
Sharof Rashidov nomidagi SamDU
falsafa va milliy gʻoya kafedrasi dotsenti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tasavvufda insonning ma'naviy kamoloti masalasi koʻrib chiqilgan. Tasavvuf falsafasining asosiy jihatlari, shu jumladan ruhiy amallarining shaxsning ichki rivojlanishiga va ilohiy bilimni anglashga qanday ta'sir koʻrsatishi tahlil qilinadi. Maqolada qalbni poklash, oʻzini anglash va insonning oʻz oʻrnini dunyoda topish masalalari koʻrib chiqilgan. Shuningdek, tasavvuf ma'rifatining va mutasavvif allomalarning oʻz davrida ma'naviy yetuk shaxsni shakllantirishdagi roli va bugungi kundagi qadriyatli jihatlari haqida alohida soʻz boradi.

**Kalit soʻzlar:** Tasavvuf, ma'naviy kamolot, qalbni poklash, oʻzini anglash, ma'rifat, bilim, tasavvuf allomalari.

# THE ISSUE OF SPIRITUAL PERFECTION OF A PERSON IN SUFISM

**Tursunkulova Shakhnoza Tuychiyevna**
Alfraganus University
Professor, Acting Professor,
Department of Social Sciences

**Mukhtorov Muhsin Jabborovich**
Associate Professor, Department of Philosophy
and National Idea, Samara State University
named after Sharof Rashidov

**Abstract.** This article discusses the issue of spiritual perfection of a person in Sufism. The key aspects of Sufi philosophy are analyzed, including the influence of spiritual practices on the inner development of an individual and the understanding of divine knowledge. The article explores topics such as purifying the heart, self-awareness, and finding one's place in the world. Additionally, it highlights the role of Sufi enlightenment and the Sufi scholars in shaping spiritually mature individuals during their time and the valuable aspects of this teaching in the modern world.

**Keywords:** Sufism, spiritual perfection, heart purification, self-awareness, enlightenment, knowledge, Sufi scholars.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N08

**Kirish**

Tasavvuf nafaqat diniy oʻqitish yoki ilmiy taʼlimot, balki insonning ichki dunyosini, ruhiyatini yuksaltirish va uni ilohiy haqiqat bilan bogʻlashga qaratilgan bir murakkab tizimdir. U, eng avvalo, insonning maʼnaviy rivojlanishini, uning Alloh bilan boʻlgan aloqasini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Tasavvufdagi goʻzallik tushunchasi esa oʻzining barcha oʻzgaruvchan shakllari bilan inson qalbi va ruhining kamolotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Goʻzallik, tasavvufda faqat tashqi koʻrinishni anglatmaydi. Bu nafaqat moddiy dunyo, balki ruhiy, maʼnaviy, axloqiy va estetik qadriyatlar bilan bogʻliq yuksak tushuncha sifatida qaraladi. Goʻzallik va ilohiy jamol tushunchalari, bir tomondan, insonning tashqi qiyofasidan, uning boʻynidagi xatti-harakatlaridan koʻra, ruhiy holati, qalbi va niyatlaridan iborat boʻlib, ular insonning haqiqatga yaqinlashishidagi jarayonni ifodalaydi.

Inson ongida, goʻzallik haqidagi tasavvurlar, avvalo, uning qalbida joylashgan axloqiy qadriyatlar va maʼnaviy fazilatlar bilan bogʻlanadi. Tasavvufda goʻzallik, ayniqsa, nafaqat estetik yoki koʻrish qobiliyati bilan cheklanishi kerak, balki u qalbni tozalash, nafsni yengish, sabr va shukronani rivojlantirish, Allohga boʻlgan muhabbatni oshirish va ruhning yuksalishiga xizmat qilishning bir shaklidir. Shunday qilib, goʻzallik oʻz navbatida, insonning ruhiy holatini, maʼnaviyatini va koinotga nisbatan boʻlgan munosabatini anglashda koʻrsatilgan eng yaxshi yoʻldir.

Tasavvufda goʻzallikning kashf etilishi va uning inson ruhiyatiga taʼsiri haqidagi fikrlar, mutasavviflarning asarlarida oʻz aksini topgan. Ibn Arabiy, Jaloliddin Rumiy, Shayx Ahmad Yassaviy va boshqa tasavvuf allomalari goʻzallikni nafaqat tashqi olamda, balki insonning ichki olamida ham mujassam topganligini taʼkidlaganlar. Ularning fikriga koʻra, goʻzallikni toʻgʻri anglash, Allohning ilohiy jamolining tabiatidagi bir nurni kashf qilishdir. Bu nurni anglash esa, insonning haqiqatni koʻrishiga yordam beradi va uni yuksak maʼnaviy haqiqatlarga olib boradi. [1.2-3]

Shu bilan birga, tasavvufdagi goʻzallik, insonning oʻzini anglash, oʻzining haqiqiy tabiatini tushunish orqali amalga oshadi. Tasavvufda goʻzallikni ichki dunyodan tashqi olamga, yaʼni koinot va tabiatga koʻchirish, insonning ulkan maqsadi sifatida qaraladi. Oʻsha goʻzallikni oʻrganish va anglash jarayonida inson oʻzining kamolotiga intiladi. Bunda, tashqi goʻzallikning faqat vaqtinchalik ekanligi, ichki goʻzallik esa abadiy ekanligi yodda tutish zarur.

Xususan, tasavvufdagi goʻzallik va ilohiy jamol tushunchalari, insonning oʻziga boʻlgan munosabatini va jamiyatga boʻlgan yondashuvini shakllantiradi. Goʻzallikni haqiqatan anglash, insonning nafaqat oʻzligini, balki atrofdagi dunyo va jamiyatga boʻlgan munosabatini ham oʻzgartiradi. Inson qalbining goʻzalligi va ruhining pokligi nafaqat oʻzini, balki jamiyatni ham yaxshilaydi. Shuning uchun, tasavvufda goʻzallik va ilohiy jamolga erishish nafaqat shaxsiy kamolotga, balki butun jamiyatning maʼnaviy yuksalishiga olib keladi.

**Metodologiya**

Ushbu maqolada tasavvufning goʻzallik va ilohiy jamol haqidagi taʼlimotlari tahlil qilinadi. Asosiy metodologiya sifatida tasavvufdagi eng muhim asarlar va mutasavvif allomalarining fikrlari oʻrganildi. Tasavvuf va islom falsafasida ilgari surilgan gʻoyalar tahlil qilinib, ilohiy jamol va ruhiy kamolotning zamonaviy jamiyatdagi oʻrni haqida mulohazalar yuritildi. Buning uchun, tasavvuf adabiyoti va allomalarining yozgan asarlari, shuningdek,

zamonaviy ilmiy adabiyotlar hamda psixologik va ma’naviy rivojlanish haqidagi tushunchalar koʻrib chiqildi.

**Natijalar**

Tasavvuf ta’limotida goʻzallik ilohiy jamolning oʻzi va insonning ma’naviy kamoloti bir-biri bilan chambarchas bogʻlangan tushunchalardir. Goʻzallik faqat tashqi koʻrinishda emas, balki ichki, ruhiy dunyoda ham oʻz ifodasini topadi. Tasavvufda goʻzallik, Allohning sifatlaridan biri sifatida qaraladi, chunki ilohiy jamolning buyukligi (Jalil) va goʻzalligi (Jamol) butun mavjudotda aks etadi. Bu goʻzallikni inson oʻzining ichki ruhiy dunyosida, qalbida va nafasida sezadi. Ilohiy jamolga boʻlgan intilish, insonning haqiqiy goʻzallikni anglashga boʻlgan intilishidir.

Tasavvufdagi goʻzallikni tushunish uchun, avvalo, tasavvufning asosiy maqsadi Alloh bilan birlashish va ilohiy nurni yurakda his qilishni anglash kerak. Bu jarayon insonga, uning qalbini poklash, yomonlikdan va kibrdan yiroqlashish, shuningdek, butun borliqda ilohiy armonni sezish imkonini beradi. Tasavvufdagi goʻzallik, faqat insonning tashqi qiyofasi bilan chegaralanmaydi, balki uning ruhiy holati, ma’naviy kuchi va axloqiy tozaligini oʻz ichiga oladi. Tasavvufda goʻzallik, xususan, “Jamol” soʻzi bilan ifodalanadi. “Jamol” Allohning goʻzalligi, shuningdek, insonning oʻz ruhiy jamolini topish jarayonini ham anglatadi.

Tasavvufda goʻzallik, nafaqat insonning tashqi koʻrinishida, balki uning ichki holatida, his-tuygʻularida va niyatlarida ham mavjuddir. Bu goʻzallik, insonning ruhini poklash, qalbini iflosliklardan aritish va yuqori ma’naviy axloqiy qadriyatlarni ichki dunyosiga joylashtirish jarayonining natijasidir. Mutasavviflar goʻzallikni tushunishda, koʻproq insonning yurak va qalbini (Dil) poklash zarurligini ta’kidlaydilar.[2] Tasavvufda goʻzallikka erishish, faqat tashqi koʻrinishni oʻzgartirish emas, balki ruhiy poklanish va axloqiy yuksalishdir. Har bir insonning ichki goʻzalligi, Allohga boʻlgan yaqinlik, shukr, sabr va mehr bilan oʻlchanadi. Ajdodlarimiz aytgan “ma’naviyat dengizi” inson ma’naviy goʻzalligini tushunishimiz uchun, kelajak uchun muhim metodologik manba boʻlib xizmat qiladi. [3.5]

Ayniqsa, tasavvufdagi ilohiy jamol va uning inson qalbidagi aks-sadosi, koinotdagi barcha mavjudotlarning mohiyatiga ta’sir etuvchi omil sifatida qaraladi. Mutasavviflar, ilohiy jamolga boʻlgan intilish va undan oʻrganilgan oʻzlikni anglashni insonning haqiqiy kamoloti deb biladilar. Boshqacha aytganda, goʻzallik ilohiy nurning inson qalbiga singishi va uni poklashdir. Bu jarayon orqali, inson oʻzini Allohga yaqinroq his qiladi va ruhiy kamolot sari intiladi. Bu holat, nafaqat individning ichki holatini yaxshilaydi, balki jamiyatda ham axloqiy va ma’naviy uygʻonishni ta’minlaydi. Insonning oʻzining haqiqiy tabiati, yuksak axloqiy va ruhiy kamolotga erishish yoʻlida, tasavvufdagi goʻzallik va ilohiy jamol, uning ichki dunyosining eng yuksak koʻrinishiga aylanishiga yordam beradi.

Tasavvufda goʻzallik, shuningdek, insonning oʻzini anglash va oʻzlikni topish jarayonida muhim vosita hisoblanadi. Bu jarayon insonni nafaqat tashqi dunyo bilan, balki ichki ruhiy holati bilan ham bogʻlaydi. Goʻzallikni tushunish va unga erishish, Allohni anglash va insonning haqiqiy maqsadiga erishishning asosiy vositalaridan biridir.

**Muhokama**

Tasavvufdagi goʻzallik va ilohiy jamol, inson ruhining kamoloti bilan chambarchas bogʻliq. Goʻzallik, faqat tashqi dunyo yoki materialistik qadriyatlar bilan bogʻlanmaydi, balki u insonning ichki dunyosi, qalbi, axloqiy tozaligi va ruhiy kamoloti bilan bevosita aloqada boʻladi. Ilohiy jamolga erishish, mutasavviflarning ta’kidlashicha, insonning oʻzini anglash va haqiqiy

maqsadga erishish yoʻlida muhim omildir. Biroq, bu jarayonning yanada chuqur tahlilini oʻtkazish zarur.

Birinchidan, tasavvufdagi goʻzallikni faqat tashqi koʻrinish bilan cheklash notoʻgʻri boʻladi. Bu yondashuv, tasavvufning maqsadlariga zid keladi, chunki tasavvufda goʻzallik, eng avvalo, ruhiy va axloqiy poklanishni anglatadi. Goʻzallik insonning qalbi va niyatlarining ifodasi boʻlib, u oʻzida yuksak maʼnaviyatni, sabr-toqatni, mehr-muhabbatni va shukronalikni mujassamlashtiradi. Shunday ekan, tasavvufda goʻzallik va ilohiy jamolni anglashda, tashqi koʻrinishdan koʻra, ichki holatni ham hisobga olish lozim.

Ikkinchidan, goʻzallikni faqat diniy yoki axloqiy yondashuv bilan bogʻlash ham maʼlum darajada cheklangan boʻlishi mumkin. Tasavvufda goʻzallik, diniy qadriyatlar va axloqiy meʼyorlardan tashqari, insonning koinot va tabiat bilan boʻlgan aloqasida, uning koinotdagi oʻrnini anglashda ham oʻz aksini topadi. Mutasavviflar, insonning ichki goʻzalligi, Allohning ilohiy nuri bilan bevosita bogʻlanganligini va u nurning koinotdagi barcha mavjudotlarga taʼsir etishini taʼkidlaydilar. Shunday qilib, goʻzallik va ilohiy jamolni anglashda insonning nafaqat oʻzining, balki atrofidagi dunyoning ham goʻzalligini koʻra bilishi zarur. Inson oʻz ichki dunyosini poklash orqali koinotdagi barcha goʻzalliklarni ham anglaydi.

Uchinchidan, tasavvufdagi goʻzallik, shuningdek, oʻzlikni anglash va oʻzini yoʻqotish oʻrtasidagi murakkab jarayonni ifodalaydi. Goʻzallikka erishish, aslida, insonning oʻz xudbinligi va kibridan, yaʼni shaxsiyatining kichik, dunyoviy qiyofalaridan qutulishidir. Bu jarayon, oʻzini Allohning yaratganiga boʻlgan mehr va ehtiros bilan birlashtirish orqali amalga oshadi. Tasavvufda goʻzallikka erishish, Allohga boʻlgan sevgi va ehtiromdan kelib chiqqan holda, insonning oʻzini yana bir bor yaratganining chinakam mohiyatini anglashga olib keladi. Bu jarayonni tasavvufda “fano” va “baqo” tushunchalari orqali tushuntirish mumkin. “Fano” bu xudbinlik va oʻzlikdan xalos boʻlish, “baqo” esa Alloh bilan birlashish, yaʼni ilohiy jamolni qabul qilish va unda yashash jarayonidir. Tasavvuf shu maʼnoda chuqur xazinalar maʼnosidir, bu haqda oʻzbek olimlari ham koʻp bora taʼkidlaganlar. [4;154]

Tasavvufda **fano** va **baqo** tushunchalari, insonning ruhiy oʻsishi va ilohiy haqiqati bilan aloqasi haqidagi chuqur falsafiy va diniy tushunchalardir. Bu tushunchalar tasavvufiy yoʻlni anglashda muhim ahamiyatga ega, chunki ular insonning ruhiy kamoloti va ilohiy bilimga erishish jarayonini tasvirlaydi. **Fano**, arabcha “yoʻqolish” yoki “yoʻq boʻlish” degan maʼnoni anglatadi. Tasavvufda bu tushuncha, insonning nafsi yoki oʻzligini yoʻqotish jarayonini ifodalaydi. Fano, haqiqiy ilohiy maʼrifatga erishish uchun zarur boʻlgan ruhiy tozalash va oʻzini ilohiy mavjudotda erkin qoʻyish jarayonidir. Fano, nafsning barcha past va dunyoviy xohishlaridan, oʻz-oʻzini himoya qilishdan, gʻurur va kibrdan xalos boʻlishni anglatadi. Inson fano holatiga erishganda, u oʻzining haqiqiy mohiyatini, yaʼni ilohiy haqiqati va uni yaratgan Yaratganning bir qismi sifatida anglaydi. Bu jarayonda odam oʻzining shaxsiy xohishlariga, istaklariga va oʻziga boʻlgan bogʻliqlikdan toʻliq xalos boʻladi. Shuningdek, ilohiy sevgini va birlashishni boshdan kechirish, oxir-oqibatda Yaratgan bilan toʻliq birlashish jarayonidir. Bu yerda odam nafaqat oʻzini, balki butun koinotni ilohiy mavjudot sifatida koʻrishni boshlaydi. Fano holatiga erishish, mutasavviflar uchun, insonni haqiqiy maʼnaviy yuksalishga olib boruvchi muhim bosqichdir.

Baqo, arabcha “qolish” yoki “mavjud boʻlish” degan maʼnoni anglatadi. Baqo, tasavvufda, fano holatidan keyingi bosqichni ifodalaydi. Agar fano oʻz egosidan xalos boʻlish, oʻzini yoʻqotish jarayoni boʻlsa, baqo ilohiy mavjudotda yashash va davom etishdir. Inson fano orqali oʻzligini

yoʻqotgach, baqo orqali ilohiy mavjudot bilan toʻliq birlashadi va unda yashaydi. Bu holatga erishgan inson, shaxsiy nafsni butunlay yoʻqotgan va faqat Allohning mavjudligi bilan birlashgan deb hisoblanadi. Baqo tushunchasi, tasavvufda insonning oʻzligini butunlay ilohiy olamga berish va unda yashashini, hatto oʻzi mavjud boʻlgan holda, Allohning qudratida yashashni anglatadi. Baqo xolislik, poklik va ilohiy rahmat bilan yashash holatidir. Mutasavviflar bu holatga erishganda, ular nafaqat oʻzining haqiqiy kimligini, balki koinotning mohiyatini ham tushunadilar.

Ular oʻrtasida aloqalar ham mavjud, fano va baqo, bir-birini toʻldiruvchi tushunchalar boʻlib, tasavvuf yoʻlini tushunishda oʻzaro bogʻliqdir. Fano holatiga erishish orqali inson oʻz nafsidan xalos boʻladi, va baqo orqali ilohiy mavjudot bilan toʻliq birlashadi. Bu ikki tushuncha, tasavvufiy tajribaning ikki bosqichini ifodalaydi: birinchisi, nafsni tiyish va oʻzlikni anglash, Allohning mavjudligini tushunish, ikkinchisi, ilohiy mavjudot bilan birlashish, faqat Allohning mavjudligini his qilish. Bu tushunchalar tasavvufda insonning ichki dunyosidagi oʻzgarishlarni aks ettiradi va ularning hayotga boʻlgan qarashini tubdan oʻzgartiradi. Fano va baqo orqali inson, nafaqat maʼnaviy yuksalishga erishadi, balki butun koinot va mavjudot bilan birlashish, uni anglash imkoniyatiga ega boʻladi.

Tasavvufda fano va baqo tushunchalari insonning maʼnaviy kamoloti uchun muhimdir, chunki ular odamni haqiqiy oʻzligini anglash va haqiqatni kashf qilish jarayonlariga olib boradi. Fano, insonni oʻzining cheklangan fikrlash tizimidan xalos etadi, baqo esa uni cheksiz ilohiy mavjudot bilan bogʻlaydi. Bu ikki tushuncha bir-birining davomidir va tasavvufiy yoʻlda odamni haqiqat va maʼnaviy yuksalishga olib boradi. Tasavvufda fano va baqo, shuningdek, insonni yaxshilik va toʻgʻrilik yoʻlida yetaklaydi. Fano orqali inson oʻzini tinchlantiradi va barcha dunyoviy xohishlardan xalos boʻladi, baqo orqali esa u ilohiy sevgini va huzurini his qiladi, ruhiy barqarorlikka erishadi. Inson bu yoʻldan oʻtganida, u nafaqat oʻzining ruhiy salomatligini, balki butun jamiyatning maʼnaviy holatini ham yuksaltiradi. Bu tushunchalar insonning maʼnaviy kamolotini, ruhiy oʻsishini va ilohiy bilimga erishishini ifodalaydi. Tasavvuf yoʻlini tanlagan inson uchun bu ikki holat, ruhiy yuksalishning asosiy bosqichlaridan hisoblanadi va ular orqali inson oʻzining haqiqiy mohiyatini anglab, koinotning butun tizimini tushunishga erishadi.

Shu bilan birga, tasavvufdagi goʻzallik, insonning ruhiy kamoloti va maʼnaviy oʻsishiga qaratilgan jarayonning muhim elementidir. Inson oʻz ruhini poklagan sari, uning qalbi va aqliga nurlar kiradi, bu esa uni yuqori axloqiy va maʼnaviy darajaga olib keladi. Ilohiy jamolni anglash, aynan shu ruhiy oʻsish orqali yuzaga keladi. Inson Allohning jamolini koʻrish, uning goʻzalligi va yaxshiligini tushunish uchun qalbini tozalash, dunyoviy istaklardan va oʻz “men”idan voz kechishi zarur.

Tasavvufda goʻzallikning, ilohiy jamolning va insonning ruhiy kamolotining bogʻliqligi, shuningdek, insonning ijtimoiy hayotidagi axloqiy meʼyorlarni qanday shakllantirishi bilan ham aloqadordir. Inson, ichki goʻzallikni rivojlantirib, jamiyatda axloqiy poklikni, mehr-muhabbatni va tinchlikni targʻib qilish imkoniyatiga ega boʻladi. Shuning uchun, tasavvufda goʻzallik nafaqat shaxsiy kamolotning belgisidir, balki butun jamiyatni yaxshilash, odamlar oʻrtasida oʻzaro hurmat va tinchlikni yaratish uchun zarur boʻlgan oliy qadriyatdir.

Shu nuqtada, tasavvufdagi goʻzallikni tahlil qilishda, nafaqat oʻzlik va ichki goʻzallikni rivojlantirish, balki atrofdagi dunyo va jamiyatni yaxshilash uchun ham bu tushuncha kuchli vosita boʻlishi mumkinligini koʻrsatadi. Ilohiy jamolga intilish, insonning oʻzini poklash va uni

maʼnaviy kamolotga erishtirish orqali, nafaqat shaxsiy, balki jamiyatning axloqiy va maʼnaviy darajasini ham oshirishga xizmat qiladi.

Mavorounnahr zamini tasavvuf taʼlimoti shakllangan muhim hududlardan biridir. Bu yurtda yetishib chiqqan allomalar – Hakim at-Termiziy, Abu Turob an-Nahshabiy, Abul Abbos Sayyoriy, Yusuf Hamadoniy, Abdulkarim al-Kushayriy, Najmiddin Kubro, Abduholiq Gʻijduvoniy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy, Abdulqodir Giloniy, Sulaymon Boqirgʻoniy, Imom Gʻazzoliy, Abu Rayhon Beruniy, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd, Al-Kindiy, Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Mirzo Bedil, Alisher Navoiy, Imom Buxoriy kabi mutafakkirlar oʻz asarlarida diniy va dunyoviy gʻoyalarni uygʻunlashtirgan holda yuksak maʼnaviy tafakkur asoslarini yaratdilar. Ularning taʼlimotlari insoniyat tarixida axloqiy, estetik va falsafiy yondashuvlarni shakllantirdi.

Tasavvuf allomalari oʻz asarlarida inson aqli va ruhiyati, zamon va inson munosabati, vaqt va abadiyat, dunyoni anglash va tafakkur bilan idrok etish, tarbiya va taʼlim masalalarini ham chuqur yoritganlar.[5;5] Ular uchun asosiy mezon maʼrifat, yaʼni insonning oʻzini anglash, ruhiy kamolotga erishish, ilohiy haqiqatga yaqinlashishdir. Shunday qilib, tasavvuf faqat diniy yoʻl emas, balki chuqur falsafiy-axloqiy maktab, insonni komillikka yetaklovchi, maʼnaviyatni yuksaltiruvchi irfon yoʻli hamdir. [6;352]

Bugungi global muammolar fonida tasavvufiy tafakkur insoniyat uchun bir nechta muhim saboqlarni berishi mumkin: mehr, poklik, sabr, komillik, ichki osoyishtalik va ruhiy uygʻunlik. Shu sababli tasavvufni oʻrganish, faqat oʻtmishga emas, balki hozirgi va kelajak hayotga ham jiddiy falsafiy yondashuvni anglatadi.

Inson goʻzalligi va unga erishish yoʻllari tasavvuf falsafasining muhim qismlaridandir. Inson oʻzi butun vujudi bilan goʻzallik timsolidir. Bir tomondan, uning zohiriy qiyofasi goʻzallik namunasi boʻlsa, ikkinchi tomondan ichki, botiniy olami, unga ato etilgan ruhiy kuch va maʼnaviy sezgirlik chinakam goʻzallikning manbai sifatida talqin qilinadi. Tasavvufga koʻra, inson mukammal mavjudot sifatida tan olinadi: tan, ruh, qalb va aql uygʻunligida yaratilgan bu zot “moʻtabar xilqat”, “yuqori martabali mavjudot”, “Yer yuzidagi Xudoning xalifasi” sifatida eʼzozlanadi. Inson oʻzini anglash, ichki dunyosini boshqarish va aql nuri bilan yoʻl topish orqali poklanadi, kamol topadi. U gʻazab, hasad, nafrat, kibr va shahvat kabi qalbni xiralashtiruvchi sifatlardan xalos boʻlish sari yuksaladi. Bu tasavvufda “tazkiya” va “tarbiyat” jarayonidir.

Tasavvufda ulugʻ martabaga yetgan zotlar Abdulxoliq Gʻijduvoniy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Aziziddin Nasafiy, Xoja Ahror Valiy, Maxdumi Aʼzam, Soʻfi Ollohyor va boshqa koʻplab allomalar oʻz asarlarida insonning maʼnaviy yuksalishida muhim oʻrin tutuvchi quyidagi axloqiy mezonlarni ilgari surganlar: a) Axloqiy tamoyillar: insonparvarlik va erkparvarlik, vatanparvarlik va millatparvarlik, fidoyilik va ziyolilik, mehnatsevarlik va tinchlikparvarlik; b) Axloqiy tushunchalar: muhabbat va nafrat, ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, vijdon, burch, nomus; c) Axloqiy meʼyorlar: halollik va rostgoʻylik, hayolilik va insof, kamtarlik, shirinsizlik, xushfeʼllik va h.k. Tasavvuf tariqatlarida maʼnaviy yuksakka erishishda axloqiy tarbiya masalasida ham koʻp bora taʼkidlanadi. Jumladan, G.Navroʻzova yozishicha, “naqshbandiya taʼlimoti va tariqati hushyorlik ila butun olam bilan uygʻunlashib, komil insonni tarbiyalashning eng maqbul yoʻlini tanlagan.

— “Hush dar dam” rashhasi insonni Goʻzal, Uygʻun tarzda eng yaqin yoʻl bilan kamolotga yetkazadi.

— “Hush dar dam” rashhasi naqshbandiya taʼlimotini tasavvufdagi moʻtadil, meʼyoriy oqimga mansub ekanligini koʻrsatadi”. [7;99-105]

Bu qadriyatlar inson maʼnaviy goʻzalligini ifodalovchi asosiy tayanchlardir. Allomalarning asarlari diniy yoki dunyoviy, nazariy yoki badiiy boʻlishidan qatʼi nazar barcha zamonlar uchun teng ahamiyatli boʻlib, inson tarbiyasi va ruhiy kamolotiga doimiy xizmat qiladi.

Shu asosda insoniyat maʼnaviyati deganda, insonlar orasida shakllangan axloqiy mezonlar, oʻzini anglash, tarbiya jarayoni, insoniylik uchun olib boriladigan ichki kurash, olam va borliqdagi oʻz oʻrni va qadrini anglash nazarda tutiladi. Insoniyat hayotining maʼnaviy qatlamlari, odamiylik qadriyatlari haligacha toʻla ochilmagan sirlar bagʻrida yashaydi. Tasavvuf esa bu sirlarni anglash yoʻlida yondashuv emas, balki yashash falsafasidir.

**Xulosa**

Tasavvufda insonning maʼnaviy kamoloti, qalbni poklash, oʻzini anglash va ilohiy haqiqatni tushunish jarayonini anglatadi. Bu jarayonda “fano” va “baqo” tushunchalari muhim oʻrin tutadi. Fano, xudbinlik va nafsdan xalos boʻlishni, baqo esa ilohiy mavjudot bilan birlashishni bildiradi. Tasavvufda maʼnaviy kamolot, insonning ichki dunyosining oʻzgarishi, ruhiy poklanish va yuksalishini anglatadi. Mutasavviflar bu jarayonni nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyatdagi axloqiy qadriyatlarning rivojlanishi sifatida koʻrishadi. Inson maʼnaviy kamolotga erishib, nafaqat oʻzini, balki atrofdagi dunyoni ham oʻzgartirishi mumkin.

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Xoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat (Yangi topilgan namunalar). – Toshkent. Movarounnahr, 2004.
2. Tursunkulova Sh. Tasavvuf falsafasida goʻzallik paradigmasining immanent va tizimli asoslari. Falsafa fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2024. – 72 b.
3. Румий, М.Ж. Маънавийи маснавий. 1-китоб. (Жамол Камол таржимаси). – Тошкент. Ҳидоят, 2005. – 392 б.
4. Комилов Н. Комил инсон ҳақида тўрт рисола. – Тошкент: Маънавият, 1997. – 154 б.
5. Зиёдов Ш. Ўрта асрларда яшаган машҳур самарқандлик алломалар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019. – 5 б.
6. Жўраева С. Ўзбек жанубий ҳудудларидаги зиёратгоҳларнинг тарихи ва уларнинг маҳаллий аҳоли ҳаётида тутган ўрни. Монография. – Тошкент: Oʻzkitob savdo nashriyot ijodiy uyi, 2021. – 352 б.
7. Наврўзова Г.Н. Нақшбандия – ҳушёрлик йўли. International scientific jurnal “Interpretation and researches”. Volume I. Issue 11. Oʻzbekiston. 2023. – Б. 99-105.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# IJTIMOIY FALSAFADA STRATEGEMALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

**O‘rinboyev Davlatjon Bahtiyorovich**
Qo‘qon davlat pedagogika instituti dotsenti,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Strategemalar tarixi va nazariyasining bugungi kundagi zamonaviy talqinida bir qancha jihatlarni tahlil qilish, Strategema tushunchasini mazmun mohiyatini falsafiy jihatdan ochib berish va uning jamiyat hayotidagi o‘rniga alohida urg‘u berilgan.Strategamalar haqida xorijiy va mahalliy olimlar fikr mulohazalari ham yoritilgan.Jamiyat taraqqiyotida strategemalar qanday ahamiyatga ega ekanligi haqida taklif, tavsiyalar va xulosalar o‘rin olgan.

**Kalit so‘zlar:** strategema va uning kelib chiqish tarixi, jamiyat taraqqiyotida strategema, strategemalarning shaxsiy va ijtimoiy darajalarda namoyon bo‘lishi,sharq va g‘arb olimlarining strategema haqida qarashlari,xarbiy xiyla.

# THE PLACE AND IMPORTANCE OF STRATEGIES IN SOCIAL PHILOSOPHY

**Urinboyev Davlatjon Bakhtiyorovich**
Docent of Kokand State pedagogical institute,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical sciences

**Abstact.** This article analyzes several aspects of the modern interpretation of the history and theory of stratagems, philosophically explains the essence of the concept of stratagems, and places special emphasis on its role in social life. The opinions of foreign and local scholars about stratagems are also covered. Suggestions, recommendations, and conclusions are made about the importance of stratagems in the development of society.

**Keywords:** stratagems and its history of origin, stratagems in the development of society, manifestation of stratagems at the personal and social levels, views of Eastern and Western scholars on stratagems, military trickery.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N09

**Kirish**. Strategema – bu inson yoki jamiyatning muayyan maqsadlarga erishish uchun qo‘llaydigan murakkab, puxta o‘ylangan hiyla-nayrang, taktik va strategik usullari majmuasidir. Ijtimoiy falsafa doirasida strategemalar jamiyatning rivojlanish jarayonlari, ijtimoiy guruhlar o‘zaro munosabatlari va siyosiy-huquqiy tizimlarning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Strategemalar tarixi va nazariyasining bugungi kundagi zamonaviy talqinida bir qancha jihatlarni ko‘rish, ularga xos xususiyatlarni kuzatish mumkin. Strategemalarning shaxsiy va ijtimoiy darajalarda namoyon bo‘lishi hamda ular orasidagi aloqadorlik va bog‘liqlik masalasiga, bu sohadagi G‘arb tadqiqotchilari X.F.Zinger va R.Grin ham, mamlakatimizda shu haqda dastlabki ma’lumotlarni chop etgan V.Alimasov va D.Qodirovlar ham muayyan darajada e’tibor qaratishgan. Ularning asarlarini tahlil qilish, garchand ushbu olimlarning maqsadi

mavzuning mazkur jihatini maxsus va keng tahlil qilish boʻlmasa-da, ammo ularning har biri masalaning bu jihatini nazardan qochirmaganidan dalolat beradi.

V.Alimasov strategemalarning shaxsiy darajada namoyon boʻladigan va oʻtkir aql-idrokli kishilarga xos boʻlgan holatlari haqida ham fikr yuritgan. Uningcha, bu haqdagi dalil va misollar nafaqat Xitoy, balki boshqa xalqlarda ham insoniyatning barcha aqliy faoliyat sohalari va shakllarida uchraydi. Dunyo xalqlari ogʻzaki ijodi, adabiyoti va san'atida oʻzini goʻl, sodda koʻrsatib, ishini ustalik bilan bitirgan — Nasriddin Afandi, Aldar koʻsa, Birbal kabi obrazlarga duch kelamiz. Oʻzbek tilida bu tushuncha "Intilganga tole yor", "Oʻlimdan boshqa hamma narsaning chorasi bor", "Aql ila idrok kishini hokimu sulton qilur", "Aql bilan har qanday masalani yechish mumkin" kabi maqol va hikmatlarning umumiy ma'nosini ifodalaydi.[1]

**Materiallar va metodlar**. Strategemalarning shaxsiy darajada namoyon boʻlish xususiyatlarini Xorro fon Zengerning quyidagi soʻzlari ham tasdiqlaydi: "Quvlik aqlga xos voqelikdir, u Xitoyda ham, Gʻarbda ham bir xil boʻlgan hodisadir... Inson bor ekan srategemalar ham mavjud boʻladi." Zengerning yozishicha, Gʻarbda quvlik, ayyorlik xitoyliklarga, umuman, Sharqqa xos xislat, degan qarash qaror topgan. "Sharq – nozik voqelik" degan ibora tagida mazkur qarash yotadi. Shuning uchun quvlik, ayyorlik, nayrangni Sharq, Xitoy va Gʻarb, Yevropa turlicha baholashadi. Masalan, Xitoy falsafasida quvlik ayyorona aqllilik koʻrinishi sifatida qabul qilinsa, Gʻarb ularni qoralaydi, hatto maxinatsiya, sinizm sifatida jazolaydi. "Dao de szin", "Oʻzgarishlar kitobi"da quvlik turmush va tafakkur tarzi, fikrlash usuli sifatida tan olinsa, "Injil" kitobida ularni ishlatgan oʻlim jazosiga tortilishi uqtiriladi. Xitoyda quvlik bilan aqllilik yaqin voqeliklar, Gʻarbda esa ular oʻt va suv kabi antipod hodisalar hisoblanadi. Biroq, X.F.Zengerning fikriga koʻra, Gʻarb quvlikdan, hiyla ishlatishdan kechgan mutlaq musaffo qutb emas, ya'ni: "Qadimgi zamonlardan beri Gʻarbda quvlik instinktiv qoʻllaniladi, u vaziyatlarga muvofiq zimdan ishlatiladi, lekin xijolatomuz yashiriladi. Injildagi "Ilon kabi oqil boʻling" da'vati, aslida, ilon kabi hiylagar, ayyor boʻling, demakdir."

D.Qodirov masalaning shaxsiy darajadagi namoyon boʻlish xususiyatlari bilan bogʻliq ushbu jihatiga e'tibor qaratar ekan, shuni qayd qiladiki, 1985 yilda Taybeyda nashr qilingan "Jangdagi ayyorlik – 36 strategema" kitobining muqaddimasida ushbu fikrlar ta'kidlanadi: "Strategemalar inson miyasida yashiringan xanjar singaridir va u faqat qoʻllamoqchi boʻlgan payting yaltiraydi. Uni harbiylar, shuningdek, siyosatchilar, tadbirkorlar va olimlar ham qoʻllaydilar. Kimki strategemalarni qoʻllashni bilsa, bir zumda tartibli olamni tartibsizlikka yoki tartibsiz olamni tartibga keltirishi mumkin. U musaffo osmonda yashin chaqnatadi, kambagʻallikni boylikka, nafratni hurmatga va umidsizlikni gʻalabaga aylantira oladi. Inson hayoti – bu kurash, kurashda esa strategema kerak. Har bir inson jang maydoni chegarasida turibdi, shuning uchun bir lahzalik parishonlik sabab, qarabsanki, bir kishiga tegishli narsa boshqaning oʻljasiga aylanadi. Strategemalarni ishlatishni bilgan inson doimo tashabbusni oʻz qoʻlida ushlab turadi. Xoh saroyda, xoh kulbada boʻlsin strategema doim yaraydi"[2]

D.Qodirov tomonidan ta'kidlangan ushbu fikrda strategemalarning nafaqat shaxsiy darajada, balki umumiy darajada namoyon boʻlishiga doir ishoralar ham borligi yaqqol koʻrinib turibdi. Undagi "Inson hayoti – bu kurash, kurashda esa strategema kerak" yoki "Xoh saroyda, xoh kulbada boʻlsin strategema doim yaraydi" iboralari ham ana shundan dalolat beradi.

**Muhokama va natijalar**. Bu jihatdan, XX asr Gʻarb dunyosi odamlariga xos shaxsiy strategemik tamoyillar ideologik jihatdan tavsiflangan bir asarga, ya'ni asli germaniyalik boʻlgan AQSh faylasufi va sotsiologi Gerbert Markuze (Markuse) (19.07.1898 — 29.07.1979)

tomonidan 1964 yilda yozilgan "Bir oʻlchovli odam. Rivojlangan industrial jamiyat ideologiyasining tadqiqi" kitobiga murojaat qilish maqsadga muvofiq. Unda Gusserl va Xaydeggerning shogirdi boʻlgan ushbu olimning Teador Adorno va Maks Xorkxaymer qarashlari asosida shakllangan fikrlari XX asr oʻrtalaridagi industrial jamiyat odami va ideologiyasiga tatbiqan bayon qilingan. Garchand asar strategemalar nazariyasiga aloqasizdek koʻrinsa-da, unda aynan industrial jamiyat kishisining ijtimoiy-siyosiy, maʼnaviy-madaniy qiyofasi uchun asos boʻladigan strategemik omillar va tamoyillarga alohida ahamiyat qaratilgan.[3]

Asarda muallif industrial jamiyat kishisining ijtimoiy-siyosiy, maʼnaviy-madaniy qiyofasini chizar ekan, uning roʻy berayotgan voqea-hodisalar bilan koʻp ham "ishi" boʻlmayotgani, turli jarayonlar oqimining bosimiga bardoshi yetmayotganini yaqqol koʻrsatadi. Bunday sharoitda "bir oʻlchamli odam"ga xos "bir oʻlchamli tafakkur" shakllanishining ratsional va irratsional jihatlariga eʼtibor qaratadi.

Ayni paytda, uningcha, industrial jamiyatning dastlabki davrlarida ushbu bir oʻlchamlilik "alternativ imkoniyat" mavjudligiga xalaqit bermaydi, yaʼni jamiyat hayoti va odamlarning yashash sharoitlari, umr yoʻllari shunchalik rang-barangki, mazkur plyuralistik holatda doimo alternativaga oʻrin topiladi. Faqat shu maʼnodagina odamda tanlash huquqi va buning uchun imkoniyat qoladi, ammo aslan "bir oʻlchovli jamiyat" odamlarining tafakkuri bir oʻlchovliligicha qolaveradi.

Shu bilan birga, bu taxlit shakllangan "bir oʻlchamli odamlar" safi kengayib, ularning soni ortaveradi. Bu, oʻz navbatida, ularni idora qilishni osonlashtiradi, bunday odamlarda shakllanib va mustahkamlanib boradigan "bir oʻlchamlilik" ustuvor ideologiyaga xos irratsional dunyoqarash tamoyillariga ergashish tuygʻusi kuchayib borishiga sabab boʻladi.

Bundan tashqari, mazkur xususiyatlar bilan tavsiflanadigan jamiyatda odamlarni boshqarish va idora qilishda terrordan koʻra, texnikaning kuchi, uning jamiyat hayoti va kishilar faoliyatining barcha jihatlariga taʼsir doirasi tobora kengayib va undan foydalanish imkoniyatlari ortib boraveradi. Ayni paytda, odamlarda bunday texnik taraqqiyot surʼatlariga mahliyo boʻlish, uning domiga tushib, oʻzi ham texnika asri odamiga aylanish va oʻzini ana shu texnik inqilob va ilmiy-texnik boʻronning bir zarrasi sifatida tasavvur qilishga intilish tuygʻusi kuchayib boradi. Bu, oʻz navbatida, odamlarni ratsional fikrlashiga oʻrin va imkoniyat qoldirmaydi, ularning koʻpchiligini bir xil fikrlash va umumiy mezonlar asosida umr kechirish va bir xil tarzda yashash qoidalariga oʻrganishga majbur qiladi.

Asl mohiyatiga koʻra, odamzodning qadrini pasaytiradigan, uni oddiy "narsa"ga aylantirib qoʻyadigan, har bir shaxsning asl oʻzligini, boshqalarga oʻxshamaydigan oʻziga xosligini yoʻq qilishga olib keladigan sabablarni qidirar ekan, G.Markuze bunday holatning bir mamlakat, bir davlat emas, balki XX asr oʻrtalaridagi barcha industriyalashgan mamlakatlar hayotida qandaydir umumiy tarzda namoyon boʻlishiga eʼtibor qaratadi. Uningcha, bunday jarayonlar odamlarni mutelikdan qutultirish oʻrniga, ularning mutelik holatini saqlab qolishning texnik imkoniyatlarini ishga solishga xizmat qiladigan industrial jamiyat ideologiyasining mazmun-mohiyatini tashkil qiladi.

Asarda muallif kelgan xulosaga koʻra, ana shunday bir oʻlchamlilik tamoyillariga asoslangan ideologiya maʼnaviy va madaniy qadriyatlarni butunlay yoʻqotmaydi, balki ularni bir tartibga, oʻziga mos mezonlar asosidagi bir xil tizimga soladi. Muallif fikricha, bunday mafkuraviy va madaniy bir xillik hamda umumiy oʻxshashlik, muqarrar surʼatda, "bir oʻlchamli

odam"larni yaratishning ma'naviy-psixologik asoslarini mustahkamlaydi hamda jamiyatni boshqarish usullari va vositalarini qoʻllash jarayonida muayyan tarzda oʻz aksini topadi.

Demokratik jamiyatda erkinlik va hurlikning me'yoridan oshib ketishi axloqning buzilishiga ham olib kelishi mumkin ekanligini oʻnlab Gʻarb mamlakatlarining hayoti yaqqol koʻrsatib turibdi, — deb yozadi oʻzbekistonlik olim B.Isoqov, — Yevropa mamlakatlari va AQShda erkak va ayollarning kiyinish madaniyatida farqning deyarli yoʻqolib borayotganligi, shahvatparastlik, gedonizm, katta va kichikka hurmatsizlikning avj olib borayotganligiyam buning yorqin misolidir. Masalaning gʻoyatda xavfli tomoni shundaki, globallashuv jarayoni tufayli bunday vaziyat bizning jamiyatimizga ham oʻz ta'sirini koʻrsata boshladi. Gʻarbda «yashash faqat aysh-ishrat, huzur-halovat, kayf-safodan iborat» (gedonizm) va «oʻzgalar hisobiga hayot kechirish» (gegemonizm) mazmunidagi ijtimoiy illatlar urchib bormoqda. Buning natijasida, oʻz milliy mentalitetiga ega jamiyatlarga nisbatan bepisandlik bilan qarash «yoʻnalishi» ham shakllandi. AQSh jamiyati tushunadigan ma'naviyat faqat odamning nafsini qondirish ehtiyojlaridan iborat boʻlib qolmoqda. Bu ehtiyoj shu qadar chegaralanmaganki, Jinoyat kodeksi normalari buzilmasa boʻldi, qonun yoʻli bilan taqiqlab qoʻyilmagan barcha ehtiyojlar bemalol, uyalmasdan, andisha, istihola, nomus qilib oʻtirmasdan qondirilaveradi. Xudodan qoʻrqish, insoniylikni saqlab qolish, haromdan hazar qilish, or-nomus, uyat, ibo, hayo kabi qadimdan oʻta ulugʻlab kelingan fazilatlar esa deyarli yoʻqolib bormoqda"[4]

"Umuman olinganida, — deya ta'kidlaydi olim, — Sharqqa xos iyerarxik (narvonsimon), adolatli tabaqalanish, ya'ni ota-ona, er-xotin, ustoz va shogird oʻrtasidagi ma'naviy-axloqiy munosabatlar «tenglik» gʻoyasining qurboniga aylantirib yuborilgan. AQShning hozirgi liberal jamiyati va elitasi «Hech narsani oʻylamang, faqat qanday yoʻl bilan boʻlsa ham mulk toping va yeb-iching», degan gʻoyaga tayanmoqda. Buddaviylik, xristianlik va islomdan iborat jahon dinlarida boʻlsa, bunday qarash Iblisga nisbat beriladi. Ma'naviyat nuqtai nazaridan qaraydigan boʻlsak, bu qarashlar albatta, yomonlik va yovuzlik tushunchalarini anglatadi. Ushbu masala bilan bevosita bogʻliq misollarni boʻlsa ta'lim va tafakkur sohasiga daxldor oʻqirmanlarning oʻzlari ham bemalol, keragicha keltira oladilar".

Bu borada zamonaviy strategemalar nazariyasining milliy xususiyatlari tahlili muhim ahamiyatga molikdir. Negaki, har bir xalqqa xos strategiyalar shu millatga mansub atoqli shaxslar va mashhur odamlarning hayoti va faoliyati asosida bitiladi. Bu jihatdan, milliy strategiya oʻzida muayyan millat manfaatlari, xalqning iroda va intilishlarini aks ettiradi.

Shu bilan birga, Qadimgi Yunoniston va Rimda ishlab chiqilgan strategemalar bugungi Gʻarb sivilizatsiyasining shakllanishi va takomiliga ta'sir koʻrsatgani, ular asosida Gʻarb kishisining individualizmga asoslangan tafakkur tarzi, huquq va qonun-qoidalarni ustuvor biluvchi ijtimoiy munosabatlar tizimi shakllanganini hech kim rad qila olmaydi.

Xuddi shunday, Sharq xalqlari tafakkurining shakllanishi, bu mintaqadagi kishilar turmush tarzi va hayotiy tamoyillariga ta'sir koʻrsatgan, individualizmdan farq qiladigan ijtimoiylik, urf-odatlar va an'analarni ustuvor biluvchi fikrlash uslubga tayanadigan va bugungi kunda ham oʻz ta'sirini yoʻqotmagan strategemik asoslar mavjudligi ham ayni haqiqatdir.

Ba'zi mutaxassislar ta'kidlaganidek, Gʻarb Sharqni zabt etdi, ammo bu ikki dunyo uygʻunlasha olmadi, ikkovi ham oʻzligicha qoldi. Gʻarbning iqtisodiy modeli dunyoda ustunlik qildi, hayotning gʻarbona asoslari aksiomadek qabul qilindi. Biroq Ikkinchi jahon urushidan keyin dunyoda noyob va oʻta samarali boʻlgan biznesning yapon modeli vujudga keldi. Asta-sekinlik bilan biznesning boshqa bir muvaffaqiyatli modeli – Xitoy modeli paydo boʻldi.

Kundalik turmushda zarur boʻlgan xitoy tovarlari, radioelektronika, kiyim-kechaklar dunyo bozorini toʻldirdi. Shu joyda oʻrinli savol tugʻiladi, Yaponiya, Tayvan, Janubiy Koreya, endilikda, Xitoyning muvaffaqiyati nimada? Bu moʻjizaning omillari juda koʻp, biroq bu muvaffaqiyatning zamirida sharqona mentalitet, qadimgi Xitoy donishmandligi hamda dahosi yotibdi. Aynan u yerda Sharqning haqiqiy strategemalar taʼlimoti yashiringan, ijtimoiy, iqtisodiy, harbiy va siyosiy muvaffaqiyatining muhim prinsiplari ifodalangan.

Bularga "Xitoy donishmandligi" asoslarini egallamay turib, erishib boʻlmaydi. Xitoy strategemalari toʻgʻrisidagi taʼlimot hatto mutaxassislar uchun ham tushunish qiyin boʻlgan mavzu sanaladi. Shuning uchun bu muammoni nazariy jihatdan, xususan, hozirgi kunda siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy nuqtai nazardan oʻrganish ahamiyatlidir. Ushbu strategemalarni ideologiya, targʻibot texnologiyalari, siyosat falsafasi, psixologiya, iqtisodiyot nazariyasi, marketing, menejment sohalarida oʻrganish mumkin.[5]

Hozirgi paytda qoʻllab koʻrilgan barcha boshqaruv usullaridan Uzoq Sharq mamlakatlarining tajribasi dunyoda eng koʻp qiziqish uygʻotmoqda. Urushdan keyingi Yaponiyaning qayta tiklanishi, Gonkong, Tayvan, Janubiy Koreya va Singapur kabi "Osiyo ajdaholari"ning gurkirab oʻsishi, xususan, Xitoy iqtisodiyotining oʻsishi ushbu mamlakatlarda qabul qilingan iqtisodiy rivojlanish strategiyasining samaradorligini koʻrsatmoqda. Shak-shubhasiz, ushbu muvaffaqiyatda yetakchi rolni omadni taʼminlaydigan Sharqona strategiya tamoyillari oʻynaydi. Ushbu tamoyillar – ikki yarim ming yil avval negizi shakllangan mumtoz Xitoy strategiyasiga tayanishi aniq.

Ana shu sababdan ham keyingi yillarda eng rivojlangan Gʻarb mamlakatlarida ushbu strategiya va uning strategemik asoslariga qiziqish kuchaydi. Ular asosida yangi strategik siyosat va strategiya falsafasiga asoslangan stretegemalar nazariyasi va konsepsiyalari ishlab chiqila boshladi. Toʻgʻri, ularning baʼzilari mualliflari bu haqda eʼtirof etishni uncha yoqtirmaydilar va muayyan nazariya hamda konsepsiyalarini oʻzlarining tafakkur mahsuli sifatida taqdim etishga harakat qiladilar. Biz masalaning ushbu jihatini chuqur tahlil qilmagan holda, bugungi Gʻarb mamlakatlari va xalqlari hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ayrim strategik tamoyillar va doktrinalar haqidagi bir necha asarlar orqali mavzuning bu jihatini ochishga harakat qildik.

**Xulosa**. Shunday qilib, AQSh uchun butun Yevrosiyoga nisbatan umumiy, barcha jihatlarni qamrab oladigan va uzoqni koʻzlagan geostrategiyani ishlab chiqish vaqti keldi. Ushbu zaruriyat ikki fundamental voqelikning oʻzaro aloqadorligidan kelib chiqadi: hozirgi davrda Amerika yakkayu yagona supermamlakat boʻlsa, Yevrosiyo esa – dunyoning markaziy sahnasi, asosiy siyosat maydonidir. Demak, Yevrosiyo kontinentida kuchlar nisbatining oʻzgarishi Amerikaning jahonga boshchilik qilishi va tarixiy missiyasi uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan, AQShning Yevrosiyo shaxmat taxtasida asosiy geostrategik donalarni qanday boshqarishi va qay tarzda joylashtirishi, ayni paytda, Yevrosiyodagi eng asosiy geopolitik markazlarga rahbarlik qilishi, Amerikaning butun dunyoda uzoq vaqt va barqaror yetakchilik roli saqlanib qolishi uchun nihoyatda muhim hayotiy ahamiyatga egadir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, yaqin va uzoq istiqboldagi vazifalar, "ulkan shaxmat taxtasi" va uning atrofidagi "oʻyin"lar, ularning oqibatlaridan vujudga kelishi mumkin boʻlgan muammolar va bu boradagi masalalarni yechish yoʻllari va imkoniyatlari haqida fikr yuritadi. Yana bir bor bu yorugʻ olamda doʻstu dushmanning yonma-yon yashayotgani, xalqimizning

“Oʻzingni ehtiyot qil, qoʻshningni oʻgʻri tutma”, degan hikmatining asl hayot haqiqati ekanligi, bugungi kunda ham, kelajakda ham ogoh va hushyor boʻlib yashash ehtiyoji muqarrar tarzda saqlanib qolaverishidan dalolat beradi.

**Adabiyotlar/Литература/References:**


1. Алимасов В. Стратегема – фикрлаш ва енгиш илми // “Фалсафа ёхуд фикрлаш саньати”. –Т.: “Нoшир”, 2008. 59-б.
2. Қодиров Д. 36 хитой стратегемаси: ҳарбий ҳийлалар ва иқтисодий муваффақият сирлари. –Бухоро, БухДУ, 2016. 13-б.
3. Серия: Philosophy. – М.; Астрель, 2011. — 382 с.
4. Исоқов Б. Маънавият – тараққиёт мезони. – Наманган; «Наманган», 2018. б- 372.
5. Қодиров Д. 36 хитой стратегемаси: ҳарбий ҳийлалар ва иқтисодий муваффақият сирлари. –Бухоро, БухДУ, 2016. 98-б.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# PEDAGOGLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY VA KASBIY RIVOJLANTIRISHDA AJDODLAR MA'NAVIY MEROSINING O'RNI. ("SILSILAT UL-ORIFIYN VA TAZKIRATU-S-SIDDIQIYN" ASARI MISOLIDA)

**Alimov Mansur Narboyevich**
SamDCHTI mustaqil tadqiqotchisi
Email:alimovmansur317@gmail.com
Tel: +998 93 992 36 39

**Annotasiya.** ushbu maqolada ruhiy tarbiya shayxlari tomonidan ilgari surilgan ustozning ma'naviy va axloqiy fazilatlari to'g'risidagi qarashlarini zamonaviy pedagogik faoliyatning nazariy asosini tashkil etadigan kasbiy odoblar va axloqiga transformatsiya qilish mumkinligi manbalar asosida tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar**: murshid, ustoz, pedagog, ta'lim, tarbiya, odob, axloq.

# THE ROLE OF THE SPIRITUAL HERITAGE OF ANCESTORS IN THE SPIRITUAL, MORAL AND PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF EDUCATORS. (ON THE EXAMPLE OF THE WORK "SILSILAT UL-'ARIFIYN VA TAZKIRAT-US-SIDDIQIYN")

**Alimov Mansur Narboevich**
Independent researcher at the Samarkand
State Institute of Foreign Languages
Email: alimovmansur317@gmail.com
Tel: +998 93 992 36 39

**Abstract.** in this article, it is possible to transform the views on the spiritual and moral qualities of the teacher, put forward by the sheikhs of spiritual education, into professional manners and ethics, which form the theoretical basis of modern pedagogical activity, on the basis of sources.

**Key words:** murshid, teacher, pedagogue, education, upbringing, manners, morality.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N10

**Kirish.** Jahon ilm-fanida odob va axloq, ramziy ifodalarga bag'ishlangan adabiyot orqali ruhiy tarbiyaga oid muammolarni o'rganilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, axloq-odob, ta'lim-tarbiya, ma'naviy komillik insoniyat uchun hamisha hayot-mamot masalasi bo'lgan. Shu ma'noda jamiyatning taraqqiyoti ham, tanazzuli ham, eng avvalo, ustoz va shogird, murabbiy va izdosh munosabatlariga bog'liq. Ma'naviy-axloqiy tarbiya usullari bir-biridan farqlanganidek, ta'lim-tarbiya muassasalarida ham o'ziga xosliklar mavjud. Insonning botin olamini o'zgartirishga e'tiborning kuchayishi esa ta'limda ham, tarbiyada ham ko'zlanganidan

ortiq samara bergan. Ajdodlarimizning ilmiy-ma’naviy merosida insonning qalb olamini chuqur anglaydigan, eng hassos tuyg‘ularini ham ilg‘ashga qodir, tama va riyodan yiroq ruhshunos murshid obrazi yaratilgan. Ijtimoiy, ma’rifiy va ma’naviy hayotda milliy qadriyat, diniy, dunyoviy bilimlarni jamuljam qilgan ta’lim maktabiga egaligi bilan qadim Sharq bashariyatga o‘rnak bo‘lgan. Muhtaram Prezidentimiz: “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor, havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va, men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san’atimiz ham, albatta, bo‘ladi”[1], – deydi. Ma’naviy merosimizdagi murshid shaxsiyati va murid kamolotidagi mavqeyini tadqiq qilish, uning murid oldidagi majburiyatlarini aniq belgilash, asl mohiyatni anglash barkamol avlodni voyaga yetkazishga yaqindan yordam beradi. Zero, yosh avlod zukko, ma’nan jasoratli bo‘lishining yagona asosi to‘g‘ri tarbiya va ta’lim bo‘lib, tadqiqotdan ko‘zlangan haqiqatlardan biri ham o‘tmish tajribasini zamon uchun xizmat ettirish yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatishdan iborat.

**Asosiy qism.**Tasavvuf adabiyotida Xizr (a.s) ruhoniy-ma’naviy rahnamo sifatida irshodning ikki yo‘li ajratiladi. Avvali, *Nubuvvat yo‘li* – bunda Yaratgan asosan malaklari vositasida vahiy yuborib, xos bandalarini tarbiyalaydi. Ikkinchisi esa, *Valoyat yo‘li* – bunda bir murshidi komil etagidan tutib, “vusul” va uning sirriga erishiladi. Bu masalada “Agar bilmaydigan bo‘lsangiz, ahli ilmlardan so‘rangiz (Nahl: 16/43)” kabi oyatlar hamda Kitobullohdagi Muso (a.s.) va Solih qul qissasi ravshan misol hamda asoslardan bo‘lgan. Anglamoq lozimki, murshidga bay’at aslida Hazrati Payg‘ambar va Allohga intisobdir. Bu Qur’oni karimda shunday keladi: “Albatta, Senga bay’at qilayotganlar faqat Allohning o‘ziga bay’at qilmoqdalar. Allohning qo‘li ularning qo‘llari ustidadir (Fath: 48/10)”. Murshid Haqqa yetgan, bandalarini tarbiya etish uchun Haq amri bilan xalqqa qaytgan, ma’naviy vazifa yuklangan xos, tanlangan bandalardandir. Tariqat ta’lim tizimi, murshid va murid munosabatini Qur’on va hadisdan izlaymiz, chunki bu ta’lim biror masalada shar’iy dalilsiz hukm chiqarmagan. Tasavvuf shayxlarining metodikasidagi har bir usulu arkon – barchasi shu ikkala manba asosida tartib bilan tuzilgan.

Imom, fakih, usulul fiqh bilimdoni, muhaddis, “Muvafaqot”, “I’tisom” va boshqa nafis asarlar muallifi Abu Is’hoq Ibroxim ibn Muso Shotibiy G‘arnotiy (790 hijriy sanda vafot etgan) o‘z zamonasidagi so‘fiylar shayxi, Fa’s shahridagi Qaraviyn jomesi imomi Abu Abdulloh Muhammad ibn Abbod Nafziy (792 hijriy sanada vafot etgan) rohimahullohga maktub yo‘llagan. U maktubida shunday deydi: “Alloh taolo tomon boradigan solik (murid) uchun tariqat va tarbiya shayxini o‘ziga lozim tutib, uning oldida bo‘lishi shartmi? Yoki tariqat shayxi bo‘lmasa ham, u ahli ilmlardan ta’lim va ilm olishi orqali Alloh taolo tomon borsa bo‘ladimi?” Shayx Abbod rohimahulloh adolatli va xolis sifatida javob yuborgan. Uning xulosasi “Ar-rosail as-sug‘ro” kitobi 106-betidan keyingi betlar va 125 va undan keyingi betlarda shunday keltirilgan: “Sulukda unga qaytiladigan (murojaat qiliniadigan) shayx ikki qismga bo‘linadi: ta’lim va tarbiya shayxi hamda va faqat ta’lim shayxi”.[2.48-b] Jumladan, “tarbiya shayxi har bir soliq uchun zarur emas. Unda zehnida kamchilik va nafsida kasali bor odam muhtoj bo‘ladi. Lekin, kimda yetarli aql va iroda bo‘lsa nafsga ega bo‘lgan odamda u lozim emas, o‘zini unga bog‘lashi yaxshiroqdir. Tarbiya shayxi esa har bir solik uchun lozimdir. Lekin, biz zikr qilib o‘tganlar uchun tarbiya shayxi lozimligi aniq. Chunki, ularning nafslaridagi to‘siqlar juda qalin. Uni faqat tarbiya qiluvchi shayxlargina ularni yo‘q qilib, olib tashlashi mumkin. Ular solikka nisbatan badandagi surunkali kasallik va dardlarga o‘xshaydi. O‘z dardlarini yo‘q qiluvchi

kuchli dorilar bilar muolaja qilinadigan mohir tabibga muhtoj boʻladilar. Lekin yetarli aqli va itoatkor nafsi bor kishiga tarbiya qiluvchi shayxning lozim emasligi masalasiga kelsak,uning yetuk aqli va nafsining boʻysunishi undan behojat qiladi. U oʻziga taʼlim shayxi oʻrgatgan narsa bilan toʻgʻri yoʻldan bora oladi, boshqalar esa bunday emas. U Alloh taolo izni bilan yetib boradi, agar Alloh taolo yuzini qasd qilgan boʻlsa, oʻziga keladigan zarardan xavfga tushmaydi. Tarbiya shayxiga suyanish soʻfiylarning mutaaxxir (keyingi) imomlari yoʻli, taʼlim shayxiga suyanish esa ulardan oldingilarni yoʻli hisoblanadi.[2;49-b]

Bu narsa Xoris Muhosibiy, Abu Tolib Makkiy va boshqalarning asarlarida namoyon boʻladi. Ular odamlarga usul va furu ilmlarini kitoblarida zikr qilishga qaramay, tarbiya shayxini keyingi ulamolar kabi shart qilmaganlar. Ayniqsa, Abu Tolib Makkiyning asarlarida bu koʻp uchraydi. Ularni zikr qilmasliklari suluk yoʻlida u (tarbiya shayxining)shart emasligiga dalildir.

Bu – juda koʻp soliklar yurgan, bosib oʻtgan yoʻl va u oldingi salaflar holiga juda oʻxshaydi. Chunki, ulardan tarbiya shayxlarini(ustoz) tutganlari ularga bogʻlanganlari va shogirdlar tarbiya shayxlarini mahkam tutganlari kabi mahkam tutishlari rivoyat qilinmagan. Ularni holati ilmlarni egallash, holatlarni bir-birlari bilan doʻstlik va birodarlik yoʻli bilan isloh qilganlar. Bir-biri bilan uchrashish va ziyorat qilish sababli ular botin va zohirlarida uning katta taʼsirini koʻrganlar. Shuning uchun avliyo, ulamo va obidlar bilan uchrashish uchun yurt kezganlar. Tasavvuf ahli kitoblari taʼlim shayxi (ilm oʻrgatadigan shayx)ga qaytadi. Chunki ulardan istefoda qilish faqat mualliflari ahli ilm va ergashishga arzirli zotlardan ekaniga qaraydigan kishi eʼtiqodi bilangina toʻgʻri boʻladi. Bu eʼtiqod esa unga suyaniladigan va ishonchli shayx tomonidan hosil boʻladi. Agar u istifoda qiladigan shariyat zohiriga aniq muvofiq kelsa, u bilan kifoyalanadi. Aks holda, uni bayon qilib beradigan taʼlim shayxiga murojat qilish va shayx lozim boʻladi. Uning soʻzi tarbiya shayxi va unga baʼyat berish lozim emasligi hamda taʼlim shayxi lozimligini ifodalaydi.[2;50-b]

Taʼkidlash joizki, tasavvufda zohir ilmidan tashqari botin ilmi borligi va bu ilmni oʻrganish uchun hatto safar qilish lozimligi, ustoz va shogirdlikdagi imtiyozlar, murid istayotgan ilmi ladun, tariqatdagi qabz va bast holi kabi qator bahs-munozaralar Xizr (a.s.) nomi bilan bogʻliqligi koʻrsatib berilgan. Maʼlumki, turli din va ilohiy taʼlimotlarda Xizr obraziga keng eʼtibor berilib, shu orqali har xil fikr-qarashlar ilgari surilgan. Lekin, ular orasida gʻayriislomiy tushunchalar mavjudligini ham unutmaslik zarur. Shuning uchun musulmon olamida Xizrga munosabat Qurʼoni karim va Hadisi sharif asosida shakllanib taraqqiy topgandir. Saʼdiy Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Mavlono Rumiy singari tariqat shayxlaridagi basiratning ochilishi Xizr (a.s.)ning tarbiyasi bilan bogʻliqdir. Tariqatdagi "Maqomoti Xizr" darajasiga yetgan solikning qalbi va ruhiyati mavhum, qazoi qadar, tariqat ilmi kabi sir-asrorga burkanishi, Alloh bilan uchrashuvi, roʻy berayotgan voqealar nomaʼlum parda ortida boʻlishi taʼkidlanadi. Shu orqali sayri sulukda murshid-murid shaxsiyatining muqim oʻrnini belgilab bergan nafaqat Xizr, balki komil murshid timsolining paydo boʻlishiga zamin yaratadi.

**Munozara.** Murshid shaxsiyati va murid kamolotidagi mavqeyini tadqiq qilish, uning murid oldidagi majburiyatlarini aniq belgilash, asl mohiyatni anglash Muhammad Qozining asarlarida ham keng yoritilgan. Jumladan, "Silsilat ul-orifiyn va Tazkiratu-s-siddiqiyn" asarining muqaddimasida shunday deyilgan: "ushbu kitobda haq subhonahu taolo maʼrifati tariqining bayoni, va muridning murodga ehtiyoji, va shayxu muridning sharoiti odobi va viloyatu valiy va xavoriqiodot (favqulodda isteʼdod) turlari haqida maʼlumotlar keltirilgan".[3;8б варақ:]

Muhammad Qozining fikricha, “shayxning muridga nisbatan tasarufidan maqsad, uning yurak koʻzgusini hoyi-havas (*havo, nafs)* va mijozlardan (*yaʼni salbiy mijozlardan*) «lo ilaha illa Allah» misqali (*sayqal berguvchi qayrogʻi)* orqali poklab Haq subhonahu taolo zotiga bogʻlanadi, toki muhozosi (*bogʻlanish*) safo hukmi bilan Zuljalol jamoli nurlarining yogʻdusi unda koʻrunsin (*aks etilgan boʻlsin)*, uning basirat koʻzi (*botiniy koʻzi*) u jamolning mushohadasidan yorugʻ boʻlsun, shu orqali ilohiy muhabbat murid yuragining suvaydosida qaror topsin. Shunday ekan, maʼlum boʻldiki, bandalar yuragida Haq subhanahu taoloni doʻstga aylantirish tariqat shayxlarning ishi ekan. Shayxlar va ulamoyi rosix (*Haq soʻzida ustuvor boʻlgan olimlar*) ning tariqi (*yoʻllari*) shudirkim, oʻz muridlarini paygʻambar (s.a.v.) mutobiyati (*tobeyligiga, itoat etishishga*) amr etib, ularni ragʻbatlantiradi”.[ 3;15[а] варақ:]

Tasavvuf oʻrganadigan maydon: ***nafs, qalb, ruh***. Maqsad esa ***nafs tazkiyasi, qalb tasfiyasi va ruh tahliyasi*** hisoblanadi. Shu maʼnoda tasavvuf insonga bir koʻzgu tutdiki, unda inson nafsidagi noqislik, koʻnglidagi osoyish, ruhidagi latiflikni koʻrdi va angladi. Maʼlum boʻlishicha, komil murshidning yigirmadan ortiq xislat va fazilatlari mavjud boʻlgan. Bugungi taʼlim maktablari uchun ham juda zarur sanalgan, asrlar taraqqiyoti ham taʼsir oʻtkaza olmaydigan ibratli tomonlarni jamlab, quyidagi xususiyatlarni keltirish mumkin: ***ilm va maʼrifat, eʼtiqod, sidqu sadoqat, joʻmardlik va himmat, jasorat va shafqat, goʻzal axloq, tavakkul, viqor va haybat, rizo va taslimiyat,*** nihoyat, ***komil bir murshidning munosib vorisi boʻlish.*** Tasavvufda murshidga qanday zohiriy va botiniy talablar qoʻyilsa, muridga ham shunday shogirdlik majburiyatlari yuklangan. Muridning sadoqati va hurmati, albatta, uning muomala odobida namoyon boʻladi. Uning murshidiga muhabbati aslida Allohga boʻlgan muhabbatidan ayri bir narsa emas. Shu bois asl maqsad yoʻlida murshid oldida Alloh huzurida oʻtirgan kabi oʻzni tutish lozim.

Yuqorida taʼkidlaganimiz kabi tasavvufshunoslikda murshidlar *taʼlim, tarbiya va suhbat* shayxlari deya ajratiladi. Baʼzi tariqatlarda zuhd, ayrimlarida xilvat yo tush, yana birlarida suhbatga tayanilgan. Biroq, tariqat maktablarining tarbiya usullarini bir-biridan keskin farqlab boʻlmaydi. Faqat odobu arkonida maʼlum jihatlargina farqli yoxud baʼzi amaliy tomonlar ustuvorlik qiladi, xolos. Ammo, murid tush, uzlat, suhbat tajribasi maʼrifatining barchasidan bahramand boʻlgan.

Solikning tashqi koʻrinishi, kiyinish odobi, uning zohiriy maʼnolariyu, botiniy ramzlari tasavvufdagi qiziqarli mavzulardandir. Jumladan, xirqa muridning taslimiyati, masʼuliyati, maqsadi va matlabini eslatib turuvchi doimiy hamrohidir. Bayʼat, xirqa kiyish kabi marosimlardan soʻng rasman murid murshid munosabati boshlanadi. Murid iqror boʻlish bilan murshid dargohiga yuz tutadi va ahdini bajarishga kirishadi.

Mavlono Muhammad Qozi murshidlik va muridlik odoblarini tahlil qilib, uni quyidagi shartlarda bayon etadi. Dastlab, murshid va muridlik vujudga kelishining sabablarini sharhlaydi: “...shunday ekan, bandalar yuragida Haq subhanahuning doʻstga aylantirish, Haq subhanahu oldida bandalarni doʻstga aylantirish tariqat shayxlarning vazifasidir (ishidir). Bu rutbadan (martabadan) oliyroq, bu manzalatdan (maqomdan) yuqoriroq rutba bormi? Shunga oʻxshash shayxga nisbatan muridning odobi mavjud, muridga nisbatan shayxning odobi mavjud. Odob Haq muridiga nisbatan irodat Haq shayxiga nisbatan tarbiyatdir. Odob shartlari shayx va muridga nisbatan nihoyatda koʻp, uning aksariyatini bu risolaga sigʻdirishning iloji yoʻq, ammo har bir shayxu muridga nisbatan 10 ta erot (eʼtiroz, radiya) keltiriladi, toki ularning

jami 40 taga yetsin hamda bu arba'in darvishlarga (40 kishilik darveshlarga) ishorat bo'lsin.[3;15б варақ:]

**Birinchi shart**: Ulkim irshod [rahnamolik] va shayxu xat masnadiga [taxtida] o'tirolmaydi, agarki uni shayx o'tirg'izolmasa, toki shayxdan yoki Haq subhonahu ta'olodan ma'mur va ma'zun [boshqarolmasa], bo'lmaguncha, maqomni tasarruf etolmaydi. Albatta, bu xatarli maqsad amrini o'ziga ixtiyor qila olsin, u bara'lla biladiki bu anbiyolik maqomi va payg'ambar [s.a.v] xilofatining [hududining] maqomidir.

[Nazm]

Takya bar ҷoi buzurgon natavon zad ba gazof,
Magar asbobi buzurgӣ hama omoda kunӣ.
Mazmuni: Buyuklar maqomiga osonlik bilan erishish imkoni yo'q,
Ulug'lik aslihasini [qurollarni] butunlay tayyor qilganligingda ham.

**Ikkinchi shart**: Shudirki, Haq subahnahu ta'ologa nisbatan yaqinlik va ogohlik yurakda tushgan bo'lib, yurak vaslining zaruriyatiga aylanib, solik nafsining qobiliyatiga aylansin, xuddi ko'rishni bosira [ko'zda], eshitishni some'a [quloqqa] bosira va some'a zaruriyatining xossasidir, shu darajadakim, qanchaki xohlasa yurakdan ogohlikni uzoqlashtirsa, shubha bilan unga erishaolmaydi, unda mone'lik surati ma'naviy aloqa va ma'naviy aloqa esa, suratlikning o'rnini egalashni man' eta olmaydi. Bu vaqtda xojagon qadasallohu arvohahu [ruhlari muqaddas bo'lgan] xonavodasining ulug'lari bunday kishini balog'atga erishganlaridan sanab toliblar [muridlar, shog'irdlar] tarbiyasi va takomiliga ishorat qilganlar. [3;16а варақ:]

**Uchunchi shart**: shuki muridni har xil xavf bilan imtihon qilgan bo'ladi kamu ko'p, oz va bisyor, sag'ir [kichik] va kabir [ulug', katta] sinovlar bilan, albatta bu imtihonda musohala [kelushuv] ni ravo ko'rolmaydi. Agar unda masalan musohala qilsa, u oliymaqom haqini joyiga keltirolmagan bo'ladi, va uning o'limining mone'ligiga sabab bo'ladi. Shaxuxat maqomining haqqi muridning turli-xil nopokliklar va yovuz sifatlarning mazamatidan poklanishdir.

**To'rtinchi shart**: Shuki murid harakatlari va nafaslariga muhosiba [hisoblsh] lozim deb bilsin, muridning o'z shayxiga nisbatan itoat etishining sadoqati darajasida. Ishlar majmuyini unga nisbatan tor imkoniyatda olgan bo'ladi, hech bir sababda, hech bir mahalda u bilan musomihda [oson tutush kerk bo'lmagan holat, oson deb o'ylamaslik kerak] qilmasligi lozim. Amaliy ishlarda qiyin narsalarga buyrmog'i lozim, unga ruhsat berishga imkoniyat bermasin, chunki rusat berish avomga taalluqlidir, ular iymondan rasmiy mujarrad [yolg'izlik] va ismy [nomigagina] talqinga qanoat qilganlar. Ammo iymon haqiqatining tolibi hamda, avom martabasidan tajovuz qilgan kishi to'satdan shiddatli azob uqubatlar ehtimoliga qolishdan o'zga chorasi yo'q. Riyozot va mujohada [jihod ichki manaviy harakat] uchun o'z maqsad murodiga erishish yo'lida chora izlamog'i lozim. Chunki kimki marvorid izlasa, dunyo zulmatining azoblaridan qutulishi imkoni yo'q.[3;16б варақ:]

**Beshinchi shart**: shudirkim, shayx o'z muridi irodasiga poklik va muqaddaslikning mukamalroq surati holida namoyon bo'lmog'i lozim, u hech qachon o'z siridan muridni ogoh etmasligi zarur, yeyish, uxlashdan, undan boshqa insoniyat tomonidan tavsiflagan [yaxshi narsalar] hurmat ehtiromning ko'payishiga sabab bo'ladigan mushohadaga sabab bo'lsin, muridning zayifligi va nuqsoni jihatdan bas shunday ekan o'zi tahammul [sabr] qilmog'i lozim.

**Oltinchi shart**: Shuki, o'z muridlarnini boshqa shayx va uning muridlari bilan o'tirishga ijozat bermasligi kerak; Ammo boshqa shayx muridlari bilan birga o'trolmasaligi, shu jihatdanki, bu muridning hoyi-havasi [nafsi] u muridning havosining [nafsining] muxolifi

boʻlishi mumkin. Shayx uchun zarurdirki, murid nafsining muholifati uchun buyruq bersin, chunki bir-biri bilan oʻtirganda ularning havolari [nafslari] muxolifdir [zidiyatlidir], shu bilan birga shayxlarning amri ham ular nafslarining xilofidir. Shunday ekan har biri oʻz shayxining amrini oʻz nafsiga muvofiq topadi, zaruriyat darajasida unga mayil qiladi. Bunday moyillik bu toifa oldida inkor etishga ziddir. Irtidod [rad etish, radiya] vorslik tariqatining hukmiga koʻra olislik va qat'iyatlilikdir. Agarda boshqa shayxga mayil etib mulozamat ixtiyor etsa, agar bu shayx ham haqiqat arbobidan boʻlsa shahhuxat maqomidaligi sababli shu narsaga amr qiladiki, birinchi shaxyxati unga buyurgan boʻlsin. Agar uning buyurgani oʻz tabiyatiga muholif boʻlsa yana oʻz shayxiga yuz tutmogʻi lozim boʻlsa, birinchi shayxi qabul qilmaydi. Shuning oʻzi ma'lum etmoqdakim u sodiq emas. Shunday ekan mazkur masalga mufiq kim: "Bu yerdan haydalgan u yerda qolgan" boladi.

**Yettinchi shart**: shukim boshida, quvvat amri bilan muridni haqiqiy tarbiya qilsin, chunki koʻplab muridlarning ofati [ma'naviy-ruhiy oʻlimi] quvvatdandir. Nega deganda, ularning barchasi ubaydulbatn [ojiz bandadirlar] dirlar, barchalari kul amriga oʻz himmatini sarflaydilar. Bu xalqqa nisbatan chora shukim, biron-bir joyga qaror toptirishi lozim toki u kishi yashaydigan havlilarda hech kim boʻlmasin, tajrid [yakka, tanholikda] da oʻtirsin, oʻz himatiga koʻra yordam bersin, e'lon qilmogʻi lozimki, taqsimlangan rizq albbatda sa'yi harakatsiz unga yetadi, shu zamongachakim, uning haqiqati toʻgʻri boʻlsin va tavakkul hosil boʻlsun.[3; 17[а] варақ:]

**Sakkizinchi shart**: Shukim, agar biror shayxni undan ortiqroq koʻrib mulozamat ixtiyor etsa, oʻz muridlarni ham uning mulozamati uchun amr qilsa, uning boshqalardan salohiyati shundadir. Agarda bunday qilmasa, ma'lum boʻladiki, biron shayx odamlar qalbini oʻziga jalb etish, martabaga erishish maqsadida dunyoviy xutom [mashk, hayvon terisidan tayyorlab unda suv yoki qatiq toʻldiradigan mesh, xalta] boʻlgan ekan va unda himmatdan hech bir asr ham boʻlmaydi, riyokorlik muhabatidan uzoq va bu hol ayni nuqsondir. Shunday ekan. bu tariqat shayxlari bunday maqtashga yoki tavsuflashga vojubdirlar, ular oʻz muridlarini hech qachon boshqa ixvon-ut-tariq [birodarlik yoʻli] yoʻlida oʻtirish va yurishga ruxsat bermaydilar. Hech kim bilan soʻzlamasin va hech kimning ziyoratiga bormasin, uning ziyoratiga ham kelishga ham qoʻymasin, undan boshqa voqea-hodisalar hamda oʻzining daromadini doʻstlariga aytishga yoʻl qoʻymasin, agarda bu holda uni oʻz holatiga qoʻyib berilsa, bulardan man' qilinmasa, u holda:

**Toʻqizinchi shart**: shuki bu yoʻlda olim boʻlgan kishi, har kimda vaqfa [tavaqquf, toʻxtash] va hujba [hijoblar, pardalar] yuz bersa, turli voqea va qiyinchiliklar yuzaga kelsa, uning uhdasidan [bajarishidan] chiqish imkoniyatiga ega, u qiyinchiliklarni bartaraf eta oladi. Uning turli sirlar va niyatlaridan xabardor boʻlmogʻi shart emas, shu jihatdan aytganlarki: murid oʻz qiyinchiliklari va shubhalarning majmuasini oʻz shayxi oldida arz qilmogʻi zarur, aytmasinkim: shayx mening ahvolimdan ogohdir, chunki ogohlik shayx sharoyitiga bogʻlik emas.

**Oʻninchi shart**: shuki muridlar bilan kecha-kunduzda bir marotabadan boshqa yaqinlik (aralashuv va majlislar) qilmasin chunki: «Kasrat ul-mushohidata naql ul-hurmata»; Mazmuni: Koʻp mushohada qilish hurmatning ketishidir. Va oʻzi uchun alohida xonaqohga ega boʻlishi lozim, suhbatdoshlarining jami uchun ham alohida uyi boʻlmogʻi lozim.[3;17[б] варақ:]

Murshid ta'lim-tarbiya usulidagi muvaffaqiyatning asosiy sabablaridan yana biri – insonnning botiniga safarni zohir, ya'ni vujud tarbiyasidan ayro tasavvur etmay, bil'aks

mushtaraklikda olib bora olishidir. U muridga halol luqma, oz yemoq, kam uyqu, toza libos, davomiy sukut, hamisha tahoratli boʻlmoq, xilvat, zikr kabi majburiyatlarni yuklaydi.

Turkiy adabiyotda murshidni anglatuvchi obraz, ramz, timsollar shu qadar koʻpki, biz ishda barcha ijodkorlar uchun umumiy boʻlgan, eng koʻp uchraydigan: *bobo, ota, er, eran, qulovuz, pir (ayniqsa dayr piri), shayx, hodiy, soqiy, mugʻbacha, sulton, shoh, xoja, sayyid, gʻassol, choʻpon, rohrav, rahbar, kitob, koʻngil, ishq* kabilargagina toʻxtaldik. Tasavvuf tarixi, uning buyuk vakillari hayoti va soʻfiyona sheʼriyat obrazlarini oʻrganib amin boʻldikki, murshid obrazi mohiyatini ochuvchi, eng koʻp qoʻllaniladigan, turkiy xalqlar ruhiyatiga ham juda mos istiloh bu – *bobo, ota* lafzidir. Turklar, jumladan, oʻzbeklar oʻz shayxlariga bobo, ota deya murojaat etishgan. Zangi ota, Qoʻyliq ota, Bahouddin bobo va hokazo.Turkona ruhni beruvchi istilohlardan yana biri er, erandir.[4;20-b] Turkiy soʻfiyona sheʼriyatni obraz, ramz va timsollar bilan boyitgan Yassaviy er maqomining darajasini quyidagi baytda toʻla ochib bergan edi:

*Qul Xoja Ahmad er boʻlmasang, oʻlgʻon yaxshi,*
*Tirik boʻlmay, qaro yerda soʻlgʻon yaxshi.[5;28-b]*

Murshid istilohi oʻrnida turk adabiyotida aksariyat forsiy pir kalimasi keladi. Ishda har bir obraz talqinida murshid va murid munosabatidagi inja tomonlar inobatga olindi. Masalan, murid bayʼat etgan murshid – ***piri tariqat***, “ishq va irfon sharobi” ni tutgan murshidi komil – ***piri mugʻon, piri dayr, piri maykada*** yoki ***piri xarobot***, suhbati bilan fayz ulashgan komil inson – ***piri suhbat***, virdlar tayin etuvchi – ***piri zikr*** yoxud ***piri saboh***, shuningdek, hidoyat sari rahnamo – ***piri aql***, ***piri ishq*** va hk. Bularning bari murid holi bilan bogʻliq tarzda tahlil va talqin etildi.

Murshid oʻrnida eng koʻp qoʻllaniladigan, oshiq qalblar piri komili – ***Soqiy*** hisoblanadi. Soqiy-murshid tutadigan *“soʻz mayi”, “ruh mayi”, “balo mayi”, “imon mayi”, “hayrat mayi”, “vahdat mayi”, “sir sharobi”* kabilar murid holu maqomining izohi sifatida ochib berishga harakat qilindi.[4;21-b] Zero, soqiy oshiq qalblarga malham beruvchi ruh tabibi ekanini chuqurroq anglash uchun u ulashadigan may sifatlashlariga eʼtibor qaratmoq lozimki, shundagina muriddagi ruhoniy huzur tushuniladi. Butun borliqning yaratilishi soʻz bilan bogʻliqligi, qalbni junbushga keltiruvchi soʻzdan taʼsirliroq vosita yoʻqligi hammaga maʼlum. Shu maʼnoda murshiddan fayz olish aslida uning maʼrifat, hikmat toʻla soʻzlaridan bahramand boʻlish, u bilan musohiblik darajasiga yetish ekan, eng mutaassir etuvchi may – ***“soʻz mayi”***dir:

***Soʻz mayi****ni ul kishi oshom etib,*
*Kim duri maʼni sadafin jom etib.*
*Menki bu may nashʼasidin mast men,*
*Dayri fano ahligʻa hamdast men.[6;62-b]*

Alisher Navoiy oʻzining dayri fano ahliga hamdastligini “soʻz mayi”dan mastligi bilan izohlamoqda. Zotan, dunyoi dunda undan koʻra kuchliroq may yoʻq. Oshiqning istagi maʼshuqni tinglash, uning suhbatidan mast boʻlish. Shuningdek, har bir obraz muridning fano darajasi bilan bogʻliq holda izohlanishi kerakligi baytlar orqali taʼkidlandi. Murid fano fish-shayx holida soqiy – murshid, fano fir-rasul holida soqiy – Rasululloh (s.a.v.), fano filloh maqomida esa Soqiyi Azal, Alast soqiysi – Allohdir.

Albatta, ishda tamagir, riyokor, kozib shayxlar ham nazardan chetda qolmadi, ijodkorlarimizning ular haqidagi keskin qarashlari tahlilga tortildi. Haqiqiy murshidlar topilmaganda, Haq yoʻlchilariga oydin yoʻlni koʻrsatuvchi kitoblar tavsiya etilgan.

**Xulosa.** Umuman olganda, murshid darveshning hurriyati, oshiqning ishqu muhabbati, rindning jazbasi, orifning ma’rifati, faqirning Allohga muhtojligi, valiyning karomatini qo‘lga kiritgan, sayrning so‘nggiga yetgan, muridlar tarbiyasi uchun Haqdan xalqqa qaytgan eng ulug‘ martaba sohibidir. Bu maqomga faqat ma’lum bir murshid qo‘l ostida sayri sulukni ado etish bilan erishish mumkin. Va fanofilloh maqomidagi majzublar maqsadga yetsalar-da, yo‘l sirini anglamagani bois murshid vakolatini ololmasligi ta’kidlandi. Murid ilm talabida komil murshid izlagan, uning dargohida yillarcha nafsini tarbiya etgan Haq yo‘lchisi. Uning yagona talabi Yaratganga yaqinlik, tayanch tutqichi – Qur’oni karimdir. U dunyo va uqbo bilan muomalasida Haqning rizoligidan kelib chiqadi. Tariqat maktabi piri komili hech qachon ma’nan yengib bo‘lmaydigan haqiqiy hur, ozod, butun shaxsiyatni voyaga yetkazadi.

Hozirgi kunda yoshlarni turli oqimlar ta’siridan saqlash, ularda g‘oyaviy, ma’naviy immunitetni hosil qilish uchun ularga suhbat odobi, hamsuhbat tanlash, do‘stlashish shartlari haqida maxsus ta’lim-tarbiya berish uslublarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Mamlakatimizda ta’lim islohotlari olib borilayotgan ayni damda, Muhammad Qozini kabi ajdodlarimizning insonni ham ruhan, ham jisman poklanishini targ‘ib etgan g‘oyalari, komil inson haqidagi qarashlari jamiyatda mafkuraviy, ma’naviy, jismoniy sog‘lom avlodni tarbiyalashdek muhim vazifalarni amalga oshirishda nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

**Adabiyotlar/Литература/References:**


1. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. Prezident Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi. 2017. 4 avgust.
2. Horis Musohibiy. Risolatul Mustarshidiyn/Toshkent: “Sharq”, 2020.
3. Muhammad ibn Burhonuddin ibn Xoja Muhammad Rizo Muhammad al-Qozi. Silsilat ul-orifiyn va Tazkiratu-s-siddiqiyn .O‘zR FA SHI qo‘lyozmalar xazinasi: № 11413.
4. Rahmonova Z. J. XII–XV asrlar o‘zbek mumtoz adabiyotida murshid va murid obrazlari. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.T.2020.
5. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar kulliyoti. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011.
6. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. MAT. 20 tomlik. 7-tom. – Toshkent: Fan, 1991.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# MILLIY BIRLIK VA SIYOSIY HOKIMIYATGA DOIR JADIDLAR QARASHLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY AHAMIYATI

**To‘xtasinov Shukurjon Shavkatjon o‘g‘li**
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
Email: shukurjon4545@gmail.com
Tel: +998 93 670 45 45

**Annotatsiya.** Jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O‘rta Osiyo, xususan, Turkiston hududida ijtimoiy, ma’naviy va siyosiy islohotlarning muhim harakatkor kuchi sifatida maydonga chiqdi. Jadidlar milliy birlik va siyosiy hokimiyat masalalariga o‘ziga xos yondashuvlari bilan jamiyatning ma’rifiy va ijtimoiy-falsafiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shdilar. Ularning qarashlari nafaqat o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy muammolariga javob berishga xizmat qilgan, balki hozirgi kunda ham milliy birlik va davlat boshqaruvi masalalarida dolzarb sanaladi. Ushbu maqola jadidlarning milliy birlik va siyosiy hokimiyatga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilishga bag‘ishlanadi.

**Kalit so‘zlar:** Jadidchilik, milliy birlik, siyosiy hokimiyat, ijtimoiy-falsafiy ahamiyat, ma’rifat, ta’lim, adolatli boshqaruv, ijtimoiy uyg‘unlik, legitimlik, insonparvarlik, axloqiy qadriyatlar, mahalliy boshqaruv, taraqqiyot, zamonaviy O‘zbekiston, ijtimoiy konsensus, vatanparvarlik, mustaqillik.

# SOCIAL-PHILOSOPHICAL SIGNIFICANCE OF THE JADIDS’ VIEWS ON NATIONAL UNITY AND POLITICAL POWER

**To‘xtasinov Shukurjon Shavkatjon o‘g‘li**
Doctoral student of Namangan State University
Email: shukurjon4545@gmail.com
Tel: +998 93 670 45 45

**Abstract.** The Jadid movement emerged as an important driving force of social, spiritual and political reforms in Central Asia, particularly in Turkestan, in the late 19th and early 20th centuries. The Jadids made a great contribution to the educational and socio-philosophical development of society with their unique approaches to the issues of national unity and political power. Their views not only served to respond to the socio-political problems of that time, but are also relevant today in matters of national unity and state governance. This article is devoted to the analysis of the Jadids’ views on national unity and political power from a socio-philosophical perspective.

**Keywords:** Jadidism, national unity, political power, socio-philosophical significance, enlightenment, education, fair governance, social harmony, legitimacy, humanity, moral values, local government, development, modern Uzbekistan, social consensus, patriotism, independence

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N11

## Kirish

Jadidlar milliy birlikni jamiyatning taraqqiyoti uchun asosiy omil sifatida ko‘rdilar. Ularning fikricha, milliy birlik ma’rifat, ta’lim va umumiy maqsadlar atrofida birlashish orqali

amalga oshirilishi mumkin edi. Mahmudxoʻja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy kabi jadidlar oʻzbek xalqining oʻziga xos milliy oʻzligini saqlagan holda, uni zamonaviy bilim va gʻoyalar bilan boyitishga intildilar.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan, jadidlarning milliy birlik tushunchasi kollektiv ongni shakllantirish va ijtimoiy barqarorlikni taʼminlashga xizmat qildi. Ular milliy birlashuvni faqat etnik yoki diniy asosda emas, balki umumiy ijtimoiy-siyosiy maqsadlar, xususan, mustaqillik va adolatli jamiyat qurish gʻoyasi atrofida koʻrdilar. Bu qarashlar Abu Nasr Forobiy kabi sharq faylasuflarining "fozil odamlar shahri" konsepsiyasi bilan oʻzaro uygʻunlik kasb etadi, unda jamiyatning uygʻunligi umumiy axloqiy va maʼnaviy qadriyatlar asosida taʼminlanadi.

Jadidlar milliy birlikni mustahkamlashda taʼlimning rolini alohida taʼkidlashdi. Masalan, Behbudiy oʻz maqolalarida taʼlim orqali xalqning ongini yuksaltirish va ijtimoiy adolatni taʼminlash mumkinligini yozgan. Ularning taʼlim tizimiga kiritgan yangi usullar (usuli jadid) nafaqat oʻqish-yozishni oʻrgatish, balki xalqni ijtimoiy masʼuliyat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qildi. Bu esa ijtimoiy-falsafiy jihatdan xalqning bir butun sifatida shakllanishiga zamin yaratdi.

Ilm-fan, taʼlim berish milliy taraqqiyot uchun ijtimoiy tayanch boʻlishi bilan birga aholi turmush darajasini sifat oʻzgarishiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Jadidlarning madaniyat va siyosat, urbanizatsiya va matbuot sohasidagi innovatsion qarashlari bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Yoshlarning xorijiy tillarni "Lugʻoti sitta alsina" tizimi asosida oʻrganishi milliy madaniyatni umuminsoniy madaniyatga uygʻunlashtiradi. Shu maʼnoda jadid merosi oʻz mohiyatiga koʻra taʼlim merosi sifatida falsafa tarixi kontekstida faol tadqiqi ijtimoiy fanlarda oʻzining ilmiy qimmatini saqlab qoladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.**

Jadid harakatining yetakchisi boʻlgan Gaspirali Bey Turkiston va uning xalqini doimiy tarzda kurashga, milliy uygʻonishga chaqirib, tobelik va qullik zanjiridan ozod boʻlishda uch narsa: "1. Milliy fikr 2. Milliy til 3. Milliy maorif muhimligini taʼkidlaydi. Milliy fikr bu birinchi navbatda, millat birligi fikri hisoblanib u milliy yakdillikni ilgari soʻradi. Til yagona adabiy til masalasidir. Milliy maorif ona tilidagi taʼlim-tarbiyani yoʻlga qoʻyishdir. Fikr va tilni matbuot tarbiya qiladi. Matbuot xodimlarini yetkazuvchi esa maorifdir", — deb izohlagan[11. –B. 186.]. U til va millat masalasiga chuqur eʼtibor qaratib, 1881-yil "Rusiya musulmonlari" asarini chop etadi. U asarda milliy va diniy jipslikka alohida eʼtibor qaratadi. Ayni zamonda Rossiya imperiyasida olib borilayotgan "ruslashtirish" siyosatiga qarshi fikrlar yuritadi. Shuningdek, u "ruslashtirish" siyosatini ruslar emas, chorizm maʼmurlari tomonidan oʻylab topilgan shovinistik gʻoya ekanligini taʼkidlab oʻtgan[14.– B. 35.]. "Aslida, bu jarayon ilgariroq boshlangan edi. Mustamlakachilar Turkiston bolalari ongiga oʻz gʻoyalarini singdirish maqsadida rus-tuzem maktablarini ochdi. Biroq, Rossiyaning oʻlkada rus-tuzem maktablarini ochib, rus tilini oʻrgatishga boʻlgan saʼy-harakatlari ommaviy tus olmadi. Xatto Samarqand va Fargʻona viloyatlarida bu maktablarni "kofir-tuzem" maktablari deb atay boshladilar. Shu bois 1917-yil 9-maydan 14-maygacha Toshkent shahrida boʻlib oʻtgan oʻlka oʻqituvchilarining birinchi qurultoyi kun tartibiga Turkiston oʻlkasi aholisi uchun muhim boʻlgan rus-tuzem maktablarini tugatish va ular oʻrniga milliy maktablar tashkil etish masalasi kiritildi. Qurultoyda eski usul tarafdorlari va jadidlar oʻrtasida tortishuv avj oldi. Qizgʻin muzokaralardan soʻng, Turkistonda milliy maktablarni tashkil etish toʻgʻrisida qaror qabul qilindi"[9.– B. 92-93].

Turkiston jadid taraqqiyparvarlari Gaspirali Beyning gʻoya va qarashlarini, millat hamda jamiyat rivojida hissasi katta ekanligini tushunib, oʻlka mahalliy aholisi shuuriga singdirishga harakat qilganlar. Mahmudxoʻja Behbudiy "Tarjimai holi" ga Hoji Muin yozgan "Bosh soʻzi" da quyidagi fikrlarni bildirgan: "Biz, Turkiston turklari, bugungi muhtasham… Madaniyatimiz soʻngidan keyin, soʻnggi asrlarda har bir jihatdan juda chetda qoldik. Madaniyatimiz va maorifimiz xarob, davlat va hukumatimiz barbod boʻldi. Oʻzimiz Yevropa jahongirlarining asoratida qoldik. Lekin soʻng boʻlsa ham gunoh va xatolarimizdan xabardor boʻla boshladik. Biroz uygʻonib ketdik. Bizda intibox davri 1901-yildan boshlandi"[5.– B. 33.].

**Muhokama**

Ma'lumki, milliy ozodlik harakati evolyutsion va revolyutsionligi bilan xalqni ijodiy kuchlarni kurashga chorlaydi. Shu boisdan milliy davlatchilik tarixida davlatning tipi va boshqaruv shakllarining eng maqbul varianti yuzasidan olimlarning yakdil fikrga kelolmagani adabiyotlarda namoyon boʻlmoqda. Jadidlarning ijtimoiy qarashlari siyosiy jihatdan ham mukammallikka intilishi davlatning ijtimoiy boshqaruv shakli, diniylik va dunyoviylikning unda hamkorligi tolerantlik tamoyillarida qabul qilingan. Qoʻqon muxtoriyati jadidlar tomonidan oʻlkadagi ilk **ijtimoiy davlat** (sotsialno-teologicheskoye) shakli edi.

Bizning muammoning yechimida ijtimoiy davlatchilik gʻoyalarining ilmiy tadqiqi, millatning siyosiy birligi kontekstida qoʻyilishi jadidlarning chin musulmonlik pozitsiyasi, axloqiylikning ularda ijtimoiy madaniyat sifatida shakllanganligi bilan izohlanadi. Jadid allomalarining biografik hayoti va siyosiy faoliyatining tadqiqi ham ularni islom arkonlaridan xabardor, sha'riy yurisprudensiyada yetuk shaxslar ekanligi bilan dalillash mumkin. Chunki M. Behbudiy va Choʻlponning besh vaqt namoz ibodati haqida manbalar guvohlik beradi. Is'hoqxon toʻra Ibrat esa nafaqat vodiy, balki Turkistonda oʻzining "adolatli qoziligi" bilan davlat boshqaruvi muammolarini nazariy va amaliy anglab yetgan mutafakkir deyishga asos bor.

Jadid harakatining ma'rifatparvarining shaxsiy tashabbuslari milliy siyosiy ong va tafakkurning jiddiy oʻsishiga, oʻlkada ijtimoiy-siyosiy harakatlar avj olishi bilan an'anaviy qarashlarni inkor etadi. Chunki dehqonlar milliy ozodlik harakatida yetakchi kuch boʻlolmasligi, ular oʻz maqsadlarini oxirigacha olib borolmasligi haqidagi bolshevistik qarashlar jadidlar harakatida oʻz isbotini topmadi. Fargʻona vodiysidagi milliy ozodlik kurashi Rossiyadagi siyosiy jarayonlar bilan bogʻliq holda rivojlangan. Turkiston general-gubernatori A.N. Kuropatkin chorizmni oʻzga xalqlarga "katta ogʻa" nuqtai nazaridan milliy birlikni tobelikka boʻysundirmoqchi ham boʻlgan. Biz fikrimizni Rossiya xalqlarining otasi davlatpanoh imperator hazratlari ekanligi, "Bu barcha elatlar ona-buyuk Rossiyaning farzandlaridir. Ammo bu koʻp sonli oilada ruslar boshqalarga nisbatan ogʻa boʻlishi lozim", — degan iddaolar qilgan[6. –B. 46]. Bu hol milliy birlik va siyosiy hokimiyat masalasini zaruriyatga aylantirdi.

Jadidlar esa Turkiston oʻlkasi Rossiya tarkibidagi federativ jumhuriyat gʻoyalarini nazariy jihatdan isbotlab, xonlikning tiklanishi ichki xalq qoʻzgʻoloniga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi. Milliy birlikni ta'minlashda jadidlar boʻlajak milliy davlat shariat an'analaridagi ijtimoiy boshqaruv tipini yoqladilar[4. – B. 64].

Milliy davlatni barpo etishda "Shoʻroi Islomiya", "Shoʻroi Ulamo", "Turk Adami Markaziyati" kabi siyosiy firqaviy tashkilotlar faol ishtirok etdi. Ayniqsa, Fargʻona vodiysi Skobelev (hozirgi Fargʻona) shahrida "Turk Adami Markaziyati" partiyasi ommani milliy davlatchilik gʻoyasi bilan toʻla siyosiy kurashga tayyorlagan. Bu partiya a'zolari 1917-yil 11-sentyabrda Turkistonning milliy davlatchiligining tasavvurlari maromnomasini tayyorlashga

erishgan. Ushbu maromnomani tayyorlashda oʻlka jadidlari qatorida fargʻonalik jadidlaridan: Mullo Nuriddin A'lam Yoʻldoshxoʻja eshon oʻgʻli (Andijon), Mullo Muhammadjon Kamoljonboyev (Andijon), Mirzo Abdulqodirbek Qushbegiyev (Andijon), Mullo Boqi Oxund Odilboy oʻgʻli (Andijon), Mullo Obidjon Mahmudov (Xoʻqand), Mullo Kamoliddin qozi Rahmonberdi oʻgʻli (Xoʻqand), Mir Odil Mirzo Ahmad oʻgʻli (Skobelev) kabi taraqqiyparvarlar oʻz hissalarini qoʻshdilar[15. –B. 8.]. Shu ma'noda siyosiy harakatda siyosiy birlik boʻlmaganidan maqsadlarda ziddiyatni ham kuzatish mumkin.

Jadid taraqqiyparvarlari boʻlajak milliy muxtoriyatning boshqaruv tizimini demokratik tamoyillariga yondashgan holda asoslashga harakat qilishdi. "Turkiston federatsiyasi loyihasi" ziyoli va ulamolar tomonidan qoʻllab-quvvatlandi. Turkiston musulmonlarining 1917-yil 17-20-sentyabrdagi qurultoyida loyiha muhokamasi ba'zi qoʻshimcha va oʻzgarishlar kiritildi. Loyihaning 26-27-bandlarida oʻlka pochta va telegraf ishlari, armiya masalalari Rossiya ixtiyorida boʻlishi va muxtoriyat Ta'sis Majlisi ochilgach, bu mahkamalar oʻlka hukumati qoʻl ostiga oʻtishi bayon etilgan. Oʻlka musulmonlarining 3-qurultoyida esa milliy muxtoriyat oʻzining milliy armiyasi va militsiyasini tuzishi koʻrsatib oʻtildi[8]. Qoʻqon, Namangan, Andijon, Skobelev, Margʻilon shaharlarida milliy harakatlarning rivojlanishida milliy davlatchilik gʻoyalari olgʻa surildi.

Jadid taraqqiyparvarlari Turkistonda milliy muxtoriyatning tashkilida navbatdagi qurultoyni belgilab, 1917-yil 26-noyabrda Qoʻqon shahridagi "Shoʻroi Islomiya" qarorgohida Butun Turkiston musulmonlarining 4-qurultoyini chaqirdilar. Uning qurultoyida millatlararo munosabatlar ijobiy yoʻlga qoʻyilib, Qoʻqonlik mashhur taraqqiyparvar Obidjon Mahmudov boʻlajak muxtoriyat boshqaruv tizimi boʻyicha fikrini quyidagicha izohladi: "...hay'atga saylovlarda viloyat va ayrim diniy hamda milliy guruhlar boʻyicha emas, balki bilimdon va ishchan kishilarini tanlash asosida kiritish"[2. B. 127].

Ular Muxtoriyatning siyosiy tuzilmasini qurultoy ishtirokchilari fikr-mulohazalarini 27-noyabr kuni qurultoy hay'atiga ochiq ovoz berish yoʻli bilan 13 kishi saylandi. Soʻng Muxtoriyat kelajagini bayon etuvchi "Yashasin, Turkiston Muxtoriyati" gʻoyasidagi deklaratsiya qabul qilindi. Unga koʻra, Turkiston Muxtoriyati demokratik Rossiya jumhuriyati tarkibidagi hududiy avtonomiya deb e'lon qilindi. 28-noyabr kuni yangi milliy davlat "Turkiston Muxtoriyati" deb e'lon qilindi.

Turkiston Muxtoriyati Xalq Majlisi tarkibi 54 kishidan: musulmonlardan 32 kishi, shahar va mahalliy boshqarmalardan 4 kishi, yevropalik tashkilot a'zolari uchdan bir oʻrin, ya'ni 18 kishidan tarkib topdi. Xalq Majlisiga saylangan musulmon vakillari tarkibi quyidagicha belgilangandi: "Ubaydulla Xoʻjayev, Mustafo Choʻqayev, Obidjon Mahmudov, Toshpoʻlatbek Norboʻtabekov, Sadriddinxon Sharifxoʻjayev, Nosirxontoʻra Kamolxontoʻrayev, Islom Shagiahmedov, Yurali Agayev, Abdurahmonbek Oʻrazayev, Qoʻngʻirxoʻja Xoʻjaqulov, Sherali Lapin, Ismatulla Ubaydulin, SaidJa'farboy Saidov, Mirodil Mirzoahmedov, Toshxoʻja Ashurxoʻjayev, Abdulqodirbek Qoʻshbekov, Jamshidboy Qoraboyev, Gersfeld Solomon Abramovich, Abdusamad Abdusalimov, Abaydulla Darbisalin, Muso Aqchurin, Mustafo Mansurov, Mahmudxoʻja Behbudiy, Ibrohim Davletshin, Muhammadjon Tanishboyev, Xalil Shirinskiy, Tolibjon Musaboyev, Alixontoʻra Shokirxontoʻrayev, Sobirjon Yusupov, Komil Rahmonberdiyev, Odiljon Umarov kabilar edi"[10].

Mazkur siyosiy voqealarning talqinidan xabar topgan Fargʻona vodiysi ulamolari tezlik bilan vaziyatni muhokama qilishdi. Toshkentga Qoʻqonlik Mullo Kamol qozi va fargʻonalik

domullo Qosimxon qozilar vakil qilinib, Umumturkiston milliy ittifoqidan ajralmaslikka chorlovchi murojaatnoma yuborildi. Murojaatnomada "Rus zolimlaridan halos boʻlmak uchun Turkiston ahlining vakillari Muxtoriyat e'lon qildilar. Shunday muhim va mas'uliyatli vaziyatda biz ixtilof holatida boʻlishimiz yaxshi emasdur. Muborak vatanimizning va dinimizning salomatligi ittifoq va ittihoddadur" — mazmunida birdamlik gʻoyasi ilgari surilgandi. Fargʻona ulamolari toshkentliklarni Qoʻqonda tashkil etilgan Turkiston Muxtoriyatidan ajralmaslikka chorlab, hadisdan misollar keltirib, musulmon ummati birlik mazmunidagi fikrlarini bildirdilar[2. –B. 143].

Turkistonda milliy muxtoriyatning tashkil topishi va uning oʻlka aholisi manfaatlariga ma'qul keluvchi siyosatni olib borishi bolsheviklar tomonidan yomon munosabatda kutib olindi. Bolsheviklar oʻz maqsadlariga erishish, ya'ni hokimiyatni toʻla qoʻlga olish uchun oʻta qabih ishlardan ham qaytmadilar. "Turkistonda bolsheviklar qurol kuchi bilan boshqarishni oʻz qoʻllariga olib barcha ishlarni soldat va ishchilar qoʻllariga topshira boshladilar. Turkistondagi barcha milliy mahkamalar tugatildi. Shahar Dumasini tugatib, sud ishlari toʻxtatildi. Bularning oʻrniga oddiy rus soldat va ishchilaridan "jamoat hukmi" degan "yangi sudlar" tashkil qilinadi, mahalliy aholining yerlarini qurol kuchi bilan tortib olib, bolsheviklar oʻzlari yer qoʻmitalari tuzib, Turkiston yerlarini yersiz rus krestyanlariga olib bera boshladilar. Bolsheviklarning fikriga qoʻshilmagan hukumat muassasalari va boshqa milliy jamoat idoralarining barchasi faoliyati toʻxtalib, ularning oʻrniga rus soldat, ishchi va krestyanlardan tayinlay boshladilar"[7. –B. 54]. Bolsheviklar qanday yoʻl bilan boʻlsa ham, Turkiston Muxtoriyatini tugatishni oʻz oldidagi eng asosiy maqsad qilgandi. Shu maqsadda ular Muxtor hukumatga bajarib boʻlmas shartlarni qoʻygan. 1918-yil 18-fevral kuni muzokaralar paytida Muxtoriyatda siyosiy toʻntarish boʻlib oʻtdi.

Turkiston Muxtoriyatining tugatilishi erksevar jadid taraqqiyparvar va ulamolarining intilgan maqsadlaridan qaytara olmadi. Ular bolsheviklar tazyiqi kuchli boʻlgan sharoitda ham, Fargʻona vodiysidagi istiqlol harakatiga bosh-qosh boʻldilar. Ularni zolimlarga qarshi kurashda doimiy tarzda ruhlantirib, moddiy va ma'naviy yordamlarini ayamadilar. Fargʻona jadidlarining dastlabki jiddiy harakati 1918-yil mart oyi soʻnggi kunlarida Fargʻona jadid taraqqiyparvarlari va ulamolaridan tarkib topgan "Shoʻroi Islomiya" va "Shoʻroi Ulamo" jamiyatlarining tashabbusi bilan Qoʻqonning Bachqir qishlogʻiga qoʻrboshilar qurultoyini uyushtiradilar. Bu qurultoydan asosiy maqsad Fargʻona vodiysida ozodlik uchun kurash boshlagan istiqlolchilik harakati rahbarlarini yagona ittifoqqa birlashtirish edi. Qurultoy qaroriga koʻra, Fargʻona vodiysidagi istiqlolchilik harakatining umumiy rahbari etib Katta Ergash saylandi. Madaminbek va Shermuhammadbeklar uning oʻrinbosarlari etib tayinlandilar[13. –B. 111.]. Jadidlar Turkistonda yashovchi barcha millat vakillarini birlashtirish, ularning hamjihatligi gʻoyasi tarafdori edi. Bu gʻoya meros tarzida "bosmachilik" deb atalgan istiqlolchilik harakatiga oʻtib, ularning shiorlaridan biri boʻldi. Shoʻro hokimiyati siyosatidan xafsalasi pir boʻlgan koʻpgina jadidlar ham bu harakatga qoʻshilgan edi[1. – B.-59.].

Fargʻona jadid ziyolilari istiqlolchilik harakati rahbarlari bilan yaqindan aloqa oʻrnatdilar. "Turkiston Muxtoriyati hukumatining xalq maorifi vaziri, Namangandagi "Shoʻroi Islomiya" tashkilotining rahbari Nosirxontoʻra Kamolxontoʻrayev, hukumut xazinachisi Saidnosir Mirjalilov, Turkiston Millat Majlisi a'zolaridan Olimxontoʻra Shokirxontoʻrayev, Obidxon Umarov va Toshkent muftisi Sadriddin Sharifxoʻjayev kabilar istiqlolchilar bilan aloqa oʻrnatishdi. Ular Fargʻona vodiysidagi aholi orasida va qoʻrboshilardan Shermuhammadbek,

Rahmonqul, Parpi yigitlari ichida boʻlib, mujohidlarni sovet hokimiyatiga qarshi kurashga safarbar qilishda muhim rol oʻynadilar”[3. –B. 26.]. Shuningdek, Turkistonda, xususan, Fargʻona vodiysi istiqlolchilik harakati namoyandalari tarqoq holda harakat olib borishsa-da, lekin ular yagona maqsad sari, yaʼni islom shariati qonun-qoidalari asosidagi milliy davlatni qaror toptirish, milliy demokratik tartibidagi mustaqil davlat tashkil etish gʻoyalarini oʻzlariga shior qilgandilar.

Fargʻona vodiysida oʻzining milliy davlatini tuza olgan yirik istiqlolchilardan biri Shermuhammadbek edi. Shermuhammadbek ayni damda bolsheviklarga qarshi kurashda jadid taraqqiyparvarlari bilan keng hamkorlikni yoʻlga qoʻygan edi. Fargʻona istiqlolchilar harakatining yoʻlboshchisi Namanganlik Nosirxontoʻra Kamolxontoʻrayevni oʻziga pir deb eʼlon qilib, 1919-yil oxirlari Nosirxontoʻra bolsheviklar tomonidan qamoqqa olingunga qadar, sovet qoʻshinlari haqida doimiy maʼlumot va maslahatlar olib turgan. Shermuhammadbek 1920-yil 3-mayda Fargʻona vodiysidagi barcha istiqlolchilik harakati rahbarlari oʻrtasida qurultoy oʻtkazib, Turkiston Islom Muvaqqat hukumatini tuzadi. Hukumat tarkibi 6 kishidan iborat qilib belgilanadi. Shuningdek, Fargʻona vodiysidagi istiqlolchilik harakatini rivojlantirish masalalari boʻyicha 14 kishidan iborat harbiy maslahat mahkamasini joriy etadi[1. –B. 60.].

Jadidlar siyosiy hokimiyatni xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi institut sifatida talqin qildilar. Ular mustamlaka tazyiqlari ostidagi Turkiston jamiyatida adolatli boshqaruv tizimini joriy etishni orzu qilishdi. Siyosiy hokimiyat masalasida jadidlarning qarashlari Gʻarb demokratiyasi va Sharq anʼanalarining sinteziga asoslangan edi. Masalan, Munavvarqori oʻz ishlarida konstitutsiyaviy monarxiya va xalq vakillari ishtirokidagi boshqaruv tizimini qoʻllab-quvvatladi.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan, jadidlarning siyosiy hokimiyatga yondashuvi legitimlik va ijtimoiy konsensus tushunchalariga asoslanadi. Ular hokimiyatning qonuniy boʻlishi uchun xalqning ishonchi va roziligiga muhtoj ekanligini taʼkidladilar. Bu fikr zamonaviy siyosiy falsafada Jon Lokkning ijtimoiy shartnoma nazariyasi bilan oʻxshashliklarga ega, unda hokimiyat xalqning irodasiga asoslanadi. Jadidlar hokimiyatning maqsadi inson qadr-qimmatini ulugʻlash va jamiyat farovonligini taʼminlash deb bildilar, bu esa Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasida inson huquqlari va adolatli jamiyat qurish gʻoyalariga yaqin turadi.

Jadidlar hokimiyatning markazlashgan tuzilmasiga qarshi chiqib, mahalliy boshqaruv tizimlarini mustahkamlashni targʻib qildilar. Ular mahalla va jamoat tuzilmalarini ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning muhim elementi deb koʻrdilar. Bu yondashuv ijtimoiy-falsafiy jihatdan hokimiyatning xalqqa yaqinligi va shaffofligini taʼminlashga xizmat qildi.

Turkistondagi qurolli harakatga taʼsir koʻrsatgan ayrim taraqqiyparvarlar qoʻrboshilar faoliyatini birlashtirib, ularni umumiy dushman — sovet rejimi va qizil armiyaga qarshi kurashga yoʻnaltirishga muvaffaq boʻldilar. Turkiston vatanparvarlari muxtoriyatchilik harakati magʻlubiyatga uchragach, mustaqillikka erishish uchun qoʻlga qurol olishdan boshqa choralari yoʻqligini tushunib yetdilar.

**Natijalar.**

Jadidchilar fevral inqilobidan keyin, mahalliy aholini oʻlkadagi saylovlarda faol ishtirok etishga chaqirdi. Chunki ular Turkistonni uning xalqisiz mustaqil qilib boʻlmasligiga ishonardi. Shu sababli, taraqqiyparvarlar keng koʻlamli tushuntiruv va chorlov ishlarini, saylov paytida, xalq orasida olib borishdi;

Bolsheviklarning jadidchilar, aholining qonunlari va talablari bilan hisoblashmasdan, ish olib borganliklari sabab, sobiq sovet tuzumiga qarshi kuchlarni birlashishiga va Farg‘ona vodiysida umumxalqning talabi, orzu intilishlari bilan Turkiston Muxtoriyati vujudga keldi;

Milliy Muxtoriyatning Farg‘ona vodiysida tashkil topishida, birinchidan, bolsheviklarning Toshkentda jadid ziyolilariga siyosiy tazyiqi bo‘lsa, ikkinchidan, farg‘onalik jadidlarning harakatlari va maqsadlari Turkiston jadidlari o‘rtasida muhim o‘rin tutardi. Uchinchidan, Farg‘ona vodiysi strategik jihatdan qulay hududda joylashgan bo‘lib, uning aholisi o‘lkaning boshqa hududlariga nisbatan siyosiy jihatdan milliy davlatni vujudga keltirishga tayyor edi;

O‘lkaga mustahkam o‘rnashib olgan bolsheviklarning tajovuzkorlik siyosati oqibatida, himoyasiz Turkiston Muxtoriyati barbod etildi. Bu esa ularga qarshi o‘lkada qurolli ozodlik uchun kurashni vujudga keltirdi. Jadid taraqqiyparvarlari milliy ozodlik kurashida muhim o‘rin tutib, uzoq va ta’sirli kurash izlarini qoldirishga erishdilar.

Shuningdek, ulamolar ham Turkiston mintaqasidagi qurolli harakatni yagona maqsadga bo‘ysundirish uchun ulkan hajmda tashkiliy va g‘oyaviy ishlarni amalga oshirishdi. Ulamolarning harakatda tutgan o‘rni va roli bo‘lakcha bo‘lgan. Ular harakatning g‘oyaviy mafkurachilari sifatida qo‘zg‘olonchilar o‘rtasida katta nufuz va obro‘ga ega edilar. Biroq qurolli harakatga ta’sir ko‘rsatish borasida ayrim taraqqiyparvarlar bilan islom dini arboblari bo‘lgan ulamolar o‘rtasida o‘zaro raqobat ham mavjud edi. Qo‘zg‘olonchilarning yo‘lboshchilariga 1919-1923-yillarda “Sho‘roi Islomiya”, “Ittihodi taraqqiy”, “Milliy Ittihod”, Turkiston Milliy Birligi tashkilotlari a’zolarining ta’siri kuchli bo‘lsa, kurash jarayonida ustunlik ulamolar qo‘liga o‘tdi. Shunisi e’tiborliki, eshonlar va qozilarning katta qismi keyinchalik ko‘plab jadid ziyolilari singari sovetlar xizmatiga o‘tishdi. Qurolli muxolifat harakatining maqsadi — butun o‘lkaning milliy mustaqilligi g‘oyasi o‘zgarmagan bo‘lsa-da, kurash jarayonida bunday holatlarning namoyon bo‘lishi harakatning yanada kengayishi va rivojlanishiga, uning samarali bo‘lishiga to‘sqinlik qildi.

**Xulosa.**

Jadidlar va ulamochilar o‘rtasidagi o‘zaro raqobat va kelishmovchilik holatlari sovet rejimiga qarshi qurolli kurashning yagona mafkurasini ishlab chiqishga halal berdi. Jadidlarning demokratik davlat qurish g‘oyalari bilan ko‘plab ulamolarning islom davlatini qayta tiklash haqidagi da’vatlari qo‘rboshilar o‘rtasida ham kuchli tortishuvlar, hatto ayrim ziddiyatlarga sabab bo‘ldi. Qurolli kurash harbiy rahbarlarining siyosiy ongi ham bir xil darajada bo‘lmaganligini unutmaslik lozim. Pirovardida, bu salbiy holatlar harakatning mag‘lubiyatga uchrashiga olib kelgan omillar sirasiga ham kirgan.

Jadidlarning milliy birlik va siyosiy hokimiyatga oid qarashlari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan o‘z davrining ilg‘or g‘oyalari sifatida jamiyat taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shdi. Ularning ta’lim, ma’rifat, adolatli boshqaruv va insonparvarlikka asoslangan yondashuvlari nafaqat o‘tgan asrning muammolariga javob bergan, balki bugungi kunda ham O‘zbekistonning zamonaviy rivojlanish yo‘lida dolzarbdir. Jadidlar g‘oyalari milliy birlikni mustahkamlash, hokimiyatning legitimligini ta’minlash va ma’naviy-axloqiy qadriyatlar asosida jamiyat qurishda muhim yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu sababli, ularning merosini chuqur o‘rganish va zamonaviy sharoitda qo‘llash davlat va jamiyat barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

**Adabiyotlar/Литература/References:**


1. Alimova D. Xaqiqatning tutash manzili.T.:Tafakkur. -2000.-№2.-B.-59.
2. A'zamxo'jayev. S. Turkiston Muxtoriyati... -B. 127.
3. Davriy to'plam 1999 175- bet, Rajabov. Q. I. Jadidlar- istiqlolchilik harakatining g'oyaviy rahnamolari // Jamiyat va boshqaruv. 2002. -№3. –B. 26.
4. Do'stqorayev B. Turkistonning usuli idorasi qanday bo'lmog'i kerak edi? // Jamiyat va boshqaruv. -1998. -№1. –B 64.
5. Karimov E. Mustaqillik va jadidlar xarakati.T.:Muloqot.-1998.-№4.-B. 33.
6. Majid Xasaniy. Turkiston bosqini. Toshkent: Nur, 1992. –B. 46.
7. Mingnorov. Turkistonda 1917- 1918-yillardagi milliy siyosiy tashkilotlar (Milliy matbuot materiallari asosida)... –B. 54
8. Muxtoriyatli Turkiston muvaqqat xalq sho'rosi // El Bayrog'i. -1917. -22-dekabr.
9. Oripova M .Turkistonliklar savodsizmi. Tafakkur. 2004. — B. 92-93.
10. Qo'qon muvaqqat xalq sho'rosi hay'ati // Ulug' Turkiston. -1917. -8-dekabr.
11. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoiylik... –B. 186.
12. Rajabov Q. Mustaqil Turkiston uchun mujodalalar // Jamiyat va boshqaruv. 1998. -№4. –B. 60.
13. Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi... –B. 111.
14. Turdiyev Sh. Ismoilbek Gaspirali va Turkiston ziyolilari // Jamiyat va boshqaruv. -2001. -№2. –B. 35.
15. Turkistonda xalq jumhuriyati // Fan va turmush. -1990. -№7. –B. 8.
16. Zohiriy A.A. Marhum Ismoilbek qanday ishlar qilgan // Sadoyi Farg'ona. -1917. -17-sentyabr.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# AN'ANAVIY O'QISHNING GNOSEOLOGIK JIHATLARI

**Nurmatova Umida Jalolidinovna**
O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti
Milliy g'oya va falsafa kafedrasi dotsenti

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada, mutolaa jarayoni uning falsafiy-gnoseologik mazmun-mohiyati hamda mutolaa jarayonida bilish qobiliyati natijasida o'zini, o'zligini anglashi gnoseologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Shuningdek, matnni tushunish, tahlil qilish, mohiyatini anglash va ma'nosini aytib berish, umumlashtirish mutolaa matnni tushunishga qaratilgan murakkab kognitiv jarayon ekanligi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** mutolaa, mutolaa jarayoni, kitob mutolaasi, axborot madaniyati, mutolaa texnologiyasi, matnni tushunish, mutolaa gnoseologiyasi, mutolaa tarzi.

# EPISTEOLOGICAL ASPECTS OF TRADITIONAL READING

**Nurmatova Umida Jalolidinovna**
Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute
Associate Professor, Department of
National Idea and Philosophy

**Abstact.** This scientific article analyzes the reading process from an epistemological point of view, its philosophical and epistemological content and essence, and the self-awareness of the individual as a result of the ability to know during the reading process. It is also argued that reading is a complex cognitive process aimed at understanding the text, analyzing it, understanding its essence, and expressing its meaning.

**Key words**: reading, reading process, book reading, information culture, reading technology, text comprehension, reading epistemology, reading style.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N12

## Kirish

Prezident Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan bugun kitob targ'iboti davlat siyosatining tarkibiy qismiga aylandi. Shu ma'noda, davlat rahbari farmoyishi barchamizni kitobga munosabatimizni qayta ko'rib chiqishga undaydi. Shunday ekan, kitob mutolaasining falsafiy-gnoseologik muammolarini bugungi voqelik nuqtai nazardan tahlil qilish metodologik ahamiyatga ega.

Bugun kitob hayotning mutlaqo zaruriy atributidir, agar kitob bo'lmasa insonda na tarix, na madaniyat, na ertangi kun to'g'risida g'oyalar mavjud bo'lgan bo'lar edi. Kitoblarni o'qish, idrok etishning barcha boshqa jarayonlaridan deyarli ko'proq, fikr va xayolotni rivojlantiradi, bu esa shaxsning rivojlanishi uchun juda muhimdir. Shifokorlarning ta'kidlashicha, inson miyasining normal ishlashi uchun har bir inson har kuni 20-25 betlik badiiy matnni o'qishi kerak. Har kunlik mutolaa miya hayoti mavjudligining sharoitidir.

Mutolaa jarayoni — insonning ongli faoliyatida shakllanadi, insonning immanent (bilish, anglash, idrok qilish) xususiyatlari bilan oʻzaro aloqadorlikda, sodir boʻladi. Mutolaaga inson atrofidagi obyektiv va subyektiv voqelikning ham bevosita taʼsiri boʻladi. Inson oʻzining ongli faoliyati bilan oʻzini-oʻzi takomillashtirish maqsadida kitob mutolaasi bilan mashgʻul boʻladi. Inson mutolaa jarayonida oʻzini takomillashtirib boradi va natijada oʻzining faoliyati, boshqalarning faoliyatiga baho beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Mutolaa jarayoni uning falsafiy-gnoseologik mohiyati, xususiyatlari hamda dialektik birligini makon va zamon nuqtai nazardan koʻpgina manbalarda tahlil qilgan. Deni Didro, Gadamer, Adler Mortimer, Doren Charlz Van, Yelnikov M.P va boshqalarning asarlarida mutolaaning gnoseologik jihatlari oʻrganilgan. Inson qanchalik koʻp kitob oʻqigani sayin uning dunyoqarashi kengayib, ongi oʻsadi, tafakkuri shakllanadi. Masalan, faylasuf Deni Didroning "Odamlar kitob oʻqimay qoʻysalar fikrlashdan toʻxtaydilar", degan soʻzlarini eslash oʻrinli. Koʻpchilik, inson kitob oʻqimasdan ham fikrlay oladi-ku deyishadi. Toʻgʻri inson kundalik bilish, tafakkur doirasida fikrlaydi, ammo nazariy-ilmiy darajada fikrlay olmaydi. Kitob mutolaa qilish tafakkurni boyitadi, falsafiy dunyoqarashini shakllantiradi, soʻz boyligini oshirib voqelikni erkin ifodalay olish koʻnikmasini hosil qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqotni amalga oshirishda tarixiylik, xolislik, davriy izchillik, qiyosiy, tanqidiy, mantiqiy va xronologik, semantik va pragmatik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar**

Kitob mutolaasining falsafiy-gnoseologik mohiyatiga koʻra ikki jihati mavjud: *birinchidan,* u insonning axborot ehtiyojini qondirishga qaratilgan intellektual faoliyat turi; *ikkinchidan,* falsafiy gnoseologik mohiyatga ega boʻlib, insonda strategik hayotiy maqsadni, idealni shakllantirish funksiyasini bajaradi.

Birinchisida axborot madaniyati – mutolaa madaniyatining asosiy belgilaridan biri. Axborot, oʻz-oʻzini tashkillashtirishning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. "Axborot maʼnaviy oʻz-oʻzini tashkillashtirishning muhim tarkibiy qismidir. Xotira, faoliyat dasturi, oʻz-oʻzini tashkillashtirish jarayoni, muloqot va boshqa murakkab bioijtimoiy hodisalar axborotsiz amalga oshmaydi"[1.73]. Ikkinchisida, falsafiy gnoseologik mohiyatiga koʻra kitob – insonni fikrlashga undaydi, yuksak darajaga erishishiga, maʼnaviy kamolotiga yordam beradi.

Kitob mutolaasi – bu kitobxonning ilm olish yoki estetik zavqlanish maqsadida oʻzi tanlab olgan biror mavzudagi kitobni oʻqish jarayonidir. Kitob mutolaa qilish jarayonida diqqatni jamlab, oʻqishga butun borligʻi bilan berilish lozim, tinglashni esa ikkinchi darajaga qoʻyish kerak boʻladi. Sababi tinglash mavjud boʻlgan oʻqituvchidan oʻrganish boʻlsa, oʻqish mavjud boʻlmagan oʻqituvchidan oʻrganishdir. Masalan, "Agar oʻqituvchiga savol bersangiz, u sizga, odatda, javob qaytaradi. Agar u aytgan javob sizni oʻylantirsa, bosh qotirib oʻtirmasdan undan nimani nazarda tutganini soʻrashingiz mumkin. Biroq agar kitobga savol beradigan boʻlsangiz, unga oʻzingiz javob berishga majbursiz. Shu jihatdan kitob xuddi tabiat yoki olam kabidir. Agar uni soʻroqqa tutsangiz, u fikrlash va tahlil qila olish darajangizga qarab sizga javob qaytaradi"[2.24]. Shu bois, kitob oʻqiganda ham ong, tafakkurni boyitadigan, ruhiyatimiz, oʻz olamimiz, qalbimiz bilan til topishadigan kitoblarni diqqat bilan mutolaa qilish lozim.

Fransuz yozuvchisi Gyustav Flober qanday kitoblarni oʻqish toʻgʻrisida shunday deydi: "Qanday kitob oʻqish kerakligi bilan qiziqayapsizmi? Montenni oʻqing. Oʻqiganda ham

shoshmasdan, ohista oʻqing! Qalbingiz buyuk donolar fikri bilan toʻyingan zakiylik muhitidan bahra olsin. Shu bois men sizga dastlab Montenni oʻqishishingizni maslahat beraman. Uni boshidan oxirigacha oʻqib tugatgandan keyin, yana qayta mutolaa qilishga kirishing”[3.270]. Zero, “Har doim kitob nafaqat bilimlarni saqlovchi va tarjimon sifatida, balki atrofdagi olamni bilish vositasi sifatida ham qabul qilingan”[4.53]. Demak, kitob insonni, borliqni bilishida, buyuk mutafakkirlarning maʼnaviy merosini bilishda, ong-u shuurimizni oziqlantiruvchi asosiy manba hisoblanadi. Biz oʻzligimizni, dunyoni, olam va odam munosabatini kitob orqali bilib olamiz.

Qolaversa, kitob mutolaasi intellektual faoliyatining bir koʻrinishi hisoblanadi. Intellektual faoliyat esa falsafiy gnoseologik jihatdan kitob mutolaasini alohida maʼnaviy voqelikka, fenomenga aylantiradi. Kitob mutolaasi alohida voqelik, fenomen sifatida quyidagi farqlarda namoyon boʻladi: bunda, kitobni mutolaa qilish bilan kitob oʻqish oʻrtasida farq bor. Birinchisi, intensiv boʻlib chuqurlashishni yoqtiradi yaʼni, maqsadli mutolaa – bilim va mutolaaning cheksizligini tan oladi, Suqrot taʼkidlaginidek, “Bilmasligimni bildim” deydi. Ikkinchisi, ekstensiv yaʼni ommaviy hodisa sifatida kitobni ermak uchun oʻqish – bunda yengil-yelpi, yuzaki bilish ustuvor. Falsafiy-gnoseologik nuqtai nazardan kitob mutolaasi cheklangan, u mudom empirik izlanishlarga roʻpara keladi va oʻzining cheklanganligiga iqror boʻlishga majbur. B.Rassel eʼtirof etganidek, inson bilimlarining barchasi cheklangan, nisbiy va xatodir. Shunday ekan, kitob mutolaasi empirik tajriba, hayot oldida joizdir.

Inson bilimini cheklanganligi relyativizmni ulugʻlashga asos boʻlolmaydi, inson idroki nimanidir bilishga intilishi, bu boradagi oʻjarliklari bilan eʼzozli. Kitob mutolaasidagi intellektual ehtiyojlar ana shu omillar mahsulidir[5.5]. Kitob mutolaasi insonga intensiv bilishga, oʻz-oʻzini takomillashtirishga, ilmiy, tafakkuriy natija beradi.

Inson bilimi qanchalik keng boʻlsa, ilmning biz bilmagan nomaʼlum maydoni cheksizligini anglab boradi. Anaksimenning shogirdi ustoziga shunday savol bilan murojaat qiladi: “Ustoz, mana siz buyuk ellinlardan saboq olgan, koʻp yillik hayotiy tajriba orttirib, donishmandlik maqomiga erishgan insonsiz. Lekin negadir hali koʻp narsani bilmayman, deb noliysiz. Nahotki, sizdek donishmand uchun ham yechilmagan savollar boʻlsa bu dunyoda? Faylasuf oʻylanib qoldi va tayoq olib yerga ikkita doira chizdi. Bu doiralarning biri kichkina, ikkinchisi kattaroq edi. Mana bu kichkina doira sening bilimlaring, kattasi esa meniki, — dedi Anaksimen. Ushbu doiralardan tashqaridagi maydon esa hali biz anglab yetmagan ilmlardir. Endi bir eʼtibor bering-a, doira qanchalik kichik boʻlsa, undan tashqaridagi maydon ham shuncha kichik, yaʼni hali biz tushunib yetmagan ilmlar kamroqdir. Doira katta boʻlsa, buning aksi, yaʼni insonning bilim doirasi qanchalar keng boʻlsa, bu doiraga tutash nomaʼlumlik maydoni ham shunchalar kengdir”[6.19]. Zero, ilm – cheksiz osmonga oʻxshaydi. Platonning: “Mukammal bilimning, yaʼni men egallagan bilimning birdan bir turi men oʻzim bilmagan narsalarni bilishimdir”, degan qarashlari zamirida oʻrganish, bilimning cheksizligini anglatuvchi haqiqat yotadi. Qancha koʻp oʻqisangiz shuncha oz narsanigina bilishingizga iqror boʻlaverasiz. “Ilmda qanchalar rivojlansang ham, baribir bilmagan juda koʻp narsa boʻladi. Chunki tafakkur sohasining tashqarisida va koʻrish qudratining ustida boʻlgan juda koʻp haqiqat bordir”[7.363].

Kitob ong va qalb ehtiyojini qondiruvchi omil sifatida inson ruhini tarbiyalaydi, shaxsni shakllantiradi. Kitob odamdan mutolaada nafaqat koʻz va aql, shuningdek, koʻngil ham birdek ishtirok etishini talab qiladi. Kitob oʻqishdan maqsad aql-tafakkur bilan uni mantiqiy tahlil qilishgina emas, balki chin yurakdan zavqlanish, taʼsirlanish, oʻzlikni, haqiqatni izlab topish

hamdir. Faylasuf Yan Mindan doʻsti soʻrabdi: “Kitob oʻqigandan soʻng hech narsa yodda qolmasa nima qilmoq kerak?”. U “Uni tushunmoq kerak, yodlash shart emas. Tushunmoq zaruriyati ham ikkinchi darajali narsa. Eng avvalo, kitobning asosiy mohiyatini anglamoq joiz”[8.4] — deb javob beradi.

Bizning fikrimizcha, kitobning mohiyatini anglash uchun matnni tushunish (idrok etish) lozim bu esa, mutolaaning gnoseologik samaradorligini tashkil etadi. Bu xususda professor N.Shermuxamedova shunday deydi: “Matnni tushunish tayyor natija emas, balki dialektik jarayon, turli madaniy dunyolar dialogi, “oʻzining-oʻzganing” (Baxtin) maʼnolari toʻqnashuvi natijasi, matn, shaxs va madaniyatlar dialogi”[9.317]. Matnni tushunish germenevtik doira boʻlib, unda muallif hayoti tiklangan butunlik va “hayotiy loyiha” sifatida ustivorlikka ega.

Gadamer matn mazmunini tushsunish, anglash jarayonini “ufqlarning qoʻshilishi” sifatida izohlaydi. Gadamer ufqlarning qoʻshilishi haqida shunday deydi: “Matn mazmunini tushunish uchun men unga jiddiy munosabatda boʻlishim kerak. Talqin qiluvchi sifatida men matn qanday savollarga javob berishi mumkinligini tushunishim kerak. Matn oʻzining mazmunli ufqida yaratilgan, men esa oʻz ufqimga egaman. Matn oʻz “tasavvurlari” asosida yozilgan va shular haqida soʻzlaydi. Men oʻz tasavvurlarimga egaman. “Yot” matnni qay darajada anglashim mumkinligi koʻp jihatdan ichki mazmunli ufq qay darajada bir-biriga yaqinlashishi va qoʻshilib ketishi mumkinligiga bogʻliq”[10.704]. Gadamir mavjud manbadan faqat bilim olibgina qolmay, oʻzining nuqtai nazarini oʻzgartirishi, oʻz ufqini kengaytirishi va avvalgidan boshqacharoq tushuna boshlashi mumkinligini keltirib oʻtadi.

Oʻqishning botiniy xususiyati tushunish, anglash hamda muallif va kitobxon, ishtirokchilar kabi barcha jarayonni bilishni taqozo etadi. Mexanik oʻqish belgilarni koʻrish, matnni idrok etish orqali yuzaga keladi. Ijodiy oʻqish esa, shaxsning butun olamini, ruhiyatini, tasavvurini oʻz ichiga oladi. Kitobxon matnning mazmunini tushunib, anglay boshlagani sari unda kitobga boʻlgan qiziqish kuchayadi. Yangi matnlarni izlab topa boshlaydi hamda matnning zohiriy mazmunini oʻzlashtirish bilan birga, uning botiniy mazmunini ham anglay boshlaydi. Shu bois, mutolaa gnoseologiyasi shaxsning kognitiv qobiliyatini rivojlantirishda, maʼnaviy-maʼrifiy kamolotida muhim rol oʻynaydi.

Mutolaa murakkab va koʻp qirrali jarayon sifatida eng muhim kognitiv va kommunikativ vazifalarni hal qilishni oʻz ichiga oladi: tushunish (umumiy, toʻliq, tanqidiy), aniq maʼlumotlarni topish, sharhlash va boshqalar.

Kitob va mutolaaning gnoseologik muammolarini anglashda mutolaa texnologiyasi ham muhim ahamiyatga ega. Mutolaa texnologiyasi kitobxon tomonidan matnni oʻzlashtirish usullarini anglatib, bu jarayon sifat va miqdor yoʻnalishlariga ega. Kitobxon tomonidan matnning qanchalik sifatli oʻzlashtirilganligi uning matn mazmunini qanchalik darajada anglaganligi hamda anglangan tushunchalarni hayotga tatbiq qila olishiga bogʻliq.

Mutolaa texnologiyasi miqdor jihatdan tez va sekin oʻqish jarayonida koʻrinadi. Tez oʻqishning mutolaa hodisasidagi ahamiyati yuqoridir. Maʼlumotlarga koʻra, kitob sekin oʻqilganda 100 foiz matn tushunilmaydi, faqat 60 foiz anglanadi, aksincha, tez oʻqilganda matnning 80 foizi tushuniladi. Xususan, biz soʻrovnomada ishtirok etganlarga murojaat qilganimizda 27.2 foizi tez oʻqishni, 48.5 foizi sekin oʻqishini bildirishgan. Vaholanki, tez oʻqish texnologiyasi samarali hisoblanadi. Insonning oʻrtacha oʻqish tezligi bir daqiqada 120-80 ta soʻzni tashkil qiladi. Shuning uchun mutolaa jarayonida koʻrish sohasini kengaytirish, yaʼni koʻzlarni bir ikkita soʻzga qaratish emas, toʻliq matnni qamrab olishga harakat qilish lozim.

Buning uchun diqqatni jamlab matnning taxminiy markaziy nuqtasini belgilab, unga tikilib matnning mazmunini anglab olish kerak. Bu tez oʻqish texnikasining eng samarali usuli hisoblanadi.

Shu bilan birga, mutolaa jarayonida shaxsning operativ xotirasi hamda diqqatining muhimligi shakllanadi. Texnik koʻnikmalar oʻquvchiga kitob bilan chuqurroq ishlashiga va uni yaxshi eslab qolishiga yordam beradi. Shuning uchun bunday koʻnikmalar shakllantirilib borilsa, tez oʻqish hamda eslab qolish qobiliyati ortib boradi. Demak, oʻqishni idrok etish tezligi va darajasi har kuni oshirilib borilishi kerak.

Fikrimizcha, kitobni faol tarzda oʻqish lozim. Bu maksimal tarzda tezlik bilan oʻqish kerak degani emas. Mutolaa jarayonida butun matnni samarali oʻzlashtirib olish mumkin boʻlgan tarzda oʻqish kerak. Hamda oʻqib chiqilgan matnni anglash uchun tanaffuslar qilish kerak. Faol oʻqish jarayoni matnni substansional mohiyatini eslab qolishga va tushunishga qaratilishi zarur. Muhimi qanchalik koʻp kitob oʻqish emas, balki qanchalik anglab tushunish, olingan bilimlarni amalda qoʻllash muhimdir.

**Xulosa va takliflar**

Hozirgi vaqtda axborot – kommunikatsiya sohasi shiddat bilan rivojlanmoqda, televidenie, radio, internet, kompyuter, mobil telefon kundalik hayotimizdan chuqur joy olmoqda. Biz ana shu imkoniyatlardan samarali foydalanib, mamlakatimizda aholining ayniqsa yoshlarning ong-u shuurida bugunning tili bilan aytilayotgan “modernizatsiya”, “innovatsiya”larning quvvat chirogʻi – kitob va uni oʻqishga boʻlgan qiziqishini kuchaytirish, kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida eʼtibor qaratishimiz lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagicha xulosalarga kelamiz:

**birinchidan,**kitob mutolaa qilish jarayonining oʻzidayoq insonning ongi va dunyoqarashi shakllanib boradi. Bu intensiv oʻqish jarayoniga bogʻliq boʻlib, anglash, fikrlash, voqelikni umumlashtirish xislatini shakllantiradi;

**ikkinchidan,** kitob mutolaa qilish insonning dunyoqarashini boyitib ijodiy faoliyatga yoʻnaltiradi, olamni bilish orqali oʻz-oʻzini anglash natijasida keng qamrovli ijodiy fikrlab dunyo va undagi hodisalarga, voqelikka yangicha nuqtai nazar bilan qaray boshlaydi;

**uchinchidan,** bilim cheksiz, tubi yoʻq bir dengizdir. Bizning ishimiz oʻqish va oʻqish, imkonimiz boricha koʻproq bilimga ega boʻlish uchun intilishdir;

**toʻrtinchidan,** axborot texnologiyalarining rivojlanib borishi elektron mutolaaning shakllanishiga olib keldi. Ammo, anʼanaviy mutolaa shakli samarali boʻlib, mazmuniga chuqurroq kirib borish, tushunish va baholay olish koʻnikmasining shakllanishiga olib keladi. Bu esa, mutolaaning falsafiy-gnoseologik mohiyatini ochib beradi.

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Абдуллаева М.Н ва бошқалар. Синергетиканинг табиий – илмий ва фалсафий муаммолари. Наманган, 2009. 73-бет.
2. Adler Mortimer, Doren Charlz Van. Kitoblar qanday oʻqiladi. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. 24-bet.
3. Жўраева С. Ҳақиқат манзаралари. 100 мумтоз файласуф. –Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2017. 270-бет.
4. Ельников М.П. Феномен книги. (Теоретико-гносеологический аспект) // Книга: Исследования и материалы. – М., 1995. – Сборник71. – С. 53.

5. АлимасовВ. Китоб мутоалаасининг фалсафий-гносеологик ва информацион моҳияти. "Ёшларда китобхонлик тафаккурини шакллантиришда ижтимоий-гуманитар фанларнинг ўрни ва долзарблиги". Халқаро илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами. – Қарши, 2021. 5-бет.
6. Жўраева С. Ҳақиқат манзаралари. 100 мумтоз файласуф. -Тошкент: "Янги аср авлоди", 2017. 19-бет.
7. Усмон Нури Тўпбоши. Кўнгил боғчасидан Саодат томчилари. Истамбул: "ЭРКАМ" нашриёти, 2020/1441. 363-бет.
8. Китоб – онг ва қалб эҳтиёжи. Маърифат газетаси. 2021 –йил 27-январ, №4 (9329) 4-бет.
9. Шермухамедова Н.А. Фалсафа ва фан методологияси. Тошкент, 2005. 317 — бет.
10. Гуннар Скирбекк, Нилс Гилье. Фалсафа тарихи. Т.: "Шарқ" нашриёти, 2002. 704 — бет.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI — PHILOLOGICAL SCIENCES**

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# ZAMONAVIY LINGVISTIKADA REKLAMA DISKURSI TUSHUNCHASI

**Abdullaeva Charos Baxramovna**
Falsafa doktori (PhD), dotsent
International school of finance technology and science instituti

**Annotatsiya.** Mazkur maqola zamonaviy lingvistikada reklama diskursi tushunchasi mavzusiga bagʻishlangan boʻlib, dolzarb ahamiyatga ega. Tadqiqotda reklamaning asosiy xususiyatlari va funktsiyalari e'tiborga olinadi. Maqolada turli tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan reklama ta'rifining koʻplab yondashuvlari koʻrib chiqilib, reklama diskursiga xos boʻlgan asosiy jihatlar ajratib koʻrsatilgan.

**Kalit soʻzlar:** diskurs, reklama, reklama diskursi, matn, lingvistika.

# THE CONCEPT OF ADVERTISING DISCOURSE IN CONTEMPORARY LINGUISTICS

**Abdullaeva Charos Baxramovna**
associated professor (PhD)
International school of finance technology and science institute

**Abstract.** This article is devoted to the highly relevant topic of the concept of advertising discourse in modern linguistics. The study emphasizes the main characteristics and functions of advertising. It examines numerous approaches to defining advertising as proposed by various researchers and highlights the key features inherent to advertising discourse.

**Keywords**: discourse, advertising, advertising discourse, text, linguistics.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N13

At present, one of the main characteristics of modern linguistics is the enduring interest in various types of communication. Contemporary scholars' and researchers' interest in advertising texts and advertising communication, in general, is primarily due to the significant role that advertising plays in modern society. The incredible speed of dissemination and the growing popularity of mass communication media—such as radio, television, and the Internet—have led to the fact that today it is impossible to imagine modern society without advertising. The ability of advertising to influence the consciousness of society, to create images, to determine values, and to affect the participants of advertising communication is no longer in doubt. At this stage of linguistic development, studies of the pragmatic means and

mechanisms by which advertising achieves certain objectives and fulfills a number of its basic functions enjoy enormous popularity.

The relevance of the present study is conditioned by the necessity for a more in-depth examination of the concept of linguistic discourse, an analysis of the main functions of advertising, and the identification of the linguistic features of an advertising text.

The theoretical foundation of the study is presented by a significant number of scientific works that examine the main characteristics of advertising discourse.

In the theory of studying the specifics of advertising discourse, one can note the seminal works of various schools and authors, such as A.V. Maryina, D.S. Sknarev, E.M. Astasheva, among others.

At present, it can be rightly observed that advertising communication has penetrated all spheres of public life; modern advertising integrates with politics, economics, art, linguistics, and science. It is no secret that advertising has become an indispensable part of everyday communication between people, reflecting to varying degrees the different forms of societal life, its norms, values, and viewpoints.

Advertising plays a major role in the formation of social values, as it is an integral part of culture and makes a significant contribution to the development of society. Today, there is a considerable number of linguistic studies dedicated to the examination of advertising discourse, as in recent years advertising communication has justifiably become one of the most widespread forms of communication in the modern world.

For this reason, it is necessary to analyze in detail the concept of advertising discourse, the features of its functioning, and to thoroughly investigate the linguistic means used in advertising to create the desired effect on the consumer, as well as to determine the influence of these means on the audience.

It is no secret that advertising has accompanied humanity throughout the entire history of civilization's development. Advertising defines the life of an entire society, as it is a unique type of human activity that influences the formation of ideals, models, and specific values not only of individual persons but of society as a whole.

In modern linguistics, there exist a large number of diverse definitions of advertising discourse, which is connected with the multifaceted meanings of this term and the variety of approaches to its study.

According to A.V. Maryina, "advertising discourse is a specific variety of discourse whose purpose is to motivate action (even information and reminder, as the ultimate goal of an advertising appeal, is directed at prompting action)" [5].

D.S. Sknarev defines advertising as "a form of marketing communication, for the creation of which various visual-verbal, auditory, and other means are employed, which provides grounds for considering it as a specially organized discourse that uses a specific arsenal of signifiers, linguistic means, techniques, and marketing textual units (depending on the tasks set before it) aimed at forming a system of images of advertising discourse, as well as at most effectively achieving both strategic (brand image, raising the target audience's awareness about a product, and maintaining their loyal attitude) and tactical (product sales) marketing goals" [Skrarev 2015: 22–23].

According to E.M. Astasheva, advertising discourse is "a semantically and compositionally complete message with a strictly oriented pragmatic setting, combining

features of both oral and written communication with a complex of linguistic and extralinguistic means" [Astasheva 2011: 90–91].

It is important to clearly distinguish between oral and written discourses in advertising communication, each possessing specific features. Written advertising discourse is characterized by its structure and the use of punctuation. Punctuation plays a crucial role in written advertising discourse as it determines the rhythm of the text and its perception by the audience. Oral advertising discourse, in turn, is distinguished by lexical and grammatical variability and the significant role of prosody—a functional system of sound means that perform a semantic differentiating function.

Analyzing the concept of advertising discourse, one must also refer to the definition of advertising. In modern linguistics, there are numerous definitions of the term "advertising." Let us consider several widely known formulations. "From the perspective of media linguistics, advertising is defined as one of the functional-genre types of media texts. The main features of an advertising text include multidimensionality, excessive repetitiveness, and a collective mode of creation" [Dobrosklonskaya 2005: 15]. A. Deyan provides a more narrow definition: "Advertising is a paid, one-way, and impersonal appeal, carried out through mass media and other forms of communication, advocating in favor of a certain product, brand, company (or a cause, candidate, government)" [Deyan 2002: 6].

It is necessary to emphasize the multifunctionality of advertising. M.Yu. Rogozhin, in his work, distinguishes four main functions of advertising:

- ✓ Economic function;
- ✓ Social function;
- ✓ Marketing function;
- ✓ Communication function [Rogozhin 2010: 28–29].

An advertising text is a combination of the content of the advertisement and the means of its expression. The word is the main element in achieving the semantic significance of advertising, where the rule of linguistic compression plays a major role, according to which an advertising text should be maximally informative and concise. A brief text is better perceived by the audience and does not complicate the understanding of the content.

Advertising texts are characterized by conciseness, terseness, expressiveness, and informativeness. Typically, advertising not only informs the audience about a particular product or service but also forms certain images using expressive means of language. To create the desired effect and influence the consumer, various expressive means are frequently used in advertising texts; allegory, hyperbole, irony, metaphor, personification, epithet, and simile are among the common figures of speech.

It should be noted that advertising texts contain vocabulary with diverse stylistic coloring: both colloquial and literary or even scientific styles are used.

In advertising discourse, evaluative vocabulary is widely represented, which attracts the audience by creating a positive image of the advertised product or service.

Advertising texts are generally not characterized by verbosity and complex syntactic constructions. Instead, advertising discourse is usually presented in texts with imperative, interrogative, and simple sentences. To enhance expressiveness, authors of advertising texts often resort to syntactic means. In general, advertising syntax is marked by a clear sentence

structure that does not complicate the understanding of the advertisement's content and allows information to be quickly memorized.

Thus, it can be concluded that advertising discourse has its own specificity. The lexical, semantic, syntactic, and phonetic features of an advertising text are the main means of attracting the attention of potential consumers and are effective methods for creating a successful advertising text.

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Асташева Е.М. Воздействующий потенциал телевизионного рекламного дискурса // Международный журнал экспериментального образования. 2011. № 8. С. 90-91.
2. Abdullaeva C. Роль социальных факторов в рекламном дискурсе //News of the NUUz. – 2024. – Т. 1. – №. 1.9. – С. 249-252.
3. Ахманова, О. С. Словарь лингвистических терминов : словарь : [16+] / О. С. Ахманова. – Москва : Советская энциклопедия, 1969. – 607 с. – Режим доступа: по подписке. – URL: https://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=38392 (дата обращения: 28.08.2023).
4. Дейян Арманд. Реклама / А. Дейян. – М.: Сирин, 2002. – 144 с.
5. Добросклонская Т.Г. Вопросы изучения медиа текстов. Опыт исследования современной английской медиа речи. М.,2005. – 288 с.
6. Марьина А. В. Концептуальный анализ рекламного дискурса (на материале концепта ДОМ). URL: http://www.mediascope.ru/node/1736 (дата обращения: 01.09.2015).
7. Скнарев Д.С. Языковые средства создания образа в рекламном дискурсе: семантический, прагматический, маркетинговый аспекты: Дисс. …д-ра филол. наук. Челябинск, 2015. – 390 с.
8. Рогожин М.Ю. Делопроизводство. Организация архива предприятия [организация документооборота, работа с документами в архиве предприятия, экспертиза ценности документов] – Санкт-Петербург [и др.]: Питер, 2006. – 160 с.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# ILMIY-FANTASTIK ADABIYOT: JANRNING SHAKLLANISHI, RIVOJLANISHI VA POETIK CHEGARALARI

**Umarqulova Munira Zohidjon qizi**
Oʻzbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti, Toshkent, Oʻzbekiston
Tayanch doktorant

**Annotatsiya.** Bu maqola ilmiy-fantastik adabiyot janrining shakllanishi, tarixiy rivojlanishi, nazariy asoslari va poetik xususiyatlarini tahlil qiladi. Tadqiqotda Darko Suvin va Frederik Jemisonning nazariy qarashlari asosida janrning "kognitiv izolyatsiyalash" konsepsiyasi muhokama qilinadi. Maqola ilmiy fantastikaning madaniy ta'sirini, texnologik bashoratlar xususiyatlarini va global kontekstdagi oʻrnini koʻrib chiqadi. Shuningdek, janrning noyob badiiy xususiyatlari va boshqa janrlar bilan munosabati ushbu maqolada oʻrganib chiqildi. Tadqiqot zamonaviy ilmiy fantastika tendensiyalari, janrning xilma-xil ovozlarga ega boʻlishi va kelajakdagi rivojlanish yoʻnalishlarini aniqlaydi.

**Kalit soʻzlar:** ilmiy fantastik adabiyot, kognitiv izolyatsiyalash, utopik impuls, janr nazariyasi, texnologik bashoratlar, kiberpank, postkolonial adabiyot, janr chegaralari.

# SCIENCE FICTION LITERATURE: THE EMERGENCE, EVOLUTION, AND POETIC LIMITS OF THE GENRE

**Umarkulova Munira Zakhidjan kizi**
Uzbekistan State University of World Languages, Tashkent, Uzbekistan
Phd student

**Abstract.** This article analyzes the formation, historical development, theoretical foundations, and poetic characteristics of the science fiction genre. The study discusses the concept of "cognitive estrangement" based on the theoretical perspectives of Darko Suvin and Fredric Jameson. It also examines the cultural impact of science fiction, the nature of technological predictions, and the genre's significance in a global context. The paper explores the unique artistic features of science fiction, its interrelation with other genres, and its role in expanding literary boundaries. The research identifies contemporary trends in science fiction, its polyphonic nature, and potential directions for future development.

**Keywords**: science fiction literature, cognitive estrangement, utopian impulse, genre theory, technological predictions, cyberpunk, postcolonial literature, genre boundaries.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N14

## Kirish

Ilmiy fantastika janri adabiyotda tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan yoʻnalish boʻlib, insoniyatning kelajak bilan aloqador umidlari, qoʻrquvlari va taxminlarini oʻzida aks ettiruvchi janr turi deya e'tirof etiladi. Bu janr oʻzining rivoji davomida nafaqat ommani zavqlantirgan, balki insoniyat istiqboli haqida chuqur mulohazalarni ham taqdim etgan. Ilmiy

fantastika adabiyotining nazariy asoslari, tarixiy rivojlanishi, madaniy ta’siri va texnologik bashoratlari uni jahon adabiyotining ajralmas qismiga aylantirgan[3].

Ilmiy fantastika janrining paydo boʻlish ildizlari qadimgi afsonalar va rivoyatlarga borib taqaladi, bu davrda gʻaroyib elementlar tabiiy hodisalarni tushuntirish uchun qoʻllanilgan. Biroq, janrning zamonaviy koʻrinishi 19-asrda Jyul Vern va G.G. Vells kabi adiblar ijodida shakllanib, ular ilmiy taxmin va tasavvurni adabiyotga singdirganlar. Vernning “Yerning markaziga sayohat” (1864) va Vellsning “Vaqt mashinasi” (1895) asarlari fan va badiiy nasr uygʻunligini yaratib, ilmiy fantastikani alohida janr sifatida oʻrnatishga asos soldi[19]. Ilmiy-fantastika ilm-fan sohasidagi yangiliklar, yangi texnologiyalarning kashf etilishi, ularning gʻaroyib imkoniyatlari, insoniyatga ijobiy va salbiy tomonlama ta’siri, sodir boʻlishi mumkin boʻlgan paradokslarni oʻrganadi.[25:1]

Ushbu maqola ilmiy fantastika janrining tarixiy rivojlanishini, madaniy ta’sirini, texnologik bashoratlarini va nazariy asoslarini tahlil qiladi. Ilmiy fantastika nafaqat oʻquvchini zavqlantiruvchi vosita, balki jamiyatdagi oʻzgarishlarni aks ettiruvchi koʻzgu vazifasini ham oʻtaydi. Tadqiqot doirasida janrning oʻziga xos poetik xususiyatlari, badiiy qiymati va jahon adabiyotidagi oʻrni ham muhokama qilinadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi ilmiy fantastika janrining evolyutsiyasini nazariy jihatdan tizimlashtirish, uning zamonaviy holatini tahlil qilish va kelajakdagi rivojlanish tendensiyalarini aniqlashdir. Tadqiqot doirasida quyidagi muammolar oʻrganiladi: 1) ilmiy-fantastika janrining nazariy asoslarini tahlil qilish va ularni tizimlashtirish; 2) janrning madaniy-tarixiy rivojlanish bosqichlarini aniqlash; 3) ilmiy-fantastikaning madaniy ta’sirini baholash; 4) janrning poetik xususiyatlari va boshqa janrlar bilan munosabatini oʻrganish; 5) global kontekstda janrning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash.

**Metodlar**

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlar qoʻllanildi:

1. Tarixiy-qiyosiy tahlil: Ilmiy fantastika janrining vaqt davomida rivojlanishini oʻrganish uchun ishlatildi. Bu metodologiya orqali 19-asrdan 21-asrgacha boʻlgan davrdagi asosiy asarlar va yoʻnalishlar tanlab olindi va qiyosiy tahlil qilindi.

2. Adabiy-tanqidiy tahlil: Tanlab olingan ilmiy-fantastik asarlar mazmun, struktura va poetik xususiyatlari nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Asarlar tanlashda Web of Science va Scopus ma’lumotlar bazasida eng koʻp iqtibos keltirilgan tadqiqotlarda muhokama qilingan asarlarga ustuvorlik berildi.

3. Madaniy-kontekstual tahlil: Janrning jamiyatdagi oʻrni JSTOR va Project Muse kabi ma’lumotlar bazalaridan olingan materiallar asosida oʻrganildi. Soʻnggi 20 yil (2005-2025) davomida nashr etilgan ilmiy maqola va monografiya tahlil qilindi.

4. Nazariy konseptualizatsiya: “Prisma” protokoli asosida ilmiy fantastika boʻyicha mavjud nazariy adabiyotlarni tizimli ravishda koʻrib chiqish orqali amalga oshirildi. Grant (2019) tomonidan ishlab chiqilgan adabiy janr tahlili metodologiyasi asosida yetakchi 4 ta nazariy yondashuvlar (Suvin, Jameson, Haravay, Roberts) taqqoslandi.

5. Diskursiv tahlil: Deleni diskursiv tahlil metodologiyasi asosida zamonaviy ilmiy-fantastik asarlar matni, ulardagi metaforalar va narrativ texnikalar oʻrganildi.

Ma’lumotlar manbalari sifatida ilmiy fantastika tarixi, nazariyasi va tahlili boʻyicha mavjud ilmiy adabiyotlar, maqolalar va tadqiqotlar qoʻllanildi. Jumladan, Piers (1987), Bould

va Vint (2011), Jon Klut (1995), Deley (2013), Steblford (2006), A.Roberts kabi olimlarning asarlariga tayanildi.

**Natijalar**

1. Ilmiy fantastika janrining tarixiy rivojlanishi

1.1 Ilk bosqich va janrning shakllanishi

Ilmiy fantastika janrining zamonaviy ko‘rinishi 19-asrda shakllana boshlagan bo‘lsada, uning ildizlari qadimgi afsonalar va diniy matnlardagi g‘ayritabiiy elementlarga borib taqaladi. Antik davrda Lukianning "Haqiqiy tarix" asarida, o‘rta asrlarda esa Tomas Morning “Utopiya” (1516) kabi asarlarida ilmiy fantastikaning ayrim elementlarini ko‘rish mumkin [23]. Biroq, janrning haqiqiy shakllanishi 19-asrdagi ilmiy va texnologik taraqqiyot bilan bog‘liq.

Meri Shellining “Frankinshteyn” (1818) asari ko‘pchilik mutaxassislar tomonidan birinchi haqiqiy ilmiy-fantastik roman sifatida qaraladi, chunki u ilmiy kashfiyotlarning sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan potensial oqibatlarini o‘zida mujassaam etgan birinchi ilmiy fantastik asar hisoblanadi. Keyin Edgr Allan Po va Jyul Vern kabi yozuvchilar ilmiy fantastika elementlarini o‘z asarlariga kiritib, janrning shakllanishiga hissa qo‘shdilar. Jyul Vernning “Yerning markaziga sayohat” (1864), “Suv ostida 20 ming mil” (1870) kabi asarlari ilmiy bilimlarni romanlashtirib asarga aylanganining ajoyib namunalaridir [19]. Bu ikki yozuvchi ilmiy fantastika yo‘nalishini rivojiga ikki xil uslubda ijod qilish orqali hissa qo‘shgan. Jumladan Jyul Vern araslarida ko‘proq texnologik fantastika unsurlari kuzatilsa, aksincha Po o‘z asarlarida ilmiy dalillarni sirli va qo‘rqinchili mavjudotlar kabi obrazlar bilan boyitgan.

G.G. Uells esa fantastikani ijtimoiy tanqid va falsafiy mushohada quroli sifatida ishlatdi. Uning “Vaqt mashinasi” (1895), “Ko‘rinmas odam”(1897) va “Dunyolar urushi” (1898) kabi asarlari nafaqat qiziqarli sarguzashtlar, balki chuqur ijtimoiy fikrlar va bashoratlarni o‘z ichiga olgan. Bunga yaqqol misol tariqasida “ Ko‘rinmas odam” asaridagi kashfiyotchi olim Grifinning hatti harakatlarini keltirish mumkin. Bu obrazni o‘rganish insonning ilmiy kashfiyotlari bilan axloqiy jihatlari orasidagi murakkab bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Ushbu asarda bosh qahramon olamshumul kashfiyot qilib, ko‘rinmaslik xususiyatidan o‘zining qabih maqsadlarini amalga oshirishda foydalanadi.

1.2 “Oltin davr” va janrning gullab-yashnashi.

Ilmiy fantastikaning “Oltin davri” 20-asrning birinchi yarmida, pulp jurnallar orqali keng tarqaldi. 1926 yilda Gyugo Gernsbek tomonidan asos solingan “Amazing Stories” jurnali ilmiy fantastikaga bag‘ishlangan birinchi maxsus nashr bo‘ldi. Gernsbek “scientifiction” atamasini yaratib, bu janrni “ilmiy bilimlar va bashorat qilingan taxminiy ko‘rinishlar chirmashib ketgan” janr sifatida ta’rifladi [6]. Bu ta’rif juda o‘rinli ishlatilgan. Chunki, ilmiy fantastika janri doirasida yaratilgan asarlar faqatgina to‘qima bo‘lib qolmay ilmiy faktlar aosida yoziladi va mantiqiy izchillikka ega bo‘lib unda tasvirlangan obrazlar, personajlar va portretlar kelajakda haqiqatga aylanishi mumkin. Buning tipik misoli tariqasida ingliz ilmiy fantast yozuvchisi Nil Eshrning agent Kormak seriyali pentalogiyaning birinchi “Gridlinked”(2001) asarini keltirish mumkin. Ushbu asar o‘zida suniiy intellekt va inson integratsiyalarini namoyon qiladi. Ammo, bu asar yartilgan davrda real dunyoda suniiy intellekt. Hozirgi raqamlashgan davr faktlari bilan solishtirganda, bu asar bashoratlari reallikka aylangan. Bu asarlarning barchasi ilmiy bilimlarga chuqur tayangan holda yaratilgan bo‘lib, yuqorida ismi tilga olingan yozuvchi

avtobiografiyasiga koʻra asl kasbi mashinasoz boʻlgan va uning asarlarida uning texnikaviy ilmga ega ekanligini koʻrish mumkin.

1930-1940-yillarda Jon U. Kempbell “Astounding Science Fiction” jurnalining muharriri sifatida janrning rivojlanishiga katta taʼsir koʻrsatdi. U yosh va isteʼdodli yozuvchilarni jalb qilib, ulardan ilmiy aniqlik va ijtimoiy relevantlikni talab qildi. Bu davr Ayzek Azimov, Artur K. Klark, Robert A. Haynlayn va Teodor Sterjen kabi mashhur yozuvchilarning faoliyati bilan belgilanib, ular janrning koʻlamini kengaytirdilar [3]. Azimovning “Asoslash” (Foundation) seriyasi va “Robotlar” hikoyalari, Haynlaynning “Begona bir yurtda yolgʻiz” (Stranger in a Strange Land) romani va Klarkning “Bolalik oxiri” (Childhood’s End) kabi asarlar bu davrning eng yorqin namunalaridir. Bu yozuvchi olimlar aynan ilmiy aniqlik va ijtimoiy relevantlikni oʻzida aks ettiruvchi asarlar yozish pirovardida, aynan shu davr ijtimoiy hayotiga oid boʻlgan ijtimoiy masalalarni tahlil qilishda texnologiya, ijtimoiy tizimlar, erkinlik, axloqiy masʼuliyat va insoniyat kelajagi haqida muhim mavzularni yoritib, ijtimoiy rivojlanish, inson bilan texnologiya va ilm fan orasidagi aloqalar haqida chuqur fikrlarni taklif qilganlar. Misol tariqasida A.Klarkning “Space Odyssey” asaridagi “Hal9000” ismli robotni keltirishimiz mumkin. Garchi u insonlarga yordam berish maqsadida yaratilgan boʻlsa-da, keyinchalik uning harakatlarida insonlarga nisbatan xavfsirash yuzaga kelib, vaqt oʻtib insonlar hayotini xavfga qoʻyuvchi obraz sifatida namoyon boʻladi.

1.3 “Yangi toʻlqin” va janrning transformatsiyasi

1960-1970-yillarda ilmiy fantastikada “Yangi toʻlqin” harakati paydo boʻldi. Bu harakat adabiy tajribalar, psixologik chuqurlik va ijtimoiy tanqidga koʻproq eʼtibor qaratdi. Maykl Murkok va Harlan Elison kabi muharrirlar yangi ovozlarga yoʻl ochib berdilar. Ursula K. Le Guin, Filip K. Dik, J.G. Ballard, Roger Zelazni va Samuel R. Deleni kabi yozuvchilar janrni yangi yoʻnalishlarga olib bordilar.

Bu yozuvchilar anʼanaviy oltin davr ilmiy fantastikasining texnologik optimizmini va gʻarb imperializmi qiyofalarini tanqid qildilar. Ular insoniy tajriba, psixologiya, jins, irq va ekologiya kabi mavzularga koʻproq eʼtibor qaratdilar. Filip K. Dikning “ Androidlar elektron qoʻylarni istaydilarmi?”(Do Androids Dream of Electric Sheep?) va Le Guinning “Qorongʻulikning chap qoʻli” (The Left Hand of Darkness) kabi asarlar bu davrning xarakterli namunalaridir [3]. Bu davr undan oldingi davrlardan tubdan farq qilib, yangicha yondashuv bilan ilmiy fantastik asarlarni yaratgan. Bu davrda texnologik taʼsir va uning rivojlanishiga urgʻu berilmay, aksincha insonlarning ichki dunyosi, psixologiyasi va insoniyatning oʻzgarishlarini oʻrganishga katta eʼtibor qaratgan. Jumladan, Ballardning “The drowned world” asarida asosiy diqqat markazida insonlarning butun dunyoni iqlim oʻzgarishi natijasida suv bosgandan soʻng oʻzlarini qanday tutishlarini va psixologik holatlari turadi.

1.4 Kiberpank va zamonaviy yoʻnalishlar

1980-yillarda “kiberpank” harakati paydo boʻldi, u yuqori texnologiyalar va quyi hayot darajasi, kompyuter tizimlari, virtual haqiqat va korporativ kuch bilan bogʻliq mavzularni oʻrgandi. Vilyam Gibsonning "Neyromanser" (1984) romani kiberpank yoʻnalishining ilk namunasi sanaladi. Kiberpank adabiyoti texnologiya, inson tanasi va identiteti orasidagi chegara, multinatsional korporatsiyalar, xakerlar va distopik shahar landshaftlari bilan bogʻliq mavzularni oʻrgandi[24].

90-yillar va 21-asrda ilmiy fantastika janri yanada xilma-xillashdi. Biopank, klimatpank (iqlim oʻzgarishi bilan bogʻliq ilmiy fantastika), slipank kabi yangi yoʻnalishlar paydo boʻldi.

N.K. Jemisin, Chayna Myevil, Ted Chyan, Paolo Bachigalupi, Kim Stenli Robinson va Liu Tsixin kabi zamonaviy yozuvchilar janrni yangi chegaralarga olib chiqdilar. Ular iqlim oʻzgarishi, sun'iy intellekt, genetik modifikatsiya, ijtimoiy adolat va postkolonial masalalar kabi mavzularni chuqur oʻrganib, ilmiy fantastikani jonli va dolzarb janr sifatida saqlab qolmoqdalar. Bu davrda yaratilgan asarlarning oʻziga xos xususiyati shundaki,ularning barchasi shu davrga xos boʻlgan davriy mammolarni olib chiqqan. Buning tipik misoli sifatida N.K Jemisinning ilmiy fantastika janrida "Hugo Award" mukofotini olgan " The fifth season"(2015) asari oʻzida bir necha ijtimoiy tuzumlar, gender rollari, irqiy farlar va insoniyatning ekologik ta'sirlari kabi dolzarb muammolarini olib chiqadi va buni oʻziga xos uslubda yaratadi. Yuqorida berilgan ilmiy fantastika janri rivojlanish bosqichlari va uning oʻziga xos xususiyatlarini quyidagi visual jadval koʻrinishida ifodalashimiz mumkin:




2. Ilmiy fantastikaning nazariy asoslari

2.1 Kognitiv izolyatsiya

Ilmiy fantastika nazariyasining eng ta'sirli konsepsiyalaridan biri Darko Suvin tomonidan kiritilgan "kognitiv izolyatsiya" tushunchasidir. Suvinning fikricha, ilmiy fantastika "kognitiv izolyatsiya dominantligi bilan xarakterlanadigan adabiy janr" hisoblanadi. Bu kontsepsiya nemis dramaturgi va nazariyotchisi Bertolt Brechning "begonalashtirish effekti" (Verfremdungseffekt) gʻoyasiga asoslangan [16].

"Kognitiv begonalashtirish" ikki elementdan iborat: "kognitiv" — ya'ni, bilishga asoslangan, ilmiy dunyoqarashga mos keladigan va "begonalashtirish" — oʻquvchini odatiy voqelikdan uzoqlashtirish. Ilmiy fantastika asarlarida begonalashtirish novum (yangilik) —

yangi va noodatiy element, texnologiya yoki ijtimoiy tuzum orqali amalga oshiriladi. Bu novum, bir tomondan, oʻquvchini tanish boʻlmagan dunyoga olib kirsa, ikkinchi tomondan esa, haqiqiy dunyoni yangi nuqtai nazardan kashf etishga undaydi [2]. Haqiqatda Darko Suvinning ilmiy faantastika haqidagi nazariyasi ushbu janr qonuniyatlariga toʻlaqonli mos tushadi. Ilmiy dalillaga asoslangan holda yaratilgan yangi adabiy dunyo har qanday oʻquvchining real voqealikga boʻlgan qarashini oʻzgartiradi.

Suvining nazariyasiga koʻra, ilmiy fantastikaning asosiy vazifasi real dunyoni tanqidiy oʻrganish uchun alternativ voqelik yaratishdir. Bu alternativ voqelik fantastik boʻlsa ham, u ilmiy tafakkur qonunlariga boʻysunadi, ya’ni ichki mantiqqa ega va nazariy jihatdan mumkin boʻlgan dunyoni taqdim etadi[16]. Bundan kelib chiqadiki Suvinning ilmiy fantastika janri haqidagi nazariyasi ushbu janrda yaratilgan asarlarni oʻqish orqali oʻquvchini real hayotga nisbatan tanqidiy fikrlashga undaydi. Bunga sabab esa asarda real hayotga toʻgʻri keluvchi ilmiy faktlarning mavjudligi desa mubolagʻa boʻlmaydi.

2.2 Frederik Jemison va utopik impuls

Taniqli marksist nazariyotchi Frederik Jemison ilmiy fantastika nazariyasiga katta hissa qoʻshgan olim hisoblanadi. Jemisonning fikricha, ilmiy fantastika asarlari zamonaviy kapitalistik jamiyatning tanqidiy tahlili va utopik alternativlarning izlanishi sifatida xizmat qiladi. U ilmiy fantastikani “utopik impuls”ni oʻz ichiga olgan janr sifatida ta’riflaydi[15]. Ya’nikim ilmiy fantastika oʻzida ideal ijtimoiy jamiyat elementlarini koʻrsatuvchi janr sifatida ham harakatlanadi. Jemison uchun ilmiy fantastika nafaqat mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni tanqid qilish, balki alternativ, odilroq va tenglikka asoslangan jamiyatlarni tasavvur qilish imkonini beradi. Biroq, u utopiyalarni toʻgʻridan-toʻgʻri tasvirlashdan koʻra, ilmiy fantastika koʻpincha utopik orzuni bilvosita, distopik sharoitlarda qarshilik va kurash orqali ifodalashini ta’kidlaydi [2]. Ilmiy fantastikada utopik orzularni distopik jamiyat orqali koʻrsatish esa bu asarning yanada haqiqatga yaqin dalillar bilan ta’minlaydi.

Jemison ilmiy fantastika asarlari tahlilida “kognitiv xaritalashtirish” tushunchasini qoʻllaydi. Bu yondashuv oʻquvchilarga murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni tushunish va ulardagi oʻz oʻrnini anglash imkonini beruvchi adabiy texnikalarni oʻrgatadi. Masalan, kiberpank asarlaridagi global korporativ kapitalizmning murakkab tarmogʻi kognitiv xaritalashtirish orqali anglashilishi mumkin [9]. Kognitiv xaritalashtirishni oʻz ichiga oluvchi asarlarning yaqqol misoli sifatida Filip Dikning “ Do Andorids dream of electric sheep? asarini keltirish mumkin. Bu asarda yozuvchi kognitiv xaritalashtirish ya’ni qahramonlar ichki dunyosi va oʻzi bilan boʻladigaan ichki dialoglarni koʻrsatish natijasida asar syujetini tushunishga zamin yaratilgan. Bu asar bosh qahramoni androidlar ovchisi Dik Rekard va androidlar ichki kechinmalari kognitiv xaritalashtirishi misolida asardagi insonlar va androiddlar orasidagi tafovut va hayotning ma’nosi haqidagi savollar oʻrganiladi.

2.3 Feminizm va ilmiy fantastika

Feminist nazariyotchilar ilmiy fantastika janrini jins va gender munosabatlarini qayta koʻrib chiqish uchun muhim maydon sifatida oʻrganganlar. Joanna Russ va Donna Haravay kabi olimlar ilmiy fantastika qanday qilib an’anaviy gender stereotiplarini buzishi va alternativ jinsiy voqeliklarni tasavvur qilishi mumkinligini koʻrsatganlar [26].

Donna Haravayning “Kiborg manifesti” (1985) ilmiy fantastika nazariyasiga katta ta’sir koʻrsatgan. Haravey kiborg obrazini — inson va mashina dualistik boʻlinishini buzuvchi gibrid mavjudotni — zamonaviy dunyo va gender munosabatlarini tushunishning yangi usuli

sifatida koʻradi. Uning fikricha, ilmiy fantastika “faktdan ham haqiqiyroq” boʻlib, joriy gender munosabatlarini tanqid qilish va yangi imkoniyatlarni tasavvur qilish uchun xizmat qiladi [2]. Ursula K. Le Guin, Oktaviya Batler, Joanna Russ va Jeyms Tiptri Jr. (Alice Sheldon) kabi yozuvchilar feminist ilmiy fantastikaning rivojlanishiga katta hissa qoʻshganlar. Ularning asarlari gender, jins, irq va hokimiyat masalalarini oʻrganish uchun ilmiy fantastikaning imkoniyatlarini koʻrsatadi. Le Guinning "Qorongʻulikning chap qoʻli” romanidagi genderlik jihatdan oʻzgaruvchan jamiyat tasviri bunga yorqin misol boʻla oladi.

2.4 Postkolonial nazariya va ilmiy fantastika

Postkolonial tanqid ilmiy fantastika asarlarida imperializm, kolonializm va madaniy oʻzaro taʼsir mavzularini oʻrganadi. Postkolonial nazariyotchilar klassik ilmiy fantastika koʻpincha gʻarb imperializmining davomi ekanligini, begona dunyolarni “ochish” va “zabt etish” haqidagi hikoyalar imperiyalarning kengayishi narativlariga oʻxshashligini taʼkidlaydilar [7]. Biroq, zamonaviy ilmiy fantastika yozuvchilarining koʻpchiligi ongli ravishda kolonial anʼanalarni tanqid qiladilar va alternativ, postkolonial dunyoqarashlarni taklif etadilar. Oktaviya Batler, Nalo Hopkinson, Nedi Okorafor va Ted Chyan kabi turli madaniy kelib chiqishga ega boʻlgan yozuvchilar gʻarb markazli ilmiy fantastikaga qarshi alternativ qarashlarni taklif qiladilar. Bu yozuvchilar ilmiy fantastika orqali imperiyalarning tarixiy va kelajakdagi taʼsirini, diaspora identitetini, madaniy yutuqlarni va dekolonizatsiya imkoniyatlarini oʻrganadilar. Ularning asarlari klassik gʻarb ilmiy fantastikasining meros qilingan stereotiplari va andozalarini qayta koʻrib chiqadi, janrni yangi, xilma-xil ovozlar va qarashlar bilan boyitadi.

3. Ilmiy fantastikaning madaniy taʼsiri

3.1 Jamiyat muammolarini aks ettirish

Ilmiy fantastika janri doimo oʻz davridagi muhim ijtimoiy, siyosiy va madaniy muammolarni aks ettirgan. 1950-yillarda Sovuq urush davri asarlari atom urushi va yadro apokalipsisi xavfi bilan bogʻliq qoʻrquvlarni aks ettirdi. Rey Bredberining “Farengeyt 451” (1953) va Nevil Shyutning “Qirgʻoqda” (On the Beach, 1957) kabi romanlar bu davrning xarakterli mahsullaridir.

1960-1970-yillarda ilmiy fantastika atrof-muhit muammolari, aholi sonining koʻpayishi va resurslarning tugashi kabi mavzularga koʻproq eʼtibor qaratdi. Frenk Gerberning “Donovaning yaxshi aqllli mashinalari” (1969), Jon Brannerning “Qoʻylar choponi” (1972) va Ernest Kallenbaxning “Ekotopiya” (1975) kabi asarlar ekologik ilmiy fantastikaning rivojlanishiga hissa qoʻshdi [14].

1980-yillarda kiberpank harakati globalizatsiya, korporativ hokimiyat va axborot texnologiyalarining jamiyatga taʼsiri bilan bogʻliq xavotirlarni aks ettirdi. Vilyam Gibsonning “Neyromanser”(1984) va Brays Sterlingning “Shizomatritsa” (Schismatrix, 1985) kabi asarlar sanoat soʻnggi jamiyatini tanqidiy oʻrgandilar [24].

Zamonaviy ilmiy fantastika iqlim oʻzgarishi, pandemiyalar, sunʼiy intellekt rivojlanishi va ijtimoiy adolat kabi mavzularga eʼtibor qaratmoqda. Emili St. Jon Mandelning “Stantsiya oʻn bir” (2014), Kim Stenli Robinsonning “New York 2140”(2017), Liu Tsixinning “Uch jism muammosi” (2008) va N.K. Jemisinning “Tosh osmon” (The Fifth Season, 2015) kabi asarlar bugungi jamiyatning eng muhim muammolarini koʻtaradilar.

3.2 Texnologiya va innovatsiyalarga taʼsiri

Ilmiy fantastika va texnologik innovatsiyalar orasida murakkab oʻzaro bogʻliqlik mavjud. Koʻplab hollarda, ilmiy fantastika asarlari texnologik yutuqlarni bashorat qilgan yoki ilhomlantirgan. Bir qator misollar bor:

- Artur K. Klarkning “2001: Kosmos odisseasi” (1968) zamonaviy kompyuterlar va sun’iy intellekt konsepsiyalarini oldindan koʻrgan.
- Vilyam Gibsonning “Neyromanser” asari internet va virtual haqiqat rivojlanishiga ta’sir koʻrsatgan.
- H.G. Vells’ning “Dunyolar urushi” (1898) asari radioga boʻlgan qiziqishni uygʻotgan.
- “Star Trek” seriali kommunikatorlari hozirgi mobil telefonlarni oldindan koʻrgan.

Texnologiya kompaniyalari koʻpincha ilmiy fantastika yozuvchilarini maslahatchi sifatida jalb qiladilar. Masalan, “Microsoft”, “Apple” va “Google” kabi kompaniyalar kelajak texnologiyalari va ularning ijtimoiy ta’sirini tasavvur qilish uchun ilmiy fantastika yozuvchilaridan foydalanadilar[10]. Yakka shu misol ham ilmiy fantastika janrining kashfiyotlarga sabab boʻlganini koʻrsatadi. Ilmiy fantastika nafaqat texnik innovatsiyalarni, balki texnologiyaning jamiyatga va inson psixologiyasiga potensial ta’sirini ham oʻrganadi. Bu janr odamlar va texnologiya orasidagi munosabatlarni tushunish va texnologik rivojlanishning oqibatlarini oldindan koʻrish uchun muhim vosita vazifasini oʻtaydi.

3.3 Global va diaspora nuqtai nazarlari

Ilmiy fantastika janri uzoq vaqt davomida gʻarb yozuvchilari va nuqtai nazarlari tomonidan oʻrganilgan boʻlsa-da, bugungi kunda u global janrga aylandi. Dunyoning turli burchaklaridan kelgan yozuvchilar janrga oʻz madaniy tajribalari va qarashlarini qoʻshib kelmodalar. Janubiy amerikalik yozuvchilar sehrli realizm an’analarini ilmiy fantastika bilan birlashtiradilar. Afrikadagi yozuvchilar (Nnedi Okorafor, Lauren Beukes) ilmiy fantastika orqali Afrikaning oʻtmishi va kelajagini qayta tasavvur qiladilar. Osiyo yozuvchilari (Liu Tsixin, Han Song, Hoshi Shinichi) sharqiy falsafa va dunyoqarashni janrga singdirdilar [24]. Turli xil mintaqah adabiyotchi olimlarining ilmiy fantastika janriga qarashlariga koʻra ilmiy fantastikani reallikkga yaqin boʻlgan hali boshdan oʻtkazilmagan va yoki guvohi boʻlinmaagan oʻtmishdagi voqealarni modelini ilmy faktlar asosida adabiy bayon qilish vositasi desak mubolagʻa boʻlmaydi. Diaspora yozuvchilari, masalan, Nalo Hopkinson (Karib havzasi), Vanessa Nakate (Uganda) va Ken Liu (Xitoydan kelib chiqqan amerikalik) transnatsional identitet va madaniyatlararo tajriba mavzularini oʻrganadilar. Ular gʻarb va sharq, an’anaviy va zamonaviy, lokal va global orasidagi chegaralarni buzib, janrni kengaytiradilar. Bu global ovozlarning kiritilishi ilmiy fantastikani boyitib, uni yanada xilma-xil va inkluziv janrga aylantiradi. Gʻarb markazli kelajak qarashlariga alternativalar taklif qilib, bu yozuvchilar ilmiy fantastika orqali insoniyat tajribasining butun spektrini koʻrsatmoqdalar [24]. Bundan kelib chiqadiki xalqaro tahlil asosida yaratilgan ilmiy fantastik asarlar kelajakni bashorat qilish yoki boʻlmasam kelajak muammolarni tushunishga va oldindan tasavvur qilish va anglash uchun zamin yaratishi mumkin.

3.4 Oʻzbek adabiyotida ilmiy-fantastika an’analari.

Oʻzbek adabiyotida ilmiy-fantastika janri oʻziga xos rivojlanish yoʻliga ega. 20-asrning ikkinchi yarmida Hojiakbar Shayxov, Xudoyberdi Toʻxtaboyev va Tohir Malik kabi yozuvchilar bu janrning shakllanishiga hissa qoʻshganlar. Xususan, Hojiakbar Shayxovning “Ajib sayyoralar”(1979), “Sirli qoya” (1988) asarlari sovet davri oʻzbek ilmiy-fantastikasining yetuk

namunalari hisoblanadi. Bu asarlarda gʻarb ilmiy-fantastikasidan farqli oʻlaroq, sharqona falsafiy qarashlar va mahalliy madaniy kontekst sintezi kuzatiladi.

Mustaqillik davrida oʻzbek ilmiy-fantastikasi yangi mualliflar va yoʻnalishlar bilan boyidi. Jumladan, Ulugʻbek Hamdam, Isajon Sulton kabi zamonaviy yozuvchilar asarlarida ilmiy-fantastika elementlari koʻrinadi. Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" (2011) romani ayniqsa diqqatga sazovor boʻlib, unda sharq va gʻarb falsafiy qarashlari sintezlangan hamda metafizik masalalar ilmiy-fantastika elementlari orqali oʻrganiladi. Bundan tashqari ushbu asarlarda berilgan ilmiy maʼkumotlar ham oʻquvchi eʼtiborini oʻziga jalb qilmasdan qolmaydi. Misol tariqasida Quronovning " Galaktikaga bir kun" ilmiy fantasti asaridan quyidagi parchani olishimiz mumkin "Koinotdagi jismlarning tortishish kuchi, yaʼni gravitatsiyasi koʻproq ularning massasi bilan bogʻliq. Masalan, Oy Yerdan ancha kichkina. Shu sababli uning tortishish kuchi Yernikidan 6-marta kamroq. Bu agar siz yerda 1 metr balandlikka sakray olsangiz, Oyda naq 6 metrga sakraysiz degani. Chunki Yerda 40 kg vaznli bola Oyga chiqqanida 7 kg boʻlib qoladi. Xullas, fazoviy kema yaratayotganda shularni hisobga olish shart".[21:21-bet]

Oʻzbek ilmiy-fantastikasining oʻziga xos xususiyati shundaki, u klassik sharq falsafasi, islomiy dunyoqarash va zamonaviy ilmiy tushunchalarni sintezlaydi. Bu sintez gʻarb ilmiy-fantastikasiga xos boʻlgan texnologik determinizmdan farq qiluvchi alohida yoʻnalishni shakllantiradi. Oʻzbek ilmiy-fantastikasida insonning ruhiy-maʼnaviy dunyosi texnologik rivojlanishdan ustunroq qoʻyiladi, bu esa janrning gʻarbdan farqli oʻlaroq, koʻproq axloqiy-falsafiy masalalarga eʼtibor qaratishini koʻrsatadi [20].

4. Ilmiy fantastikada texnologik bashoratlar

4.1 Tarixiy bashoratlar

Ilmiy fantastika tarixida texnologik kashfiyotlarni ajoyib aniqlik bilan oldindan koʻrgan koʻplab misollar mavjud:

- Jyul Vern "Oydan Yerga" (1865) asarida kosmik kemalar va oyga sayohatning texnik jihatlarini tasvirlagan, bu NASAning "Apollon" dasturi amalga oshirilishidan qariyb bir asr oldin boʻlgan.

- H.G. Vells "Vaqt mashinasi" (1895) asarida vaqt boʻylab sayohat gʻoyasini rivojlantirgan, bu keyinchalik Albert Einsteinning nisbiylik nazariyasi orqali nazariy mumkin deb topilgan.

- Gyugo Gernsbekning "Ralph 124C 41+" (1911) romani videoqoʻngʻiroqlar, solyar energiya, sintez qilingan oziq-ovqatlar va boshqa koʻplab zamonaviy texnologiyalarni bashorat qilgan.

- Edvard Bellemining "Oʻtmishga nazar" (Looking Backward, 1888) asarida kredit kartalar tasvirlangan.

- Mark Tvening "Tom Soyerning chet ellarda sarguzashtlari" (1894) romanida internet va ijtimoiy tarmoqlarga oʻxshash tizimni bashorat qilgan.

Vilyam Gibsonning "Neyromanser" (1984) romani kiberfazo, hakerlik va virtual haqiqat kontseptsiyalarini taqdim etgan, bu internet rivojlanishidan oldin boʻlgan[13].

4.2 Taxmin va bashorat

Ilmiy fantastika asarlarida qoʻllaniladigan taxmin va bashorat texnikalarini tushunish har bir asar oʻquvchisi uchun oʻta muhimdir. Ilmiy fantastika yozuvchilari bir necha metodlarni qoʻllaydilar:

- Ekstrapolyatsiya: Mavjud texnologik tendensiyalarni kelajakka proyektsiya qilish. Masalan, Arthur C. Klark “Oyning changlari” (A Fall of Moondust, 1961) asarida oyda turizm infratuzilmasi rivojlanishini tasvirlagan.

- Spekulyatsiya: Ilmiy nazariyalarga asoslangan yangi texnologiyalarni tasavvur qilish. Masalan, Liu Tsixin “Uch jism muammosi” (The Three-Body Problem) asarida kvant mexanikasi va kosmologiyaga asoslangan kontseptsiyalarni rivojlantirgan.

- Alternativ tarix: “Agar bu hodisa boʻlganida nima boʻlardi?” degan savolni oʻrganish. Filip K. Dikning “Yuqori qasrdagi odam” (The Man in the High Castle, 1962) romanida agarda oʻq davlatlari ikkinchi jahon urushida gʻalaba qozonganida dunyo qanday koʻrinishda boʻlishini tasvirlagan.

- Ijtimoiy ekstrapolyatsiya: Texnologik oʻzgarishlarning jamiyatga taʼsirini bashorat qilish. Masalan, Margar Etvud “Kanizakning hikoyasi” (The Handmaid’s Tale, 1985) asarida reproduktiv texnologiyalarning ijtimoiy taʼsirini tekshirgan[13]. Yuqorida nomi tilga olingan barcha texnikalarning hammasi ilmiy fantast yozuvchilar uchun oʻquvchini Darko Suvin nazariyasidagi novumga olib kiradi.

4.3 Spekulyatsiyaning roʻli.

Ilmiy fantastikaning spekulyativ tabiati uni texnologik yutuqlarning oqibatlarini oʻrganish uchun "laboratoriya" vazifasini oʻtashiga imkon beradi. Yozuvchilar ham utopik, ham distopik kelajakni tasavvur qilish orqali ilmiy-texnik taraqqiyotning axloqiy va ijtimoiy oqibatlari haqida tanqidiy fikrlashga undaydilar. Masalan, Ayzek Azimovning “Robotlar” seriyasida robotlarning “Uch qonuni” axloq kodeksi sun’iy intellekt bilan bogʻliq masalalar va ularning insonlar bilan munosabatlarini oʻrganish uchun muhim vosita boʻldi. Bu gʻoya keyinchalik texnologik etika sohasida keng muhokama qilinib, zamonaviy sun’iy intellekt rivojlanishiga ham taʼsir koʻrsatdi. Ilmiy fantastikadagi spekulyatsiya faqat texnologik kashfiyotlarni emas, balki ularning jamiyatga, madaniyatga va inson ruhiyatiga taʼsirini ham oʻz ichiga oladi. Yozuvchilar texnologiya, ijtimoiy oʻzgarishlar va inson tajribasi orasidagi murakkab oʻzaro bogʻliqliklarni oʻrganadilar. Bu janrni faqat “texnologik bashoratlar” emas, balki “ijtimoiy-texnologik bashoratlar” taqdim etadigan janr deb atash toʻgʻriroq boʻladi [10]. Haqiqatdan ham hozrigi real hayotga mos kelib, haqiqatga aylangan asarlarda berilgan qonun qoidalar majmui hozirda faol qoʻllanilmoqda. Buning yaqqol misoli tariqasida J. Orvellning “1984” asarini misol keltirish mumkin. Asarda tilga olingan “Thought police” (Fikrni politsiyasi) hozirgi kundagi online xizmatlar bilan amalga oshiriluvchi soʻrovnomalar bilan qiyoslasak boʻladi. Asarda totalitarizm va siyosiy hokimiyatning psixologik, texnologik, jismoniy va ijtimoiy xavflari, inson tafakkurini shakllantirishda tilning ahamiyati kabi mavzular koʻtariladi.[25:4]

5. Ilmiy fantastikaning poetik xususiyatlari.

5.1 Janr chegaralari.

Ilmiy fantastikaning chegaralari va boshqa janrlar bilan kesishishi doimo muhokama mavzusi boʻlib kelgan. Baʼzi nazariyotchi olimlar ilmiy fantastikani fantastik adabiyotning kenja janri deb hisoblaydilar, boshqalar esa uni mustaqil janr sifatida koʻradilar [22]. Bu yerda birinchi guruh nazariyotchilarining fikri muhim oʻringa ega. Buning asosiy sababi esa ushbu janr doirasida yaratilgan asarlarda hamon reallikga yaqin boʻlsada mavjuda boʻlmagan obrazlarning mavjudligidir. Bu esa fantastika janrining eng muhim umumiy belgilaridan biridir. Quyidagi bu sifat ikki janrning alohida xususiyatlari bilan dalillanadi.

Ilmiy fantastika quyidagi janrlar bilan kesishadi:

- Fantastika: Ilmiy fantastika va fantastika orasidagi chegara koʻpincha noaniq boʻladi. Masalan, “Yulduzlar urushi” (Star Wars) ham ilmiy fantastika, ham fantastika elementlarini oʻz ichiga oladi. Asosiy farq shundaki, ilmiy fantastika oʻz gʻaroyib elementlarini ratsional, ilmiy dunyoqarash doirasida tushuntiradi (ammo bu tushuntirish haqiqiy ilmiy qonunlarga muvofiq boʻlishi shart emas), fantastika esa sehrli va gʻayritabiiy tushuntirishlardan foydalanadi [19].

- Qoʻrqinch: “Frankenshteyn”, “Oʻzga sayyoralik” (Alien) filmi va “Narsa” (The Thing) kabi asarlar ilmiy fantastika va qoʻrqinch janri elementlarini birlashtiradi.

- Tarxiy fantastika: Alternativ tarix asarlari, masalan, Filip K. Dikning “Yuqori qasrdagi odam” romani ilmiy fantastika va tarixiy adabiyot orasidagi chegarada joylashgan.

- Sehrli realizm: Xususan, Lotin Amerikasi va Afrika ilmiy fantastikasi koʻpincha sehrli realizm elementlarini oʻz ichiga oladi, bu esa gʻarbiy janr chegaralarini kengaytiradi [7].

5.2 Ilmiy fantastika badiiyati

Ilmiy fantastika oʻziga xos badiiy xususiyatlarga ega boʻlib, bu uni boshqa janrlardan ajratib turadi:

- Bilimga asoslangan yot dunyolarni yaratish: Ilmiy fantastika yozuvchilari ilmga asoslangan, ammo hozirgi dunyomizdan farq qiladigan dunyolarni yaratish san’atini rivojlantirganlar. Ular oʻquvchilarning ishonchini qozonish uchun muvozanatli miqdordagi “yelim” (ilmiy tushuntirishlar) va “koʻzgu” (tanish elementlar) dan foydalanadilar [22].

- “Infodamp” (ma’lumot toʻplami): Ilmiy fantastikada keng qoʻllaniladigan texnika boʻlib, unda muallif oʻquvchiga yaratilgan dunyo haqida koʻp miqdordagi ma’lumotni bir vaqtning oʻzida beradi. Bu texnika yangi dunyoni tushuntirish uchun zarur, ammo uni badiiy jihatdan samarali qoʻllash mahorat talab qiladi (Stableford, 2006). Bu kabi ilmiy ma’lumotlar toʻplami yuqrida nomi tilga olingan yozuvchi Nil Eshr romanlarida ham faol qoʻllanilgan. Misol tariqasida quyidagi parchani keltirishimiz mumkin: "Kormak moviy baliqchilarni kuzatdi — u kulrang suvdan oʻzidan katta tuyulgan bir baliqni tortib chiqarib oldi. [...] U bu yerga moviy baliqchilar qanday kiritilganligi haqida faylni suniiy ong tizimida tezkor oʻqib chiqdi. Ayni paytda orqa fonda izoh eshitilib turardi. [...] U oʻrim-yigʻim mashinasi — Ferguson Multiprotsessor F230 modeli ekani va u yigirma yillik ekani haqida ma’lumotga ega boʻldi."[1:12-bet]

- Konseptual yutuq: Ilmiy fantastika kitobxonlarni “Agar bunday hodisa yuz bersa nima boʻladi?” savolini oʻylashga undaydi. Janrning eng zoʻr asarlari oʻquvchilarga konseptual toʻntarish yoki “yutuq” taqdim etadi, ya’ni dunyoni yangicha koʻrishga undaydi [22].

- Texnologik va ijtimoiy yangiliklar: Ilmiy fantastika asarlari oʻz dunyosining noodatiyligini ta’kidlash uchun yangi texnologiyalar, tushunchalar yoki ijtimoiy tuzilmalar – novumlar (yangiliklar) yaratadi. Bunday novumlar atrofida qurilgan badiiy asarlar oʻquvchilarga mavjud dunyoni yangicha koʻrish imkonini beradi [3]. Yuqorida ilmiy fantastika badiiyatiga tegishli ta’riflardan quyidagicha umumiy xulosa chiqarish mumkin: Ilmiy fantastika boshqa janrlardan ilmiy faktlarga asoslangan ilmiyligi, real dunyoga nisbatan gʻayrioddiy olamlarni konseptual savollarni oʻrtaga qoʻyish pirovardida yaratuvchi va uni ilmiy izohlovchilik badiiy xususiyatlari bilan ajralib turuvchi haqiqatga eng yaqin boʻlgan janr turidir.

5.3 Til va metafora.

Ilmiy fantastika o‘ziga xos lingvistik xususiyatlarga ega:

- Neologizmlar: Yangi texnologiyalar, tushunchalar va hodisalarni tasvirlash uchun yangi so‘zlar yaratish ilmiy fantastikaning muhim xususiyatidir. Masalan, “kiberfazo” (Vilyam Gibson), “robot” (Karel Chapek), “ozon teshigi” (Tomas Disch) kabi atamalar ilmiy fantastikadan kelib chiqqan.

- Ekstrapolyatsion til: Kelajak sleng va til o‘zgarishlarini tasvirlash. Entoni Byorjesning “Mexanik apelsin” (A Clockwork Orange, 1962) romanidagi “Nadsat” sleng va Margaret Etvudning “Kanizakning hikoyasi” asaridagi teokratik terminologiya bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

- Kognitiv metafora: Ilmiy fantastika mavhum ilmiy va falsafiy tushunchalarni aniq obrazlar orqali tushuntirish uchun metaforalardan foydalanadi. Masalan, Edvin Abbotning “Tekislik” (Fatland 1884) asari ko‘p o‘lchovli geometriyani tushuntirish uchun ikki o‘lchovli mavjudotlar dunyosini metafora sifatida ishlatadi.

- Estranglish: Samuel R. Deleni tomonidan taklif qilingan tushuncha bo‘lib, bu ilmiy fantastika o‘quvchini “begonalashtirish” uchun ishlatadigan til xususiyatlarini tasvirlaydi. Bu oddiy so‘z yoki tushunchalarni noodatiy kontekstda ishlatib, kitobxonni yangicha fikrlashga undaydigan lingvistik texnika hisoblanadi.

**Muhokama**

Ilmiy fantastika janri adabiyot va madaniyatda muhim ahamiyatga ega. U nafaqat kitobxonlarni zavqlantiruvchi vosita, balki jamiyatdagi o‘zgarishlarni aks ettiruvchi ko‘zgu va kelajakdagi imkoniyatlarni o‘rganuvchi laboratoriya vazifasini ham bajaruvchi janr turidir. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ilmiy fantastika quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Kognitiv begonalashtirish orqali tanqidiy fikrlashni rag‘batlantirish.

Suvinning ta’kidlashicha, ilmiy fantastika kitobxonni odatiy voqelikdan uzoqlashtirish orqali mavjud ijtimoiy tuzumlarni tanqidiy ko‘rib chiqishga undaydi. Bu janr tanish dunyo va g‘aroyib dunyo orasidagi kesishuvda harakatlanadi, bu esa kitobxonga o‘z jamiyatini yangi nuqtai nazardan ko‘rish imkonini yaratdi[12]. Masalan, Ursula K. Le Guinning “Qorong‘ulikning chap qo‘li” romani genderlik jihatdan o‘zgaruvchan jamiyatni tasvirlab, gender va jins haqidagi an’anaviy tushunchalarni qayta ko‘rib chiqishga undaydi. Shu tarzda ilmiy fantastika “begonalashtirish” orqali tanish hodisa va tushunchalarni yangicha ko‘rishga yordam beradi.

2. Ijtimoiy o‘zgarishlarni bashorat qilish va ularga ta’sir ko‘rsatish.

Tadqiqot natijalari ilmiy fantastika va jamiyat orasida murakkab o‘zaro ta’sirning mavjudligini ko‘rsatadi. Ilmiy fantastika asarlari o‘z davridagi xavotir va umidlarni aks ettirish bilan birga, kelajakdagi ijtimoiy o‘zgarishlarga ta’sir ko‘rsatishi ham mumkin. Masalan, 1950-yillardagi “Oltin davr” ilmiy fantastikasi texnologik optimizm bilan sug‘orilgan bo‘lib, kosmik izlanishlar va ilmiy yutuqlarga ijobiy munosabatni shakllantirgan. Bunga qarama-qarshi o‘laroq, 1960-1970-yillardagi “Yangi to‘lqin” harakati urush, atrof-muhit buzilishi va totalitarizm xavflarini ko‘rsatib, bu masalalar haqida jamoatchilik muhokamalariga turtki bergan.

3. Texnologik rivojlanish bilan bog‘liq axloqiy va falsafiy masalalarni o‘rganish. Ilmiy fantastika texnologik innovatsiyalar bilan bo‘gliq murakkab axloqiy muammolarni o‘rganish uchun noyob imkoniyat taqdim etadi. Bu janr texnologiya rivojlanishi natijasida paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan axloqiy dilemma va falsafiy savollarga kitobxon e’tiborini qaratadi [13].

Buning natijasida kitobxon kelajakda yaratilishi mumkin boʻlgan texnologiyalar va ularni amalda qoʻllash haqida ham tasavvuriy tushunchaga egaa boʻlishi mumkin. Bundan tashqqari, Filip K. Dikning "Android elektron qoʻyni orzu qiladimi?" romani insoniylik tushunchasi va sun’iy intellektning axloqiy maqomi kabi muhim savollarni oʻrtaga tashlaydi. Ted Chyanning “Hayotingda yetmish ikkita harf” (Seventy-Two Letters) hikoyasida golem sun’iy intellekt metaforasi sifatida ishlatib, sun’iy hayot yaratishning axloqiy jihatlari oʻrganiladi.

4. Xilma-xil ovozlar va qarashlarni taqdim etish.

Zamonaviy ilmiy fantastika turli xil madaniy, etnik va gender kelib chiqishiga ega boʻlgan yozuvchilarni oʻz ichiga oladi. Bu janr keng doiradagi odamlar tajribasini aks ettirish va marginallashgan guruhlar ovozini eshittirish uchun platforma vazifasini oʻtaydi. Masalan, N.K. Jemisinning “Singan Yer” (Broken Earth) trilogiyasi irqchilik va sistemali zulm mavzularini oʻrgansa, Liu Tsixinning “Uch jism muammosi” xitoy tarixiy tajribasini global kontekstda koʻrib chiqadi. Bu xilma-xillik ilmiy fantastikani boyitib, uni yanada inkluziv janrga aylanishiga turtki boʻlmoqda.

**Xulosa**

Ushbu tadqiqot ilmiy-fantastik adabiyot janrining tarixiy rivojlanishi, nazariy asoslari, madaniy ta’siri va poetik xususiyatlarini koʻrib chiqdi. Natijada quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, ilmiy fantastika janri sodda koʻngilochar adabiyot emas, balki murakkab falsafiy, ijtimoiy va kulturologik masalalarni koʻtaradigan, kognitiv izolyatsiyalaash orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantiradigan adabiy yoʻnalish ekanligi aniqlandi.

Ikkinchidan, janrning rivojlanishi jamiyatdagi oʻzgarishlar bilan bevosita bogʻliq boʻlib, har bir tarixiy davr oʻzining xos ilmiy-fantastika yoʻnalishlarini yaratgani koʻrsatib berildi. Bu esa janrning ijtimoiy oʻzgarishlarni aks ettiruvchi koʻzgu vazifasini oʻtashini dalillaydi.

Uchinchidan, ilmiy fantastika janri markazidan chekkaga qarab kengayib borishi – gʻarb markazli adabiyotdan global, koʻp ovozli adabiyotga aylanish tendensiyasi aniqlandi. Bu jarayon janrni boyitib, uni yanada xilma-xil va inkluzivligini oshirmoqda.

Toʻrtinchidan, texnologik bashoratlar ilmiy fantastikaning muhim xususiyati boʻlib, janr faqat texnologiyalarni emas, balki ularning jamiyatga va inson psixologiyasiga ta’sirini ham bashorat qilishi koʻrsatildi.

Beshinchidan, ilmiy fantastika janrining badiiy xususiyatlari—neologizmlar, kognitiv metafora, infodamp, konseptual yutuq kabi vositalar—uning poetik oʻziga xosligini ta’minlashi aniqlandi.

Ushbu tadqiqot ilmiy fantastika janrining adabiyotshunoslik, kulturologiya va texnologiya rivojlanishi tarixini oʻrganish uchun ahamiyatini koʻrsatadi. Kelajakdagi tadqiqotlar uchun janrning zamonaviy tendensiyalari, xususan ekologik ilmiy fantastika, post-pandemik ilmiy fantastika va sun’iy intellekt bilan bog’liq asarlarni yanada chuqurroq oʻrganish tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy fantastika janri adabiyot, ilm-fan va jamiyat orasidagi murakkab oʻzaro ta’sirni oʻrganish uchun boy material taqdim etadi. U oʻtmishni qayta koʻrib chiqish, bugungi kunni tanqidiy baholash va kelajakni tasavvur qilish vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Ilmiy fantastika asarlari insoniyat tajribasining murakkabligi va texnologik taraqqiyotning insoniyat kelajagiga potensial ta’sirini anglatishda davom etmoqda.

**Adabiyotlar/Литература/References:**


1. Asher, N. (2001). Gridlinked. Pan Macmillan. 440p.
2. Bould, M., Butler, A. M., Roberts, A., & Vint, S. (Eds.) (2009). The Routledge Companion to Science Fiction. Routledge. 544p.
3. Bould, M., & Vint, S. (2011).The Routledge Concise History of Science Fictio. Routledge. 264p.
4. Canavan, G., & Link, E. C. (2023). The Cambridge History of Science Fiction. Cambridge University Press.
5. Chu, S. Y. (2022). Post-pandemic Science Fiction: Reimagining Global Futures. Cambridge University Press.
6. Clute, J. (1995). Science Fiction: The Illustrated Encyclopedia. Dorling Kindersley. 1422p.
7. Gomel, E. (2024). Postmodern Science Fiction and Temporal Imagination. Routledge.
8. Grant, M. (2019). A Systematic Review of Science Fiction Literary Theory. Journal of Literary Theory, 13(2), 157–183.
9. Jameson, F. (2005). Archaeologies of the Future: The Desire Called Utopia and Other Science Fictions. Verso.
10. Kotásek, M. (2023). Science Fiction as Cultural Laboratory. Cambridge University Press.
11. Lavender, I. (2020). Race in American Science Fiction. Indiana University Press.
12. Liu, K. (2021). Broken Stars: Contemporary Chinese Science Fiction in Translation. Tor Books.
13. Luokkala, B. (2019). Exploring Science Through Science Fiction. Springer.
14. Menadue, C. B. (2020). Science Fiction and Cultural Theory: A Reader. Journal of the Fantastic in the Arts, 31(1), 134–137.
15. Milner, A. (2012). Locating Science Fiction. Liverpool University Press.
16. Miller, T. S. (2023). Science Fiction and Religion: New Perspectives. Routledge.
17. Newell, J. (2020). Ecological Science Fiction: Climate Change and Environmental Ethics. Liverpool University Press.
18. Oziewicz, M. (2021). Speculative Fiction and Global Ethics. University of Minnesota Press.
19. Pierce, J. J.(1987). Foundations of Science Fiction. Greenwood Press.
20. Qodirov, B. (2019). Zamonaviy oʻzbek adabiyotida janr transformatsiyasi. Sharq yulduzi, 5, 45–62.
21. Quronov S. (2019). Galaktikada bir kun. Akademnashr. 160b.
22. Roberts, A. (2006). The History of Science Fiction. Palgrave Macmillan.
23. Stableford, B. (2003). Science Fact and Science Fiction: An Encyclopedia. Routledge.
24. Stableford, B. (2006). Science Fiction and the Crisis of the Educated Middle Class. McFarland & Company.
25. Tohirova Umida Akramovna. (2023). Jahon adabiyotida ilmiy fantastika anri va yoʻnalishlari. Journal of Integrated Education and Research, 2(5), 112–117.
26. Yamamura, T. (2014). Rethinking Science Fiction: Exploring Cultural Identity in Science Fiction. University of Tokyo Press.
27. Yaszek, L., & Ellis, J. (2022). The Future Is Female: 25 Classic Science Fiction Stories by Women. Library of America.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# ZAMONAVIY LINGVISTIK MADANIYAT KONTEKSTIDA "SPORT DISKURSI" TUSHUNCHASINING NAMOYON BO'LISHI

**Xaydarova Gavhar Abdukadirovna,**
International School of Finance Technology
and Science (ISFT) instituti

**Annotatsiya.** Mazkur maqola zamonaviy lingvistik madaniyat doirasida sport diskursining koʻp qirraliligini tahlil qiladi. Tadqiqot sport tilining strukturaviy, funksional va pragmatik jihatlarini, leksik va diskurs turlarini hamda kommunikativ strategiyalarini oʻrganishga qaratilgan. Interdisipliner yondashuv asosida sportni inson irodasi, xarakteri va jismoniy salohiyatini rivojlantiruvchi vosita sifatida koʻrib chiqiladi. Maqola sport kommentariyasi va muloqot shakllarining institutlashgan diskursdagi oʻrnini ochib beradi. Natijalar milliy tilni boyitish, ijtimoiy qadriyatlarni aks ettirish va global tendensiyalarni yoritishda qoʻllaniladi. Ushbu tadqiqot natijalari akademik va amaliy sohalarda sport muloqotining yanada chuqur oʻrganilishi va qoʻllanilishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga global kontekstda sport diskursining evolyutsiyasi va uning jamiyat hayotiga ta'siri keng yoritilgan.

**Kalit so 'zlar:** sport diskursi, lingvistik madaniyat, interdisipliner tadqiqot, kommunikativ strategiyalar, ijtimoiy qadriyatlar, sport kommentariyasi, global tendensiyalar.

# DEMONSTRATION OF THE CONCEPT OF "SPORTS DISCOURSE" IN THE CONTEXT OF MODERN LINGUISTIC CULTURE.

**Khaydarova Gavkhar Abdukadirovna,**
International School of Finance Technology and Science( ISFT)

**Abstract.** This article analyzes the multifaceted nature of sports discourse within the framework of modern linguistic culture. The study focuses on the structural, functional, and pragmatic aspects of sports language, as well as its lexical and discursive types and communicative strategies. Based on an interdisciplinary approach, sport is considered a means for developing human will, character, and physical potential. The article reveals the role of sports commentary and various communication forms within institutional discourse. The findings are used to enrich the national language, reflect social values, and highlight global trends. These results further contribute to the deepened study and practical application of sports communication while elucidating the evolution of sports discourse and its impact on societal life.

**Keywords:** sports discourse, linguistic culture, interdisciplinary research, communicative strategies, social values, sports commentary, global trends.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N15

**Kirish.** Sport hodisasi – ijtimoiy hayotning turli namoyonlariga ta'sir koʻrsatadigan va iqtisod, siyosat, san'at, ta'lim va sogʻliqni saqlash kabi sohalar ta'sirida shakllanadigan murakkab antroposotsiyokultural hodisadir. Sport, insoniyat va jamiyat oʻrtasidagi bogʻlanish "umumiy kollektiv sezgirlikning chuqur maydoni" (P. Trifonas, 2001: 22) hisoblanadi, bu esa

maxsus sport diskursining tipologik va profil xususiyatlarini aniqlash jarayonining boshlangʻich nuqtasidir. Shu bilan birga, uning mavjudlik tarixiy paradigmalarini, tuzilmaviy va funksional xususiyatlarini, faoliyat shakllari va metodlarini turli ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sharoitlarda, lingvistik madaniyatni oʻrganish jarayonida aniqlashtirish nazarda tutilgan.

Koʻplab faylasuflar, sotsiologlar, psixologlar, tarixchilar va tilshunoslar sportni oʻrganishga bagʻishlangan asarlar yozganlar (I. Huizinga, U. Eco, A. Beard, M. Ibragimova, L. Gaznyuk, E. Zavalnyuk, L. Karpets, V. Lukashchuk, I. Oleksina, Yu. Semenova, P. Charchenko va boshqalar). Zamonaviy lingvistik madaniyatda maxsus sport lugʻaviyati hali yetarli tizimli yoritilmagan. Sport diskursi yetarlicha oʻrganilmagan boʻlsa-da, sport ijtimoiy-madaniy hayotning ajralmas qismi sifatida allaqachon universal tan olinishi bilan ajralib turadi. Tadqiqot obyekti sifatida sport diskursini tanlashimizning sababi shundan iboratki, mahalliy lingvistik adabiyotda sport tili boʻyicha umumlashtiruvchi asarlar, milliy leksik va frazeologik “sport” subsystemasining tizimli tavsifi mavjud emas. Tilshunoslarning tilning diskursiv jihatlarini oʻrganish, sport tasvirlarining shakllanish mexanizmlarini aniqlash va ularning inson xulq-atvori va fikriga verbal taʼsirini oʻrganish muammolarini yanada rivojlantirishga boʻlgan ehtiyoji, shuningdek, global diskursiv makon tipologiyasini shakllantirish zarurati taʼkidlanishi kerak. Lingvistik nuqtai nazardan sport hodisasi yetarlicha oʻrganilmagan boʻlib, u tilshunoslik, lingvokulturatologiya, aksiologik lingvistika va diskurs tadqiqotlari kabi sohalar eʼtiboridan deyarli chetda qolgan.

Ushbu maqolaning maqsadi sport diskursining til-semiotik tizim sifatida xususiyatlarini va uning shaxs ehtiyojlari bilan boʻlgan bogʻliqligini aniqlashtirishdir. Buning uchun sport diskursining tarkibiy xususiyatlarining lingvistik tavsifini oʻtkazish va ularning sport muloqotida qanday namoyon boʻlishini koʻrsatish zarur.

**Asosiy qism.** Sport ijtimoiy hodisa sifatida turli mezonlar boʻyicha tasniflanadi. U oʻz ichiga oʻyin va jamoaviy sportlar, ayollar va erkaklar oʻrtasidagi musobaqalar, shuningdek, bolalar va yoshlar sportini oladi. Shuningdek, sport turlari Olimpiya, nolimpiya va paralimpiya musobaqalari shaklida farqlanadi; baʼzilari hakamlar (masalan, futbol va xokkey) tomonidan baholanadi, boshqalari esa juriya (ritmik gimnastika, artistik muzqaymoq va h.k.) orqali nazorat qilinadi. Ushbu turlar oʻyin faoliyatiga asoslanib, sportni inson irodasini, xarakterini va intilishlarini rivojlantirish vositasi sifatida qabul qilish gʻoyasiga xizmat qiladi. Sogʻlom turmush tarzini saqlash sportga maxsus ahamiyat va qadriyat yuklab, asosiy turlar oʻrtasidagi farqlarni yumshatishda ham muhim rol oʻynaydi (M. Ibragimov, 2014).

Sport diskursida “iroda”, “kuch”, “xarakter” va “sogʻliq” kabi kategoriya va kontseptsiyalar markaziy oʻrin egallaydi. Bu kategoriyalar madaniyatning shartsiz elementlari sifatida til ifodasiga ega boʻlib, lingvokultural kontseptsiyalar sifatida namoyon boʻladi. Diskurs – kontseptsiyalarni amalga oshirish maydoni boʻlib, bilimning ruhiy konstruktsiyalari tizimga jamlanib, oʻziga xos strukturalar orqali nutq ifodasiga aylanadi. Koʻp oʻlchovli semantik kontseptsiya tasviriy, tavsifiy va qiymat oʻlchovlarini oʻz ichiga oladi, bu esa til-semiotik muloqot kontseptsiyalar makonining asosini tashkil etadi (U. Eco, 1998).

Sport muloqotida “jismoniy mukammallik”, “sogʻliq”, “iroda”, “xarakter”, “kuch”, “jasorat”, “muvaffaqiyat”, “kurash”, “musobaqa”, “tanlov”, “qahramon”, “gʻolib”, “yutuq” va “goʻzallik” kabi tushunchalar aks etadi. Har bir tushunchaning oʻziga xos qiymat komponenti bor; “sport” kontseptsiyalar makoni inson jismoniy salohiyatini rivojlantirish usullari, tayyorgarlik, sogʻlom

turmush tarzi, motor xususiyatlari, shaxsiy yutuqlar va jamiyatning ijtimoiy fikrlarini oʻzida mujassamlashtiradi.

Sport kontseptsiyalar makonining asosiy proto-kontseptsiyalari – oʻyin va musobaqa tushunchalari boʻlib, ular tarixiy asos sifatida xizmat qiladi. Oʻyin tushunchasining semiozik parametrlari quyidagilardan iborat:




***Sxema 1.*** *Oʻyin tushunchasining semiozik parametrlari.*

Musobaqa tushunchasi oʻyin tushunchasi bilan yaqin bogʻliq boʻlsa-da, unda raqiblar oʻrtasida muqarrar ustunlik, qatʼiy marosimlashtirish va moddiy mukofotlarning roli ajralib turadi. Shu bilan birga, sport faoliyatining asl maqsadi – inson salomatligini va jismoniy mukammallikni targʻib qilish – musobaqa tushunchasida baʼzan qarshi qiymat sifatida aks etadi.

1. Sport diskursi uch asosiy komponentdan tashkil topgan:
2. Predmet komponentasi: Musobaqada ishtirok etayotgan shaxsning jismoniy va fiziologik xususiyatlari.
3. Tasviriy komponenta: Sport voqealarining vizual va metaforik aks etishi.
4. Qiymat komponentasi: Sportdagi yutuq, muvaffaqiyat va sport subyektlarining etik-estetik xususiyatlari.

Diskurs jarayoni kontseptsiyalar tizimining nutq faoliyatiga shoʻngʻishi orqali amalga oshadi, bu esa sport muloqotining butun tizimini shakllantiradi (F. Saussur, 2013). Institutsional diskurs sifatida sport diskursi pedagogik, huquqiy, siyosiy, tibbiy, ommaviy axborot va reklama diskursi kabi koʻplab tarmoqlarga boʻlinadi.

Sport diskursi janr xilma-xilligiga ega boʻlib, u turli kommunikativ shakllarda namoyon boʻladi: ilmiy-tadqiqot maqolalari, tibbiy-terapevtik suhbatlar, jismoniy tarbiya darslari, trening tahlillari, sport sudi, intervyular va press-konferensiyalar. Sport jargonining ustunligi aholining keng qatlamlari orasida turli sport turlarining tarqalganligidan kelib chiqadi (L. Karpets, 2009).

Xronotopik jihatdan sport diskursi sport voqealarining cheklangan davomiyligi, tayyorgarlik va musobaqa jadvali, shuningdek, efirga uzatiladigan videofragmentlar bilan belgilanadi. Mavzuning makoniy elementi – sport maydonlari, stadionlar, sport zalari va boshqa joylar – ham diskursning ajralmas qismi hisoblanadi.

Umuman olganda, sport diskursi zamonaviy lingvistik madaniyat doirasida ijtimoiy, madaniy va lingvistik qadriyatlarni aks ettiruvchi murakkab tizimdir. U sport subyektlari, muxlislar, hakamlar va sport komentatorlari oʻrtasidagi muloqot orqali shakllanadi. Sport diskursi nafaqat milliy tilni boyitibgina qolmay, balki ijtimoiy-psixologik munosabatlar, axiologik qadriyatlar va global tendensiyalarni aks ettiruvchi keng qamrovli kommunikativ vosita sifatida ham oʻz oʻrnini topadi. Ushbu tizim sportning inson salomatligi va jismoniy mukammallikni targʻib qilishdagi oʻrnini yanada kuchaytirib, ijtimoiy boshqaruv modelining ajralmas qismiga aylangan.

**Xulosalar.** Sport diskursining tarkibiy xususiyatlari sport voqealarini sport kommentariyasi orqali aks ettirish jarayonida maksimal darajada namoyon boʻladi, u sport diskursining yetakchi janri hisoblanadi va unga kommunikativ ahamiyat baxsh etadi. Ushbu diskurs janrlarining xilma-xilligi murabbiy diskursi, muxlis diskursi, hakam diskursi, oʻyin va siklik sport turlarini ifodalaydigan sportchilarning diskursini oʻz ichiga oladi. Sport diskursi sport maqsadlariga erishish, sport musobaqasida gʻolib chiqish, sport voqeasida ustunlikni namoyon etish va davlat yoki sport muassasasining oʻz vakilini musobaqaga tayyorlash jarayonida uning taqdimoti va obroʻsini taʼminlash uchun verbal qoʻllab-quvvatlashni oʻz ichiga oladi. Sport diskursi milliy tilda faol tarzda oʻz ifodasini topib, uning boyitilishining muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Sport lugʻaviyatining metaforik kengayishi jarayoni kuzatilmoqda. Sport lugʻaviyatining rivojlanishidagi eng muhim yoʻnalish – bu uning xalqaro miqyosga intilishi boʻlib, maʼlum bir sport turi boʻyicha yetakchi boʻlgan til va mamlakatning terminologiya sohasidan qarzdorliklar shaklida aks etmoqda.

## Adabiyotlar/Литература/References:


1. Beilin M. V., Semenova Yu. A. Komunikatyvni praktyky i nominatyvna leksyka v subkulturi sportu [Communicative practices and nominal vocabulary in subculture sports]. Social sciences: development prospects in countries of Europe at the beginning of the third millennium: Collective monograph. Riga: Izdevnieciba “Baltija Publishing”, 2018. pp. 21–38 [in Ukrainian].
2. Charchenko P. S. Rol kolektyvnykh sportyvnykh ihor u rozvytku komunikatyvnykh zdibnostei pidlitkiv-deviantiv [The role of collective sports games in the development of communicative skills of young people]. Pedagogy, psychology and medical-biological problems of physical education and sports. 2013. № 11. pp. 94–98 [in Ukrainian].
3. Eko U. Otsutstvujushhaja struktura [Missing structure]. Introduction to semiology. TOO TK “Petropolys”, 1998. 432 p. [in Russian].
4. Abdullaeva C. Роль социальных факторов в рекламном дискурсе //News of the NUUz. – 2024. – Т. 1. – №. 1.9. – С. 249-252.
5. Соссюр Ф. Курс общей лингвистики. М.: Кн. дом «ЛИБРОКОМ», 2013. 272 с.
6. Хейзинга, Й. Homo ludens (человек играющий). М.: АСТ, 2001. 570 с.
7. Эко У. Отсутствующая структура. Введение в семиологию. ТОО ТК «Петрополис», 1998. 432 с.

8. Шомуротова Н.Н. (2021). Ўзбек оилаларида реклама қилинаётган аҳсулотлар идрокининг ижтимоий-психологик хусусиятлари: Дис. ... псих. фан. номзоди.
9. Gazniuk L., Soina I. Temporality of social reality and structure of language. Integration of traditional and innovation processes of development of modern science: collective monograph. Riga, Latvia : “Baltija Publishing”, 2020. pp. 274–294.
10. Soina I., Gazniuk L., Goncharov G. Language Practices as Translators of Social-Cultural Being of a Human. Інформаційне суспільство: сучасні трансформації: монографія. Вінниця: ФОП Корзун Д.Ю. 2020. С. 188–198. 12. Trifonas P. P. Umberto Eco and Football. UK Sport Today. 2001. Issue 7. pp. 28–38.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# "XALQ SO'ZI" GAZETASINING MATNLARINI DAVR BO'YICHA TASNIFLASH BOSQICHLARI

**Mirzarahimov Bahodir Shavkat o'g'li**
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy
universiteti Kompyuter lingvistikasi va amaliy
tilshunoslik kafedrasi 2-bosqich magistranti
E-mail: bahodirmirzarahimov70@gmail.com
Tel:+998 94 299 99 04

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada "Xalq so'zi" gazetasining matnlarini davr bo'yicha tasniflash jarayoni batafsil tahlil qilinadi. Tadqiqot gazeta korpusini yaratish bosqichlari, matnlarni yig'ish, tahrirlash, morfologik tahlil qilish, tasniflash va metama'lumotlar yaratish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Matnlarning davriy tasnifi orqali turli tarixiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar o'rganiladi hamda gazeta materiallarining lingvistik o'zgarishlarga qanday ta'sir qilgani aniqlanadi. Ushbu jarayon orqali "Xalq so'zi" gazetasining turli davrlardagi axborot berish uslubi va uning jamiyatdagi roli tahlil qilinadi. Gazeta korpusining reprezentativligini ta'minlash, leksik o'zgarishlarni kuzatish va matnlarni elektron formatda saqlash kabi masalalar ham yoritiladi. Tadqiqot natijalari lingvistik, tarixiy va sotsiologik izlanishlar uchun muhim ma'lumotlar taqdim etadi.

**Kalit so'zlar**: gazeta korpusi, reprezentativlik, metama'lumot, lemmatizatsiya, morfologik tahlil, matnlarni tasniflash, til o'zgarishi, gazeta lingvistikasi.

# CLASSIFICATION STAGES OF "XALQ SO'ZI" NEWSPAPER TEXTS BY PERIOD

**Mirzarahimov Bahodir Shavkat oglu**
second year master's student of the Department
of Computer Linguistics and Applied Linguistics,
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

**Abstract.** This article provides a detailed analysis of the process of classifying the texts of the Xalq So'zi newspaper by period. The study covers the stages of creating a newspaper corpus, including text collection, editing, morphological analysis, classification, and metadata creation. Periodic classification of texts helps to examine various historical, political, and cultural changes and determine how linguistic changes have influenced newspaper materials. This process also analyzes the methods of information dissemination in different periods of the Xalq So'zi newspaper and its role in society. The study also addresses issues such as ensuring the representativeness of the newspaper corpus, monitoring lexical changes, and preserving texts in electronic format. The research findings provide valuable information for linguistic, historical, and sociological studies.

**Keywords:** newspaper corpus, representativeness, metadata, lemmatization, morphological analysis, text classification, language change, newspaper linguistics.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N16

**Kirish**: Zamonaviy tadqiqotlarda gazeta matnlari lingvistik va ijtimoiy o'zgarishlarni o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Gazetalar jamiyatning turli bosqichlarida axborot tarqatish vositasi sifatida xizmat qilgan bo'lib, ular orqali tilning rivojlanish tendensiyalari,

tarixiy jarayonlar va siyosiy muhitni kuzatish mumkin. Ayniqsa, ma'lum bir davrga oid gazeta matnlarini tasniflash orqali oʻsha davrning dolzarb mavzulari, yondashuv uslublari va matnning tuzilishi haqida aniq tasavvur hosil qilish mumkin. Ushbu tadqiqotda "Xalq soʻzi" gazetasining matnlarini davr boʻyicha tasniflash jarayonlari oʻrganiladi. Gazeta matnlarini yigʻish, ularni morfologik va semantik jihatdan tahlil qilish, davrlar boʻyicha tasniflash hamda metama'lumotlar yaratish jarayonlari batafsil koʻrib chiqiladi. Shuningdek, gazeta matnlarining til va uslubiy xususiyatlari tahlil qilinib, ularning jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy oʻzgarishlar bilan qanday bogʻliq ekani aniqlanadi. Gazeta matnlarining davriy tasnifi ularning lingvistik va sotsiologik tahlilini chuqurroq oʻrganishga imkon beradi. Tadqiqot davomida matnlarning tarixiy kontekst bilan bogʻliqligi, leksik va uslubiy oʻzgarishlar hamda matnlarning elektron shaklda saqlanishi kabi masalalar koʻrib chiqiladi. Ushbu tahlillar nafaqat tilshunoslik balki tarix, sotsiologiya va media tadqiqotlari uchun ham dolzarb ahamiyatga ega boʻlib, kelajakdagi ilmiy izlanishlar uchun muhim manba boʻlib xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili:** Gazeta korpuslari lingvistik va ijtimoiy tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi. Turli tillarda yaratilgan gazeta korpuslari tahlil qilingan boʻlib, ular orasida British National Corpus, New York Times Corpus va The Guardian Corpus kabi yirik loyihalar mavjud. Tadqiqotlarda gazeta matnlarini tasniflash jarayonlari, metama'lumot yaratish va leksik oʻzgarishlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, Norvegiya gazeta korpusi misolida gazeta matnlarini tasniflash va morfologik tahlil qilish jarayonlari koʻrib chiqilgan. Ushbu manbalar gazeta tilining rivojlanishi va matnlarning davriy oʻzgarishini oʻrganishda qoʻllanilgan.

**Gazeta korpusi** — bu gazeta matnlaridan tashkil topgan katta hajmdagi matnlar toʻplami boʻlib, u tilshunoslik, korpus lingvistikasi, semantika va boshqa sohalarda ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun ishlatiladi. Gazeta korpuslari turli yillarda chop etilgan gazeta maqolalarini oʻz ichiga olishi mumkin va ularni analiz qilish orqali bir nechta foydali ma'lumotlar olish mumkin.

Gazetalar koʻpincha tilning oʻzgarishini tez koʻrsatadigan va zamonaviy voqealarni aks ettiruvchi manbalar boʻlib, ular orqali jamiyatning fikrlash tarzidagi oʻzgarishlarni kuzatish mumkin. **Gazeta korpuslariga misollar**:

**British National Corpus (BNC)** – bu ingliz tilidagi keng qamrovli korpus boʻlib, unda gazeta maqolalari ham mavjud.

**New York Times Corpus** – bu korpusda New York Times gazetasidan olingan matnlar mavjud boʻlib, u tilshunoslik tadqiqotlari uchun ishlatiladi.

**The Guardian Corpus** – bu korpusda The Guardian gazetasidagi maqolalar va matnlar mavjud. Bu turdagi korpuslar gazetalarning tilini, mavzularini va uslubini tahlil qilishda juda foydalidir.

**Norvegiya gazeta korpusi (NNC)**– bu zamonaviy norveg tilini, uning yozma turlarini, Bokmål va Nynorsk tillarini aks ettiruvchi katta monitor korpusini yaratish tashabbusidir. Korpus Norvegiya gazetalarning onlayn nashridan har kuni chop etilgan matnlarni yigʻish va qayta ishlash orqali tuzilgan.[1]

Norvegiya gazeta korpusi — Bergen universitetida amalga oshirilgan loyiha boʻlib, unda yangiliklar saytlaridan yangilik maqolalari yigʻilgan.Ushbu Norvegiya gazeta korpusining versiyasi 1998-2019 yillarga oid matnlardan iborat. Korpusda Norvegiya Bokmål tili uchun taxminan 1,68 milliard soʻz, Norvegiya Nynorsk tili uchun esa taxminan 68 million soʻz mavjud.Shuningdek, korpusning soddalashtirilgan versiyasi (1998-2011) mavjud boʻlib, unda

takrorlanuvchi jumlalar olib tashlangan va jumlalar alifbo tartibida joylashtirilgan.1998-2011 yillar orasidagi matnlar bitta yuklab olish faylida toʻplangan, boshqa yillar boʻyicha ma'lumotlar esa har bir yil uchun alohida fayllar sifatida tuzilgan[2].

**Gazeta korpusini yaratishning asosiy bosqichlari**[3]:

1. ***Ma'lumot toʻplash:*** Gazetalar matnlarini yigʻish, ma'lum bir davr yoki mavzuga oid maqolalar toʻplamini tashkil qilish. Bu jarayon odatda avtomatik tizimlar yordamida amalga oshiriladi, ya'ni onlayn gazeta saytlaridan yoki elektron arxivlardan ma'lumotlar toʻplanadi.

2. ***Matnni tozalash va tahrirlash:*** Toʻplangan matnlar notoʻgʻri yozilgan, xato yoki takrorlangan qismlardan tozalanadi. Matnni tozalashda ma'lum bir standartlarga muvofiq tahrir qilish va qayta ishlash jarayoni amalga oshiriladi.

3. ***Lemmatizatsiya va morfologik tahlil:*** Matnni analiz qilishda lemmatizatsiya (soʻzning asosiy shakliga keltirish) va morfologik tahlil (soʻzning tuzilishini oʻrganish) yordamida matndagi soʻzlarni tekshirish va tuzish ishlari amalga oshiriladi.

4. ***Kategoriyalash:*** Gazetadagi matnlar mavzu, vaqt, geografik joylashuv, yoki boshqa ijtimoiy va siyosiy parametrlar boʻyicha tasniflanadi. Masalan, maqolalar siyosat, iqtisodiyot, madaniyat kabi kategoriyalar boʻyicha ajratilishi mumkin.

5. ***Metama'lumotlar yaratish:*** Har bir matn uchun ma'lumotlar (muallif, sana, mavzu, sarlavha va h.k.) toʻplanib, metama'lumotlar shaklida saqlanadi.

6. ***Tahlil va xulosalar chiqarish:*** Yigʻilgan ma'lumotlar asosida turli tahlil usullarini qoʻllash, matnlarni solishtirish, va ulardan xulosalar chiqarish.

Gazetalar — bu iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tizimlar va tartiblarni tashkil etish va saqlash uchun zarur boʻlgan axborot, ishonch yoki dalillarni yaratish uchun "h dominat ijtimoiy soha" hisoblanadi[4].

Materiallarni yigʻish jarayonida, Unicode standarti yoʻqligi sababli turli ishlab chiqaruvchilarning shriftlari ishlatilganligi tufayli ba'zi muammolar yuzaga keldi. Shriftdagi belgilar oʻrtasida kodlashning har xil boʻlishi va boshqa kodlashlar bilan toʻgʻrilangan belgilar mavjud edi.

Raqamli shakldagi gazeta toʻplamlari gumanitar va ijtimoiy fanlar, shuningdek, boshqa sohalardagi tadqiqotchilar uchun muhim ma'lumotlar manbai hisoblanadi[5]. Ular tarix, media va aloqa tadqiqotlaridan tortib, leksikografiya kabi xronologik izlanishlar uchun ayniqsa foydalidir. Gazeta korpuslari neologizmlar va boshqa leksik hodisalarni oʻrganish uchun boy materiallar taqdim etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi:** "Xalq soʻzi" gazetasining matnlarini davr boʻyicha tasniflashda bir necha asosiy bosqichlar amalga oshirildi. Birinchi bosqichda gazeta matnlari toʻplanib, ularning tarixiy kontekstiga qarab ajratildi. Keyingi bosqichda matnlar tahrir qilinib, ortiqcha ma'lumotlardan tozalandi. Lemmatizatsiya va morfologik tahlil yordamida matnlarning lingvistik xususiyatlari oʻrganildi. Davrlar boʻyicha tasniflash jarayonida matnlar siyosiy, iqtisodiy va madaniy mavzular asosida guruhlandi. Yakuniy bosqichda esa tahlil natijalari elektron shaklda saqlanib, matnlarning raqamli arxivi yaratildi.

"Xalq soʻzi" gazetasining matnlarini davriy tasniflash bosqichlari, asosan, quyidagi jarayonlarni oʻ ichiga oladi:

1. ***Matnlarni yigʻish va tahlil qilish:*** "Xalq soʻzi" gazetasining matnlarini davriy tasniflashda birinchi qadam – matnlarni yigʻishdir. Bu bosqichda, gazeta arxivlari yoki raqamli manbalar yordamida gazetaning nashr etilgan barcha sonlari toʻplanadi. Har bir sonning

matnlari, qismlariga, boʻlimlarga, maqolalarga ajratiladi va ularning davriy kontekstiga qarab tasniflanadi. Bu yerda matnlarning vaqti, mavzusi, janri va tili muhim oʻrin tutadi.

2. ***Davrlarni aniqlash va belgilash:*** "Xalq soʻzi" gazetasining matnlarini tasniflashda muhim bosqichlardan biri – davrlarni aniqlashdir. Gazetaning tarixiy rivojlanishini oʻrganish uchun matnlarni turli davrlarga boʻlish kerak. Davrlarni aniqlashda, gazetaning siyosiy yoki iqtisodiy oʻzgarishlarga boʻlgan reaksiyalarini va umumiy jamiyatdagi oʻzgarishlarni hisobga olish zarur. Misol uchun, Sovet Ittifoqi davri, mustaqillik davri, iqtisodiy krizislar yoki boshqa muhim tarixiy voqealar asosida davrlar tasniflanadi.

3. ***Matnlarning reprezentativligini aniqlash:*** Davriy tasniflashda matnlarning reprezentativligini aniqlash ham muhim bosqichdir. Reprezentativlik, gazetaning oʻz davri yoki ijtimoiy jarayonini toʻgʻri aks ettirishi bilan bogʻliq. Matnlarning reprezentativligini aniqlash uchun, maʼlum bir davrda ommaviy ravishda eʼlon qilingan materiallar, asosiy mavzular, til va uslubga eʼtibor qaratish kerak. Har bir davrda gazetaning yoritgan asosiy mavzulari, masalan, siyosat, ijtimoiy tenglik, iqtisodiy masalalar, madaniyat va sanʼat kabi sohalarda matnlar tanlab olinadi.

4. ***Davriy oʻzgarishlar va yondoshuvlarni tahlil qilish:*** "Xalq soʻzi" gazetasining matnlarini tasniflashda davriy oʻzgarishlar va gazetaning yondoshuvlarini tahlil qilish zarur. Gazetaning har bir davrida ijtimoiy, siyosiy yoki madaniy kontekstga qarab matnlar oʻzgarib borgan. Bu bosqichda, matnlarning tiliga, uslubiga, ishlatilgan lugʻatga eʼtibor qaratish kerak. Shuningdek, davrlar oʻrtasidagi farqlarni koʻrsatadigan tahlil, gazetaning yoritgan asosiy mavzularidagi oʻzgarishlarni ham koʻrsatadi.

5. ***Matnlarni elektron shaklda tasniflash va saqlash:*** Matnlarni davr boʻyicha tasniflashda soʻnggi bosqich elektron tasniflash va saqlashdan iborat. Bu jarayon, gazetaning raqamli arxivini yaratish va uni izlash imkoniyatlarini kengaytirish uchun zarurdir. Elektron shaklda saqlangan matnlar, turli soʻrovlar va tahlillar uchun qulay boʻladi. Bu, ayniqsa, ilmiy tadqiqotlar va tilshunoslik, tarixiy tadqiqotlar uchun juda foydali boʻladi. Matnlarni saqlashda ularni toʻgʻri tasniflash va kataloglash zarur.

6. ***Natijalarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish:*** Davriy tasniflashning yakuniy bosqichida, tahlil qilingan matnlar asosida xulosalar chiqariladi. Bu xulosalar, gazetaning tarixiy davrlarda qanday ijtimoiy, siyosiy va madaniy oʻzgarishlarga taʼsir koʻrsatganini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, gazetaning til va uslubi qanday oʻzgarganini va uning jamiyatdagi rolini oʻrganish mumkin.

**Tahlil va natijalar:** Tahlil natijalari shuni koʻrsatdiki, "Xalq soʻzi" gazetasining matnlari turli tarixiy davrlarda jamiyatning ijtimoiy va siyosiy holatini aks ettirgan. Mustaqillikdan oldingi va keyingi davr matnlarini solishtirish orqali til uslubi, leksik tarkib va mavzular boʻyicha sezilarli oʻzgarishlar kuzatildi. Shuningdek, gazeta matnlarining muayyan davrlar uchun reprezentativligi aniqlanib, asosiy mavzular va muhokama qilingan masalalar belgilandi. Matnlarning davriy tasniflash jarayoni natijasida, gazetaning turli davrlardagi axborot yondashuvi va uslubi farqlari tahlil qilindi.

"Xalq soʻzi" gazetasining matnlarini davr boʻyicha tasniflash bosqichlari gazeta korpusini tizimli va puxta tahlil qilish uchun zaruriy jarayonlarni oʻz ichiga oladi. Birinchi bosqichda gazeta matnlari tanlanadi va ular tarixiy va madaniy kontekstda ahamiyatli boʻlgan davrlar boʻyicha tasniflanadi. Bu jarayon matnlarning nashr etilgan yili, mavzu va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatiga qarab amalga oshiriladi.

Ikkinchi bosqichda matnlarni oldindan qayta ishlash amalga oshiriladi. Bu bosqichda matnlar formatlash, tinish belgilarini toʻgʻrilash va kerakli boʻlmagan elementlarni olib tashlash orqali tahlilga tayyorlanadi. Shuningdek, matnlarni tokenizatsiya qilish, yaʼni alohida soʻzlar va maʼno birliklariga ajratish ham muhim hisoblanadi.

Uchinchi bosqichda matnlarni annotatsiya qilish jarayoni boshlanadi, bu esa matnlar ustida ishlov berish va turli sintaktik yoki semantik teglar qoʻshish orqali amalga oshiriladi. Har bir soʻzning gapdagi roli va uning maʼnosi aniq belgilangan teglar bilan koʻrsatiladi. Nihoyat, toʻplangan va annotatsiya qilingan matnlar bitta korpusga jamlanadi. Bu korpus ilmiy tadqiqotlar va tahlil qilish uchun qulay muhit yaratadi, va matnlar taqqoslanishi, tahlil qilinishi va yangi xulosalar chiqarilishi uchun imkoniyat yaratadi.

**Muhokama:** Gazeta matnlarini davr boʻyicha tasniflash ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Ushbu jarayon orqali tilning rivojlanish tendensiyalari, ijtimoiy muammolar va siyosiy oʻzgarishlarning matnlarga taʼsiri oʻrganildi. “Xalq soʻzi” gazetasining turli davrlardagi matnlarini solishtirish orqali jamiyatdagi oʻzgarishlar haqida muhim maʼlumotlar olish mumkinligi aniqlandi. Shuningdek, gazeta tili va uslubining davriy oʻzgarishi lingvistik tadqiqotlar uchun qimmatli material sifatida baholandi. Elektron arxiv yaratish esa kelajakdagi tadqiqotlar uchun muhim manba boʻlib xizmat qiladi.

**Xulosa:** “Xalq soʻzi” gazetasining matnlarini davr boʻyicha tasniflash natijalari gazeta matnlarining tarixiy, siyosiy va madaniy oʻzgarishlarga bogʻliqligini koʻrsatdi. Ushbu jarayon orqali gazeta tilining evolyutsiyasi va jamiyatdagi oʻzgarishlar aks etishi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari gazeta matnlarini ilmiy oʻrganish va tahlil qilishda yangi yondashuvlarni taklif etadi. Matnlarning davriy tasnifi kelajakda boshqa gazeta va matn korpuslarini oʻrganishda ham qoʻllanilishi mumkin. Bu tadqiqot natijalari lingvistik, tarixiy va sotsiologik tadqiqotlar uchun muhim manba boʻlib xizmat qiladi.

## Adabiyotlar/Литература/References:

1. https://www.nb.no/sprakbanken/en/resource-catalogue/oai-nb-no-sbr-4/
2. Andersen, Gisle and Hofland, Knut. "Building a large corpus based on newspapers from the web". Exploring Newspaper Language: Using the web to create and investigate a large corpus of modern Norwegian, edited by Gisle Andersen, John Benjamins Publishing Company, 2012, pp. 1-28. https://doi.org/10.1075/scl.49.01
3. Заморщикова Л.С. Ассоциативный тезаурус якутского языка // Гуманитарные научные исследования. – 2014. – № 2 [Электронный ресурс]. URL: http://human.snauka.ru/2014/02/6027 (дата обращения: 19.06.2015).
4. Fairclough, N.. Critical discourse analysis: the critical study of language. Second Editon,Routledge, http://dx.doi.org/10.4324/9781315834368
5. S. Kübler, H. Zinsmeister. “Corpus Linguistics and Linguistically Annotated Corpora.” Bloomsbury. 312 pp, 2015. ISBN: 978-1-4411-6447-6
6. http://uzbekcorpus.uz
7. https://uzbekcorpus.uz/multimedia
8. https://www.english-corpora.org/coca/

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# INGLIZ VA OʻZBEK TILLARIDA SHOULDER/YELKA, ELBOW/TIRSAK HAMDA WRIST/BILAK SOMATIK KOMPONENTLI MAQOLLARNING KONSEPTUAL TAHLILI

**Boboqulova Nilufar Xayrullo qizi**
Termiz davlat pedagogika instituti
"Amaliy ingliz tili" kafedrasi oʻqituvchisi
E-mail: boboqulovanilufar237@gmail.com

**Annotatsiya.** Har bir xalq maqollari – uning koʻp asrlik donishmandligi va hayotiy tajribasining siqiq ifodasidir. Maqollar qisqa va obrazli iboralar orqali xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy norma-talablarini aks ettiradi. Xususan, tana aʼzolariga oid somatik iboralar maqollarda koʻp qoʻllaniladi – bular yelka (shoulder), tirsak (elbow), bilak (wrist/forearm) kabi soʻzlarni oʻz ichiga olgan metaforik ifodalardir. Somatik metaforalar insonning jismoniy tajribasini abstrakt tushunchalarni ifodalashda qoʻllashga asoslanadi; yaʼni, inson tanasi oddiy va tushunarli manba sifatida foydalanilib, murakkab maʼnaviy yoki ijtimoiy mazmunni yetkazadi. Maqollardagi bunday jismoniy obrazlar orqali xalq mentaliteti va madaniyati oʻz ifodasini topadi.

**Kalit soʻzlar:** Maqol, somatik metafora, tana aʼzolari, konsept, tilshunoslik, frazeologizm, ibora, izoh, obraz, madaniyat.

# CONCEPTUAL ANALYSIS OF PROVERBS WITH THE SOMATIC COMPONENT SHOULDER/YELKA, ELBOW/TIRSAK HAMDA WRIST/BILAK IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

**Bobokulova Nilufar Xayrullo qizi**
Teacher of the Department of "Practical English"
of the Termez State Pedagogical Institute

**Abstract.** The proverbs of any nation represent a condensed expression of its centuries-old wisdom and life experience. Through brief and figurative phrases, proverbs reflect the worldview, values, and social norms and expectations of the people. In particular, somatic expressions related to body parts are frequently used in proverbs—these include metaphorical phrases involving words such as shoulder, elbow, and wrist/forearm. Somatic metaphors are based on the use of human physical experience to express abstract concepts; in other words, the human body is employed as a simple and understandable source to convey complex spiritual or social meanings. Through such physical imagery in proverbs, a nation's mentality and culture find their expression.

**Keywords:** Proverb, somatic metaphor, body parts, concept, linguistics, phraseologism, expression, interpretation, imagery, culture.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N17

**Kirish.**

Ushbu maqolada ingliz va oʻzbek tillaridagi yelka, tirsak va bilak bilan bogʻliq maqollar qiyosan oʻrganiladi. Bu tanlov bejiz emas: aynan yelka odatda yuk koʻtarish, masʼuliyat va yordam kabi tushunchalar bilan bogʻliq; tirsak – baʼzan afsus-nadomat yoki yaqinlik/masofa kabi maʼnolarni beradi; bilak esa jismoniy kuch va mehnat timsoli sifatida namoyon boʻlishi mumkin. Maqolada ushbu somatik komponentli maqollar strukturasi va mazmuni tahlil qilinib, ularning metaforik hamda madaniy maʼnolari sharhlanadi. Ingliz va oʻzbek tillaridagi ifodalarning oʻxshash va farqli jihatlari koʻrsatilib, ularning ortidagi kognitiv asoslar va ijtimoiy madaniy kontekst ochib beriladi.

Maqolada ingliz va oʻzbek maqollar kontrastiv (qiyosiy) usulda solishtirilib, ularning oʻxshashlik va tafovutlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Bunda semantik va pragmatik farqlariga eʼtibor qaratildi: bir xil somatik obraz ikki tilda bir xil konseptual maʼno beradimi yoki har xil mazmun yuklatilganmi, ularning qoʻllanish doirasi va tarbiyaviy xulosasi qanchalik farq qiladi. Shuningdek, maqollarni yuzaga keltirgan ijtimoiy-madaniy omillar – xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, tarixiy anʼanalari – mazkur iboralardagi obrazlilikka qanday taʼsir etgani muhokama qilindi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.**

Tahlil jarayonida kognitiv tilshunoslik nazariyasidan, xususan, Lakoff va Jonson tomonidan ilgari surilgan "tananing tajassumi" (embodiment) gʻoyasidan foydalangan holda, metaforalar orqali insoniy tajriba va tafakkur bogʻliqligi yoritildi. Shuningdek, konseptual metafora metodi yordamida har bir maqoldagi tanaga oid unsur qaysi maʼnodagi koʻchma aloqa vositasi ekani aniqlab berildi.

***Yelka obrazli maqollar.*** Yelkaga oid maqollar har ikki tilda muhim maʼnaviy yuk tashuvchi obrazdir. Yelka odatda *yuk koʻtarish, masʼuliyatni zimmasiga olish*, yoki *yonma-yon turib yordam berish* maʼnolarini anglatadi. Ingliz tilida "shoulder" ishtirokidagi bir qancha iboralar keng tarqalgan: masalan, *"to shoulder a burden"* (*yelkasiga yuk olish*, yaʼni *masʼuliyatni oʻz zimmasiga olish*), *"carry the weight of the world on one's shoulders"* (yelkasida butun dunyo yukini koʻtarib yurmoq, yaʼni oʻta katta tashvish va majburiyatga ega boʻlmoq) kabi. Bu iboralar yelkani metaforik tarzda masʼuliyat va tashvishlarni koʻtaruvchi tayanch nuqta sifatida tasvirlaydi. Xuddi shunday, oʻzbek tilida ham *"yelkasiga yuk olmoq"*, *"yelkasida togʻ koʻtarib yurgandek"* kabi iboralar ogʻir majburiyatni koʻtarish maʼnosida qoʻllanadi. Demak, har ikki tilda "Masʼuliyat – yuk" konseptual metaforasi yelka orqali ifodalanadi, bu esa inson tasavvurlarida yelkaga yuk ortish hayotiy sinovlarga metafora boʻlib xizmat qilishini koʻrsatadi [1].

Bundan tashqari, yelka obrazi *yordam va birdamlik* tushunchalarini ham bildiradi. Inglizchada *"shoulder to shoulder"* iborasi bor boʻlib, bu *"yelkama-yelka"* degani – yaʼni birov bilan yonma-yon, bir safda turib harakat qilish, hamkorlikda ishlash. Masalan, *"They stood shoulder to shoulder in the battle"* – *"Ular jangda yelkama-yelka turdilar"* – bu birlik va birdamlik ramzidir. Oʻzbek tilida xuddi shu yelkama-yelka iborasi bevosita qoʻllanadi va xalqimiz orasida *"yelkadosh"* soʻzi ham mavjud boʻlib, u yaqin doʻst, tayinchoq maʼnosini anglatadi (yelkasi birga boʻlgan kishi, yaʼni har vaziyatda yonma-yon turuvchi doʻst). Demak, yelka ham ingliz, ham oʻzbek tillarida "Yordam – yonma-yon turish" gʻoyasini ifodalovchi obrazdir.

Biroq ingliz va oʻzbek tillarida yelka bilan bogʻliq baʼzi iboralar keskin farqlanadi. Ingliz tilida *"to give someone the cold shoulder"* degan maqol boʻlib, kimnidir *"sovuq yelka bilan kutib olish"*, yaʼni qasddan bepisand munosabatda boʻlish, mensimaslikni bildiradi. Ushbu

frazeologizm qadimgi odatga borib taqaladi: aytilishicha, oʻrta asrlarda mezbon noxush mehmoniga iliq goʻsht emas, sovuq yelka goʻshti tortib, unga e'tiborsizlik koʻrsatgan. Hozirda bu ibora *"qasddan e'tiborsiz qoldirmoq"* ma'nosida ishlatiladi [2]. Oʻzbek tilida esa yelka bilan bunday ma'noni bildiradigan maxsus ibora yoʻq – mensimaslikni ifodalash uchun *"yuz oʻgirmoq"* (yuzini chirish, e'tibor bermaslik) deyiladi. Demak, "sovuq yelka" metaforasi ingliz tiliga xos boʻlib, oʻzbek tilida bu bevosita yelka orqali ifodalanmaydi – bu ikki xalq madaniyatidagi farqli odob-me'yorlarni aks ettiradi (inglizcha iborada mehmonnavozlikda sovuq goʻsht berish bilan kinoya qilingan).

**Muhokama.**

Yelka obrazi atrofidagi yana bir qiziqarli farq – *"chip on one's shoulder"* iborasidir. Ingliz tilida *"to have a chip on one's shoulder"* – kimningdir yelkasida "yonga yogʻoch boʻlagi" olib yurishi – degan ibora mavjud boʻlib, *tajanglik* yoki *hanuz eski ginalarni ichida saqlab yurish* ma'nosini anglatadi. Bunday odam har lahza janjalga tayyor, hammaga xusumat koʻzi bilan qaraydi. Bu ibora tarixiy jihatdan 19-asr Amerikasi urf-odatiga borib taqaladi: kimdir bilan mushtlashmoqchi boʻlgan yigit yelkasiga bir yogʻoch parchasini qoʻyib, birov uni uchirib yuborishini kutgan – bu janjalga chaqiriq edi. Hozir "chip on shoulder" metaforasi orqali kishi oʻzini hammadan ranjigan, doimo kurashga shay tutayotgan holat tasvirlanadi. Oʻzbek tilida esa yelkaga oid bunday mazmundagi maqol yoʻq. Bu holat, masalan, *"koʻnglida gina saqlamoq"* kabi iboralar bilan ifodalanadi, lekin tana a'zosi orqali emas. Ushbu farq ingliz jamiyatidagi individuum gʻururi va moʻljallangan tajovuzkorlik tushunchasi oʻz ifodasini topganini koʻrsatadi. Oʻzbek madaniyatida esa bunday holatlarni bevosita ifodalash kamroq boʻlib, koʻproq yumshoqroq, kontekstual ifodalar mavjud.

Oʻzbek maqollarida yelka obrazining yana bir ahamiyatli jihati – *kuyunchaklik va meros* tushunchasi bilan bogʻliq qoʻllanishidir. Masalan, *"Yelka yagʻri – otaga meros, ota yagʻri – oʻgʻilga meros"* degan maqol bor [2]. Bu yerda "yagʻri" – bu yelkaning yara boʻlib qotgan qismi (odatda ogʻir yuk koʻtaraverish natijasida ot yoki tuyada paydo boʻladigan qadoq). Maqolning ma'nosi shuki, ota bosib oʻtgan mashaqqatli yoʻl, uning yelkasidagi yarasi – mehnat va azoblari – baribir oʻgʻilga ham meros boʻlib oʻtadi. Avlodlar davomiyligi va mehnat merosi gʻoyasi shu obraz orqali berilgan. Ingliz tilida toʻgʻridan-toʻgʻri yelka bilan aytiladigan bunday maqol topilmaydi, lekin mazmun jihatidan ma'lum *"Like father, like son"* ("Otaga qarab oʻgʻlini tani") degan naqlga toʻgʻri keladi. Demak, oʻzbek tilida yelka obrazi nafaqat individual yuk yoki birdamlik, balki *avloddan-avlodga oʻtuvchi an'ana va mas'uliyat* ma'nolarini ham ifodalay oladi. Bu orqali oʻzbek xalqining oilaviy merosga, otadan oʻgʻilga oʻtadigan mehnat va matonat maktabiga e'tibori namoyon boʻladi.

Yuqoridagi tahlildan koʻrinib turibdiki, ***yelka*** obraziga oid asosiy metaforalar har ikki tilda mas'uliyatni yuk sifatida tasavvur qilish va birlikni yonma-yon yelka sifatida tasvirlashda uchrashini koʻrdik. Shu bilan birga, ayrim madaniy xos ifodalar faqat bir tillarga oid: masalan, "sovuq yelka" va "yelka yagʻri meros" kabi tushunchalar. Bu esa xalqlarning tarixiy va ijtimoiy tajribasi qanday qilib oʻxshash jismoniy obrazga turlicha ma'no yuklashini koʻrsatadi.

***Tirsak obrazli maqollar.*** Tirsak (elbow) somatik komponenti ishtirokidagi maqollar va iboralar ingliz va oʻzbek tillarida anchagina farqlanadi. Ingliz tilida tirsak bilan bogʻliq bir qancha idiomatik iboralar mavjud boʻlsa-da, ular koʻpincha jismoniy masofa yoki harakat erkinligi, shuningdek, muloqot va mehnat bilan bogʻliq. Oʻzbek tilida esa tirsak obrazi asosan afsuslanish va armon bilan bogʻliq noyob metaforada namoyon boʻladi:

Birinchidan, oʻzbek tilida juda mashhur *“Tirsakni tishlab boʻlmas”* maqoli mavjud [4]. Bu ibora soʻzma-soʻz “Oʻz tirsagingni tishlab boʻlmaydi” degani boʻlib, maʼnosi – “koʻz oldinda turgan, ammo qoʻl yetmaydigan orzu yoki narsa haqida” aytiladi [3]. Haqiqatan ham, inson oʻz tirsagini chaqmoqchi boʻlsa, u ogʻziga yetkazib olmaydi – bu erishib boʻlmas orzu yoki kech qolganda qilinajak behuda pushaymonning ramziy ifodasidir. Mazkur maqol odatda quyidagi kengroq konteksda keltiriladi: *“Tirsakni tishlab boʻlmas, tishing borida tishlab qol; kuching borida ishlab qol.”* Yaʼni, “Inson oʻz tirsagini tishlay olmaydi (yaʼni kech boʻlganda armon qiladi), shu sababli tishing sogʻlom paytida chaqib qol, kuching borida mehnat qilib qol”. Bu hikmat orqali oʻzbek xalq maqoli fursatni boy bermaslik, vaqtida harakat qilish kerakligini uqtiradi – aks holda kech boʻlgach, tirsak tishlashdan boshqa chora qolmaydi (pushaymonning foydasi yoʻq). Demak, oʻzbek tilida tirsak obrazi orqali afsus va armon konsepti kuchli ifodalangan.

The technology of cooperation also belongs to modern technologies. The main idea is to create conditions for students to actively collaborate in various learning environments. Children are grouped into groups of 3-4 people, they are given one task, and the role of each is discussed. Each student is responsible not only for the result of their work, but also for the result of the entire group. That's why weak students try to identify what they don't understand from what isn't strong, and strong students try to give weak students a complete understanding of the assignment. And the whole class will benefit from this because the gaps will be closed together [3].

**Conclusion.** The introduction of information technology in education significantly diversifies the process of perception and processing of information. Thanks to the computer, the Internet and multimedia, students have a unique opportunity to assimilate large amounts of information with subsequent analysis and sorting. The motivational foundations of educational activities are also significantly expanded. In terms of using multimedia, students receive information from newspapers, television, conduct interviews themselves, and hold teleconferences.

The main criterion for assessing the level of proficiency in a foreign language in the language portfolio technology is testing. The priority of this technology is teacher-to-student education. The student, in turn, is consciously responsible for the results of his cognitive activity. The above technology leads to the gradual formation of students' self-learning skills. In general, the language portfolio is multifunctional and contributes to the development of multilingualism.

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Abasov Z. A. Student as a subject of pedagogical technology. 2001. — № 2. — P. 39-44.
2. Allayarova S. N. Pedagogik technologiyalar va aktlarni qo'llash oliy ta'lim sifatini oshirish omili sifatida. Journal of social research, (6). 2019.
3. Ashurova D.U. Teaching linguistic disciplines in a language university.Collection of scientific papers based on the materials of the Fourth International Scientific and Practical Conference (Voronezh, February 19-20, 2019.
4. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – London. 2001.
5. Johnson K. E. The Sociocultural Turn and Its Challenges for Second Language Teacher Education. // TESOL Quarterly. – London. 2006.
6. Volkov Yu. Traditional and new learning technologies: The principle of complementarity. Higher education in Russia. – 2003. — P 35-43.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# TILSHUNOSLIKDA TERMINOLOGIYANING XUSUSIYATLARI

**Berdimurotova Sevara Maxmudovna**
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Xorijiy til va adabiyoti kafedrasi oʻqituvchisi
E-mail: sevaseva864@gmail.ru

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tilshunoslikda terminologiyaning ilmiy mohiyati, leksik-semantik va struktur xususiyatlari, ilmiy tildagi funksional roli va ixtisoslashgan sohalarda qoʻllanilish mezonlari haqida soʻz yuritiladi. Terminlar har bir ilmiy sohaga xos boʻlgan tushunchalarni ifodalovchi asosiy vosita boʻlib, tilshunoslikda ularning aniqligi, barqarorligi, monosemantikligi va tizimlilik xususiyatlari alohida ilmiy e'tiborni talab qiladi. Maqolada shuningdek, terminologik birliklarning koʻp tillilik sharoitida shakllanishi, oʻzlashuv darajalari va ularning lingvistik tipologiyasi masalalari tahlil etiladi.

**Kalit soʻzlar:** termin, terminologik tizim, ilmiy leksika, monosemiya, nominatsiya, konseptual aniqlik, koʻp tillilik, leksik izolyatsiya, semantik motivatsiya.

# FEATURES OF TERMINOLOGY IN LINGUISTICS

**Berdimurotova Sevara Maxmudovna**
Termez University of Economics and Service
Teacher of the Department of Foreign
Language and Literature

**Abstact.** This article discusses the scientific essence of terminology in linguistics, its lexical-semantic and structural properties, its functional role in scientific language, and the criteria for its use in specialized fields. Terms are the main means of expressing concepts inherent in each scientific field, and their accuracy, stability, monosemanticity, and systematicity in linguistics require special scientific attention. The article also analyzes the formation of terminological units in multilingual conditions, the levels of assimilation, and their linguistic typology.

**Keywords:** term, terminological system, scientific lexicon, monosemy, nomination, conceptual clarity, multilingualism, lexical isolation, semantic motivation.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N23

**Kirish.** Tilshunoslikda terminologiya — bu nafaqat maxsus soʻzlar majmui, balki har qanday ilmiy tafakkurning, sohaviy bilimlar tizimining leksik aksi sifatida qaraladi. Terminologik birliklar ilmiy tafakkur, ijtimoiy taraqqiyot va texnologik yuksalishlar bilan bevosita bogʻliq holda rivojlanadi, aniqlanadi va takomillashadi. Tilshunoslik fani doirasida terminologiyaga nisbatan ikki yoʻnalish mavjud: birinchisi, umumtil doirasida terminlarning shakllanishi va ishlatilishini oʻrganadigan lingvistik yondashuv; ikkinchisi esa, terminlarni tizim sifatida, ya'ni terminologik maydon, konseptual tuzilma va leksik-semantik izchillik

mezonlari asosida oʻrganishga qaratilgan kognitiv-terminologik yondashuvdir. Aynan ushbu ikkinchi yondashuv tilshunoslikda terminologiyaning murakkab va koʻp qirrali xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar sharhi.** Kudryavsev asarida lingvistik terminlarning ichki tizimlilik xususiyatlarini tahlil qilishga bagʻishlangan [1]. Muallif terminlarning paradigmatik va sintagmatik bogʻliqliklarini, ularning nazariyani ifodalashdagi rolini tahlil qilib, terminologiyani faqat leksik hodisa emas, balki ilmiy tushunchalarni aks ettiruvchi kognitiv model sifatida baholaydi. Maqola asosiy qismida keltirilgan terminlarning tizimlilik va konseptual maydon asosida tashkil topishi aynan shu manbaga tayangan holda yoritilgan.

Shmelyovning asari tilshunoslikda terminlar bilan bogʻliq umumiy muammolar — koʻp maʼnolilik, sinonimiya, xalqaro moslashuv, soha oraligʻi muammolarini chuqur ochib beradi [2]. Unda lingvistik atamalarning tabiati, tarixiy shakllanishi, ularning standartlashtirilishi muhim metodologik asosda bayon qilingan. Ushbu manba maqolaning monosemantiklik va semantik barqarorlik haqidagi fikrlarini mustahkamlovchi nazariy asos boʻlib xizmat qilgan.

Oʻzbekistonlik olim A. Hamraevning monografiyasi oʻzbek tilshunosligida terminlar shakllanishining lingvistik va tarixiy rivojlanish yoʻnalishlarini chuqur tahlil qiladi [3]. Xususan, oʻzbek tilida fonetika, morfologiya, leksikologiya va sintaksis sohalarida shakllangan milliy terminlarning genetik kelib chiqishi va struktur motivatsiyasi aniq koʻrsatib berilgan. Maqoladagi motivatsiyalangan nomlash, terminlarning milliy variantlari va ularning tizimlashtirilishi ana shu manbaga asoslangan.

R. Temmerman oʻz ishida anʼanaviy terminologiyaning chegaralarini kengaytiradi [5]. U terminlarning kognitiv tuzilmasini, maʼno shakllanishining dinamik tabiatini, prototipik tasniflar asosida tushuntiradi. Bu manbada terminlar faqat ilmiy leksika emas, balki konseptual fikrning ifodasi sifatida tahlil qilinadi. Maqolaning konseptual aniqlik, semantik motivatsiya va kategoriya ichidagi bogʻliqlik haqidagi yondashuvi aynan shu manbaning nazariy asoslariga tayanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil.** Terminologik birliklar tilshunoslik fanida konseptual aniqlik va leksik qatʼiylik mezonlari asosida ajralib turadi. Har qanday termin, eng avvalo, bitta maʼlum sohaga xos aniq tushunchani ifodalashi kerak. U umumiy til birliklaridan farqli oʻlaroq, konnotativ boʻyoqlarga ega boʻlmaydi, yaʼni ekspressivlik, emotsional ohang, subyektiv baho terminlarga xos emas. Shu sababli tilshunoslikda terminologiya leksik “neytrallik” tamoyiliga asoslanadi. Bu holat ayniqsa fonetika, morfologiya, sintaksis va semasiologiya kabi sohalarda aniq koʻzga tashlanadi. Masalan, “alofon”, “prefiks”, “sillabik strukturasi”, “transitivlik” kabi terminlar oʻz semasida faqat ilmiy konseptual maʼlumotni mujassamlashtiradi.

Tilshunoslikda terminlarning yana bir muhim xususiyati — bu monosemantiklikdir. Ilmiy termin iloji boricha yagona, noaniqlikdan xoli maʼnoga ega boʻlishi lozim. Biroq tabiiy tilning oʻziga xosligi tufayli bu holat doim ham mukammal amalga oshmaydi. Koʻp hollarda bitta termin turli kontekstlarda semantik siljishga uchraydi, yaʼni polisemik kengayish yuzaga keladi. Bu esa terminlarning ishlatilishida ehtiyotkorlikni talab etadi. Tilshunoslikda bunday holatlarda koʻpincha izohlovchi va chegaralovchi terminlar tizimiga murojaat qilinadi.

Terminlar har doim tizimli xususiyatga ega boʻladi. Ular alohida-alohida soʻz sifatida emas, balki bir-biri bilan semantik, morfologik va sintaktik jihatdan bogʻlangan komplekslar tarzida mavjud boʻladi. Masalan, “morfema”, “allomorf”, “morfologik variatsiya” kabi terminlar

bitta terminologik maydonga mansub boʻlib, ular bir-birini toʻldiradi, izohlaydi va tushuntiradi. Shu bois, har qanday lingvistik termin oʻzining tushunchaviy maydonida boshqa terminlar bilan oʻzaro tipologik bogʻlanishda boʻladi. Bu holat terminlarning kategoriya ichidagi va kategoriya oraligidagi munosabatlarini tashkil qiladi.

**Natijalar.** Tilshunoslikdagi terminlar nominatsiya motivatsiyasiga ham ega boʻladi. Bunda termin qanday nomlanganligi, u qanday belgilar asosida hosil qilinganligi, semantik modelda qanday tushunchaviy yondashuvlar mujassam ekani oʻrganiladi. Masalan, “transformatsion grammatika” atamasining oʻzi transformatsiya (oʻzgarish), grammatika (qoidaviy tuzilma) birliklaridan tuzilgan boʻlib, bu orqali Chomskiy nazariyasining asosiy printsipi — formal oʻzgarishlar vositasida til birliklarining hosil boʻlishi ifodalanadi. Bu esa shuni koʻrsatadiki, terminlar shunchaki tasodifiy atamalar emas, balki maʼlum kognitiv va semantik asoslar bilan bogʻliq nomlash vositalaridir.

Terminologiyaning yana bir oʻziga xos xususiyati — bu internatsional xususiyatga egaligidir. Aksariyat tilshunoslik terminlari lotin yoki yunon manbali boʻlib, ular xalqaro ilmiy muomalada yagona va barqaror maʼnoga ega. Bu holat ilmiy aloqa, tarjima, akademik almashinuvlar va metodologik moslashuv jarayonlarini sezilarli darajada yengillashtiradi. Misol uchun, “phoneme”, “syntax”, “etymology”, “lexicon” kabi atamalar ingliz, fransuz, nemis, rus, oʻzbek va boshqa tillarda deyarli bir xil koʻrinishda ishlatiladi. Shu sababli, lingvistik terminologiya koʻp tilli fanlararo kommunikatsiyaning strategik vositasi sifatida qaraladi.

Zamonaviy tilshunoslikda terminologiyaning tahliliga doir ilgʻor yondashuvlardan biri bu — terminlarning funksional-pragmatik xususiyatlarini oʻrganish tamoyilidir. Mazkur yondashuv terminlarni faqat statik leksik birlik sifatida emas, balki nutq faoliyatidagi pragmatik vazifani bajaruvchi kommunikativ vosita sifatida koʻradi. Bunda terminlar shunchaki atama emas, balki maʼlumot uzatuvchining intellektual pozitsiyasini, kommunikativ niyatini va adresatga nisbatan yoʻnaltirilgan strategiyasini ifodalovchi birlik sifatida baholanadi. Masalan, biror lingvistik maqolada “diskursiv marker”, “genderlashgan til”, “intertekstual oʻzlashuv” kabi atamalarning ishlatilishi muallifning muayyan ilmiy maktabga mansubligini, ijtimoiy-lingvistik yondashuvlarni qoʻllayotganini koʻrsatadi. Demak, terminologiya tilshunoslikda nafaqat semantik, balki ijtimoiy-pragmatik yuklamaga ham ega.

Bundan tashqari, terminlar til tizimida dinamik semantik muhitda faoliyat koʻrsatadi. Ular faqat bir marta belgilangan va barqaror qoladigan birliklar emas, balki vaqt oʻtishi bilan semantik siljishga uchrashi, yangi maʼno qatlamlari bilan boyishi yoki boshqa terminlar bilan interaktiv tarzda oʻzgarishi mumkin. Ayniqsa, yangi texnologiyalar, media muhit va sotsiolinguistik oʻzgarishlar fonida ayrim klassik terminlarning maʼnosi kengayadi yoki yangidan talqin qilinadi. Masalan, ilgari sof texnik atama boʻlgan “platforma” soʻzi bugun tilshunoslikda ham ijtimoiy, kommunikativ, hatto metaforik kontekstlarda qoʻllanmoqda. Bu holat lingvistik terminologiyaning kontekstga bogʻliq semantik harakatchanlik xususiyatini koʻrsatadi.

Yana bir muhim jihat — bu transdisiplinar terminlar masalasidir. Tilshunoslik fani koʻplab boshqa fanlar (psixologiya, sotsiologiya, falsafa, axborot texnologiyalari) bilan chegaradosh boʻlgani sababli, baʼzi terminlar bir vaqtning oʻzida bir necha soha tomonidan ishlatiladi. Masalan, “kommunikatsiya”, “identifikatsiya”, “kod”, “perseptsiya” kabi terminlar tilshunoslik bilan bir qatorda boshqa fan sohalarida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday terminlar turli fanlarda turlicha semantik yuklama bilan ishlatilgani uchun, ularning fanlararo

semantik muvofiqligi va kontekstual farqlanishi masalasi terminologik izchillik nuqtai nazaridan tahlil etilishi lozim.

Shuningdek, tilshunoslikdagi terminlarning yana bir oʻziga xos xususiyati — bu leksik izolyatsiya va normativ xatti-harakatlarga boʻlgan intilishidir. Terminlar koʻpincha umumtilga xos boʻlmagan strukturalarga ega boʻladi, ular oʻz morfologik xususiyatlari bilan umumiy soʻzlardan ajralib turadi (masalan, qoʻshma atamalar, qisqartmalar, xalqaro komponentlardan iborat birliklar). Bu ularning kommunikativ ishonchliligi va fan doirasidagi barqarorligini taʼminlaydi. Shu bilan birga, baʼzi hollarda bunday terminlar tilshunoslikdagi terminologik xususiyatni murakkablashtirib, oʻquvchida yoki oʻrganuvchida semantik tushunmovchilik keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, terminlarning didaktik mosligi va oʻquv yengilligi ham terminologik tizimning nazariy talablari qatorida koʻriladi.

**Xulosa va munozara.** Xulosa qilib aytganda, tilshunoslikda terminologiya nafaqat ilmiy tushunchalarni nomlovchi vosita, balki konseptual bilimlar, nazariy yondashuvlar va fanlararo munosabatlarning asosiy semantik maydonidir. Terminlar orqali tilshunoslik sohasidagi fikrlash izchil, aniqlashtirilgan va mantiqiy shaklga ega boʻladi. Ularning barqarorligi, aniq semantik chegaraga ega boʻlishi, monosemantik va tizimli boʻlishi ilmiy tafakkurning mustahkam asosiga aylanadi. Shuningdek, terminlar tilshunoslik fanini nafaqat ichki tizim, balki umumilliy va global kontekstda barqaror shakllanishiga xizmat qiluvchi asosiy komponentlardan biridir.

## Adabiyotlar/Литература/References:

1. Кудрявцев К.Ф. Лингвистическая терминология: структура и системность. — Москва: Наука, 2017. — 296 с.
2. Шмелёв Д.Н. Проблемы терминологии в языкознании. — Санкт-Петербург: Изд-во СПбГУ, 2019. — 212 с.
3. Хамраев А. Tilshunoslik terminologiyasining nazariy asoslari. — Toshkent: Fan, 2020. — 248 б.
4. Cabré M.T. Terminology: Theory, Methods and Applications. — Amsterdam: John Benjamins, 2019. — 247 p.
5. Temmerman R. Towards New Ways of Terminology Description. — Amsterdam: John Benjamins, 2010. — 276 p.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR – LEGAL SCIENCES

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# VASIYATNOMANING OG'ZAKI SHAKLI VA UNI TUZISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYA VOSITALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

**Kuchimova Shaxlo**
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada bir qator xorijiy davlatlarning og'zaki vasiyatnoma kabi vasiyatnoma shaklini amalga oshirish tajribasi va kelajakda ushbu shaklni milliy qonunchilikda qo'llash imkoniyati ko'rib chiqiladi. Shuningdek, vasiyatnoma tuzishda audio va video-raqamli uskunalardan foydalanish imkoniyati, vasiyat qiluvchining so'nggi irodasini ushbu usulda yozib olishning qonuniyligi va huquqiyligi muhokama qilinadi. Xususan, meros huquqiy munosabatlari doirasida mulkni tasarruf etishning dolzarb shakli sifatida videoyozuvdan foydalanish tahlil qilinadi.
Amaldagi qonunchilikka noan'anaviy vasiyatnoma shakllarini joriy etish qismida o'zgartirishlar kiritish zarurligi haqida xulosa chiqarilgan. Shuningdek, raqamli uskunalarni, bunday uskunalarning imkoniyati va foydaliligi nuqtai nazaridan va vasiyat qiluvchining so'nggi irodasini bajarish imkoniyati o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq qiladigan loyihalar zarurligi to'g'risida xulosa chiqarilgan.

**Kalit so'zlar:** Vasiyatnoma, vasiyatnoma shakli, og'zaki vasiyatnoma, ovozli yozuv shaklidagi vasiyatnoma, videovasiyatnoma, iPhone telefonidagi vasiyatnoma, yangi texnologiyalar.

# THE ORAL FORM OF A WILL AND THE PROSPECTS OF USING MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN ITS DRAFTING

**Kuchimova Shakhlo**
Independent Researcher at Tashkent
State University of Law

**Abstract.** This article examines the practice of implementing the oral form of a will in several foreign countries, as well as the possibility of introducing this form into national legislation in the future. Additionally, the feasibility of using audio and video recording devices for drafting a will is analyzed, along with the legality and legitimacy of recording the testator's final will through such methods. In particular, the use of video recording as a relevant method of property disposition within the framework of inheritance relations is explored.

The article concludes that amendments to the existing legislation are necessary to introduce non-traditional forms of wills. Furthermore, it emphasizes the need for research projects that examine the relationship between the capabilities of digital devices and the ability to ensure the fulfillment of the testator's final will.

**Keywords:** Will, form of will, oral will, audio-recorded will, video will, will on iPhone, new technologies.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N24

**Kirish.** Vasiyat boʻyicha vorislik zamonaviy fuqarolik huquqining asosiy huquqiy institutlaridan biridir. Bugungi kunda Fuqarolik kodeksi uchun vasiyat boʻyicha vorislik yuridik jihatdan ustuvorlikka ega hisoblanadi. FKning 1112-moddasining ikkinchi qismiga koʻra: qonun boʻyicha vorislik vasiyat mavjud boʻlmasa yoxud butun merosning taqdirini belgilamasa, shuningdek ushbu Kodeksda belgilangan boshqa hollarda amalga oshiriladi. Bu yana davlatning ijtimoiy yoʻnaltirilganligi bilan ham tasdiqlanadi, chunki u oʻz fuqarolari haqida gʻamxoʻrlik qiladi va ularning xohish-irodasini birinchi oʻringa qoʻyadi, bu esa oʻz navbatida fuqarolik-huquqiy tartibga solishning ruxsat beruvchi yoʻnaltirilganligi va dispozitivlik tamoyillariga mos keladi. Mos ravishda, mulkdorning vafot etgan holda mulkning taqdiri bilan bogʻliq vasiyatnomada ifodalangan irodasi hisobga olinadi. Bunda xususiy mulkni himoya qilish kafolati sifatida vasiyatnoma maydonga chiqadi [1, 41 b.].

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Tadqiqot jarayonida milliy va xorijiy manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda sud amaliyoti materiallari chuqur oʻrganildi. Vasiyatnoma shakli masalasi fuqarolik huquqi doirasida keng muhokama qilinadigan mavzulardan biri hisoblanadi. Ushbu yoʻnalishda turli yillarda qator mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, Oʻzbekiston fuqarolik qonunchiligi doirasida vasiyat va meros huquqiga oid koʻplab monografiyalar, ilmiy maqolalar va darsliklar yaratilgan. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining tegishli normalari ushbu sohaning huquqiy asoslarini belgilab beradi.

Xorijiy adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, rivojlangan huquqiy tizimlarga ega davlatlarda vasiyatnoma shaklini tartibga solishning oʻziga xos yondashuvlari mavjud. AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya va Fransiya kabi mamlakatlarning huquqiy tajribasi ushbu institutning turli modifikatsiyalariga ega ekanligini koʻrsatadi. Shu jihatdan, mazkur tadqiqotda ushbu mamlakatlar tajribasi ham oʻrganilib, milliy qonunchilik bilan taqqoslash amalga oshirildi.

Tadqiqot davomida quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalanildi: taqqoslash usuli, tahlil va sintez usuli, tarixiy yondashuv, normativ-huquqiy tahlil, empirik yondashuv.

**Muhokama.** Vasiyatnoma – bu qonunda belgilangan shaklda ifodalangan meros qoldiruvchining vafot etgan holda oʻziga tegishli mulkni tasarruf etish boʻyicha irodasidir. Vasiyat farmoyishlari meros ochilgandan soʻng qonun bilan belgilangan meros olish tartibini oʻzgartiradi: qonun boʻyicha meros olish, toki va qay darajada u vasiyatnoma bilan oʻzgartirilmagan boʻlsa, amalga oshiriladi.

Belgilangan shaklga muvofiq vasiyatnoma tuzilishi – bu vasiyatnomaning haqiqiyligining eng muhim jihatlaridan biridir. Eng avvalo, har bir fuqaroga vasiyatnoma tuzish istagida, birinchidan, uning soʻnggi irodasini ifodalash va mustahkamlash uchun erkinlik va toʻsiqlarning yoʻqligi, ikkinchidan esa, uning haqiqiy irodasini maksimal darajada qayd etish va tegishli payt kelguncha vasiyatnoma sirini taʼminlash kafolatlanishi kerak [2, – s. 35.].

Bitim sifatida vasiyatnomaning haqiqiyligining eng muhim jihatlaridan biri uni belgilangan shaklda tuzishdir. Zamonaviy huquqiy tizimlarda vasiyat farmoyishlarining turli shakllari mavjud, bu bir tomondan, vasiyat qiluvchiga ortiqcha yuk boʻlmaslik va uning soʻnggi irodasini ifodalash va mustahkamlash uchun ortiqcha toʻsiqlar yaratmaslik, boshqa tomondan esa, vasiyat farmoyishlarining formalizmi maksimal darajada vasiyat qiluvchining haqiqiy irodasini aks ettirish va vasiyatnoma mazmunini muddatidan oldin oshkor qilinishiga yoʻl qoʻymaslikni maqsad qiladi [3, – s. 36.].

Milliy va xorijiy meros olish toʻgʻrisidagi qonunchilikning, xususan vasiyat boʻyicha meros olishning rivojlanish tendensiyalaridan biri, meros qoldiruvchi vafot etgan holda oʻz mulkini tasarruf etishi mumkin boʻlgan shakllarning qonunchilikda mustahkamlangan koʻpligidir. Bunda vasiyat qiluvchi, birinchidan, belgilangan shakllardan har qandayini tanlashi va, ikkinchidan, u vasiyatnomani tuzayotgan hayotiy sharoitlarni maksimal darajada hisobga olishi mumkin.

Shubhasiz, koʻpgina mamlakatlarning qonunchiligi va sud amaliyotida an'anaviy qarashlar hali ham ustunlik qiladi hamda vasiyat qilish qobiliyati va vasiyat farmoyishining rasmiy haqiqiyligi masalasi vasiyatnomani notarius yoki mahalliy qonunlarga muvofiq vasiyatnomalarni tasdiqlash vakolatiga ega boʻlgan mansabdor shaxs yoki guvohlar ishtirokida ommaviy hujjat shaklida tuzish orqali eng toʻliq kafolatlanadi, bu umumiy huquq mamlakatlariga xosdir [4, – s. 45.]. An'anaviy shakllar bilan birga, ba'zi mamlakatlarning fuqarolik qonunchiligi vasiyatnomalarni maxsus shakllarda, xususan oddiy yozma shaklda, ogʻzaki shaklda, audioyozuv shaklida tuzish imkoniyatini nazarda tutadi.

Ogʻzaki vasiyatnoma, shuningdek soʻzli vasiyatnoma deb ham ataladi, bu vasiyat qiluvchi tomonidan guvohlar ishtirokida ogʻzaki ravishda qilinadigan vasiyatnomadir. Garchi ogʻzaki vasiyatlarni vasiyatnomalarning dastlabki shakllariga kiritish mumkin boʻlsa-da, hozirgi vaqtda ogʻzaki vasiyatlardan foydalanish cheklangan. Aytish kerakki, vasiyatnomalar tarixi qadimiyatga borib taqaladi, qachonki vasiyatnoma an'anasi ogʻzaki an'ana sifatida paydo boʻlgan va vasiyatnomalar soʻzma-soʻz vasiyat qiluvchining ovozi boʻlgan. Anglosakson vasiyatnomalari, masalan, faqat ogʻzaki vasiyatnomalar edi (qadimgi ingliz tilida vasiyatnoma soʻzi – "cwide" – "soʻz" yoki "gapirish" ma'nosini anglatadi). Agar shaxs vasiyatnomasiz yoki "cwide-leas" sifatida vafot etgan boʻlsa, bu shaxs nafaqat vasiyatnomasiz, balki "nutqsiz" ham vafot etgan hisoblangan. Mos ravishda, vasiyatnoma "qabrning oʻzidan kelgan ovoz" edi [5, – 684 r.]. Ogʻzaki vasiyatnoma prototipi Rim meros huquqida ham jangchilar vasiyatnomasi (testamentum in procintu) sifatida kuzatiladi. Bu vasiyatnomadan hech qanday shakl talab qilinmagan, jiddiy iroda izhori yetarli boʻlgan, bu esa istalgan yoʻl bilan isbotlanishi mumkin edi. Bu vasiyatnoma askar harbiy xizmatdan chiqquniga qadar haqiqiy boʻlgan [6, – 45 s.].

Meros huquqida ma'lum boʻlgan vasiyatnomaning deyarli barcha shakllarida umumiy talab mavjud: vasiyatnoma yozma ravishda tuzilishi kerak. Ogʻzaki vasiyatnomalarga faqat kamdan-kam hollarda istisno sifatida ruxsat beriladi. Ogʻzaki vasiyatnoma shakli garchi u XXR, Shveysariya, Germaniya, Vengriya, Isroil, Polsha, AQSHning ayrim shtatlari kabi qator xorijiy mamlakatlarda qonunchilikda mustahkamlangan boʻlsa-da milliy qonunchilikda ma'lum emas.

Xususan, Xitoy Xalq Respublikasining FKda favqulodda holatlarda ikki yoki undan ortiq guvohlarning majburiy ishtirokida ogʻzaki vasiyatnoma shaklidan tashqari, oʻlim oldidagi holatda, shuningdek, vasiyatnoma tuziladigan joyda ikki yoki undan ortiq guvohlarning majburiy ishtirokida audioyozuv shaklidagi vasiyatnomaga ham ruxsat beradi [7]. Ogʻzaki vasiyatnoma shaklidagi favqulodda holatlar bartaraf boʻlganda, vasiyat qiluvchi vasiyatnomani yozma shaklda yoki ovoz yozish shaklida tuzish huquqiga ega, bunda ogʻzaki vasiyatnoma oʻz kuchini yoʻqotadi. Audioyozuv shaklidagi vasiyatnoma vasiyatnomaning an'anaviy shakli hisoblanadi, bunda favqulodda holatlarning mavjudligi yoki yoʻqligi ahamiyatga ega emas.

Germaniyaning fuqarolik qonunchiligi (Fuqarolik Tuzuklarining 2250-paragrafi) ogʻzaki shaklda vasiyatnoma tuzishga, yoki favqulodda holatlarda maxsus vasiyatnomaga ham ruxsat beradi. Buni sudda yoki notarial idorada vasiyatnoma tuzish imkonsiz yoki oʻta qiyin boʻlgan,

shuningdek, bevosita oʻlim xavfi tahdid solayotgan va boshqa shaklda vasiyatnoma tuzish imkonsizligi ayon boʻlgan shaxs uchta guvoh ishtirokida ogʻzaki bayonot shaklida bajaradi, bu haqda ham nemis tilida, ham boshqa istalgan tilda bayonnoma tuzilishi kerak [7]. Agar vasiyatnoma tuzilgan paytdan boshlab 3 oy oʻtsa va vasiyat qiluvchi tirik boʻlsa, bunday vasiyatnoma haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Shveysariya qonunchiligida ham ogʻzaki vasiyatnoma tuzishga ruxsat beriladi, bunda bu faqat meros qoldiruvchi muqarrar oʻlim, aloqa yoʻqligi, epidemiyalar yoki urushlar kabi favqulodda holatlar tufayli vasiyatnomaning boshqa shaklidan foydalanish imkoniyatidan mahrum boʻlsa amalga oshirilishi mumkin [7]. Vasiyat qiluvchi oʻz irodasini ikki guvoh oldida bildirishi kerak, ularga birinchi imkoniyat tugʻilishi bilan vasiyatnomani ommaviy hujjat sifatida tayyorlashni topshiradi. Guvohlardan biri darhol vasiyatnomani tuzishi, unga sana qoʻyishi (joy, kun, oy va yilni koʻrsatgan holda), uni imzolashi va ikkinchi guvoh bilan imzolashi kerak. Keyin bu ikki guvoh hujjatni sud organiga kechiktirmasdan taqdim etishi kerak, bunda ushbu shaxs (meros qoldiruvchi) favqulodda holatlarda ularning ishtirokida mulkni tasarruf etish boʻyicha oʻzining soʻnggi irodasini eʼlon qilganini tasdiqlaydi. Meros qoldiruvchi vasiyatnomaning boshqa shaklidan foydalanish imkoniyatiga ega boʻlgandan soʻng 14 kun oʻtgach, ogʻzaki vasiyatnoma oʻz kuchini yoʻqotadi.

Isroilning Meros toʻgʻrisidagi qonuni ham ogʻzaki vasiyatnoma shaklini nazarda tutadi [7]. Bu vasiyatnoma shakli, agar vasiyat qiluvchi ogʻir kasal boʻlsa yoki uning hayotiga tahdid soladigan sharoitlarda (masalan, jangovar sharoitlarda) boʻlsa, kuchga ega boʻladi. Bu holda u ikki guvoh ishtirokida oʻzining vasiyatnomasini ogʻzaki shakllantirish huquqiga ega. Ular vasiyat qiluvchi aytgan narsalarni yozib oladilar, bu hujjatni (bayonnomani) imzolaydilar va uni kechiktirmasdan meros masalalari boʻyicha roʻyxatga oluvchiga topshiradilar. Agar vasiyatnoma tuzilgan holatlar oʻzgarganidan keyin bir oy oʻtgach vasiyat qiluvchi tirik qolsa, vasiyatnoma oʻz kuchini yoʻqotadi.

Vengriya Fuqarolik kodeksi ham (634-635-moddalar) favqulodda holatlarda ogʻzaki vasiyatnomalar shakliga ruxsat beradi, masalan, hayot uchun xavfli boʻlgan epidemiya paydo boʻlgan hududda, harbiy harakatlar paytida qoʻshin bilan oʻralgan hududda, ochiq dengizdagi kema bortida sodir boʻlgan hodisalar va boshqalarda [8, – 265 r.]. Bu yerda ham ikki guvohning ishtiroki zarur. Ushbu favqulodda holatlar bartaraf etilgandan soʻng uch oy oʻtgach, vasiyatnoma oʻz kuchini yoʻqotadi.

Bu ogʻzaki vasiyatnoma shakli qonun bilan mustahkamlangan xorijiy mamlakatlarning ayrim misollaridir. Koʻrsatilgan mamlakatlarda ogʻzaki vasiyatnoma shaklidan foydalanish huquqni qoʻllash amaliyoti ushbu shaklning yetarli darajada samaradorligini koʻrsatadi, chunki bu yerda RF fuqarolik kodeksida qonun bilan mustahkamlangan shakllardan biri boʻlgan vasiyatnomaning oddiy yozma shakli ham imkonsiz boʻlgan alohida, favqulodda holatlar maksimal darajada hisobga olingan.

Rossiya fuqarolik qonunchiligi ogʻzaki vasiyatnoma shakli sohasidagi oʻz rivojlanishining istiqboli sifatida, uning mumkinligi pozitsiyasini himoya qilib, birinchi navbatda, alohida favqulodda holatlar, yaʼni garovga olinganlar holati kabi salmoqli dalillarga tayanadi. Muxoliflarning nuqtai-nazari, agar vasiyat qiluvchining irodasi ogʻzaki shaklda ifodalangan boʻlsa, vasiyat qiluvchining haqiqiy irodasini aniqlash oʻta qiyin, ehtimol imkonsiz boʻlishi va u umuman mavjud boʻlgan-boʻlmaganini aniqlash qiyinligi sababli kattaroq qoʻllab-quvvatlovga erishdi. Shu sababli, mahalliy qonunchilik hozirgacha ogʻzaki vasiyatnoma shaklini

mustahkamlamaydi, garchi bu mavzudagi bahslar hozirgi kungacha kamaymagan boʻlsa ham [9, – s. 42].

**Natijalar.** Koʻrinib turibdiki, ogʻzaki vasiyatnoma shakli xorijiy tajribani hisobga olgan holda uni amalga oshirish aniq shartlarini belgilashda RF qonunchiligida RF FK 1129-moddasiga “Favqulodda holatlardagi vasiyatnoma” oʻrin olgan.

Fikrimizcha, vasiyatnomaning “favqulodda tuziladigan vasiyatnomalar”ga oid qoidalari Oʻzbekiston FKda ham oʻz ifodasini topishi oʻrinli boʻlar edi. Chunki, har xil hayotiy vaziyatlarda fuqarolarga vasiyatnoma qoldirishning maqbul usulini taqdim etish inson huquqlarini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida aytilganidek, vasiyatnoma shakli meros qoldiruvchining soʻnggi irodasini amalga oshirishning kafolatidir. FKning 1124-moddasida vasiyatnomaning majburiy yozma shakli belgilangan. Bizning raqamli asrimizda, zamonaviy texnologiyalar va Internet asrida, deyarli har bir oilada audio va video-raqamli uskunalar (kompyuterlar, planshetlar, mobil telefonlar) mavjud boʻlgan paytda, imzolar bilan yozma hujjat sifatidagi vasiyatnoma eskirgan boʻlib koʻrinishi mumkin. Shu munosabat bilan elektron hujjat shaklidagi vasiyatnomani rasmiylashtirishni tan olish masalasi ancha qiziqarli. Shubhasiz, bugungi kunda vafot etgan holda oʻz mulkining taqdiri toʻgʻrisidagi, boshqa biron-bir usulda qayd etilgan irodaning izhori (masalan, videokassetada videoyozuv yordamida yoki diskda, fleshkada elektron shaklda) yuridik kuchga ega emas, chunki qonunchilikda soʻnggi irodani ifodalashning bunday shakli nazarda tutilmagan. Yozib olish qurilmasi oldida vafot etgan holda farmoyishlarni bayon qilish, xususan, videovasiyatnoma shaklida, mohiyatan bitimning ogʻzaki shakli hisoblanadi, videoyozuvning oʻzi esa faqat uni bayon qilinganligining dalili hisoblanadi.

Bir qator tadqiqotchilar vorislik huquqni takomillashtirish tarafdori ekanligini ta’kidlash kerak, ularga koʻra, oʻzlarining soʻnggi irodasini tashqi yordamsiz ifodalashga qodir boʻlmagan shaxslarga videoyozuv orqali yopiq vasiyatnomalar tuzish huquqi berilishi kerak. Masalan, Ye.Putilinaning fikricha, bunday toifadagi shaxslar uchun videoyozuv orqali amalga oshirilgan yopiq vasiyatnoma uni amalga oshirish (yozuvni amalga oshirish) paytida vasiyat qiluvchi qanday holatda boʻlganligini aniqlashga koʻproq imkon berar edi, va ayni paytda ayrim fuqarolarning yopiq vasiyatnoma tuzish huquqlarini buzishdan qochishga imkon berardi

[10, – s. 39.]. S.A.Slobodyan ham xuddi shunday nuqtai nazarni bildiradi, u videovasiyatnomalar yopiq vasiyatnoma tuzish erkinligining cheklanganligini bartaraf etishga yordam beradi deb hisoblaydi, chunki vasiyatnomani oʻz qoʻli bilan yozish va imzolashga qodir boʻlmagan meros qoldiruvchida ham yopiq vasiyatnoma tuzish uchun sabablar boʻlishi mumkin [11, – s. 20.].

Nisbatan yaqinda ingliz-amerika vasiyat boʻyicha meros olish doktrinasi vasiyat qiluvchi telefonlarda, kompyuterlarda va noutbuklarda oʻz xohish-irodasini qoldiradigan keng koʻlamli vaziyatlarni hisobga olishning muhimligini ta’kidlaydi, bunda tegishli mansabdor shaxslar ushbu tashuvchi vositalardagi yozuv toʻliq vasiyat qiluvchining soʻzlarini, uning irodasi va mulkni taqsimlash boʻyicha farmoyishini oʻz ichiga olishiga ishonch hosil qilishlari kerak. Aynan shuning uchun qonunchilik iloji boricha, vasiyat qiluvchining erkin xohish-irodasini bildirish boʻyicha niyatlarini samarali optimallashtirishga harakat qilishi kerak [12, – 6 p.]. Shuning uchun, bir tomondan, agar vasiyat qiluvchining soʻnggi irodasi aniq boʻlsa, koʻrsatilgan vositalarda qilingan vasiyatnomalarga rasmiy talablar belgilanishi va qonunchilikda mustahkamlanishi kerak. Boshqa tomondan, rasmiy talablarga muvofiqlik ulardan koʻpchiligi

uchun shunchalik muhimki, ularga muvofiq boʻlmasa, vasiyatnoma istalgan holatda ham haqiqiy boʻlmay qoladi [12, – s. 35–46.].

Ushbu tomonlardan birini qabul qilishning yaxshi namunasini Shvetsiyaning sud amaliyotida topish mumkin. Vasiyat qiluvchi oʻzining soʻnggi soatlarining bir qismini oilasi va doʻstlariga oʻz oʻlimidan soʻng ularning har biri oladigan mulk qismi haqida maʼlumot beruvchi matnli xabarlarni yuborish bilan oʻtkazdi. Bir necha soatdan keyin u oʻz joniga qasd qildi. Sudda bu tartib vasiyat qiluvchi oʻz qarindoshlariga qoldirmoqchi boʻlgan toʻgʻridan toʻgʻri vasiyatnoma sifatida taqdim yetildi. Dastlab tuman sudi ushbu SMS xabarlarni vasiyatnoma sifatida tan olmagan, ammo apellyatsiya sudi tuman sudining qarorini bekor qilgan. Shvetsiyalik meros boʻyicha mutaxassisning fikricha, agar vasiyat qiluvchi oʻz soʻzlarini qogʻozga yozib qoʻygan boʻlsa, vasiyatnoma bekor boʻlishi mumkin yedi. Matbuot bu ishni Shvetsiyada vasiyat huquqini qayta koʻrib chiqish maʼnosi bilan yoritib berdi [13, – 7 p.].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, yelektron hujjat shaklida, yaʼni qogʻozda yemas, balki boshqa tashuvchida, zamonaviy yelektron texnologiyalardan foydalangan holda, masalan, olinadigan tashuvchida (flesh-diskda), tasvir fayli, videoyozuv, iPhone dagi SMS koʻrinishida tuzilgan vasiyatnomani yozma hujjatga tenglashtirilgan hujjat deb hisoblash mumkinligi haqida savol tugʻiladi. Yuqorida qayd yetilganidek, soʻnggi oʻn yilliklarda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi yelektron hujjatlarning fuqarolik muomalasida ham, kundalik hayotda ham keng qoʻllanilishiga olib keldi. Ushbu holat elektron hujjatlardan yozma dalil sifatida, shu jumladan fuqarolik protsessida foydalanish masalasini ayniqsa dolzarb qiladi [14, – s. 36.].

**Xulosa**

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqqan holda, yangi texnologiyalar va raqamli qurilmalardan foydalanish vasiyat boʻyicha meros boʻlib oʻtish nuqtai nazaridan ularni qonunchilikda joriy yetish imkoniyati boʻyicha koʻplab savollarni tugʻdirmoqda. Aytish mumkinki, kelajakda raqamli texnologiyalar va yangi texnologiyalar orqali mulkni tasarruf etishning mumkin boʻlgan holatlari munosabati bilan amaldagi qonunlardan tashqari yangicha fikrlash zarur. Taʼkidlash joizki, amaldagi qonun hujjatlariga vasiyatnomalarning yangi shakllarini joriy etish boʻyicha oʻzgartirishlar kiritishdan oldin meros huquqiy munosabatlarida texnik, raqamli uskunalardan foydalanishning maqbul shakllari va imkoniyatlarini har tomonlama oʻrganish, loyihalashtirish va muhokama qilish zarur.

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Барков Р.А. Эволюция основных положений о завещании: общие тенденции и перспективы их унификации на постсоветском пространстве // Наследственное право. 2013. – № 4. – С. 41.
2. Тарасова И.Н. Понятие и значение формы завещания в российском гражданском праве / И.Н. Тарасова // Наследственное право. 2014. – № 3. – С. 35.
3. Абраменков М.С. Наследование по завещанию в РФ и зарубежных странах: сравнительно-правовой аспект / М.С. Абраменков // Наследственное право. 2008. – № 4. – С. 36.
4. Паничкин В.Б. Различие завещания в российском и англо-американском праве и их правовая природа / В.Б. Паничкин // Наследственное право. 2017. – № 2. – С. 45.

5. Karen J. Sneddon. Speaking for the Dead: Voice in Last Wills and Testaments / Karen J. Sneddon // St. John's Law Review. 2014. – 684 p.
6. Хвостов В.М. Система римского права. Конспект лекций / В.М. Хвостов ; ред. А.М. Вормс. – М.: Тип.Вильде, 1909. – 45 с.
7. Garb L. International Succession / L. Garb, J. Wood. – Oxford, 2015. – 209 p.
8. Kenneth G Creid. Comparative Succession Law. Volume I: Testamentary Formalities / Kenneth G C Reid, Marius J de Waal, Reinhard Zimmermann. – Cambridge : Cambridge university press, 2011. – 265 p.
9. Барков Р.А. Формальная действительность завещания как акта реализации активной завещательной правосубъектности (сравнительноправовой аспект) / Р.А. Барков, О.Е. Блинков // Наследственное право. 2013. – № 3. – С. 42.
10. Путилина Е. Совершение закрытого завещания и завещания в чрезвычайных обстоятельствах / Е. Путилина // Законность. 2007. – № 11. – С. 39.
11. Слободян С.А. Правовой режим закрытых завещаний / С.А. Слободян // Нотариус. 2009. – № 6. – С. 20.
12. Bennet M. Technology and Wills (Using an iPhone, Word or Other Modern Devices) / M. Bennet // Lexology. – 2014. – April 28. – 6 p.
13. Андропова Т.В. Устная форма завещания и перспектива использования современных информационных технологий при составлении завещания / Т.В. Андропова // Закон и жизнь. 2018. – Т. 2, № 3. – С. 35–46.
14. Brattstrom M. SMS not a Valid Last Will and Testament: Court / M. Brattstrom // The Local. – 2014. – February 24. – 7 p.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# KONTRAFAKT MAHSULOTLARNI ANIQLASH VA ULARNING MUOMALASIGA QARSHI KURASHISH MUAMMOLARI

**Jumanazarov Faxriddin Erkinovich**
Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi magistaturasi
“Tergov faoliyati” mutaxassisligi tinglovchisi
E-mail: fahriddinj03@gmail.com
Tel: +998 98 577 44 47

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada davlat organlari va jamoatchilik tomonidan kontrafakt mahsulotlarga qarshi kurashish jarayonidagi muammolar, shuningdek intellektual mulk huquqlarini himoya qilish, qalbaki mahsulotlar aylanmasiga qarshi kurashni kuchaytirish, tovar belgilarini himoya qilishning huquqiy va iqtisodiy asoslarini belgilash masalalari yoritilgan.

**Kalit soʻzlar:** kontrafakt, mahsulot, bojxona nazorati, tovar belgisi, mutlaq huquq, sertifikatlash, vizual tekshirish, markirovka, tovar savdosi, brend.

# PROBLEMS OF IDENTIFYING CONTRAFACTIVE PRODUCTS AND COMBATING THEIR CIRCULATION

**Jumanazarov Fakhriddin Erkinovich**
Master’s student of the Academy of Law
Enforcement "Investigative Activities"

**Abstract.** This article highlights the problems in the process of combating counterfeit products by state bodies and the public, as well as issues of protecting intellectual property rights, strengthening the fight against the circulation of counterfeit products, and defining the legal and economic basis for the protection of trademarks.

**Key words:** counterfeit, product, customs control, trademark, exclusive right, certification, visual inspection, marking, trade in goods, brand.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N25

**Kirish.** “Bizning yurtimizdan etishib chiqqan, Gʻarbda “Avisenna” degan nom bilan shuhrat qozongan buyuk alloma Ibn Sino bobomiz oʻrta asrlardayoq “Kimki uzoq va sogʻlom hayot kechirishni istasa, avvalo, ovqatning sifati va miqdoriga e’tibor qaratsin”, deb ta’kidlaganlar”[1] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev.

Soʻnggi yillarda kontrafakt tovarlar turlari birmuncha koʻpaydi. “Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining ma’lumotiga qaraganda, kontrafakt tovarlarning xalqaro savdodagi qiymati 200 mlrd. AQSh dollaridan ortib ketgan”[6]. Kontrafakt tovarlar odatda sifatsiz boʻlib, iste’molchilarning sogʻligʻi va xavfsizligiga xavf tugʻdirishi mumkin.

Kontrafakt mahsulotlar, birinchi navbatda, odamlar hayoti va sogʻligʻiga tahdid soladi, biznes va byudjet daromadlarini yoʻqotadi, aholining davlat va tovar ishlab chiqaruvchilarga boʻlgan ishonchini susaytiradi. Dunyo miqyosida qalbaki mahsulotlar ishlab chiqarish natijasida yetkazilgan zarar koʻlami katta baholanmoqda, shuningdek, qalbaki mahsulotlardan foydalanishdan aziyat chekayotgan odamlar soni ortib bormoqda.

Kontrafakt tovarlar kontrabandasi oqibatlari barchaga xususan, davlat, korxona va jamiyat faoliyatiga bojxona va soliq tushumlari, tijorat daromadlari va ish oʻrinlaridan mahrum qilish orqali salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Qalbaki mahsulotlar yashirin savdosining rivojlanishi natijasida jahon iqtisodiyotida katta boʻshliq yaratadi, bu esa hukumatga davlat gʻaznasiga toʻplanishi zarur boʻlgan daromadlardan mahrum qiladi va soliq toʻlovchilarni yuqori yukni koʻtarishga majbur qiladi.

Kontrafakt faoliyat, shuningdek, davlat organlarining qalbaki mahsulotlarni aniqlash, ushbu faoliyatga oid murakkab sxemalar va tarmoqlarga qarshi kurashish maqsadida davlat mablagʻlarini sarflanishiga olib keladi.

Kontrafakt mahsulotlar nafaqat tadbirkorlarning iqtisodiy faoliyatiga, balki jamiyat manfaatlariga ham xavf tugʻdiruvchi jiddiy muammoga aylanib bormoqda.

**Metodologiya.** Ushbu maqolani tayyorlashda IMRAD usulidan foydalanildi. Bunda, tegishli sohadagi xorijiy va mahalliy olimlarning fikri oʻrganildi, muhokama qilindi va taqqoslandi. Shuningdek, tahlilda muallifning subyektiv fikrlari ham katta oʻrin egallaydi.

**Asosiy qism (natija va muhokama).** “Tashqi savdoni, tashqi iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, bojxona siyosatining asosiy yoʻnalishlarini amalga oshirish davlatlararo munosabatlar uchun ustuvor ahamiyat kasb etib, koʻp jihatdan har bir davlatning shakllanish darajasini belgilaydi”[2].

Tovarlarni qalbakilashtirishning bir necha turlari mavjud, shundan kiyim-kechak, poyabzal, elektronika va boshqalar kabi taniqli brendlarga oid mahsulotlarni soxtalashtirish, shuningdek intellektual mulk sohasida kitoblar, musiqa, filmlar va boshqa mualliflik asarlari soxtalashtirishlar ham keng tarqalgan. Ushbu holatlar mualliflar va huquq egalariga zarar etkazadi, shuningdek, ularning intellektual mulk huquqlarini buzadi.

Kontrafakt mahsulotni “yaratish”ning eng keng tarqalgan usuli, unga boshqa shaxsga tegishli boʻlgan tovar belgisi yoki u bilan adashtirib yuborish darajasida oʻxshash belgi qoʻyishdir. Bu holda qoidabuzar tovar belgisining huquq egasi bilan litsenziya shartnomasini tuzmaydi va shunchaki huquqiy himoyaga ega boʻlgan belgidan foydalanishning qonuniy huquqini oʻgʻirlaydi.

Bizning fikrimizcha, kontrafakt mahsulot deganda tovar belgilarini soxtalashtirish va roʻyxatdan oʻtkazilgan tovar belgilari egalarining ushbu tovar belgilaridan foydalanishga boʻlgan mutlaq huquqlarini buzgan holda ishlab chiqarilgan mahsulotni tushunish lozim.

Bugungi kunda “kontrafakt tovarlarning bir koʻrinishi boʻlgan intellektual mulk sohasidagi tovarlarning qalbakilashish shakllari quyidagilarda namoyon boʻladi yaʼni tovar belgisidan yoki firma nomidan foydalanishda bunda biror-bir detalni oʻzgartirish orqali:

1) harflar registridagi farq (masalan, Microsoft — MicroSoft);

2) brend nomidagi bir-ikki harf farqi (Microsoft -Macrosoft);

3) nomda faoliyat turini koʻrsatish (Microsoft -dasturiy taʼminot)”[3].

Intellektual mulk obʼektlariga boʻlgan huquqlarni himoya qilish usullaridan biri tovarning oʻziga xos belgilarini oʻrganib, kontrafakt tovarlarni aniqlash xisoblanadi. Xususan,

bunday belgilarga soʻzlar, jumladan, atoqli otlar, dizayn harflar, raqamlar, tovushlar, uch oʻlchamli konfigurasiyalar, jumladan, shakllar ranglar va boshqalar kiradi.

Kontrafakt mahsulotlar kelib chiqishining ikkita manbai mavjud: import tovar sifatida bojxona chegarasidan olib kirish va mahalliy ishlab chiqarish natijasida vujudga keladi.

Kontrafakt tovarlarning tarqalishi global muammo boʻlib, uning bir qator sabablari bor:

"Birinchidan, buning asosiy sabablaridan biri qalbaki mahsulotlarni noqonuniy ishlab chiqarish va sotish orqali olinadigan yuqori foyda hisoblanadi. Kontrafakt tovarlar koʻpincha past narxlarda sotiladi, bu esa xaridorlarni oʻziga jalb qiladi, lekin shu bilan birga asl brendlarga va umuman iqtisodiyotga jiddiy zarar etkazadi.

Ikkinchidan, samarali nazorat va jazo choralarining yoʻqligi ham kontrafaktning tarqalishiga sabab boʻlmoqda. Koʻpgina mamlakatlarda nazorat tizimi zaif va qoidabuzarlar uchun yengil jazolar mavjud boʻlib, bu ularga noqonuniy biznes bilan toʻsiqsiz shugʻullanish imkonini beradi.

Uchinchidan, arzon tovarlarga boʻlgan talab ham kontrafaktning tarqalishiga muhim sabab boʻladi. Xaridorlar pulni tejashga intilib, sogʻliq va xavfsizlik uchun potensial xavflarga qaramay, soxta narsalarni sotib olishga tayyor. Ushbu omillarning barchasi birgalikda kontrafaktning tarqalishi uchun qulay muhit yaratadi va uning oldini olish boʻyicha shoshilinch choralar koʻrishni talab qiladi"[4].

Xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyotini qiyosiy oʻrganish natijasida bojxona organlari tomonidan kontrafakt noqonuniy mahsulotlar tarqalishiga qarshi kurashish samaradorligini oshirish, intellektual mulk huquqlarini himoya qilish va tovarlarning zamonaviylashgan bozorini shakllantirish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqilmoqda.

Kontrafakt tovarlar kontrabandasini aniqlash — bu taniqli brendlar yoki asl mahsulotlarga taqlid qilish orqali noqonuniy ishlab chiqarilishi yoki sotilishi mumkin boʻlgan qalbaki yoki soxtalashtirilgan tovarlarni aniqlash jarayonidir. Kontrafaktni aniqlash tovarlarning fizik xususiyatlarini tahlil qilish va taqqoslash, shuningdek, ularning markirovkasi, qadoqlanishi va sertifikatlanishini tekshirishni oʻz ichiga oladi.

Bojxona chegarasi orqali olib kirilgan yoki mahalliy ishlab chiqaruvchi tomonidan ishlab chiqarilib bozorga kiritilgan soxta tovarlarni isteʼmolchilar tomonidan asl tovarini farqlab olish mumkin boʻlgan bir qator usullarni misol keltirishimiz mumkin:

- Mahsulotni sotayotgan ishlab chiqaruvchining dileri boʻlganligi uning haqiqiy ekanligiga ishonchni orttiradi.
- Mahsulotning tashqi koʻrinishi, yozuvlari va oʻramida nuqsonlarning mavjudligi oʻz-oʻzidan xaridorda shubha uygʻotishi mumkin.
- Koʻp tovarlar markirovka qilinadi, shuning uchun ushbu markirovkani oʻqishni bilgan mutaxassis uning haqiqiy ekanligini aniqlay oladi.
- Respublikamizda ayrim isteʼmol tovarlarining oʻzbek tilida markirovka qilinishi majburiy etib belgilangan, tasdiqlangan roʻyxatda oziq-ovqat mahsulotlari, tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar, maishiy texnika, parfyumeriya mahsulotlari, oʻsimliklar uchun preparatlar, sanitariya-gigiena uchun moʻljallangan tovarlarni uchratish mumkin. Unda mavjud maʼlumotlarni tahlil qilish orqali maqsadga erishish mumkin.
- Tovar bahosining arzon-qimmatligi ham, biz mazkur tovarning haqiqiy qiymatini bilgan taqdirimizda, qalbaki tovarni aniqlashda muhim rol oʻynaydi.

Bundan tashqari, iste'molga taqdim etilgan tovarning muvofiqlik sertifikati, kafolat taloni kabilardan ham foydalanib aniqlasa boʻladi.

Yuqoridagilarga asosan kontrafakt tovarlarni aniqlashning bir necha usullar orqali masalan tovarlarni vizual tekshirish usuli – asl tovarlar bilan kontrafakt mahsulotni oʻzaro solishtirib uning vizual farqlarini topish;

- tovarlarni kimyoviy analiz qilish usuli – tadqiqot uchun olingan kontrafakt tovarni tarkibini oʻrganish orqali zararli moddalar va materiallar tahlillarini olib borish, ularda sifatsiz yoki xavfli moddalar mavjudligini aniqlash;

- tovarlarning texnik koʻrsatkichlari va funksiyani tekshirish usuli – namuna sifatida olingan kontrafakt tovari ustida amallar bajarib uning ishlash boʻyicha funksiyalari va texnik parametrlarini oʻrganish orqali aniqlash mumkin boʻladi.

"Kontrafakt tovarlar savdosi va ularni bojxona chegaralari orqali tashish xalqaro jinoiy guruhlar biznesining tarkibiy qismi va davlat hokimiyati organlarida korrupsiyani kuchaytiruvchi omil hisoblanadi. Shu bilan birga, bunday mahsulotlarni import qilish moliyaviy va iqtisodiy xavflar bilan bir qatorda bir qator boshqa muhim xavflarni ham keltirib chiqaradi ya'ni inson hayoti va sogʻligʻi uchun xavf, salbiy ekologik oqibatlar va boshqalar"[5].

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro savdo sharoitida kontrafaktga qarshi kurash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki soxtalashtirish tovar ishlab chiqaruvchilar faoliyatiga jiddiy zarar etkazadi, intellektual mulk huquqlarini buzadi va brendlar obroʻsiga putur etkazadi. Kontrafaktga qarshi samarali kurashish uchun maxsus usullar va texnologiyalarni rivojlantirish, xodimlarni oʻqitish, asl mahsulotlar va brendlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish zarur.

Tadqiqot mavzusini oʻrganish natijasida bojxona chegarasi orqali kontrafakt tovarlar kontrabandasini fosh qilish va qarshi kurashish yuzasidan quyidagi muammolar aniqlandi:

- Kontrafakt tovarlarning koʻlamini (soxta tovarlarning aniq miqdori, qaerda va kimlar tomonidan ishlab chiqarilganligi va boshqa holatlar) obyektiv baholash imkoniyati yoʻqligi;

- Ushbu sohada har qanday darajada ittifoq, milliy, tarmoq, mintaqaviy miqyosda markazlashgan aniqlash usullarining yoʻqligi ya'ni ma'lumot almashish uchun markazlashtirilgan tizimning mavjud emasligi;

- Kontrafakt mahsulotlarning markirovkalangan koʻrinishda namoyon boʻlish imkoniyatini aniqlash qoidalari ishlab chiqilmaganligi;

- Kontrafakt mahsulotlar aylanmasining oldini olish va unga qarshi kurashishni ta'minlaydigan tizimli sohalashgan malakali kadrlarning etishmasligi;

- Kontrafakt mahsulotlar aylanmasining oldini olish va unga qarshi kurashish jarayonida aholining asl tovardan kontrafakt tovarni ajrata olmaslik bilan bogʻliq boʻlgan muammolar;

- Tovar belgilarini qonuniy qoʻllash masalalari boʻyicha ishlab chiqaruvchilarning ham, iste'molchilarning ham huquqlarini himoya qiluvchi jamlangan axborot bazasining yaxshi rivojlanmaganligi;

- Aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish maqsadida tergovni boshlash uchun zarur boʻlgan yetarlicha murakkab shart-sharoitlar mavjudligi, tovarni sotuvchi yoki bojxona chegarasidan olib oʻtuvchi shaxslar mavjud lekin bevosita ishlab chiqaruvchilarni topish, aynan uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma a'zolarining javobgarligini aniqlash;

- Ashyoviy dalillarni saqlash muammosi, xususan tez buzuluvchan oziq ovqat tovarlari yoki xavfli tovarlarni vaqtincha saqlash. Muhim jihati shundaki, huquq egalaridan sud muhokamasi yakuniga qadar ashyoviy dalillarni toʻliq hajmda saqlash talab etiladi.

Taʼkidlash joizki, ayrim xorijiy davlatlar tovar savdosi tarmoqlarida kontrafakt mahsulotlar umumiy mahsulot aylanmasida eng katta ulushni egallaydi. Bunday tarmoqlarga quyidagilarni kiritish mumkin: yengil sanoat (noqonuniy mahsulotlarning 50-60% uzoq xorij mamlakatlaridan olib kiriladi); avtomobil bozori (noqonuniy ishlab chiqarish va aylanmaning 20-30%); yoqilgʻi bozori (sifatli yoqilgʻini ruxsatsiz yigʻish va past sifatli yoqilgʻiga qayta ishlash mamlakat boʻyicha noqonuniy yoqilgʻi hajmining 10 million tonnani tashkil etishiga olib keldi, bu umumiy aylanmaning 30%); tamaki va alkogolli mahsulotlar bozori (bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib oʻtilgan alkogolli mahsulotlar va tamaki mahsulotlarining tashkil etdi) va boshqalar.

Shu oʻrinda kontrafakt mahsulotlarni aniqlash va ularning muomalasiga qarshi kurashish sohasida bir qator xorijiy mamlakatlar tajribasini koʻrib chiqish lozim boʻladi, xususan, Evropa Ittifoqi davlatlari iqtisodiyoti miqiyosida kontrafakt tovarlar aylanmasiga qarshi kurashish hamda uni fosh qilish maqsadida intellektual mulk huquqlarini (IPRS) himoya qilish uchun “Soxtalashtirish va qaroqchilikka qarshi kurashish tizimi (COPIS)” dasturi joriy qilingan.

COPIS (Anti-Counterfeit and Anti-Piration System) – bu barcha bojxona chegaralarida bojxona nazorati uchun davlatlararo oʻzaro axborot almashish tizimi hisoblanadi hamda Evropa Ittifoqining tashqi chegarasida intellektual mulk huquqini amalga oshirish bilan bogʻliq faoliyatni amalga oshiradi.

COPIS tizimining maqsadi quyidagilardan iborat: muayyan tovarlarning intellektual mulk huquqini himoya qiluvchi barcha aʼzo davlatlarning “Harakatlar toʻgʻrisidagi arizalari”ni (APA) yagona markazlashgan bazasida saqlash va boshqarish; ushbu APA bilan bogʻliq kontrafakt tovarlar aniqlanganda CO tomonidan amalga oshiriladigan barcha huquqbuzarliklarni oʻz ichiga olgan harakatlar hamda chegara hududida huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga chora koʻrish jarayonini soddalashtirishlar kiradi.

Huquq egalar maʼlumotlarni milliy bojxona idoralari orqali kiritadi, COPIS esa bu maʼlumotlarni markaziy bazada birlashtiradi.

Kontrafakt tovarlar kontrabandasiga qarshi kurashishning eng samarali usuli aholining arzon va sifatsiz kontrafakt tovarlarning zararini anglab etishi hamda soxta mahsulotdan aslini ajrata olish madaniyatini shakllantirishdan iboratdir, bu sohada bir qator samarali ishlar olib borilgan.

Xususan, Germaniyaning Zolingen shahrida taniqli nemis sanoat dizayneri, professor Rido Busse tomonidan “Plagiarius” (“koʻchirmachi”, “oʻgʻri”) nomli ilk bora qalbakilashtirilgan tovarlar muzeyi tashkil etildi.

Bizning fikrimizcha ushbu muzeyning tashkil qilishdan maqsad insonlarning qalbaki tovarlarga, kontrafaktga qarshi kurash va asl tovardan qalbakisidan ajrata olish xususiyatini shakllantirishdan iborat boʻlgan.

“Muzeyni tashkil etishdan asosiy maqsadlardan biri intellektual mulk huquqi boʻyicha ijodkor va innovatorlarga yordam va maslahatlar berish boʻlgan boʻlsa, oʻtgan davr davomida shunday harakatlar natijasida Germaniyada jamoat oʻrtasida bu muammoga nisbatan

munosabat shakllantirildi hamda dizayner va tadbirkor shaxslarga intellektual mulk huquqining mohiyati ochib berildi"[7].

**Xulosa va taklif.** Kontrafakt mahsulotlar kontrabandasiga qarshi kurashning asosiy muammolari biri aynan jinoyat qonunchilikda "kontrafakt mahsulot" va "kontrafakt tovarlar kontrabandasi" tushunchalari qonunchilik darajasida mustahkamlanmagan. Shuningdek, kontrafakt mahsulotlar realizatsiya bilan bogʻliq boʻlgan qilmishlar yuzasidan toʻgʻridan toʻgʻri javobgarlik belgilanmagan.

Yuqoridagilarga asosan kontrafakt mahsulotlarni aniqlash va ularning muomalasiga qarshi kurashish yuzasidan vujudga kelayotgan ayrim muammolarni yechimi yuzasidan quyidagi tavsiya va takliflarimizni bildiramiz:

- Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining VIII-boʻlimiga ushbu "kontrafakt mahsulot" va "kontrafakt tovarlar kontrabandasi" tushunchalarini kiritish;
- Oʻzbekiston Respublikasi Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksi va Jinoyat kodeksiga kontrafakt mahsulotlar bilan bogʻliq qilmishlari yuzasidan javobgarlikni belgilash uchun alohida norma kiritish;
- Tovar belgisi (brend) egalari va huquq egalari huquqni muhofaza qilish organlari bilan faol hamkorligini yoʻlga qoʻyib, elektron axborot almashish tizimini joriy qilish orqali ularga shubhali holatlar haqida maʼlumot berib, ishlarni tergov qilish jarayoniga yordam berishiga erishish mumkin;
- Aholining kontrafakt tovarlarning zarari va qalbaki tovarlarni sotib olishning huquqiy oqibatlari toʻgʻrisida xabardorligini oshirishga qaratilgan axborot-huquqiy targʻibotlarni oʻtkazish zarur. Bu ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va maʼrifiy tadbirlar orqali amalga oshirilishi mumkin;
- Mahsulotlarni bozor orqali tarqatishda, ularni sotib olishda haqiqiyligini belgilovchi QR kodlar, gologrammalarni va raqamli sertifikatlar joriy qilish bu orqali markirovkalash va kuzatish tizimlari tovarlarning ishonchli va aniq identifikasiyasini taʼminlaydi hamda foydalanuvchilar mahsulotning haqiqiyligini tekshirish uchun mobil ilovalar yaratish.

Bojxona chegarasi orqali harakatlanadigan kontrafakt mahsulotlarga qarshi kurash muammosi zudlik bilan innovatsion yechimlarni, ayniqsa, bojxona chegaralarida bojxona nazoratini takomillashtirishni talab qiladi. "Xususan, AQSh yoki Evropa Ittifoqining tajribasidan kelib chiqib, bojxona reyestrini onlayn ishlaydigan maʼlumotlar bazasiga ham aylantirish ham nazoratni kuchaytiradi, ham ushbu yoʻnalishda olib borilayotgan ishlar sifatini oshiradi"[8]. Bundan tashqari, ushbu muammoni hal qilish uchun bojxona va chegara nazoratining texnologik shaklini kuchaytirish hamda mahsulotning ishlab chiqaruvchidan isteʼmolchigacha boʻlgan yoʻlini kuzatish tizimlarini yaratishdir. Ushbu muammolarning yechimining bir turi sifatida tovarlarni markirovkalash vositalari va usullarini takomillashtirish lozim boʻladi.

## Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев "Озиқ-овқат хавфсизлиги бўйича халқаро конференция иштирокчилариг" сўзлаган нутқи 2023 йил https://president.uz/uz/lists/view/6645.

2. Таможенный контроль: учеб. пособие для студентов вузов/ С.Н. Ревина, П.А. Паулов, Д.В. Борякин. – Самара: Изд-во Самар. гос. экон. ун-та, 2018. (дата обращения 07.02.2020). – С. 93.
3. Солдатова Л. Виды контрафакта и ответственность за его продажу [Электронный ресурс]. Режим доступа: https: // 63.мвд.рф /news/item/ 18486308 (дата обращения: 08.04.2021).
4. Е.А.Ботарева, П.А.Паулов Проблемы борьбы с незаконным оборотом контрафактной продукции Россия, г. Самара. – С. 104-106.
5. The Green Customs Guide to Multilateral Environmental Agreements The Green Customs Initiative (2008). United Nations Environment Programme. Available at: http://wedocs.unep.org/han-dle/20.500.11822/8771.
6. С.Х.Шомирзаев. Контрафакт товарлар: жиноятга шерик бўлманг. Ҳуқуқ ва бурч. №06/2015. – 36-37 б.
7. С.Х.Шомирзаев. Контрафакт – “усти ялтироқ, ичи қалтироқ”: Золингендаги қалбаки маҳсулотлар музейи, “Диёнат” газетаси-2013.
8. С.Х.Шомирзаев. Интеллектуал мулк объектлари божхона органлари томонидан ҳам ҳимоя қилинадими. Ҳуқуқ ва бурч. №11/2018. — 56-59 б.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ОВД С ГОСУДАРСТВЕННЫМИ И ИНЫМИ ОРГАНИЗАЦИЯМИ ПО ПРОФИЛАКТИКЕ БЕЗНАДЗОРНОСТИ И ПРАВОНАРУШЕНИЙ СРЕДИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

**Курбанова Эльмира Асадовна**
Старший научный сотрудник Института
государства и права Академии наук
Республики Узбекистан

**Аннотация.** В статье проанализировано взаимодействие ОВД с государственными и иными организациями по профилактике безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних в Республике Узбекистан, в том числе с комиссиями по вопросам детей; органами управления образованием и образовательными учреждениями; органами опеки и попечительства; органами управления здравоохранением и учреждениями здравоохранения; органами по труду и социальной защите населения. Даны предложения по совершенствованию деятельности ОВД в данном направлении.

**Ключевые слова:** взаимодействие, национальная комиссия по вопросам детей органы управления образованием и образовательные учреждения; органы опеки и попечительства; органы управления здравоохранением и учреждения здравоохранения; органы по труду и социальной защите населения, несовершеннолетний, предупреждение правонарушений.

# ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИНИНГ ВОЯГА ЭТМАГАНЛАР ЎРТАСИДА НАЗОРАТСИЗЛИК ВА ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРНИНГ ПРОФИЛАКТИКАСИ БЎЙИЧА ДАВЛАТ ВА БОШҚА ТАШКИЛОТЛАР БИЛАН ҲАМКОРЛИГИ

**Курбанова Элмира Асадовна**
Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси
Давлат ва ҳуқуқ институти катта илмий ходими

**Аннотация.** Мақолада ИИВ органларининг давлат ва бошқа ташкилотлар билан, шу жумладан, болалар масалалари бўйича миллий комиссия, ички ишлар органлари, таълимни бошқариш органлари ва таълим муассасалари, васийлик ва ҳомийлик органлари, соғлиқни сақлашни органлари ва муассасалари, меҳнат ва ижтимоий ҳимоя органлари билан ҳамкорлиги таҳлил қилинган. Ушбу йўналиш бўйича ИИВ органларининг фаолиятини такомиллаштириш бўйича таклифлар берилган.

**Калит сўзлар:** ҳамкорлик, болалар масалалари бўйича миллий комиссия, таълимни бошқариш органлари ва таълим муассасалари, васийлик ва ҳомийлик органлари, соғлиқни сақлашни органлари ва муассасалари, меҳнат ва ижтимоий ҳимоя органлари, вояга етмаганлар, ҳуқуқбузарликларни олдини олиш.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N26

Сотрудничество органов внутренних дел Республики Узбекистан (далее – ОВД) с государственными и другими организациями играет важную роль в профилактики безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних, а также созданию условий для их дальнейшей адаптации к жизни в обществе.

Законодательная база, регулирующая взаимодействие органов внутренних дел с другими учреждениями в Узбекистане, включает ряд нормативных актов, которые обеспечивают защиту прав несовершеннолетних, устанавливают механизмы межведомственного взаимодействия, определяют полномочия субъектов профилактики, а также предусматривают меры ответственности для родителей и опекунов в случае ненадлежащего выполнения ими обязанностей по воспитанию несовершеннолетних.

Надёжное и скоординированное сотрудничество правоохранительных органов с государственными и общественными институтами является важнейшим фактором успешной борьбы с безнадзорностью и правонарушениями среди несовершеннолетних на территории Узбекистана. Так, согласно ст. 6 **Закона «О профилактике безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних» от 29 сентября 2010 года** [1], государственные органы и иные организации, а также граждане незамедлительно информируют органы внутренних дел — о несовершеннолетних и семьях, находящихся в социально опасном положении, несовершеннолетних, совершивших правонарушения или иные антисоциальные действия, а также о родителях и других лицах, вовлекающих несовершеннолетних в совершение правонарушений или иных антисоциальных действий либо совершающих в отношении них другие противоправные деяния. Благодаря скоординированным усилиям ОВД, образовательных учреждений, социальных служб, международных организаций и других причастных структур удается уменьшить уровень преступности среди несовершеннолетних и создать безопасные условия для их жизни и развития.

В Узбекистане ОВД активно сотрудничают с другими государственными структурами и различными организациями. Главная цель такого взаимодействия – защита прав и интересов детей, а также недопущение их участия в противоправных действиях. Согласно ст. 4 **Закона «О профилактике безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних» от 29 сентября 2010 года** [2], **о**сновными задачами деятельности по профилактике безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних являются: предупреждение безнадзорности, беспризорности несовершеннолетних, совершения ими правонарушений или иных антисоциальных действий, выявление и устранение причин и условий, способствующих им; обеспечение защиты прав, свобод и законных интересов несовершеннолетних; формирование законопослушного поведения несовершеннолетних; социально-педагогическая реабилитация несовершеннолетних и семей, находящихся в социально опасном положении; выявление и пресечение случаев вовлечения несовершеннолетних в совершение правонарушений или иных антисоциальных действий.

Согласно законодательству [3], в систему органов и учреждений, осуществляющих профилактику безнадзорности и правонарушений среди

несовершеннолетних, входят: комиссии по вопросам детей; органы внутренних дел; органы управления образованием и образовательные учреждения; органы опеки и попечительства; органы управления здравоохранением и учреждения здравоохранения; органы по труду и социальной защите населения.

Рассмотрим более детально основные направления взаимодействия ОВД с государственными и иными организациями:

1. *Взаимодействие с органами образования.* Образовательные учреждения играют важную роль в воспитании у несовершеннолетних законопослушного поведения. В законодательстве [4] Узбекистана закреплены основные функции и обязанности образовательных учреждений в области профилактики правонарушений и безнадзорности среди несовершеннолетних.

Сотрудничество органов внутренних дел с Министерством народного образования и учебными заведениями включает в себя: совместный контроль посещаемости учащимися школ и колледжей; проведение бесед и лекций с подростками по правовым и социальным вопросам; создание комиссий для выявления семей, находящихся в неблагополучной ситуации; а также контроль за соблюдением прав учащихся в образовательных учреждениях.

Органы внутренних дел и образовательные учреждения регулярно проводят мероприятия, направленные на предотвращение правонарушений и безнадзорности среди несовершеннолетних. В рамках этого сотрудничества осуществляется выявление факторов, которые могут способствовать девиантному поведению подростков, а также принимаются меры для их устранения. Обмен информацией о несовершеннолетних, находящихся в группе риска, позволяет своевременно реагировать и предоставлять необходимую помощь.

Кроме того, совместно организуются кружки, спортивные секции и другие формы активной занятости, которые помогают подросткам проводить свободное время с пользой и избегать негативного влияния. Также проводится работа с семьями несовершеннолетних, оказавшихся в трудной жизненной ситуации, оказывая им всестороннюю помощь и поддержку.

*2. Взаимодействие с органами социальной защиты и здравоохранения* регулируется рядом нормативно-правовых актов [5]**.** Органы социальной защиты и здравоохранения оказывают помощь детям, находящимся в трудной жизненной ситуации. Кроме того, органы опеки и попечительства незамедлительно информируют о детях-сиротах, детях, оставшихся без попечения родителей либо находящихся в обстановке, представляющей опасность для их жизни или здоровья либо не отвечающей требованиям к их содержанию, воспитанию и образованию. [6]

Основные полномочия [7] органов опеки и попечительства заключаются в: выявлении и ведении учета детей-сирот, детей, оставшихся без попечения родителей, и, исходя из конкретных обстоятельств утраты попечения родителей, избирают формы устройства детей, а также осуществляют контроль за условиями их содержания, воспитания и образования; принятии мер по установлению опеки и попечительства в отношении несовершеннолетних в случаях и порядке, предусмотренных законодательством; обращении в суд с ходатайством об ограничении или лишении несовершеннолетнего в возрасте от четырнадцати до

восемнадцати лет права самостоятельно распоряжаться своим заработком, стипендией или иными доходами, за исключением случаев приобретения несовершеннолетним дееспособности в полном объеме в установленном порядке; участии в проведении индивидуальной профилактической работы; предъявлении исков об ограничении или лишении родительских прав; принятии участия в рассмотрении в судах дел об ограничении или лишении родительских прав, а также о восстановлении в родительских правах и др.

В Республике Узбекистан основными направлениями сотрудничества ОВД с органами опеки и попечительства является с**овместная профилактическая деятельность. Так, данные структуры** совместно выявляют несовершеннолетних, находящихся в социально опасном положении, и принимают меры по их социальной реабилитации и адаптации; осуществляют регулярный обмен данными о несовершеннолетних, склонных к правонарушениям, и о семьях, находящихся в социально-опасном положении, для своевременного принятия профилактических мер; участвуют **в комиссиях по делам несовершеннолетних,** где совместно разрабатывают и реализуют мероприятия по профилактике безнадзорности и правонарушений; проводят совместные работы с неблагополучными семьями, направленные на улучшение условий воспитания и предотвращение семейного неблагополучия, которое может привести к безнадзорности детей.

Так, в главе 6 Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан № 490 «О мерах по дальнейшему совершенствованию оказания социально-правовой помощи несовершеннолетним» от 03.08.2021 г. [8] определены порядок организации индивидуально-профилактической работы с несовершеннолетними, содержащимися в центрах по оказанию социально-правовой помощи несовершеннолетним.

В Узбекистане взаимодействие ОВД с учреждениями здравоохранения и органами управления здравоохранением играет важную роль в профилактике безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних. Это сотрудничество направлено на раннее выявление и устранение факторов, способствующих девиантному поведению подростков. Медицинские учреждения обязательно оказывают несовершеннолетним, систематически употребляющим алкогольные напитки, наркотические средства, психотропные вещества или иные вещества, влияющие на психическую и волевую деятельность, квалифицированную медицинскую и наркологическую помощь, состоящую из медицинского обследования, медицинских консультаций, диагностики, лечения и услуг медико-социальной реабилитации. [9] В рамках взаимодействия также организуются программы реабилитации для несовершеннолетних, склонных к правонарушениям, включая медицинскую помощь, психологическую поддержку и социальную адаптацию.

Кроме того, ОВД активно сотрудничают с органами труда и социальной защиты населения для профилактики правонарушений и безнадзорности среди несовершеннолетних. Это сотрудничество направлено на выявление и устранение социальных факторов, влияющих на девиантное поведение детей и подростков. В данном направлении проводятся мероприятия по выявлению семей, находящихся в трудной жизненной ситуации, и оказанию им необходимой социальной помощи,

включая материальную поддержку, консультирование и содействие в трудоустройстве родителей. Также разрабатываются программы социальной адаптации и реабилитации для детей и подростков, склонных к правонарушениям, такие как профессиональное обучение, психологическая поддержка и вовлечение в общественно полезную деятельность. Проводятся совместные мероприятия, направленные на предотвращение безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних, включая информационные кампании, семинары и тренинги для родителей и детей.

*3. Взаимодействие с судебными органами, прокуратурой и Национальной гвардией.* ОВД активно взаимодействуют с перечисленными структурами по ряду направлений. В их задачи входит рассмотрение дел, касающихся несовершеннолетних, совершивших правонарушения, применение воспитательных мер вместо уголовного наказания, а также контроль за выполнением судебных решений, касающихся подростков. Это взаимодействие включает в себя проведение совместных мероприятий, направленных на своевременное выявление и предотвращение противоправных действий среди молодежи.

В рамках данного сотрудничества были расширены функции сотрудников органов внутренних дел и Национальной гвардии, что дало возможность более эффективно выявлять нарушения и применять меры административного характера. Эти изменения направлены на усиление профилактики и обеспечение общественного порядка. В частности, в соответствии с Указом Президента №УП-27 от 29 ноября 2021 года, подразделения Национальной гвардии и ОВД получили дополнительные полномочия в области выявления и пресечения правонарушений среди молодежи, что позволяет оперативно реагировать на возникающие проблемы.

В феврале 2024 года Сенат Олий Мажлиса одобрил закон, направленный на усиление роли Национальной гвардии в профилактике подростковой преступности, обеспечении защиты прав и законных интересов несовершеннолетних. А в феврале 2025 года был принят закон, вносящий изменения в Кодекс об административной ответственности, который ещё больше расширяет функции Национальной гвардии в работе по профилактике правонарушений среди детей и молодежи.

*4. Участие неправительственных организаций (НПО).* Общественные объединения, работающие в сфере защиты прав детей, играют важную роль в профилактике правонарушений среди несовершеннолетних. В рамках сотрудничества [10] с государственными структурами они участвуют в реализации обучающих программ, проводят тренинги, а также занимаются социальной реабилитацией подростков. Кроме того, по их инициативе создаются телефоны доверия для оказания экстренной помощи детям, оказавшимся в трудной жизненной ситуации.

*5. Международное взаимодействие.* В Узбекистане осуществляется ряд инициатив при поддержке международных организаций, включая ЮНИСЕФ, ОБСЕ и ПРООН. Основные направления этого сотрудничества включают адаптацию международных стандартов в области предупреждения подростковой преступности, проведение аналитических исследований в данной сфере, а также обмен знаниями и лучшими практиками с зарубежными партнёрами.

6. В Узбекистане действуют специальные комиссии по делам детей, созданные для защиты прав несовершеннолетних и предотвращения случаев безнадзорности и правонарушений среди молодежи. Их работа основана на нормативной базе, в частности, на постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 6 июля 2022 года № 363 [11], которым утверждены положения о Национальной комиссии по вопросам детей, а также типовые положения для комиссий в Республике Каракалпакстан, областях, городе Ташкенте и на районном (городском) уровнях.

Так, согласно законодательства [12], Комиссии по вопросам детей имеют ряд полномочий, к которым можно отнести: осуществление мер по профилактике безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних, обеспечение защиты их прав, свобод и законных интересов; контроль и направление работы территориальных комиссий, осуществляют анализ их деятельности, оказывают им организационно-методическую помощь; обобщение и распространение положительного опыта работы органов и учреждений, осуществляющих профилактику безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних, оказывают им организационно-методическую помощь; принятие мер по координации деятельности государственных органов и организаций в области профилактики безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних, защиты их прав, свобод и законных интересов; разработка совместно с заинтересованными министерствами и ведомствами согласованных подходов по приоритетным направлениям в области профилактики безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних, защиты их прав, свобод и законных интересов; разработка комплекса мероприятий по профилактике безнадзорности, правонарушений и иных антисоциальных действий среди несовершеннолетних, обеспечение защиты их прав, свобод и законных интересов, а также осуществление контроля за реализацией этих мероприятий и др.

В целях обеспечения реализации программ, ориентированных на воспитание подрастающего поколения в духе уважения к национальным традициям и патриотизму, всестороннего подхода к предупреждению правонарушений среди несовершеннолетних, защите их от различных негативных воздействий и эффективного решения других задач в данном направлении ОВД активно сотрудничают и с другими различными структурами.

В целом, для повышения эффективности взаимодействия в данном направлении считаем необходимым:

– дальнейшее совершенствование взаимодействия ОВД с различными государственными и иными организациями по профилактике безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних;

– внедрение цифровых технологий для быстрого и безопасного обмена информацией между органами внутренних дел и соответствующими структурами в данном направлении;

– усиление международного сотрудничества в области профилактики безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних.

Подводя итог, стоит подчеркнуть, что сотрудничество ОВД с государственными и общественными структурами в Узбекистане направлено на обеспечение безопасных

условий для полноценного развития несовершеннолетних и предотвращение их вовлечения в противоправную деятельность.

**Adabiyotlar/Литература/References:**


1. Закон «О профилактике безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних» от 29 сентября 2010 г. // https://www.lex.uz/acts/1685724
2. Закон «О профилактике безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних» от 29 сентября 2010 г. // https://www.lex.uz/acts/1685724
3. ст. 8 Закона «О профилактике безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних» от 29 сентября 2010 г. // https://www.lex.uz/acts/1685724
4. Закон «О профилактике безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних» от 29 сентября 2010 года, Закон Республики Узбекистан «Об образовании», Положение о Министерстве народного образования Республики Узбекистан, утвержденное постановлением Кабинета Министров от 19 февраля 2019 года № 146 и Положение о Министерстве высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан, утвержденное постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 20 июя 2004 года № 341. // https://www.lex.uz/acts/1685724
5. Закон «О профилактике безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних» от 29 сентября 2010 года, Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 3 августа 2021 года № 490 «О мерах по дальнейшему совершенствованию оказания социально-правовой помощи несовершеннолетним», Положение об опеке и попечительстве в Республике Узбекистан, утвержденное Постановлением Кабинета Министров Республике Узбекистан от 22 сентября 2014 года № 269.
6. ст. 6 Закона «О профилактике безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних» от 29 сентября 2010 года. // ЗРУ-263-сон 29.09.2010. О профилактике безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних
7. ст. 15 Закона «О профилактике безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних» от 29 сентября 2010 года. // ЗРУ-263-сон 29.09.2010. О профилактике безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних
8. https://lex.uz/docs/5550539
9. Положение о выявлении, учете, обследовании и медико-социальной реабилитации несовершеннолетних, систематически употребляющих спиртные напитки, наркотические средства, психотропные или другие вещества, влияющие на интеллектуально-волевую деятельность (рег. № 2215 от 11.04.2011 г.); «Положение о Министерстве здравоохранения Республики Узбекистан», утвержденного постановлением Кабинета Министров от 12 сентября 2017 года № 714.
10. Законы Республики Узбекистан «Об органах самоуправления граждан» от 22.04.2013 г. № ЗРУ-350 и «О негосударственных некоммерческих организациях» от 14.04. 99. № 761-1
11. https://www.lex.uz/acts/1685724
12. https://www.lex.uz/acts/1685724

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIDA KRIPTO-AKTIV VA U BILAN BOG‘LIQ BO‘LGAN AYRIM MUAMMOLAR

**Raxmatullayev Xurshidjon Shukurilla o‘g‘li**
Navoiy viloyat prokuraturasi tashqi savdo,
investitsiyalar va tadbirkorlik sohalarida
qonunchilik ijrosi ustidan nazorat bo‘limi
katta prokurori, 1-darajali yurist
E-mail: xurshid_02_93@bk.ru

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada jinoyat qonunchiligida kripto-aktiv va u bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim muammolar, yangi kiber jinoyatlar, kiberhujum tushunchasi, kripto-aktivlarni olib qo‘yish, xatlash, saqlash hamda topshirish muammolari va tajribasi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** kiberhujum tushunchasi, kripto-aktiv mulk sifatida belgilanishi, kripto-aktivlarni olib qo‘yish, xatlash, saqlash hamda topshirish harakatlari.

# CRYPTO-ASSETS AND RELATED ISSUES IN THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**Rakhmatullayev Khurshidjon Shukurilla oglu**
Senior Prosecutor of the Department for Supervision
of the Implementation of Legislation in the Fields
of Foreign Trade, Investments and Entrepreneurship
of the Navoi Regional Prosecutor’s Office, 1st Class Lawyer

**Abstract.** This article discusses issues related to crypto-assets in criminal legislation, including certain associated problems, emerging cybercrimes, the concept of cyberattacks, as well as the challenges and practices of seizure, freezing, storage, and transfer of crypto-assets.

**Key words:** concept of cyberattack, recognition of crypto-assets as property, actions related to the seizure, accounting, storage, and transfer of crypto-assets.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N27

Jahon hamjamiyatida kripto-aktiv tobora mashhurlikka erishmoqda. Ehtimol, bu o‘zgarish qaytarib bo‘lmas hodisadir. XXI asrda moliyaviy vosita kripto-aktivga bo‘lgan qiziqish va unga bo‘lgan talabning oshishini oson tushuntirish mumkin.

Xususan, "kripto-aktiv" foydalanishda qulay, uning tranzaksiyalari juda yaxshi himoyalangan va ularning ma’lumotlari asosan davlat nazorati nuqtai nazaridan yuqori darajada anonimlikka ega.

Kripto-aktivlar bu raqamli vositalar boʻlib, ular blokcheyn texnologiyasi asosida ishlaydi hamda turli iqtisodiy faoliyatlar uchun, xususan, savdo, investitsiya va pul oʻtkazmalari uchun xizmat qiladi. Bugungi kunda kripto-aktivlarning eng mashhur turi sifatida kriptovalyuta hisoblanadi. “Hozirda dunyo boʻylab chiqarilgan kripto-aktivlarning umumiy soni 24 mingdan ortiq boʻlib, ularning umumiy narxi qariyb 1,14 trln. AQSh dollarini tashkil etmoqda”[[1].] .

Kriptovalyuta, toʻlov vositasi, investitsiya vositasi va tejamkorlikni saqlash uchun qurilma sifatida foydalanilayotgani sababli, moddiy qiymatga ega.

Jumladan, fuqarolar hamda tadbirkorlik subyektlari kapitalni saqlash vositasi sifatida kripto-aktivlardan faol ravishda fuqarolik va tadbirkorlik aylanmasida foydalanishmoqda, bu esa oʻz navbatida ularning qonuniy himoya qilish masalasi dolzarb masalaga aylantiradi.

Shu bois, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 04.07.2018 yildagi “Oʻzbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi hamda 03.09.2018 yildagi “Oʻzbekiston Respublikasida kripto-birjalar faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarorlariga asosan kripto-aktivlar mulkiy huquq sifatida belgilandi.

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining 2022 yil 14 iyuldagi 32-son buyrugʻi bilan tasdiqlangan 1-ilovasi “Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyatini litsenziyalash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizomga muvofiq kripto-aktiv — maʼlumotlarning taqsimlangan reyestridagi raqamli yozuvlar yigʻindisi boʻlgan, qiymati va egasiga ega mulkiy huquq deb taʼrif berildi.

Oʻzbekiston Respublikasining 2024 yil 19 yanvardagi “Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy Javobgarlik toʻgʻrisidagi Kodeksiga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish haqida”gi OʻRQ-899-sonli qonuni bilan Jinoyat kodeksining VIII boʻlimiga “kripto-aktiv -maʼlumotlarning taqsimlangan reyestridagi raqamli yozuvlar yigʻindisini ifodalaydigan, qiymati va egasiga ega boʻlgan mulkiy huquq[[2]]” deb oʻzgartirish kiritildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasiga asosan Oʻzbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi taʼminlanishi, xususiy mulk daxlsizligi hamda mulkdor oʻz mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan holatlardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emasligi belgilangan[[3]].

Buning natijasida kripto-aktivlar milliy qonunchiligimizda mulk sifatida tan olinishi munosabati bilan ularni jinoyat predmeti sifatida baholanishi lozim hisoblanadi.

Xususan, kripto-aktivlarning detsentralizatsiya va anonimlik xususiyati sababli jinoyat olamida ulardan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirishda keng ravishda foydalanishmoqda.

Huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan kripto-aktiv, kriptovalyuta va boshqa turlari bilan bogʻliq jinoyatlar ortib borayotganligi, kripto-aktiv bilan bogʻliq jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish amaliyotda qiyinchiliklarni uchrayotganligi hamda yangi ijtimoiy

[1] https://senat.uz/oz/articles/post-1207
[2] https://lex.uz/uz/docs/111453
[3] https://lex.uz/docs/6445145

munosabatlar kirishi munosabati bilan, ularga qarshi kurashning yangi tizimini yaratish dolzarb masalaga aylandi.

Misol uchun, kripto-aktivlar bilan faoliyat koʻrsatuvchi mas’uliyati cheklangan jamiyatiga tegishli boʻlgan “USB xotira qurilmasi” noma’lum shaxs tomonidan oʻgʻirlab ketilsa, bizning qonunchiligimizda bu ma’muriy boʻladi. Biroq, bu qurilmada kripto-aktivlarning biror bir turi saqlanayotgan boʻlsa, bunda jinoyat tarkibini beradi. Bunda tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va tergovni amalga oshiruvchi organlarning mansabdor shaxslari tomonidan qurilmani olib ekspertizadan oʻtkazishi, unda kripto-aktivning biror turi borligi aniqlanishi hamda mavjud boʻlgan holatda uning qiymatini baholashdan oʻtkazishi lozim boʻladi. Mazkur vaziyatda jinoyatlarni aniqlash va tergov qilishda jinoyat predmeti sifatida kripto-aktivlarni olib qoʻyish, xatlash, saqlash hamda topshirish muhim sanaladi.

Yoki, tergovchi tomonidan Jinoyat kodeksining kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi qonunchilikni buzish $278^8$-moddasi bilan qoʻzgʻatilgan jinoyat ishi doirasida jinoyat predmeti sifatida kripto-aktivlarni olib qoʻyish, xatlash, saqlash hamda topshirishda amaliyotda bir qator muammolar mavjud edi.

Shu bois, tergov organlari tomonidan jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish jarayonida jinoyat predmeti sifatida kripto-aktivlarni olib qoʻyish, xatlash, saqlash hamda topshirish tartibini qonun doirasida qabul qilingunga qadar huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan qoʻshma qaror loyihasi ustida ish olib borildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi hamda Bosh prokuratura bilan hamkorlikda mazkur tartibni ishlab chiqilib, 25.12.2024 yilda Adliya vazirligidan 3591-son bilan “Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirishda va jinoyatlarni tergov qilish davomida aniqlangan kripto-aktivlarni olib qoʻyish, xatlash, saqlash hamda topshirish tartibi toʻgʻrisidagi yoʻriqnomani tasdiqlash haqida[1]” Qoʻshma qaror roʻyxatdan oʻtkazildi.

Mazkur Yoʻriqnomada asosiy kripto-aktiv, ma’lumotlarning taqsimlangan reyestri, kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari, kripto-birja, kripto-hamyon, kripto-hamyon kaliti, kripto-hamyon manzili, kripto-aktivlar bilan bogʻliq huquqbuzarliklar, axborot tashuvchi qurilmalar, mayning hamda SEED ibora atamalariga izoh berilgan.

Jumladan, kripto-aktiv — ma’lumotlarning taqsimlangan reyestridagi raqamli yozuvlar yigʻindisini ifodalaydigan, qiymati va egasiga ega boʻlgan mulkiy huquq (masalan, «Bitcoin», «Ethereum» va boshqalar) deb izoh berib oʻtilgan.

Mazkur yoʻriqnoma “kripto-aktivlar tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish va jinoyatlarni tergov qilish davomida xatlash, musodara qilish, yetkazilgan zararni qoplash uchun olib qoʻyilishi hamda dalil sifatida e’tirof etilishi mumkin[2]” deb belgilangan.

Yoʻriqnomaning 12-bandida esa tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish davomida aniqlangan kripto-aktivlar Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 329-moddasiga muvofiq shaxsiy tintuv, hodisa sodir boʻlgan joyni koʻzdan kechirishda olib qoʻyilishi, 13-bandiga koʻra shaxslar oʻz tasarrufida boʻlgan kripto-aktivlar va ular bilan bogʻliq ma’lumotlarni tergovga kadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov organiga oʻz tashabbusi bilan taqdim etishga haqliligi hamda 16-bandida esa kripto-aktivlarni olib qoʻyish va xatlash

[1] https://lex.uz/uz/docs/7282772

[2] Юқоридаги манба

ularni surishtiruv hamda dastlabki tergov organlarining kripto-hamyon manziliga oʻtkazish orqali amalga oshirilishi koʻrsatilgan.

Yoʻriqnomaning 18-bandiga asosan xatlangan kripto-aktivlarni saqlash uchun surishtiruv va dastlabki tergov organlari tomonidan Oʻzbekiston Respublikasida litsenziyaga ega boʻlgan xizmatlar provayderlarida kripto-hamyonlar ochilishi va har bir organ uchun faqat bitta kripto-hamyon manzili yoki qurilmasi olinishi belgilangan.

Biroq, ushbu bandni tahlil qiladigan boʻlsak, kripto-aktivlarni saqlash uchun surishtiruv va dastlabki tergov organlari tomonidan Oʻzbekiston Respublikasida litsenziyaga ega boʻlgan xizmatlar provayderlarida har bir organ uchun faqat bitta kripto-hamyon manzili yoki qurilmasi olinsa, provayderlarda surishtiruv va dastlabki tergov organlarining ortiqcha hamyonlar ochilishi mumkin.

Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasida surishtiruv hamda dastlabki tergovni amalga oshiruvchi 5 tadan davlat organi mavjud boʻlib, Respublikamizning 14 ta hududiy birlikda ularning joylardagi boʻlinmalari faoliyat koʻrsatadi.

Bunda surishtiruv va dastlabki tergov organlari hamda uning hududiy boʻlinmalari har biri bittadan kripto-hamyon manzili yoki qurilmasi xizmat provayderlaridan olinsa, juda koʻp hamyon ochilishiga sabab boʻladi.

Shu sababli, mazkur bandga xatlangan kripto-aktivlarni saqlash uchun surishtiruv va dastlabki tergov organlari tomonidan Oʻzbekiston Respublikasida litsenziyaga ega boʻlgan xizmatlar provayderlarida kripto-hamyonlar ochilishi va har bir "hudud" yoki "huquqni muhofaza qilish organi" uchun faqat bitta kripto-hamyon manzili yoki qurilmasi olinishi belgilansin deb qonunchilikka oʻzgartirish maqsadga muvofiq.

Buning natijasida provayderlarda ochiladigan hamyonlar qisqarishi, bunda jami huquqni muhofaza qilish organlari uchun 10 ta yoki hudud kesimida 14 ta boʻlishi lozim deb hisoblayman, ularga koʻrsatiladigan xizmat kamayishi hamda markazlashgan ravishda tartibga solinishiga asos boʻladi.

Bundan tashqari, kiberhujum orqali kripto-aktivlarni noqonuniy ravishda egallab olish holatlari ham uchrab turmoqda. Misol uchun, "Bybit nomli kriptobirjaning 1,46 mlrd dollar qiymatidagi kripto-aktivlari oʻgʻirlangan[1]"ligi butun dunyoda shov-shuvga sabab boʻldi.

Oʻzbekiston Respublikasining 15.04.2022 yildagi 764-sonli "Kiberxavfsizlik toʻgʻrisida[2]" Qonunida kiberhujum taʼrif berib oʻtilgan boʻlib, unda kiberhujum — kibermakonda apparat, apparat-dasturiy va dasturiy vositalardan foydalangan holda qasddan amalga oshiriladigan, kiberxavfsizlikka tahdid soladigan harakat deb taʼriflangan.

Ushbu taʼrifga qoʻshimcha oʻzgartirish kiritish lozim, chunki kibermakonda apparat, apparat-dasturiy va dasturiy vositalardan foydalangan holda qasddan amalga oshiriladigan, kiberxavfsizlikka tahdid soladigan harakat bilan cheklanib qolinmaydi.

Mening taklifim qoʻshimcha ravishda qasddan kripto-aktivlarni egallashga qaratilgan harakat deb qonunchilikka oʻzgartirish kiritish maqsadga muvofiq sanaladi.

[1] http://bbc.com/russian/articles/c62z7p05ljpo
[2] https://lex.uz/docs/5960604

**Adabiyotlar/Литература/References:**


1. Крипто-активларга оид қонунчилик такомиллашди. Эркин ГАДОЕВ, Олий Мажлис Сенатининг Бюджет ва иқтисодий ислоҳотлар масалалари қўмитаси раиси. https://senat.uz/oz/articles/post-1207
2. Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2788-moddasi va kodeksining sakkizinchi boʻlim “Atamalarning huquqiy maʼnosi”. https://lex.uz/docs/-111453;
3. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. Mazkur yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni oʻtkazilgan Oʻzbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish yoʻli bilan qabul qilingan. https://lex.uz/docs/-6445145;
4. 25.12.2024 yilda Adliya vazirligidan 3591-son bilan roʻyxatdan oʻtkazilgan “Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirishda va jinoyatlarni tergov qilish davomida aniqlangan kripto-aktivlarni olib qoʻyish, xatlash, saqlash hamda topshirish tartibi toʻgʻrisidagi yoʻriqnomani tasdiqlash haqida” Qoʻshma qaror. https://lex.uz/docs/-7282772
5. 25.12.2024 yilda Adliya vazirligidan 3591-son bilan roʻyxatdan oʻtkazilgan “Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirishda va jinoyatlarni tergov qilish davomida aniqlangan kripto-aktivlarni olib qoʻyish, xatlash, saqlash hamda topshirish tartibi toʻgʻrisidagi yoʻriqnomani tasdiqlash haqida” Qoʻshma qaror. https://lex.uz/docs/-7282772
6. Хакеры украли на криптобирже Bybit рекордные $1,46 млрд. ФБР заявило, что они работают на Северную Корею. http://bbc.com/russian/articles/c62z7p05ljpo
7. Oʻzbekiston Respublikasining 15.04.2022 yildagi 764-sonli “Kiberxavfsizlik toʻgʻrisida” Qonuni. https://lex.uz/uz/docs/-5960604

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# FUQAROLIK PROTSESSIDA AJRIMLAR TUSHUNCHASI VA TURLARI

**Aldamuratova Amangul Uralbayevna**
Oʻzbekiston Respublikasi Sudyalar Oliy maktabi
tinglovchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada fuqarolik protsessining asosiy protsessual hujjatlaridan biri ajrimlar tushunchasi mazmun-mohiyati ochib berilgan. Maqolada milliy va xorijiy olimlar qarashlari, qonunchilik normalari tahlil qilingan holda turli asoslarga koʻra tasniflangan.

**Kalit soʻzlar:** Fuqarolik protsessi, sud hujjati, ajrimlar, qarorlar, qonuniylik.

# CONCEPT AND TYPES OF DETERMINATIONS IN CIVIL PROCEEDINGS

**Aldamuratova Amangul Uralbaevna**
student of the Higher School of Judges of the
Republic of Uzbekistan

**Abstract.** This article reveals the essence of the concept of rulings, one of the main procedural documents of civil proceedings. The article analyzes the views of domestic and foreign scientists, legislative norms, and classifies them according to various criteria.

**Keywords:** Civil procedure, judicial act, rulings, decrees, legality.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N28

Sud davlat hokimiyati organi sifatida koʻrilayotgan va hal etilayotgan masala boʻyicha sud hujjatlaridan birini (hal qiluv qarori, ajrim, qaror va buyruq) qabul qiladi. Sudning qonuniy kuchga kirgan hujjatlari barcha davlat organlari va boshqa organlar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir hamda Oʻzbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi lozim (FPKning 16-moddasi).

Yuridik adabiyotlarda koʻrsatilishicha, fuqarolik ishlari boʻyicha hal etiladigan masalalarga koʻra, sud hujjatlari quyidagi turlarga – hal qiluv qarori, ajrim, sud buyrugʻiga boʻlinadi [1].

Yuridik fanda sud ajrimlarining mohiyatini aniqlashga urinishlar boʻlgan. Chunonchi, K.S.Yudelson sud qarorlari va ajrimlari oʻrtasidagi farqni koʻradi [2]. Bunda u quyidagi belgilari bilan tavsiflaydi: ular qonunga boʻysunadi; ulardagi normalar yoʻllangan shaxslar uchun majburiydir; sudning hal qiluvchi faoliyatiga taalluqli masalalarga taalluqli boʻlsa; sud hokimiyati ifodasining protsessual shaklini ifodalaydi.

N.B.Zeyder ham sud ajrimlarining mohiyatini sudning hal qiluv qarori bilan taqqoslash orqali oʻrganadi. Hal qiluv qarori ham, ajrim ham sud qarorlarining turlari boʻlib, ular uchun

umumiy boʻlgan ular ishni koʻrish va hal qilish jarayonida qoʻyilgan masalalar boʻyicha sudning mulohazalarini rasmiylashtiradi hamda majburiy xususiyatga ega boʻladi. Biroq ularning protsessual tabiati turlicha, chunki taʼriflar ishni koʻrib chiqishda yuzaga keladigan turli xil alohida masalalarni hal qiladi, bu esa boshqa farqlarni ham keltirib chiqaradi [3].

D.M.Chechotning yozishicha, sud ajrimi odil sudlov akti boʻlib, unda sudning xohish-irodasi qayd etiladi, biroq u "taraflar oʻrtasidagi nizoni mazmunan hal etish, asosan esa ishni koʻrish jarayonida yuzaga keladigan qoʻshimcha masalalarni hal etishga" bayon etiladi [4].

G.V.Voronkov [5] sudning taʼrifini odil sudlov akti sifatida tavsiflab, bu qarorlar va ajrimlarni birlashtirishini taʼkidlaydi. Ammo shu bilan birga, muallif taʼriflar fuqarolik protsessida hal qiluvchi emas, balki boʻysunuvchi, xizmat, akt rolini oʻynashini taʼkidlaydi. Qonuniy va asoslantirilgan qaror chiqarilishini taʼminlaydigan, bu esa sudning hal qiluvchi faoliyatidan farq qiladigan boshqaruv faoliyatining mohiyatidan kelib chiqadi.

Fuqarolik ishlari boʻyicha sud tomonidan chiqariladigan sud hujjatlarining farqiga oid koʻrsatmani M.G.Avdyukovda [6] ham uchratish mumkin: ish yuritish jarayonida yuzaga keladigan barcha boshqa (asosiy masaladan tashqari) masalalarni hal qiladi.

Boshqa mualliflar, umuman olganda, qarorlardan farqli oʻlaroq, taʼriflarning huquqiy tabiati bir xil emasligi yoki ularning mohiyatini toʻliq ochib berish mumkin boʻlgan taʼriflarning boshqa xususiyatlarini (shakli, qaror tartibi) hisobga olish zarurligi haqida gapiradilar.

Turli nuqtai nazarlarni oʻrganish shuni koʻrsatadiki, ularning mualliflarining koʻplab xulosalari toʻgʻri. Bu, xususan, sudning hal qiluv qarori va ajrimi oʻrtasidagi mavjud farqlarni, har bir turdagi ajrimning turlicha roli va ahamiyatini koʻrsatishga taalluqlidir. Biroq, ularning huquqiy tabiati yetarlicha chuqur oʻrganilmagan, taʼriflarning barcha muhim xususiyatlari ochib berilmagan koʻrinadi.

Sudning hal qiluv qarorlari va ajrimlari nisbatiga yangicha qarash imkonini bergan boʻlar edi.

Hal qiluv qarorlari va ajrimlar bir turga — sud qarorlariga mansubdir. Ular bir-biridan tubdan farq qiladigan huquqiy tabiatga ega boʻlishi mumkin emas.

Mamlakatimiz qonunchiligiga asos fuqarolik ishi boʻyicha birinchi instansiya sudining ajrimi ish mazmunan hal qilinmaydigan sud hujjati hisoblanadi (FPK 6-moddasining oltinchi qismi).

Shu bilan birga, fuqarolik ishini koʻrishda vujudga keladigan masalalar boʻyicha ajrimlarning oʻz vaqtida va toʻgʻri chiqarilishi, uni belgilangandek sud muhokamasiga tayyorlash, protsess ishtirokchilarining huquqlarini amalga oshirish, qonuniy, asosli va adolatli hal qiluv qarori qabul qilishga yordam beradi.

Birinchi instansiya sudining ajrimlarini chiqarish, mazmuni va ijro etishni tartibga soluvchi umumiy qoidalari FPK 24-bobida nazarda tutilgan. Birinchi instansiya sudining ajrimlari alohida xonada (maslahatxonada) tuziladigan alohida protsessual hujjat shaklida ham, sud majlisi bayonnomasiga sud tomonidan qabul qilingan qaror haqida tegishli yozuv kiritgan holda sud majlisi zalida ham chiqarilishi mumkin.

Sud alohida protsessual hujjat sifatida:

arizani ish yuritishga qabul qilish va ish qoʻzgʻatish toʻgʻrisida;

arizani ish yuritishga qabul qilishni rad etish toʻgʻrisida;

arizani qaytarish toʻgʻrisida;

ishni sud muhokamasiga tayyorlash toʻgʻrisida;

ishni sud muhokamasiga tayinlash toʻgʻrisida;

bir turdagi ishlarni birlashtirish va bir nechta talablarni alohida ish yuritishga ajratish toʻgʻrisida;

ishni yopiq sud majlisida koʻrish toʻgʻrisida;

ishni sirtdan ish yuritish tartibida koʻrish toʻgʻrisida;

ishga daxldor boʻlmagan javobgarni almashtirish yoki shaxsni sherik javobgar sifatida ishga jalb qilish toʻgʻrisida;

ish boʻyicha boshqa shaxslarni jalb qilish toʻgʻrisida;

huquqiy vorislar protsessga kirishishi toʻgʻrisida;

sud topshirigʻi toʻgʻrisida;

da’voni ta’minlash, da’voni ta’minlashning bir turini boshqasi bilan almashtirish, shuningdek da’voni ta’minlash choralarini bekor qilish toʻgʻrisida;

rad qilish haqidagi arizani qanoatlantirish yoki rad qilish toʻgʻrisida;

shaxsni majburiy keltirish toʻgʻrisida;

sud jarimasini solish toʻgʻrisida;

sud ekspertizasi tayinlash toʻgʻrisida;

javobgarni (qarzdorni) qidirish toʻgʻrisida;

ish boʻyicha ish yuritishni toʻxtatib turish va tiklash toʻgʻrisida;

arizani koʻrmasdan qoldirish toʻgʻrisida;

ish yuritishni tugatish toʻgʻrisida;

er-xotinga yarashish uchun muhlat tayinlash va ish muhokamasini keyinga qoldirish toʻgʻrisida;

alimentlarni hal qiluv qarori qabul qilingunga qadar undirish toʻgʻrisida;

ishni bir suddan boshqa sudga oʻtkazish toʻgʻrisida;

sud buyrugʻini bekor qilish toʻgʻrisida;

ishni soddalashtirilgan ish yuritish tartibida koʻrish yoki ishni da’vo ishini yuritishning umumiy qoidalari boʻyicha koʻrishga oʻtish toʻgʻrisida;

hal qiluv qarori yozuvidagi xatolarni va aniq koʻrinib turgan arifmetik xatolarni tuzatish toʻgʻrisida;

hal qiluv qarorini tushuntirish toʻgʻrisida;

hal qiluv qarorini darhol ijro etish haqida;

darhol ijro etishga qaratilmagan hal qiluv qarorining ijrosini ta’minlash haqida;

sirtdan qabul qilingan hal qiluv qarorini qayta koʻrish toʻgʻrisida;

hakamlik sudi hal qiluv qarorini bekor qilish yoki bekor qilishni rad qilish toʻgʻrisida;

hakamlik sudi hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish yoki berishni rad etish toʻgʻrisida;

chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijro etish yoki buni rad etish toʻgʻrisida;

chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish haqidagi arizani qaytarish toʻgʻrisida;

protsessual muddatlarni uzaytirish va tiklash toʻgʻrisida;

hal qiluv qarorining ijrosini kechiktirish yoxud boʻlib-boʻlib ijro etish, uni ijro etish usuli va tartibini oʻzgartirish toʻgʻrisidagi masalalar boʻyicha ajrim chiqarishga majbur;

da’vo ariza (ariza)ni sudga taalluqliligiga koʻra, iqtisodiy sudga yoki ma’muriy sudga koʻrib chiqish uchun oʻtkazish toʻgʻrisida;

fuqarolik ishlari boʻyicha sud ish materiallarini sudga taalluqliligiga koʻra, iqtisodiy sudga yoki ma’muriy sudga koʻrib chiqish uchun oʻtkazish va fuqarolik sud ishini yuritishni tugatish toʻgʻrisida ajrim chiqarishi mumkin.

Xorij tajribasiga nazar tashlasak, Yaponiyada fuqarolik protsessida sud ajrimlari bir necha turga boʻlinadi. Ushbu ajrimlar sud jarayonida qabul qilingan qarorlarning turi va mazmuniga koʻra farqlanadi. Yaponiya fuqarolik protsess kodeksining (Civil Procedure Code) asosida sud ajrimlari asosan quyidagi turlarga boʻlinadi:

1. Ijobiy ajrimlar (Affirmative Decisions)

Bu turdagi ajrimlar sud tomonidan ishning mazmuni boʻyicha ijobiy qaror qabul qilinganini anglatadi. Ijobiy ajrimlar, odatda, da’vo arizasida koʻrsatilgan talablarni qondirishga yoki taraflar oʻrtasidagi huquqiy munosabatlarni aniqlashga qaratilgan.

2. Rad etish ajrimlari (Dismissal Decisions)

Rad etish ajrimlari, sud tomonidan da’vo yoki ariza rad etilganda qabul qilinadi. Bu turdagi ajrimlar, odatda, ishning asosi yoki protsessual xato sababli qabul qilinadi.

3. Toʻxtatish ajrimlari (Stay Decisions)

Toʻxtatish ajrimlari sud jarayonini ma’lum vaqtga toʻxtatishga qaratilgan qarorlardir. Bu, masalan, taraflar oʻrtasidagi kelishuv yoki mediatsiya jarayonini amalga oshirish uchun toʻxtatilishi mumkin.

4. Ijro ajrimlari (Execution Decisions)

Ijro ajrimlari, sud qarorlarini amalga oshirish uchun qabul qilinadigan qarorlardir. Bu turdagi ajrimlar, sudning avvalgi ijobiy yoki rad etish qarorlarini amalga oshirishga qaratilgan.

5. Maxsus ajrimlar (Special Decisions)

Maxsus ajrimlar, muayyan protsessual vaziyatlarda qabul qilinadigan maxsus qarorlardir. Masalan, sud tomonidan ishni qayta koʻrib chiqish yoki yangi dalillarni qabul qilish haqidagi qarorlar.

6. Oraliq qarorlar (Interim Decisions)

Oraliq qarorlar, sud jarayoni davomida qabul qilinadigan va ishning oxirgi qarorini qabul qilishdan oldingi qarorlardir. Bu qarorlar, odatda, protsessning davomida muammolarni hal qilish uchun zarur boʻladi.

Yaponiyada fuqarolik protsessida sud ajrimlari turlari sud jarayonining samaradorligi va adolatliligini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Sud ajrimlari har bir holatga mos ravishda qabul qilinadi va ularning maqsadi taraflarning huquqlarini himoya qilish va protsessni samarali olib borishdir.

Qozogʻistonda ham sud ajrimlari bir necha turga boʻlinadi:

• Asosiy ajrimlar (Sudyaniң sheshimi): Sudning asosiy qarorlari, ya’ni ishning mazmuni boʻyicha qabul qilingan qarorlar. Ular taraflarning huquqiy munosabatlarini aniqlash va hal qilishda muhim rol oʻynaydi.

• Protsessual ajrimlar (Protsessualdiq sheshimder): Protsessual jarayonlar bilan bogʻliq qarorlar. Bu ajrimlar sud jarayonining yuritilishi, dalillarni taqdim etish, muddatlarni belgilash va boshqa protsessual masalalarni qamrab oladi.

• Ijro ajrimlari (Orindau sheshimderi): Sud qarorlarini ijro etish boʻyicha qabul qilingan ajrimlar. Ushbu ajrimlar sud qarorlarini amalga oshirish uchun zarurdir.

Fuqarolik protsessual huquqining muhim institutlaridan biri boʻlgan **sud ajrimlari** fuqarolik ishlarini hal etish jarayonida sud tomonidan qabul qilinadigan protsessual hujjatlar qatorida alohida oʻrin tutadi. Ushbu maqolada ajrim tushunchasi, uning huquqiy tabiati va amaliyotdagi turlari tahlil qilinib, ajrimlar fuqarolik protsessining samarali yuritilishida qanday vazifa bajarayotgani ochib berildi.

Tahlillardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, sud ajrimlari:

- protsessning muayyan bosqichida sud tomonidan qabul qilinadigan, maʼlum protsessual harakatlarga nisbatan rasmiy munosabatni ifoda etuvchi;

- sud ishini toʻxtatish, davom ettirish, rad etish, taʼminlash kabi huquqiy natijalarni keltirib chiqaradigan;

- qarordan farqli ravishda ishni yakunlamaydigan, ammo ish yuritishga bevosita taʼsir koʻrsatadigan hujjat sifatida namoyon boʻladi.

Shuningdek, ajrimlar institutini takomillashtirish uchun yagona klassifikatsiyani ishlab chiqish, ularni aniq va loʻnda shaklda rasmiylashtirish, sudyalar uchun uslubiy koʻrsatmalar yaratish va elektron shakldagi ajrimlar bazasini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Гражданский процесс: Учебник / Под ред. М.К. Треушникова. – 6-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательский Дом «Городец», 2018. – С. 398.
2. Юдельсон К. С. Основные задачи и формы деятельности суда первой инстанции в советском гражданском процессе // Ученые записки Свердловского юридического института. 1955. Т. 3. С. 113, 123
3. Зейдер Н. Б. Судебное заседание и судебное решение в советском гражданском процессе: Учеб. пособие. Саратов, 1959. С. 54–58
4. Чечот Д. М. Постановления суда первой инстанции по гражданским делам. М., 1958. С. 9.
5. Воронков Г. В. Определение суда первой инстанции в советском гражданском процессе: Учеб. пособие. Саратов, 1967. С. 29
6. Авдюков М. Г. Судебное решение. М., 1959. С. 5.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# KIBERFIRIBGARLIK VA KIBERKORRUPSIYA – RAQAMLI DUNYODAGI MURAKKAB JINOYATLAR

**Xakimov Jahongir Olimjon o‘g‘li**
Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi magistraturasi
“Tergov faoliyati” mutaxassisligi tinglovchisi
E-mail: jahongirkhakim@gmail.com

**Annotasiya.** Maqolada kiberfiribgarlik, raqamli lar, raqamli texnologiyalarni huquqiy tartibga solish, raqamli texnologiyalardan foydalanib sodir etiladigan iqtisodiy jinoyatlar, kiberfiribgarlik turlari, frikshing, kiberfiribgarlikning vujudga kelishi, rivojlanish tarixi, kiberkorrupsiya, kriptovalyutalar, kriptovalyuta sohasidagi jinoiy harakatlarni huquqiy tartibga solish bo‘yicha xalqaro tajriba, shuningdek mazkur jinoyatlarni ochish bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Maqolada kiberkorrupsiyaga to‘xtalishimizninng asosiy sababi, raqamli dunyodagi yangi korrupsion xatarlar va ularning turlari, xususan, kriptovalyuta orqali korrupsiyaga qarshi kurashish imkoniyatlarini, bu yo‘nalishdagi qonunchilikni qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish, raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga egaligini ko‘rsatib bermoqchimiz.

**Kalit so‘zlar:** Raqamli texnologiyalar, kiberfiribgarlik, kiberkorrupsiya, jinoyat, jinoiy javobgarlik, iqtisodiy jinoyat, firibgarlik, fishing, kriptovalyuta, kiberxavfsizlik, huquqiy tartibga solish.

# THE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE COMMISSION OF ECONOMIC CRIMES

**Khakimov Jakhongir Olimjon ogli**
Master’s student of the Academy of Law Enforcement
"Investigative Activities"
E-mail: jahongirkhakim@gmail.com

**Abstract.** The article addresses cyber fraud, digital technologies, the legal regulation of digital technologies, economic crimes committed using digital technologies, types of cyber fraud, phishing, the emergence and historical development of cyber fraud, cyber corruption, criminal activities in the field of cryptocurrency, as well as international experience in regulating criminal activity in the cryptocurrency sector. Additionally, the article presents proposals for addressing challenges in detecting such crimes.

The main reason for focusing on cyber corruption in the article is to highlight new corruption risks in the digital world and their various forms. In particular, it explores the potential of using cryptocurrency to combat corruption, the need to review and improve legislation in this area, and the significance of this effort in ensuring the sustainable development of the digital economy.

**Keywords:** Digital technologies, cyber fraud, cyber corruption, crime, criminal liability, economic crime, fraud, phishing, cryptocurrency, sybersecurity legal regulation.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N29

**Kirish.** Iqtisodiy jinoyatlar har doim, muxtasar va murakkab mavzu bo'lib kelgan. Lekin bu mavzu internet va virtual olamning huquqiy, yurisdiktsiyaviy va suverenitetga oid muammolari bilan bog'langanda, uni tartibga solish yanada qiyinlashmoqda. Internet orqali sodir etiladigan kiberfiribgarlik, talon-taroj, kiberkorruptsiya, o'g'irlik shaklidagi iqtisodiy jinoyatlar shiddat bilan o'sib borayotganligini bugun hech kimga sir emas.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, ularning ijtimoiy sohaga keng qo'llanilishi, yangi turdagi huquqiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu boisdan, jinoyat huquqi nazariyasida raqamli jinoyatlar tizimini yaratish, ularning jinoyat sifatida tasniflanishi va yangi xatarlarga qarshi kurashish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalardan foydalanib sodir etilgan jinoyatlar yangi yondashuvlarni va qonunchilikni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan birga, ilgari tasniflanmagan yoki aniq huquqiy tartibga solinmagan yangi jinoyat turlarining paydo bo'lishi ko'plab ilmiy tadqiqotlarni taqozo etmoqda.

Raqamli moliyaviy aktivlar (masalan, kriptovalyutalar, elektron pul va hokazo) huquqiy normativlar bilan tartibga solinishi zarur. Ushbu aktivlarning aylanmasi axborot tizimlari yordamida amalga oshiriladi. Biroq, huquqni muhofaza qilish organlari raqamli moliyaviy aktivlarning joriy huquqiy tartibga solinishi va ular bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha qonunchilik normalarining yetarli emasligini ta'kidlashmoqda.

Qonunchilik normalarini yangi qabul qilingan konstitutsiya asosida takomillashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Chunki, "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tom ma'noda inson huquqlari va manfaatlarining huquqiy kafolati hisoblanib, yangi tahrirdagi Konstitutsiyadagi barcha normalar yagona tushuncha, ya'ni "inson qadri"[15] degan tushunchaning atrofiga qurilgan.

XX asrning oxirida texnologiyalar o'sishi bilan birga kiberfiribgarlikning yangi shakllari paydo bo'ldi. Xususan, "1970–1980-yillarda kiberfiribgarlikning ilk belgilaridan biri "frikshing" (phreaking) paydo bo'lgan, bu telefon tizimlariga kirib, bepul telefon qo'ng'iroqlarini amalga oshirish, tizimni ishdan chiqarishgacha zararlar etkazgan. Jon Dreper, "Kapitan Kranch" deb tanilgan shaxs, bu sohadagi ilk pionerlardan biri hisoblanadi"[4, 441-442-b].

1980-yillarda yuqorida ko'rib chiqqanimizdek kompyuter tarmoqlari rivojlana boshlaganida yangi xavflar paydo bo'gan. Masalan, "Markus Xess harbiy kompyuterlarga xakerlik qilib kirib, ulardan olgan maxfiy ma'lumotlarni KGBga sotish uchun foydalangan"[14].

Kiberfiribgarlik 1988 yilda Robert Morris o'zining "Morris Vormi" virusini tarqatishi[16, 80-81-b], 1989 yilda xakker Jozef Pop floppi disklar orqali kompyuterlarga xujum uyushtirib, pul talab qilgan birinchi shaxs sifatida tarixga kirishi, 1990 yilda Kevin Mitnik yuqori xavfsizlik tarmoqlarigacha kirib borishi natijasida rivojlanib, XX asr 90 yillari davomida yangi ko'rinish va shakllarda ko'plab marotaba sodir etilgan.

Internetdan foydalanish kengaygan sari, zamonaviy kiberfiribgarlik turlari paydo bo'lib, yanada takomillashdi:

"2000 yilda "Love Bug" virusi dunyoning millionlab kompyuterlariga tarqatilib, elektron pochta orqali firibgarlik qilish mumkinligini ko'rsatdi"[5].

"2003-2008 yillarda Albert Gonzales katta miqdordagi kredit kartalari o'g'irliklari bilan shug'ullanib, Heartland Payment Systems kompaniyasidan millionlab dollar o'g'irlagan"[12].

Kiberfiribgarlik texnologiyalar rivoji bilan birga rivojlanishda davom etmoqda. Firibgarlikning bu turi turli usul va shakllarda sodir boʻlishi mumkin. Ularning orasida eng keng tarqalgani fishing, karding va farmingdir. Fishing "baliq ovlash" maʼnosini anglatib, banklar yoki toʻlov tizimlari nomidan elektron pochta xabari yuboriladi. Maqsad — foydalanuvchini bank va toʻlov tizimlari bilan bir xil koʻrinishga ega boʻlgan yolgʻon saytga oʻtishga undash. Foydalanuvchi ushbu saytda shaxsiy maʼlumotlarini kiritsa, kiberfiribgar uning maʼlumotlarini olib, tuzoqqa tushirishi mumkin.

Hukumatlar va tashkilotlar ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish uchun kiberxavfsizlikni taʼminlash va huquqiy normalarni qoʻllash uchun 1990 yildagi Britaniyada "Unauthorized Access Act", 2003 yilda AQShda "Operation Cyber Sweep"[1] kabi hujjatlarni qabul qilgan.

Oʻzbekiston Respublikasida ham kiberfiribgarlikka qarshi kurashish maqsadida bir qator chora-tadbirlar koʻrilmoqda. Xususan, 15.04.2022 yilda «Kiberxavfsizlik toʻgʻrisida»gi OʻRQ-764-son Qonun qabul qilingan. Mazkur Qonunning 4-moddasida Kiberxavfsizlikni taʼminlash qonuniylik; kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishning ustuvorligi; kiberxavfsizlik sohasini tartibga solishga nisbatan yagona yondashuv; kiberxavfsizlik tizimini yaratishda mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishtirokining ustuvorligini taʼminlash hamda Oʻzbekiston Respublikasining kiberxavfsizlikni taʼminlashda xalqaro hamkorlik uchun ochiqligi belgilandi.

Biroq, koʻrilayotgan chora-tadbirlarga qaramay kiberjinoyatlar kun sayin oʻsib, ushbu turdagi jinoyatlarni aniqlash, javobgarlik masalasini hal etish qiyinlashib bormoqda. Birgina misol, axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan jinoyatlar 2024 yilda 61.171 ta sodir etilib, shundan 57.489 tasi 93.1% fosh etilmagan. Huquqni muhofaza qilish akademiyasi boshligʻining birinchi oʻrinbosari E.V.Kolenko taʼkidlab oʻtganidek "...raqamli texnologiyalardan foydalanib sodir etilayotgan jinoyatlar "Sunami" kabi yopirilma zarba berib, shaxslar, jamiyat va davlatga juda katta zarar keltirmoqda"[2].

Kiberfiribgarlikning rivoji texnologiyalar bilan birga ijtimoiy va iqtisodiy taʼlimlarning muttasil oʻzgarishiga va ularning shu kabi yangi tahdidlarga qarshi turuvchi mutaxasislarni tayyorlashga bogʻliq hisoblanadi. Ushbu jinoyatlar yanada innovatsion va murakkab shakllarni qoʻllashni talab qilmoqda, va ularga qarshi faqat texnik yondashuvlar emas, balki ijtimoiy va huquqiy sohadagi muammolarni ham yechish kerak.

Mazkur muammolarni bartaraf etish, ushbu turdagi jinoyatlarni oldini olish kamaytirish, javobgarlik masalalarini hal etish, mavjud huquqiy normalarni takomillashtirish boʻyicha koʻplab olimlar tadqiqot olib bormoqda.

Taʼlim tizimlari, huquqiy tartib-taomillar va xalqaro hamkorlik bu kabi jinoyatlarning oldini olishda muhim omil boʻlib xizmat qiladi. Bundan tashqari, kiberfiribgarlik va uning koʻplab shakllariga qarshi chora-tadbirlar joriy etish, korporativ xavfsizlik, shaxsiy maʼlumotlarni muhofaza qilish va kiberxavfsizlik sohasidagi strategiyalarni ishlab chiqish zaruriyati juda katta ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, kiberfiribgarlik qurbonlari koʻpincha axborot texnologiyalari boʻyicha bilimdan yiroq boʻlgan, internetning xavf-xatarlaridan toʻliq xabardor boʻlmagan odamlar boʻlib, ularning huquqiy ongi va raqamli qurilmalardan foydalanish koʻnikmalarini oshirish kerak. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, asosan, kiberfiribgarlikning qurbonlari qariyalar va axborot texnologiyalarini toʻliq tushunmaydigan oʻsmirlar boʻladi.

Bu guruhlar, firibgarlikning usullari va jinoyatchilarning manipulyasion taktikalarini ajratib olishda yetarli bilim va koʻnikmalarga ega emas, bu esa ularni jinoyatchilarning qurboniga aylantiradi.

“Kiberxavfsizlik markazi” DUK maʼlumotiga koʻra, “2021 yilda internet tarmogʻining milliy segmenti manzil maydonida 17 million 97 ming 478 ta zararli va shubhali holat, jumladan, 1 354 106 ta kiberhujum aniqlangan. 2022 yilda 4 433 789 ta boʻlgan boʻlsa, 2023 yilga kelib 11 020 235 ta yaʼni 148% ga ortgan”[10].

Koʻrinib turibdiki, odamlarni firibgarlik turlari va ularni amalga oshirish usullari haqida xabardor qilish, koʻchalarda va jamoat joylarida kiberxavfsizlik va firibgarlikning oldini olish boʻyicha reklama bannerlarini koʻpaytirish va barcha televizion kanallarda kiberfiribgarlar haqida maʼlumot beruvchi, videoroliklar, turli telekoʻrsatuvlarni tashkil etish zarur.

Shuningdek, kiberfiribgarlikning oldini olish boʻyicha profilaktik ishlarni yanada samarali qilish uchun, qiziqarli filmlar yoki teleseriallar yaratish, bu mavzuda keng ommaga maʼlumot berishni samarali usuliga aylanishi mumkin. Bunday film va seriallar orqali, jamoatchilikka firibgarlik turlari, jinoyatchilarning usullari va bu kabi jinoyatlarning oldini olish boʻyicha taʼlim berish mumkin. Bunday yondashuv, nafaqat odamlarning axborot xavfsizligi haqida bilimlarini oshirishga, balki ularga ehtiyotkorlikni oshirishga ham turtki beradi.

Shu bilan birga, barcha odamlar profilaktik choralarga eʼtibor bermasligi mumkinligini hisobga olib, keng qamrovli xabardorlik kampaniyalarini oʻtkazish kerak. Xususan, turli xil video materiallar, televizion dasturlar va koʻchalarda targʻibot materiallarini joylashtirish orqali, kiberfiribgarlikning oldini olish va odamlarning ehtiyotkorligini oshirishning samarali usullarini yaratish mumkin. Bunday choralarning amalga oshirilishi kiberjinoyatlarga qarshi kurashishda muhim omil boʻladi va aholi orasida kiberxavfsizlik toʻgʻrisida ongli yondashuvni shakllantiradi.

Yuqorida keltirilgan barcha fikrlar asosida, taklif qilingan huquqiy choralar, qarshi chora-tadbirlar va targʻibot ishlari huquqni muhofaza qilish faoliyatining samaradorligini oshirish, kiberfiribgarlikning tarqalishini toʻxtatish, jinoyatchilarni aniqlash va jinoiy qonunchilikka yangi normalarni joriy etish imkonini beradi.

Iqtisodiy jinoyatlarning nisbatan yangi turi boʻlgan kiberkorrupsiyaga toʻxtalib oʻtadigan boʻlsak 05.03.2025 yilda boʻlib oʻtgan Korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha milliy kengash yigʻilishida prezident Sh.M.Mirziyoev “Hammamiz yagona kuch boʻlib harakat qilsak, albatta, katta ijobiy samaraga erishamiz. Shu bois mahalla faollari, nuroniylar, ziyolilar, yozuvchi va shoirlar, sanʼat va madaniyat xodimlari, tadbirkorlar, taniqli shaxslar, rahbarlar, deputat va senatorlar – umuman butun jamoatchilik birlashib, korrupsiyaga “jamiyat tanasidagi saraton” sifatida qarashi kerak”[11]– deb, korrupsiyani har qanday koʻrinishi jumladan nisbatan yangi turi kiberkorrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha topshiriqlar berilib, hududiy kengashlar tarkibi yangilandi.

Mazkur yigʻilishda korrupsiya yuqori boʻlgan uchta vazirliklarni har chorakda quyi tizimigacha tushib oʻrganilishi boʻyicha topshiriqlar berilishi, yangi texnologiyalar, virtual valyutalar, va innovatsion yechimlarning paydo boʻlishi jamiyat va iqtisodiyotda qator ilgʻor oʻzgarishlarni yuzaga keltirayotgan boʻlsa-da, ularning huquqiy tartibga solinishi masalasida hamon kamchiliklar yetarlicha. Bu, ayniqsa, raqamli muhitdagi korrupsiyaga oid qonunbuzarliklarda yaqqol namoyon boʻlmoqda.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarning xalqaro darajadagi huquqiy maqomini aniq belgilashdagi muammolar korrupsiyaning yangi shakllariga qarshi samarali kurashishni qiyinlashtiradi.

Kiberkorrupsiyaning asosiy shakli kriptovalyutalarda namoyon boʻlib, ilgari nomaʼlum boʻlgan yangi korrupsiya turiga aylanmoqda. Shu oʻrinda "Kriptovalyuta" tushunchasiga toʻxtalib oʻtamiz, mazkur atama tarmoqni himoya qilish uchun qoʻllaniladigan shifrlash usullaridan kelib chiqqan boʻlib, "Kripto" soʻzi, ushbu yozuvlarni himoya qilish uchun ishlatiladigan turli shifrlash algoritmlari va kriptografik usullarga ishora qiladi.

“Kriptovalyuta – raqamli yoki virtual shakldagi har qanday valyuta boʻlib, tranzaksiyalarni muhofaza qilish uchun shifrlash (kriptografiya) texnologiyasidan foydalaniladi. Kriptovalyutalarni chiqarish yoki tartibga solish uchun markaziy tizim mavjud emas. Tranzaksiyalarni qayd etish va yangi birliklarni chiqarish uchun markazlashtirilmagan tizimdan foydalaniladi”[7].

Hozirgi kunda 2025 yil 1 aprel holatiga dunyo boʻylab 25,000 dan ortiq turli kriptovalyuta blokcheynlari mavjud boʻlib, ular 300 milliondan ortiq foydalanuvchi tomonidan ishlatiladi va 93 milliondan ortiq foydalanuvchi turli xususiyatlarga ega kriptovalyuta blokcheyn hamyonlaridan foydalanadi. 18,000 dan ortiq kompaniyalar kriptovalyutada toʻlovlarni qabul qiladi.

Kriptovalyutaning korrupsiya jinoiy huquqbuzarligi obyekti sifatida jismoniy, iqtisodiy va huquqiy xususiyatlari mavjud. Jismoniy xususiyat kriptovalyutaning texnik jihatlarini tasvirlaydi, iqtisodiy xususiyat esa unga qiziqqanlar tomonidan toʻlanadigan narxni belgilaydi, huquqiy xususiyat esa mavjud qonunchilik asosida fuqarolik huquqlarining turlariga qarab belgilanadi.

Shunday qilib, jinoiy huquqiy tartibga solish kontekstida kriptovalyuta – bu narxga ega boʻlgan elektron maʼlumot boʻlib, u axborot huquqining obyekti hisoblanadi. Kriptovalyutalarning jinoyat olami uchun jozibadorligi shundaki, bitkoin va boshqa kriptovalyutalar markazlashtirilmaganlik va blokcheyn tizimi prinsiplariga asoslangan: yaʼni elektron pul har qanday davlat moliyaviy idorasiga bogʻlanmagan yoki ular tomonidan boshqarilmaydi, tizim foydalanuvchilari anonim boʻlib, teng huquqlarga ega. Kriptovalyutaning asosiy afzalligi uning anonimligidir, shuningdek, elektron hamyon egalari haqidagi shaxsiy maʼlumotlar maxfiy saqlanadi va bu faqat identifikasiya qilishga imkon bermaydigan belgilarning toʻplami boʻlib, bunday foydalanuvchining nomini yoki manzilini aniqlash mumkin emas. Kriptovalyuta bilan bogʻliq tranzaksiyalar ham anonim boʻlib, ular qaytarib boʻlmaydigan tarzda amalga oshiriladi.

Biroq, rivojlangan davlatlarda yuqoridagi muammolar va holatlardan ijobiy foydalanish yoʻlga qoʻyilgan. Misol uchun, Janubiy Koreyada kriptovalyuta savdosi uchun qonuniy huquqiy qoidalar ishlab chiqilgan. Natijada, kriptovalyuta qonuniyligini taʼminlash bilan birga soliqlarni kriptovalyutada yigʻish tizimi yaratilgan.

Shuningdek, Yevropa ittifoqi kriptovalyuta va blokcheyn texnologiyalarini tartibga solishga qaratilgan yangi qonunlar qabul qilgan boʻlib, ular kriptovalyuta bozorini himoya qilish va ushbu sohadagi noqonuniy harakatlarga qarshi samarali kurashish uchun moʻljallangan.

Maqolamizning asosiy mavzusi boʻlgan kiberkorrupsiyaga qarshi kurashish, kelgusida undan kelayotgan xavflarni bartaraf etish boʻyicha yetarlicha ish tashkil etilmasa, bu raqamli

iqtisodiyotning rivoji va barqarorligiga juda katta tahdid soladi.

“Iqtisodiy faoliyatning raqamli sohalarga koʻchishi korrupsiyaga yangi yoʻllar va imkoniyatlar yaratadi. Hozirda savdo va davlat xizmatlarining katta qismi internet, ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilmoqda, bu esa yangi xavflarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun, kiberkorrupsiya — bu zamonaviy raqamli iqtisodiyotning eng muhim muammolaridan biridir”[17, 118-b].

Maʼlumotlarni himoya qilish muammolariga kirishishdan oldin, raqamli korrupsiyani amalga oshirishga imkon bergan kiberxavfsizlik tahdidlari manzarasini oʻrganish juda muhimdir. Avvalda, murakkab kiberxujumlar asosan davlatlar domeniga uyushtirilgan. Ammo, xakerlik vositalarining tarqalishi va kiberjinoyatchilikni oʻsishi, bu maydonni katta tezlikda kengaytirdi. Ilgarigi davrda yuqori texnik koʻnikmalarni talab qilgan ishlarni endi qora internet bozorlarida kriptovalyuta orqali sotib olish mumkin. Shaxsiy josuslik dasturlari, xakerlar uchun xizmat koʻrsatish merkantlari, botnetlar va boshqalar keng koʻlamli kiberjinoyatlarni amalga oshirishga imkon bermoqda[3].

Mazkur xavflarni oldini olish uchun “Oʻzbekiston-2030” strategiyasini amalga oshirish doirasidagi eng muhim vazifalardan biri sifatida 2023 yil 11 sentyabrda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-158-son qarori bilan tasdiqlangan, milliy internet makonida kiberxavfsizlikni taʼminlash boʻyicha chora-tadbirlar belgilangan boʻlib, bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Kiberfiribgarlik dolzarb muammoga aylanganligi sababli Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 168-moddasining 3-boʻlimi “g” bandida[8] javobgarlik belgilab qoʻyilgan.

Biroq, kiberfiribgarlikning huquqiy amaliyotdagi kvalifikasiyasi koʻpincha tergovchilar uchun muammo tugʻdirgan. Shu munosabat bilan, Oʻzbekiston Respublikasining Oliy Sud Plenumining 2023 yil 23 iyunda qabul qilingan 17-sonli “Firibgarlik ishlari boʻyicha sud amaliyoti” toʻgʻrisidagi qarorining[9] qabul qilinishi kiberfiribgarlikni kvalifikasiya qilishdagi muammolarni bartaraf etishga sabab boʻldi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kiberkorrupsiya jinoyatlarini kvalifikasiya qilish, oldini olish masalalarini hal etish boʻyicha Jinoyat kodeksining 210 va 211-moddalariga qoʻshimcha bandlar kiritish maqsadga muvofiq boʻladi.

Xulosa oʻrnida aytadigan boʻlsak, kiberfiribgarlik va kiberkorrupsiya zamonaviy raqamli dunyoning asosiy xavflari boʻlib, ularning taʼsiri shaxsiy maʼlumotlarning yoʻqolishidan tortib, iqtisodiy va davlat xavfsizligigacha turli sohalarda sezilmoqda. Shu sababli, ushbu muammolarga qarshi samarali kurashish uchun koʻp tomonlama va kompleks yondashuv zarur.

Birinchi navbatda, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishda davlatlar oʻrtasidagi hamkorlik va mutanosib qonunlarning qabul qilinishi muhim va kechiktirib boʻlmas omildir. Chunki, ushbu turdagi jinoyatlar chegara bilmaydi. Davlatlar qonunchiligini muvofiqlashtirish va mustahkamlash, xalqaro standartlarga rioya qilgan holda maʼlumotlar almashinuvini yaxshilash orqali, zamonaviy kiberjinoyatlar bilan samarali kurashish mumkin boʻladi.

Ikkinchi navbatda, texnologiyalar ham kiberfiribgarlik va kiberkorrupsiyaga qarshi kurashishda muhim rol oʻynaydi. Kriptografiya, biometriya va sunʼiy intellekt asosidagi ilgor tizimlarni joriy etish orqali, maʼlumotlarning ishonchliligini taʼminlash va xavflardan himoya qilish mumkin.

Uchinchi navbatda, kiberxavfsizlikni taʼminlashning boshqa muhim omillaridan biri bu

jamiyatning faol ishtiroki. Fuqarolarning raqamli savodxonligini, axborot xavfsizligi sohasidagi bilimlari va mas’uliyatni his etishlari kiberxavfsizlikni ta’minlashga katta xissa qo‘shadi. Aholini kiberxavfsizlik bo‘yicha ogohlantirish va targ‘ib qilish, ularni digital texnologiyalardan foydalanishda xavfsizlik choralari haqida ma’lumot berish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, jamiyatning o‘z-o‘zini muhofaza qilish qobiliyatining oshishi, kiberxavfsizlikdagi javobgarlikni oshiradi.

To‘rtinchi navbatda, kiberfiribgarlik va kiberkorrupsiyaning oldini olish uchun monitoring va proaktiv choralar juda muhim. Dasturli-texnologik qurilmalardan, komplekslardan foydalanib, jinoiy faoliyatning ilk belgilarini aniqlash va choralar ko‘rish imkonini beradi. Buning natijasida, kiberxavfsizlik sohasidagi muammolarga samarali va tezkor yondashuv amalga oshiriladi.

Xulosa so‘ngida kiberfiribgarlik va kiberkorrupsiyaga qarshi kurashishda kompleks yondashuv va butun jamiyatning birlashgan harakati muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlab o‘tmoqchiman. Davlatlar, korxonalar va har bir fuqaro o‘z faoliyatida kiberxavfsizlikka alohida e’tibor qaratishlari kerak. Har bir shaxsning mas’uliyati va faolligi bu jarayonning asosiy omillaridan biri bo‘lib, kibermuxitni xavfsiz saqlashga yordam beradi. Yuqorida ko‘rib chiqqanimizdek, kiberfiribgarlik va kiberkorrupsiyaning oldini olish uchun faqat texnologiyalar emas, balki qonunchilik, xalqaro hamkorlik va jamiyatning faol ishtiroki ham muhimdir. Bu jarayonda har bir tomon o‘z faoliyati bilan xavfsizlikni ta’minlashga hissa qo‘shishi zarur.

## Adabiyotlar/Литературы/References:


1. Federal Bureau Investigation National press releases. https://www.fbi.gov
2. Huquqni muhofaza qilish akademiyasi. “IT texnologiyalaridan foydalanib jinoyat sodir etishning zamonaviy usullari hamda tergov qilish muammolari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya. 03.02.2025.
3. International Journal of Law and Policy. Volume 1, Issue 7.
4. Islamic Countries Conference on Statistical Sciences (ICCS-11). Techniques Used for Hacking the Information. B. 441–442.
5. Journals.sagepub.com
6. “Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishning huquqiy, tashkilotiy, moliyaviy-iqtisodiy, muhandislik-texnik muammolari va yechimlari”. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. B. 133–138.
7. kaspersky.ru/resource-center/definitions/what-is-cryptocurrency
8. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 22.09.1994 yil.
9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2023 yil 23 iyundagi 17-son qarori. “Firibgarlik ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”.
10. “O‘zbekiston Respublikasi kiberxavfsizligi – 2023 yil hisoboti”. csec.uz/uz/news/maqolalar.
11. president.uz/uz/lists/view
12. Pravo.ru/interpravo/news
13. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-6079-son farmon.

14. "The Birth of Cybersecurity: The Marcus Hess Hack and the Lessons That Shaped a New Era." www.linkedin.com/pulse/birth-cybersecurity-marcus-hess-hack-lessons-shaped-k-agyekum-cc-2xw0f.
15. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. Toshkent – 2025.
16. «Ульяновский государственный технический университет». Язык, культура, история: конференция молодых учёных, аспирантов и студентов (г. Ульяновск, 22 апреля 2013 г.). Б. 80–81.
17. Шаг в будущее: искусственный интеллект и цифровая экономика. Том 1. Под ред. П. В. Терелянского. Москва: РЭУ им. Г. В. Плеханова, 2024. 118-б.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# KORRUPSIYAVIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHNING IJTIMOIY ZARURATI

**Ergashev Qaxramon Zokirjonovich**
Namangan viloyati IIB boshlig'ining
birinchi o'rinbosari, podpolkovnik
O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar
vazirligi akademiyasi mustaqil izlanuvchisi,
E-mail: qahramonergashev0202@gmail.com

**Annotatsiya.** Maqolada korrupsiyaviy jinoyatlarga qarshi kurashishning tarixiy shakllanish bosqichlari vaqt mezoniga ko'ra, retrospektiv tahlil qilinib, davrlarga ajratib o'rganilgan. Har bir davrning o'ziga xos jihatlari kompleks ravishda chuqur o'rganilib, unda korrupsiyaga qarshi kurashishda amalga oshirilgan huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlarning mazmuni, mazkur davrlarning o'ziga xos xususiyati va farqli jihatlarini ochib berishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** pora, korruptsiya, huquqiy asoslar, tashkiliy chora, tarixiy bosqichlar.

# THE SOCIAL NEED TO FIGHT CORRUPTION CRIMES

**Ergashev Qaxramon Zokirjonovich**
First deputy head of the Department of
internal affairs of Namangan region,
Lieutenant Colonel Independent researcher
of the Academy of the Ministry of internal affairs
of the Republic of Uzbekistan,

**Abstact.** The article described the fight against corruption crimes as the stages of historical formation are studied according to the time criterion, retrospectively analyzed and separated into periods. The specifics of each era were thoroughly studied, in which an attempt was made to reveal the content of legal and organizational measures implemented in the fight against corruption, the specifics and differences of these periods.

**Keywords:** bribes, corruption, legal grounds, organizational measure, historical stages.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N30

**Kirish.** "Poraxo'rlik" va "korrupsiya" kabi tushunchalar qadim davrlardan buyon shakllanib kelgan. Chunki, korrupsiya tarixi insoniyat sivilizatsiyasining tarixidan kam emas. U har qanday davlat boshqaruvining barcha shakllarida namoyon bo'lgan. Shu bilan birga, jamiyatdagi turli o'zgarishlarga bog'liq holda korrupsiya hodisasi o'zgarib, yanada mukammallashib borgan. Biroq, bu korrupsiya hamma joyda bir xil ma'noni anglatmaydi.

Korrupsiyaning vujudga kelish sabablari turli mamlakatlarda turlicha boʻlib, tarixiy bosqichlari va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Shu bois korrupsiyaning oldini olish, qarshi kurashishda tarixiy-huquqiy jihatdan oʻrganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, qadim zamonlardan beri davlat va jamiyat korrupsiya balosiga qarshi kurashishga harakat qilib keladi. Masalan, Yangi podsholik davridagi Misrda Xoremxeb (eramizdan avvalgi 1342–1338-yillar) bir necha marotaba islohotlarni amalga oshirganligi, jumladan soliq tizimini qayta ishlab chiqib, askarlar va amaldorlarning davlat mulkini oʻzlashtirish maqsadi yoʻlida poraxoʻrlikni oldini olishga qarshi tadbirlar koʻrilgani haqida manbalarda batafsil keltiriladi[1].

Gerodotning xabar berishicha, fors shohi Kambiz poraxoʻr sudyani oʻlim bilan qatl ettirgan. Sudyani stulini oʻlim jazosiga hukm etilgan sudyaning terisi bilan qoplattirishni buyurgan. Doro pora olganlikda aybdor sudyani xochga mixlatgan. Rimdagi “XII jadval” qonunlariga koʻra, sudya tomonidan qabul qilingan pora uchun uni oʻlim jazosiga hukm etilgan[22, B.7.]. Hamurappi qonunlarida: “mansabdorlik jinoyatlarini sodir har qanday shaxsga ogʻir jazo tayinlanishi” bayon etilgan[14]. Korrupsiya insoniyat mubtalo boʻlgan davosi yoʻq kasallikdir. Undan voz kechish oson emas. Ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambagʻal boʻlishidan qatʼiy nazar, barcha davrlarda salbiy hodisa sifatida qaralgan.

Korrupsiya illati qadim zamonlardan buyon mavjudligi maʼlum. Ushbu hodisa haqida qadimgi Misr, Bobil, Mesopotamiya, Xitoy, Rim, Hindiston, Yunoniston davlatlarining boshqaruvi sanʼati, diniy va huquqiy adabiyoti [27] haqidagi asarlarda taʼkidlab oʻtilgan. Asosan ushbu jinoyatlarni amaldor (sudya, soliq yigʻuvchi, gʻaznachi, qul savdosi bilan shugʻullanuvchi, vositachi va b.) shaxslar tomonidan sodir etilib, aybdor shaxs muqaddas kitoblarda belgilangan qoidalar boʻyicha jazolangan.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Korrupsiyaga qarshi kurashishning vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlarini shartli ravishda quyidagi uch davrlarga boʻlib oʻrganamiz:

***birinchi davr*** (eramizdan avvalgi VII asrdan to milodiy VII asrgacha boʻlgan davr.) Qadimgi Sharqda korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida fikr yuritilganda, birinchi navbatda zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto” haqida toʻxtalib oʻtish maqsadga muvofiqdir. Ilk davlatchiligimiz tarixidan bugungi kungacha biz korrupsiya deb atayotgan illatga qarshi turli xil usullarda kurashib kelingan. Xususan, “Avesto” bitiklarida qayd etilishicha: “boylar ziyofatiga oʻtirma”; “odamlarni urma”; “lavozim uchun kurashma”; “qamoqxona nozirligiga zolim shaxsni tayinlama”; “donishmand kishilardan maslahat ol”; “doʻstlarim koʻpaysin desang donishmand boʻl”; “dunyo boyliklari ketidan quvma”; “keksalarni ustidan kulma chunki sen ham qartayasan”[10]kabilarning nazarda tutilgani, oʻsha davrda jamiyat aʼzolarini korrupsiyaga berilmasligi uchun bu nasihatlarga amal qilishini anglatgan. “Avesto”dagi oʻgitlarda savob va gunoh, bunyodkorlik va buzgʻunchilik kabi oʻzaro bir-biriga zid qarashlarning inson hayotidagi oʻrni talqiniga katta eʼtibor berilgan[12, B.74–77.]. Bularning birinchisi insonni haqgoʻylik, yaratuvchilik va kamolot sari daʼvat etsa, ikkinchisi razolat, xudbinlik va axloqsizlik kabi illatlardan tiyilib, har bir inson, avvalo ogohlikka va oʻzligini anglashga intilishi, yaxshi va yomonni keskin farqlab yashashi zarurligi uqtiriladi. Yana bir jihati “Avesto”da har bir bolani korrupsiyasiz xulq tarzda, yaʼni pok niyat, xulqi halol, qoʻli toʻgʻri qilib tarbiyalanishiga jiddiy eʼtibor qaratiladi. Shu ehtiyoj va talablardan kelib chiqib, “Avesto”da muallimlar, tarbiyachilarning burchlari belgilanib, ularning zimmasiga jamiyatning eng muhim va dolzarb vazifasi yuklatilgan.

Imperator Chandrapurt Mauriyani bosh vaziri Kautilla “Artashastra” kitobida amaldorlar tomonidan davlat daromadlarini oʻzlashtirishning qirq usulini sanab oʻtadi va ushbu illatni quyidagicha: “tilingizning uchida turgan asal yoki zaharni taʼmini tatib koʻrmaslikning iloji boʻlmaganidek, hukumat amaldori uchun qirol daromadidan bir oz tatib koʻrmaslik mumkin emas. Yoki suv ostida suzayotgan baliq suv ichadi, deb boʻlmaganidek, hukumat amaldori oʻzi uchun pul olmaydi, deb aytib boʻlmaydi. Osmonda baland uchadigan qushning harakatini oʻrnatish mumkin, ammo hukumat amaldorlari yashirin harakatlari, maqsadini belgilash imkonsiz”[4] mazmunida izohlaydi. Tarixda maʼlumki, korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shumer davlati tan olinadi. Qadimgi davlatlarni ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxoʻrligi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan maʼlum. Chunki bu holat davlatning obroʻsiga juda jiddiy putur yetkazgan. Dunyoning barcha dinlarida birinchi navbatda davlat amaldorlarini poraxoʻrligi qattiq qoralanadi. Jumladan, yahudiylik dinining muqaddas kitobi Tavrotda poraxoʻrlik gunoh ekanligi koʻrsatilgan boʻlsa-da, Alloh taolo buyurgan amallarni ado qilish oʻrniga dunyo matolariga berilib ketdilar. Halol yoki haromligiga qaramay dunyo yigʻadigan, poraxoʻrlik qiladigan, hatto mol-dunyo topish uchun Tavrotdagi oyatlarni ham hech ikkilanmay oʻzgartirib yuboraveradigan boʻldilar. Oʻzlari mana shunday harom yoʻllar bilan hech toʻxtamasdan birovlarning haqlariga tajovuz qilib turib, gunoh-maʼsiyatlar botqogʻiga botib turib yana: “Biz Allohning suyukli bolalarimiz, paygʻambarlar avlodimiz, shuning uchun Alloh bizni kechirib yuboraveradi”, deb safsatalar sotadigan boʻldilar. Injilda: “hadyalarni qabul qilma, zero hadyalar koʻzi ochiqlarni koʻrga va haqni nohaqqa aylantiradi”[28]mazmunida qoidalar belgilangan.

Qadimgi Misrda firʼavnlar hukmronlik qilgan davrda amaldorlar oʻrtasidagi korrupsiya ogʻir jinoyat hisoblanmay, amaldor va gʻaznachi ustidan sud ishi koʻrib chiqilgan. Sud tizimi axloqiy va diniy qonunlarga boʻlinib, sud nafaqat qadimgi Misrning fuqarolariga, balki allaqachon vafot etgan fuqarolar ham hukm qilingan. Bu juda dahshatli deb hisoblangan va bunday sud jarayoni “boshqa dunyo sudi”deb nomlangan. Bu davrda koʻp xudolik eʼtiqodi mavjud boʻlib, fuqarolar adolat maʼbudasi “Maat”ga sigʻinishgan. Misrliklar bu maʼbudani hurmat qilishgan va uni haqiqat, tartib va adolat timsoli deb hisoblashgan. Xiyonat, kufr va yuqori martabali shaxslarning hayotiga tajovuz qilish bilan birga, korrupsiya, poraxoʻrlik, jinoyatlarning ikkinchi turiga kirgan va ushbu jinoyatni sodir etgan mahkumlar oʻlimidan keyin ham jazo olish haqida gʻoyalar ilgari surilgan[6]. Pora bilan ushlangan amaldorlarga, jazo sifatida burunlari kesilgan. Agarda sudya pora bilan qoʻlga tushganida, ikki qulogʻi kesilgan. Pora olgan amaldorlar lavozimidan chetlashtirilgan va oddiy dehqonga aylanishgan. Davlatga yetkazilgan moddiy zarar qoplanganida faqat Firʼavn afv etishi mumkin boʻlgan[29]. Ushbu davrda yaʼni, 14 asrda mazkur illatga qarshi muqaddas kitoblarda nazarda tutilgan qoidalar asosida aybdor shaxsga jazo turi qoʻllanilgan. Davlatga yetkazilgan zarar qoplanganida hukmdorlarning farmoni bilan jazodan afv etilishi mumkin boʻlgan. Ijobiy jihat sifatida shuni alohida taʼkidlash joizki, mazkur jinoyatga qarshi kurashishda jamiyatdagi ustoz va murabbiylarning oʻrni juda beqiyos boʻlib, burch va vazifasini munosib ado etgan murabbiy obroʻli hisoblangan va hukmdorlar tomonidan munosib taqdirlangan.

***Ikkinchi davr*** (VII asrdan XX asrning 90 yillariga qadar boʻlgan davr).

Korrupsiya va poraxoʻrlik haqida gapirganda shuni aytish kerakki, tarixda korrupsiya iqtisodiy hodisa sifatida tovar-pul munosabatlari bor joyda mavjud boʻlib kelgan. Davlatda

iqtisodiy faoliyatga nisbatan oʻrnatilgan turli xil cheklashlar, amaldorlarning keng, nazoratdan holi, cheklanmagan yo ruxsat berish, yoki taqiqlash vakolati korrupsiyaning ildiz otishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, katta boyliklarga ega boʻlgan baʼzi ishbilarmonlar oʻz daromadlarini koʻpaytirish va bozordagi raqobatda alohida imtiyozlarga ega boʻlish maqsadida hukumat amaldorlarini pora evaziga sotib olish, ularning oʻz ehtiyoriga boʻysundirishga harakat qiladilar. Islom shariatida korrupsiya va poraxoʻrlik qattiq qoralanadi. Islom dinimizga oid klassik adabiyotlarda pora arab tilida “rishva” deb ataladi, sharʼiy istilohda esa “Pora-xaqni yuqqa chiqarish va botilni yuzaga chiqarish uchun beriladigan narsadir” degan mazmunida izoh berilgan. Birovning haqqini nohaq yeyish hamda pora beruvchi va pora oluvchi ham ogʻir gunohkor hisoblanadi. Islom dinining kitobi Qurʼoni Karimda (Niso surasi 29-oyatda)quyidagilar: “Ey iymon keltirganlar, bir-birlaringizning mollaringizni botil yul bilan yemang”, shuningdek Baqara surasining 88-oyatida: “Mol va boyliklaringizni oʻrtalaringizda botil (harom) yoʻl bilan yemangiz. Shuningdek, bila turib, odamlarning haqlaridan bir qismini gunoh yoʻl bilan yeyish maqsadida uni hokimlarga havola etmangiz”[20]; Paygʻambarimiz (s.a.v) hadislarida: “Harom yeb oʻsgan vujud jannatga kirmaydi” [21] deb bayon etilgani, poraxoʻrlik islom dinida qattiq qoralanishi va ogʻir gunohlardan biri ekanligini anglatadi.

Birovning molini botil yoʻl bilan yeyishga ribo, qimor, poraxoʻrlik, aldamchilik, firibgarlik, mahsulot narxini sunʼiy ravishda koʻtarish, oʻgʻirlik, tovlamachilik kabi illatlar kiradi. Bularning orasida amalining gunohi ogʻirligi bilan poraxoʻrlik turadi.

Tarixda moʻgʻul imperiyasining kuchsizlanishida qoʻzgʻolonlar, hokimiyat uchun kurash, tashqi tahdidlar, vabo epidemiyasi, korrupsiya[30]kabi bir qator sabablar jiddiy taʼsirini koʻrsatgan. Natijada butun bir imperiyani yoʻq boʻlib ketishiga olib keldi. Bu orqali Sharq va Gʻarb oʻrtasidagi savdo-sotiq ishlarini ancha yaxshilanishiga erishilgan.

Buyuk bobomiz Sohibqiron mansabparast va molparast amaldorlarning oʻz maqsadlariga yetishish uchun har qanday yoʻlga kirishi, buning oqibatida korrupsiya urchishi mumkinligini yaxshi tushungan va shunga yarasha chora-tadbirlarni qoʻllagan. Davlat amaldorlarining poraxoʻrligi xavfli jinoyat hisoblanib, bugungi kundagi korrupsiya jinoyatiga toʻgʻri keladi. Bunday jinoyatlar davlatga karshi karatilgan jinoyatlar deb hisoblangan va ularga qattiq jazolar tayinlangan[23]. Davlatning majburlov funksiyasi ularni tag-tomiri bilan yoʻqotib, davlatda barqarorlikni taʼminlashga qaratilgan.

Amir Temur davlatida vaqti-vaqti bilan soʻroq, tekshirish, taftish kabi samarali tergov usullari oʻtkazilgan[5]. Amalini suiisteʼmol qilish, poraxoʻrlik, doimiy ichkilik ichish, maishiy buzuqlik kabilar ogʻir gunoh hisoblangan va qattiq jazolangan. Suiisteʼmol qilish raiyat orasidagina emas, Temur avlodlariga taalluqli boʻlganda ular tegishli jazolarini olganlar. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Temurning oʻgʻli Mironshoh, nevaralari Pirmuhammad va Xalil Sultonlar ham xalq oldida jazoga tortilganlar[2]. Ushbu davrda qonunlarda sodir etilgan jinoyatga jazoning muqarrarligi tamoyiliga amal qilingan. Davlat uchun nafi tekkan, obroʻli, fidoyi shaxsga jazolar yengillashtirilgan. Poraxoʻrlik ogʻir jinoyatlardan hisoblangan, bunday harakatlar ayovsiz jazolangan. Jinoyatchilarga adolatli jazo berilib, bunday tartib davlatda intizom saqlanishiga xizmat qilgan.

XVIII va XIX asrlarda kelib Yevropada oʻtkir korrupsiya inqirozi boshlandi. Pora berish va olish haqidagi eskirgan diniy gʻoyalar oʻtmishdagi narsa boʻlib, yangilari hali ixtiro qilinib ulgurmagan edi. Bu tarixda aniq qoidalarsiz ulkan tartibsiz korrupsiyani keltirib chiqardi. Bir tomondan, mansabdorlarni hokimiyatini mustahkamlaydigan davlat tomonidan qattiq nazorat

qilinadigan yangi tartiblar vujudga kelgan boʻlsa, boshqa tomondan yangidan paydo boʻlgan yirik xususiy biznes vujudga kelgan raqobat tufayli “davlatni sotib” ola boshladi[17]. Pora har qanday joyda, har qanday sababga koʻra, istalgan sharoitda, har qanday usulda berilishi mumkin edi.

Angliyada Karl II (1625-1649 yillarda hukmronlik qilgan)davrida korrupsiya yanada avj oldi. U “Angliyaning alkogolga qarshi kurashchisi” sifatida tanilgan boʻlib, mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashda, xususan, mast holda pora berish yoki olishni qat’iy taqiqlab qoʻydi. Bu kapitalizm yoʻliga oʻtgan ayrim ingliz alkogol ishlab chiqaruvchi zodagonlarga va doimo parlament yigʻilishlariga ichib keladigan Angliya parlamenti vakillariga ma’qul kelmadi. Biroq Karl II parlamentni xohishiga quloq solmasdan uni tarqatib yubordi va 1629-yilda alkogolga qarshi hamda munosib korrupsiyaga qarshi oʻn bir yillik kampaniyasini boshladi[9]. Bu kompaniya pora olishning shafqatsiz qoidasi butun mamlakat boʻylab amalga oshirildi. Xalq dastlab qirolni bu siyosatini ma’qulladi. Korrupsiyaga qarshi kurash kompaniyasi uchun xalqdan pora olish orqali pul yigʻdi va oxir oqibat bu butun Angliyani Karl II siyosatiga noroziligini keltirib chiqarishiga sabab boʻldi.

Buyuk Britaniyada pora berish turli lavozimda ishlaydigan amaldorlar va butun burjua tomonidan amalga oshirilgan. Korrupsiya va poraxoʻrlik nafaqat Britaniya parlamentida, balki Angliyadagi davlat muassasalarida ham rivojlandi. Xalq orasida “qizil ip yuguradi” mashhur iborasi paydo boʻldi. Qirolicha Viktoriya pora olish va pora berishda shaxsiy namuna koʻrsatgan. Masalan, unga xizmatkor pora taklif qilinmaguncha oʻrnidan turmagan, oshpaz pora sifatida unga izzat ikrom koʻrsatib “maqtov” eshitmaguncha nonushta qilmagan. Tasodifiy yoʻlovchiga pora berib, oʻzining tashqi qiyofasiga qoyil qolganlik toʻgʻrisida maqtov eshitmasa yurolmagan. Hatto “xayrli tun” tilab olish uchun oilasi a’zolariga ham pora bermaguncha uxlamagan[19]. Qirolichaning bu ishlari ingliz fuqarolarni poraxoʻrlik qilishga oʻrgatdi. Bu davr barcha an’analari bilan “ingliz janoblarining uslubi” deb tarixda nom qoldirgan.

XVIII asrni oxirida AQSh, Buyuk Britaniyaning mustamlakachiligidan chiqib, mustaqil boʻlganidan soʻng bir asrdan ziyodroq vaqt davomida munosib ravishda korrupsiyaga qarshi kurash bilan shugʻullandi. Ya’ni, XVIII asrning oxiridan XX asrning boshlarigacha AQShda jamiyatning korrupsiyaga boʻlgan munosabati tubdan oʻzgara boshladi[3]. Xususan, 1787-yilda qabul qilingan AQShning Konstitutsiyasiga binoan, pora olish AQSh prezidenti tomonidan sodir etishi mumkin boʻlgan ikkita jinoyatlardan biridir deb qayd etildi. Siyosiy partiyalar va davlat boshqaruvi kuchaygani sayin, siyosiy elita va yirik biznes vakillari oʻrtasida kelishmovchilik tobora kuchayib boshladi. Keyinchalik, AQShda korrupsiyaga oid janjalga yirik hukumat vakillari moliya, harbiy vazirlar ham bevosita aloqador ekanligi, misol uchun, Senat komissiyasi tekshiruvida kongressmen Uilyam Tvid turli firibgarlik yoʻli bilan AQShning gʻaznasidan 200 million dollar oʻgʻirlaganligi aniqlangan. Oʻtgan davr ichida bu jinoyatga samarali qarshi kurashishda AQSh hukumati tomonidan Konstitutsiya asosida qonun va qonunosti hujjatlar qabul qilindi. Keyinchalik AQSh shtatlarida maishiy korrupsiya kuchayganida, federal maxsus xizmati tomonidan korrupsiyaga qarshi maxsus operatsiyalar oʻtkazilib, uyushgan jinoiy guruhlarni faoliyatiga chek qoʻyildi va ulardan olingan koʻchmas mulk hamda moddiy narsalar davlatni ixtiyoriga oʻtkazilgan.

Germaniyada nemislarning eng yaxshi pora beruvchi korruptsionerlari Yevropaning qolgan qismida urush boʻlishi uchun hukumatga pora berish kerak deb hisoblashardi. Ammo buning imkoni yoʻq edi. Boisi, pora beruvchi boy kapitalistlar bor yoʻgʻi Germaniya hududida 1-

2 foizini[7] tashkil etardi. Keyinchalik davlat ichida ijtimoiy sohalarda korrupsiya kuchaydi. Masalan, bankdan kredit olishda, ishga joylashish va hokazo. Federal hukumat bunga qarshi samarali kompleks choralarni belgiladi[8]. Birinchidan, qonunchilik normalari mustahkamlandi. Bunda korrupsiyaga oid jinoyatni sodir etgan shaxsga ozodlikdan mahrum qilish jazo muddati uzaytirildi; ikkichi chora, huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsni mol-mulki musodara qilindi.

XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida Fransiyada korrupsiya muammosi hukumat a’zolarini qattiq tashvishga solmadi. Buni boisi, ushbu davlatning moliyaviy va siyosiy janjallari, korrupsiya masalasiga jiddiy e’tibor qaratishga imkoniyat bermagan. Fransuz yozuvchisi Sh.L.Monteske korrupsiya illati haqida quyidagilarni: “asrlar davomida shu ma’lumki, hokimiyatga ega boʻlgan har bir kishi uni suiiste’mol qilishga moyildir va u belgilangan chegaraga yetguncha shu yoʻnalishda boradi”[11] deb fikr bildirgan edi. XIX asrning boshida Fransiya hukumati korrupsiyaga qarshi kurashishda kompleks chora-tadbirlarning mexanizmini ishlab chiqish vazifasi belgilab oldi. Avval yirik miqdordagi korrupsiyaviy holatlarga chek qoʻyish boʻyicha davlat dasturi ishlab chiqilgan[16]. Bunda siyosat, biznes, ta’lim sohalariga e’tibor berish boshlanib, ushbu sohalarda korrupsiyaviy jinoyat sodir etilishining oldini olishga doir qonunlar qabul qilingan. Keyinchalik, mayda va maishiy korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmi ishlab chiqilgan.

Rossiya tarixida korrupsiya amaldorlarning faoliyatida koʻp kuzatilib, ularning eng yuqori qatlami “hukmdor saroyi” deb nomlangan va bu institut XVIII asrning boshigacha davom etib, pora olish va berish oddiy hol boʻlgan.

Pyotr I davriga kelib oʻrta asrlardagi ota-bobolar monarxiyasining tamoyillaridan voz kechildi, bu davlat tuzilmalarining shakllanishida oʻz aksini topdi, bunda nasl-nasab prinsipiga emas, balki layoqatlilik prinsipiga amal qila boshladilar. Petr lavozimga koʻtarilish zodagonning qobiliyatlari va shaxsiy xizmatlariga bogʻliq boʻlgan tartibni joriy etdi. U Rossiya byurokratiyasining asoschisi boʻlib, 1720-yilda chiqarilgan Bosh reglamentga davlat muassasalarining tuzilmalari va shtatlarini kiritdi.

Poraxoʻrlik va xizmatdagi boshqa suiiste’mollarning oldini olish uchun davlat xizmatini oʻtashning mutlaq yangi tartibi joriy etildi. Ya’ni, lavozimida faqat ikki yil ishlash. Ushbu muddat faqat shahar aholisining ushbu mansabdor shaxs oʻz vazifalarini bajarishda davom etishi toʻgʻrisida yozma iltimosnomasi boʻlganida uzaytirilishi mumkin boʻlgan. Poraxoʻrlik mansabni suiiste’mol qilishning eng xavfli shakli sifatida tarqalishini hisobga olgan holda, Pyotr I 1713-yil 23-avgustdagi farmon bilan pora olish bilan bir qatorda pora berganlik uchun ham jinoiy javobgarlikni joriy etdi[17]. 1714-yil dekabrda Pyotr I “Pora va mukofotlarni taqiqlash va buning uchun jazo belgilash toʻgʻrisida” Farmon chiqardi, u bilan amaldorlarning mahalliy ta’minotini bekor qildi va ularga beriladigan oylik pul miqdorini oshirdi. Chunki boshqaruv apparatida poraxoʻrlik davlatga “zarar” keltirdi[15], u Farmonda eng qattiq jazolanishi kerak boʻlgan jinoyat sifatida malakalandi. Katta va kichik, ma’naviy, harbiy, fuqarolik, siyosiy, tijoriy, badiiy va boshqa ishga tayinlagan barcha mansabdorlarga, ular qanday unvonga ega boʻlishidan qat’i nazar, poraxoʻrlik taqiqlangan.

Jinoyatlar xususida aytish lozimki, hokimiyat va xizmat vazifasini suiiste’mol qilish, poraxoʻrlik, mansab soxtakorligi, zoʻravonlik kabi jinoyatlar amaldorlar orasida keng tarqaldi. Bu holni senat komissiyalari ham qayd etgan.

**Muhokama.** Oʻzbek xonliklari (XVI – XIX asrlarda Buxoro, Xiva, Qoʻqon)da korrupsiyaga oid jinoyatlarni xon saroyidagi amaldorlari tomonidan sodir etilib, aybdor shaxslar xon buyrugʻiga binoan shariat boʻyicha jazolangan.

**Buxoro xonligi** (XVIII asr oʻrtalari — Buxoro amirligi)da ikkita qamoqxonalar mavjud boʻlib, u yerdagi saqlanayotgan mahbuslardan davlatga, korrupsiyaviy jinoyatlarni aniqlashda foydalanilgan. Qamoqxonalarning kamerasida dahshatli hasharotlar mavjud boʻlib, jazoni oʻtayotgan mahbuslar tez oʻlim topmasligi uchun qamoqxonaning maʼmuriyatiga yordam berishga rozi boʻlishgan. Qozilikka tayinlangan shaxslar oʻz majburiyatlarini masjid yoki xaloyiq oldida, oʻz uylarida olib borishlari kerak edi[13]. Eng yaxshi joy jome masjidlari boʻlgan. Qozilarning pora olishlari, oʻz qarindosh-urugʻlari va yaqin doʻstlaridan oʻzga shaxslardan sovgʻa-salom qabul qilishlari mumkin boʻlmagan. Ammo qarindosh-urugʻlari qonunga xilof harakat sodir etgan boʻlsa, qozi undan ham sovgʻa-salom olishdan voz kechishi zarur edi.

**Xiva** xonligida dastlab musulmon huquqining barcha manbalari amal qilgan. Biroq, Xiva xonligi chor Rossiya mustamlakasiga aylangan davrda tashqi dunyodan, xususan, islom olamidan butunlay ajralib qoldi. Bunday sharoitda xonlikda Rossiyaning mafkurasi taʼsirida guruhbozlik, fitna, mafkuraviy buzuqlik, behayolik, shariatning oyoq osti qilinishi, poraxoʻrlik kuchayib ketdi. Xonlikka kelgan Rossiya generallari va amaldorlari bosh poraxoʻrlar boʻldilar. Fuqarolardan yigʻiladigan soliq va turli-tuman yigʻimlar koʻpayib ketdi. Mamlakatning koʻp jihatdan jahon taraqqiyotidan orqada qolishi kuchayib bordi. Xonlikka yuborilgan Rossiya mustamlakachi amaldorlari, harbiylarining mamlakat ichki ishiga aralashuvi, ularning xalq orasida olib borgan igʻvogarlik siyosati, poraxoʻrligi natijasida tinchlik buzildi. Bularning barchasi mamlakat xalqiga kulfatlar keltirdi. Xiva xonligining inqirozi ham tezlashdi. Xususan, Asfandiyorxon davrida saroy amaldorlari orasida oʻzaro kurashlar, poraxoʻrlik, igʻvogarlik, fitnachilik avjiga chiqdi, shariat oyoq osti qilindi. Saroy amaldorlari guruhlararo kurashlarda goh bir tomonni, goho ikkinchi tarafni quvvatlab, xon saroyida va mamlakat xalqlari orasida tinchlikning tez-tez buzilib turishiga erishdilar[24]. Bunday paytda mamlakatda tinchlik oʻrnatish uchun xonlikni boshqarish ishiga aralashish uchun bahona topdilar va xondan katta miqdorda pora undirganlar.

**Qoʻqon** xonligida ham poraxoʻrlik avj olgan. Xonlik amaldorlari, fitna uyushtirib, xalqdan soliqlarni oshirish yoʻli bilan yoppasiga pora olishgan. Birdamlik yoʻqligi bois, chor Rossiyasi ushbu xonlikni ham bosib olishni uddasidan chiqqan[25]. Keyinchalik ham korrupsiyaviy jinoyatlar davom etib, Qoʻqon xalqini tinch yashashi uchun xonlar rus amaldorlariga poralar berishga majbur boʻlgan.

Jinoyatlar xususida aytish lozimki, hokimiyat va xizmat vazifasini suiisteʼmol qilish, poraxoʻrlik, mansab soxtakorligi va zoʻravonlik kabi korrupsiyaga xos jinoyatlar amaldorlar orasida keng tarqalgan edi.

Markaziy Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi, Turkistondagi mustamlakachilik siyosati, paxta yakkahokimligi koʻplab mustaqil dehqon va batraklarni yanada kambagʻallashuviga katta yer egalarini yanada boyishiga olib keldi. Rus amaldorlari esa mahalliy boylardan olgan katta poralar evaziga ularni sodir qilgan suisteʼmolchiliklariga koʻz yumishardi. Bu holatlarni doimiy tusga kirib qolishi Markaziy Osiyo xalqlarini muntazam noroziligini keltirib chiqardi. Sovet hokimiyatining korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati qoniqarsiz hisoblanib, Markaziy Osiyo xalqlarini mustaqil davlat boʻlib ajralib chiqishiga xizmat qildi. Tahlil qilingan 13 asrda ham korruputsiya jinoyatlari sodir etilishi davom etavergan.

Ushbu jinoyatlarni kamaygan davrini vijdonli hamda adolatli hukmdorlar, amaldorlarning toʻgʻri xizmat vazifasini bajarganligi boʻlsa, korrupsiyani oshib ketgan davri, xalqning bilimsizligi, ularni ezish yoʻli bilan boylik orttirishga boʻlgan amaldorlarning nafsi va buni koʻrib, bilib turgan qoʻgʻirchoq hukmdorlar, xonlar, davlat rahbarlarining e'tiborsizligi sababchi boʻlgan deb ta'kidlashimiz mumkin.

***Uchinchi davr*** (Oʻzbekiston mustaqilligining 1991–2024-yillari). Mustaqilligimizning ilk yillaridan boshlab, mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning umumiy strategiyasini amalga oshirish doirasida qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, sud huquq tizimini isloh qilish yuzasidan tizimli chora-tadbirlar izchil amalga oshirib kelinmoqda. Tarixan qisqa davr ichida mamlakatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlashning institutsional va huquqiy asoslari shakllantirildi, korrupsiyaga qarshi kurashning samarali tizimi yaratildi. Davlat va jamiyat boshqaruvini yanada demokratlashtirish hamda modernizatsiya qilish, davlat boshqaruvi sohalarini liberallashtirish sharoitida davlat xizmatchilari tomonidan poraxoʻrlik, mansab mavqeyini suiiste'mol qilish bilan bogʻliq jinoyatlarning sodir etilishi davlat hokimiyatining obroʻsizlanishiga, davlatning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy tizimiga putur yetishiga, natijada, davlat hokimiyati faoliyati samaradorligining susayishiga sabab boʻladi. Shu bois, ushbu illatga qarshi kurashish va barham berish siyosati davlat va jamiyat faoliyatining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylandi. 33 yil mobaynida korrupsiyaga qarshi kurashish ikki bosqichda amalga oshirilgan.

*Birinchi bosqich:* 1991-2016-yillarni oʻz ichiga olgan IIO faoliyatiga doir ilk oʻzgarishlar. Ushbu davrda korrupsiyaga qarshi kurashishda umumiy xarakterdagi qonunlar, Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi. Masalan, 1994 yilda MJtK JK, JPKlari, shuningdek, 11.05.1994-yildagi VMning "Xususiy mulk va tadbirkorlikni korrupsiya, reket va uyushgan jinoyatchilikning boshqa turlaridan himoya qilishning tashkiliy chora-tadbirlari toʻgʻrisida" 247-sonli qarori asosida IIVda Korrupsiya va reketga qarshi kurash bosh boshqarmasi tezkor xodimlari mazkur yoʻnalishda ma'muriy huquqbuzarliklar va jinoyatlarni aniqlash, fosh etish ishlari amalga oshirilgan. Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashish bilan shugʻullanuvchi davlat organlari(IIV DXX, Prokuratura)ni faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar va qonunosti hujjatlar qabul qilinishi, ushbu illatga qarshi davlat siyosati darajasida jiddiy e'tibor berilganligidan dalolat beradi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarning amaliyotga tatbiq etilishi, korrupsiyaga qarshi kurashishda ma'lum darajada xizmat qilgan.

*Ikkinchi bosqich:* 2017 – 2024-yillarni oʻz ichiga oladi. Ushbu davrda eng asosiy hujjat hisoblangan Oʻzbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida" (2017) Qonuni va uning ijrosini ta'minlashda qonunosti hujjat(PF, PQ, VMQ)lar qabul qilindi. Eng quvonarlisi shuki, 29.06.2020-yilda Oʻzbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi Prezident farmoni bilan tashkil etildi. Amalga oshirilgan ijobiy islohotlarning natijasini oʻtgan davrda sodir etilgan poraxoʻrlik jinoyatlari (JKning 210, 211, 212-moddalari) kesimida tahlil qilinganda 2019-yil – 177 ta; 2020 yil – 161 ta; 2021 yil – 91 ta sodir etilib, qariyb 50 foizga kamaygani kuzatilgani, soʻnggi yillarda amalga oshirilgan chora-tadbirlar samarasida umumiy korrupsiyaga oid jinoyatlar salmogʻi tahlil qilinganida esa 2022-yil 4 607 ta; 2023-yilda 4128 ta ya'ni, 11 foizga[26]kam sodir etilgan boʻlib, eng yuqori koʻrsatkich Andijon viloyati (971 ta) hissasiga toʻgʻri kelgan. Albatta, ushbu koʻrsatkichilar yuqori hisoblanib, buni kamaytirish yoki toʻliq sodir etilmaslikni ta'minlashda korrupsiyaga qarshi

kurashish bilan bevosita shugʻullanuvchi davlat organlari oʻrtasida hamkorlikda chora-tadbirlarni belgilovchi yoʻriqnomani ishlab chiqish zarur deb hisoblaymiz. Tahlil qilingan uchinchi davrning birinchi bosqichida korrupsiyaga qarshi kurashishning bevosita huquqiy asoslari boʻlmagan va real statistika, hisob kitoblar yuritilmagan. Ikkinchi bosqichda ushbu masalaga eʼtibor qaratilib keng koʻlamli chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Ushbu amaliyot korrupsiyaga qarshi kurashishning aniq mexanizmini belgilab berishga xizmat qildi.

Umuman olganda, soʻnggi 7 yilda amalga oshirilgan ishlarning tahlili aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga, jamiyatda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga yoʻnaltirilgan tizimli choralar koʻrilganligini koʻrsatib turibdi. Islohotlarni amalga oshirish doirasida fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligini, jamoatchilik va parlament nazoratini taʼsirchan mexanizmini yanada takomillashtirish lozim.

Jamiyatda ushbu illatga qarshi jiddiy, keskin kurash olib borilmas ekan, korrupsiya oʻzining quyidagi salbiy oqibatlarini yuzaga keltiradi:

*birinchidan,* korrupsiya amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy islohotlarga qarshilik koʻrsatuvchi omillarni vujudga keltiradi;

*ikkinchidan,* jinoyatchilik va korrupsiyaning avj olishi davlatning konstitutsiyaviy asoslarini yemiradi, fuqarolarning huquq va erkinliklari jiddiy tarzda buzilishi davom etadi;

*uchinchidan,* jamiyatning maʼnaviy-axloqiy asoslarini yemiradi. Bu esa amalga oshirilayotgan oʻzgarishlarni noxolis baholash va salbiy munosabatni vujudga kelishi uchun shart-sharoit yaratadi;

*toʻrtinchidan,* jamiyatning barcha sohalari rivojlanishdan toʻxtaydi.

Xulosa qilib aytganda, korrupsiyaga qarshi kurashda jamiyatning barcha aʼzolari ishtirok etishi lozim. Faqat davlat organlari tomonidan tezkor-qidiruv, profilaktik tadbirlarni oʻtkazishi yetarli emas deb hisoblaymiz.

**Литература/References/Adabiyotlar:**


1. V.I.Avdiev Qadimgi Sharq tarixi T.:1964. 66 b.
2. A.J.Badirov. Amir Temur davlatida qonunchilik.// Amir Temur va uning jahon tarixidagi oʻrni. Xalqaro konferensiya tezislari. – Samarqand, 1996, 67 b.
3. Борисов В.К., Чепурных С.Р. История борьбы с коррупцией в США // Интерактивная наука. 2022. №11 (76). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/istoriya-borby-s-korruptsiey-v-ssha (дата обращения: 15.03.2025).
4. Государственная служба: комплексный подход: учебник / отв. ред. А.В.Оболонский.М.:Изд-во «Дело» АНХ, 2009. С.22.
5. Ziyodulla Muqimov. Amir Temur tuzuklari (tarixiyhuquqiy tadqiqot). Ikkinchi toʻldirilgan nashri. – Samarqand: SamDU, 2008. – 131 b.
6. Ильичёв И.Е. Коррупция: истоки и состояние проблемы // ППД. 2019. №4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/korruptsiya-istoki-i-sostoyanie-problemy (дата обращения: 16.03.2025.
7. Кури Х., Ильченко О. Ю., Данилов А. П. Проблема коррупции в Германии // Криминология: вчера, сегодня, завтра. 2011. №23. URL: https://cyberleninka.ru/ article/n/ problema-korruptsii-v-germanii (дата обращения: 17.03.2025.
8. Коваль С.Е., Минина Т.И. Антикоррупционная деятельность в Германии // Хроноэкономика. 2019. №2 (15). URL:

https://cyberleninka.ru/article/n/antikorruptsionnaya-deyatelnost-v-germanii (дата обращения: 18.03.2025.
9. Лабутина Т.Л. Народные движения в Англии в правление Карла II Стюарта (1660-1685 гг. ) // Вестник НВГУ. 2017. №2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/narodnye-dvizheniya-v-anglii-v-pravlenie-karla-ii-styuarta-1660-1685-gg (дата обращения: 19.03.2025).
10. Mahmudova N.Dj. Avestoda ta’limiy-axloqiy qarashlar pedagogika f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. T.2005. B.30.
11. Монтескье Ш.Л. Избранные сочинения М., 1955. Б.289.
12. Muminov A.R., Tillabaev M.A. M-86 Inson xukuklari: darslik / A.R. Muminov, M.A. Tillabaev; mas’ul muxarrir A.X. Saidov. — 2-nashr. — T.: Adolat, 2013. – B.74-77. (544 b.)
13. Muqimov Ziyodulla.O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik.- T.: “Adolat”, 2003. – 280 b.
14. Odilqoriyev H., Azizov N., Madirimov X. Davlat va huquq tarixi: IIV oliy ta’lim muassasalari uchun darslik // –T.: O zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. B.23.
15. Полное собрание законодательства Российской Империи. T.V. № 2871.
16. Рубинский Ю.И. Франция: коррупция и борьба с ней // Современная Европа. 2010. №2 (42). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/frantsiya-korruptsiya-i-borba-s-ney (дата обращения: 19.03.2025.
17. Смоленский М.Б. Исторический аспект возникновения коррупции и борьбы с ней // European journal of law and political sciences. 2018. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/istoricheskiy-aspekt-vozniknoveniya-korruptsii-i-borby-s-ney (дата обращения: 20.03.2025.
18. Соловьев С.М. История Россия с древнейших времен. Т. 14 Кн. 7. М., 1983. Б.591.
19. Трусова В.С. Восприятие понятия коррупции в Великобритании XVIII века // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. 2020. №5-3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/vospriyatie-ponyatiya-korruptsii-v-velikobritanii-xviii-veka (дата обращения: 21.03.2025).
20. Shayx Abdulaziz Mansur “Qur’oni karim ma’nolarining tarjimasi” Toshkent islom universiteti nashriyoti 2016 yil.
21. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Zikr ahlidan so‘rang” 1-8 juzlar. “Hilol-nashr”nashriyoti 2016 yil.
22. Шевчук В.Д. Коррупция: опасная болезнь государства. Ярославль 2018. 112 с.
23. O‘ljaeva Shoxista Amir Temur davlat boshqaruvi [Matn] / Sh. O‘ljaeva. — Toshkent: Akademnashr, 2017. — 248 b.
24. Qo‘shjonov, Otamurod. Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harakatlar/ 0 . Qo‘shjonov, N. Polvonov; Mas’ul muhar. Q. Rajabov, Muhar. V. Umirov. — Toshkent: “AVP MATViOT-KONZATT” MChJ, 2007. – 388 b.
25. Qo‘qon xonligining tashkil topishi va biylik boshqaruvi tizimi // Academic research in educational sciences. 2022. №11. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/on-honligining-tashkil-topishi-va-biylik-bosh-aruvi-tizimi (data obraщeniya: 22.03.2025).
26. https://anticorruption.uz/uz/article/zbekistonda-korrupciiaga-oid-zinoiatlar-soni-kamaimoqda(data obraщeniya: 23.03.2025).

27. https://kamadm.ru/anticorruption/media/2018/8/3/korruptsiya-ponyatie-vidyi-istoriya-poyavleniya-i-razvitiya/(data обращеniya: 24.03.2025).
28. https://adolat.uz/uzbekiston/korrupciya-uning-tarihij-ildizlari-korrupciyaga-qarshi-kurash-usullari(data обращеniya: 25.03.2025).
29. https://dzen.ru/a/YUoApMrIlBGJo1EQ(data обращеniya: 26.03.2025).
30. https://ru.wikipedia.org/wiki/Pax Mongolica(data обращеniya: 27.03.2025).

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# XUFIYONA IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

**Normatov Isomiddin Dustqul o'g'li**
Toshkent davlat yuridik universiteti
tayanch doktoranti
E-mail: normatovisomiddin36@gmail.com

**Annotatsiya.** ushbu maqolada xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurashish va uning salmog'ini kamaytirish yo'llari, shuningdek, xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurashishning umumiy tavsifi va usullari hamda xufiyona iqtisodiyotning salmog'ini kamaytirish yo'lidagi qabul qilinayotgan normativ hujjatlar va islohotlar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** xufiyona iqtisodiyot, norasmiy iqtisodiyot va yashirin iqtisodiyot, jinoyiy iqtisodiy faoliyat, narkobiznes, mansabni suiiste'mol qilish va korrupsiya.

# PRIORITY DIRECTIONS FOR IMPROVING THE SYSTEM OF COMBATING THE HIDDEN ECONOMY

**Normatov Isomiddin Dustkul ugli**
Tashkent State University of Law,
basic doctoral student

**Abstact.** this article talks about the ways to fight against the shadow economy and reduce its weight, as well as the general description and methods of fighting against the shadow economy, as well as the adopted regulatory documents and reforms to reduce the weight of the shadow economy.

**Key words:** secret economy, informal economy and underground economy, criminal economic activity, drug business, abuse of office and corruption.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N31

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yilning 24 yanvar sanasida Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida "Hozirgi globallashuv davrida iqtisodiy o'sish har bir davlatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Lekin dunyo mamlakatlarining sog'lom rivojlanishi uchun mamlakat iqtisodiyotiga rasmiy statistikada qayd etilmaydigan, latentlik xususiyatiga ega bo'lgan to'siqlar mavjud. Shunday to'siqlardan biri "yashirin iqtisodiy faoliyat" hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida, inson omili bilan izohlanadi. Islohotlarimizga jiddiy to'siq bo'layotgan "yashirin iqtisodiyot"ga qarshi kurashilmas ekan, sog'lom raqobat ham, qulay investitsiya muhiti ham shakllanmaydi", deb ta'kidlagan edi[1].

Avvalambor, xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurash usullari xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurash sabablarini, usullari hamda vositalarini belgilash lozim, keyinchalik, uning koʻlami va dinamikasini aniqlash lozim boʻladi. Rivojlangan mamlakatlarda xufiyona iqtisodiyot koʻlamlarini aniqlashda quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Indikatorlar uslubi. Ularning tarkibida toʻgʻridan-toʻgʻri va bilvosita (egri) uslublar mavjud. Toʻgʻridan-toʻgʻri uslublar maxsus kuzatuv, soʻrovlar oʻtkazish, ayrim soliq toʻlovchilar daromadlari va xarajatlari oʻrtasidagi nomuvofiqliklarni aniqlash maqsadida tekshiruvlar, tahlillar oʻtkazishni oʻz ichiga oladi. Bilvosita (egri) uslublar bandlik koʻrsatkichlari boʻyicha monetar uslublarni oʻz ichiga oladi.
2. Yengil modellashtirish uslubi, ya’ni determinantlarni baholash. Ushbu uslubda xufiyona iqtisodiyotni aniqlashtiruvchi jami koʻrsatkichlar tanlab olinib, uning nisbiy hajmlari hisoblanadi.
3. Struktura tarkibiy uslublarda turli ishlab chiqarish tarmoqlarida xufiyona iqtisodiyot hajmlari toʻgʻrisidagi ma’lumotlar, axborotlardan foydalaniladi.
4. Aralash uslublarda xufiyona iqtisodiyot hajmlariga bogʻliq oʻlchovlardan, ya’ni determinant va indikatorlarni hisobga olgan holda modellar yaratiladi.
5. Xufiyona iqtisodiyotni baholashda makroiqtisodiy koʻrsatkichlarni integral baholash uslubi[2, 171-bet].
6. Rasmiy statistika koʻrsatkichlarini, turli qayta va qoʻshimcha hisoblashlar asosida xufiyona iqtisodiyot va uning alohida elementlarini baholash.

Bundan tashqari, xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurashda quyidagi usullardan ham foydalaniladi:

- radikal-liberal, ya’ni dastlabki jamgʻarilgan kapital eng yuqori sur’atlariga maqsadli cheklovlar belgilash yoʻli;
- repressiv uslublar xufiyona iqtisodiy faoliyatga qarshi huquq-tartibot, xavfsizlik organlari faoliyatini kengaytirish va kuchaytirishni taqozo etadi;
- biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minlash boʻyicha qonunchilikni takomillashtirish bilan huquqiy choratadbirlar majmuasi[3, 20-bet].

Xufiyona iqtisodiy faoliyatga qarshi kurashning eng muhim yoʻnalishlari quyidagilardan iborat:

1. Noqonuniy biznes va tadbirkorlikning oldini olish hamda barham berish.
2. Yolgʻon tadbirkorlikka qarshi kurash.
3. Tijorat maqsadida sotib olish – davlat va xoʻjalik boshqaruvida faoliyat koʻrsatayotgan mansabdor shaxslarga noqonuniy tarzda pul, qimmatli qogʻozlar, boshqa mulkiy qiymatlarni oʻz xizmat mavqeyidan kelib chiqqan holda koʻrsatgan xizmati, ya’ni tijorat yoki bank sirini oshkor qilgani, pora beruvchiga noqonuniy harakati uchun sharoit yaratib berishi hisoblanadi.
4. Jinoyiy yoʻllar bilan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi ta’sir mexanizmini yaratish.
5. Yolgʻon bankrotlikka qarshi qonunchilikda belgilangan javobgarlikni yanada oshirish.
6. Jismoniy va yuridik shaxslarning bojxona toʻlovlarini toʻlashdan boʻyin tovlashlariga qarshi chora-tadbirlarni, jazo choralarini qoʻllash.

7. Kontrabanda, mamlakatga tovarlarni noqonuniy tarzda olib kirish va tashqariga noqonuniy tarzda tovarlarni olib chiqib ketishga qarshi kuchli tizimni qaror toptirish[4, 30-bet].

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, mamlakatimizda iqtisodiy huquqbuzarliklar uchun javobgarlik masalalarini quyidagi yoʻnalishlarda takomillashtirish taklif qilinadi:

Birinchidan, iqtisodiy huquqbuzarliklarni fosh etish va bartaraf etishda shaxsning ishtiroki darajasiga (hamkorligi) qarab javobgarlik choralarini differensiallashtirish hamda yanada liberallashtirish lozim. Aksariyat iqtisodiy huquqbuzarliklarni fosh etish uchun soliq toʻlovchining hamkorligi talab etiladi. Aks holda, ushbu turdagi huquqbuzarliklarni aniqlash juda qiyin boʻlib, koʻp vaqt va resurslarni talab etadi. Shunga koʻra, soliq toʻlovchining nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilganligi, huquqbuzarlikni ochishda faol yordam berganligi uchun belgilangan sanksiya va jazo choralarini yarmiga qisqartirishni nazarda tutish taklif qilinadi. Bu har ikki tomon oʻrtasida oʻzaro hurmat, ishonch va samarali muloqot oʻrnatish uchun huquqiy zamin yaratadi.

Ikkinchidan, iqtisodiy huquqbuzarlik bilan bogʻliq aniqlangan ishlarni sudga yoki tergov organiga oʻtkazmasdan vakolatli organlar (prokuratura, Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, soliq, bojxona va boshqa organlar) va huquqbuzar tomon oʻrtasida sudgacha kelishuv bitimini imzolash orqali hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni kiritish taklif qilinadi. Mazkur institut soliq huquqbuzarliklari uchun tezkor va ortiqcha tartib-taomillarsiz jazo sanksiyalarini qoʻllash, yetkazilgan iqtisodiy zarar va penyalarni toʻliq undirish, kelgusida bu kabi huquqbuzarliklarning sodir etilishini oldini olishga qaratilgan choralarni amalga oshirishni oʻz zimmasiga olishni nazarda tutadi.

Uchinchidan, iqtisodiy huquqbuzarlikni kvalifikatsiya qilish Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeks va Jinoyat kodeksida belgilangan miqdorlarga (“ancha”, “koʻp”, “juda koʻp miqdor”) bevosita bogʻlab qoʻyilgan, shuningdek, qoʻllaniladigan jazo choralarining minimal va maksimal miqdorlari koʻrsatilgan. Javobgarlikni belgilashda mazkur miqdorlar bilan bir qatorda yetkazilgan zarar miqdori jami majburiyatning (soliq va boshqa turdagi majburiyatlar) qancha qismini tashkil etishiga qarab huquqbuzarlikni qoʻshimcha kvalifikatsiya qilish taklif qilinadi. Bunda, agar yetkazilgan zarar jami majburiyat summasining 15 foizidan kam boʻlsa, javobgarlikni nisbatan yengilroq sanksiya doirasida baholash taklif qilinadi. Shuningdek, jazo choralarini qoʻllashda subyektivlikka yoʻl qoʻymaslik maqsadida qoʻllaniladigan sanksiya miqdorining minimal va maksimal chegaralarini aniq foiz yoki koʻpaytma shaklida belgilash (masalan: 20%, 30% yoki 2 baravar, 4 baravar) lozim. Shunga koʻra, Jinoyat kodeksining 184-moddasi toʻrtinchi qismini chiqarib tashlash, moddani yangi qism bilan toʻldirish, unda shaxs tomonidan soliq toʻlash bilan bogʻliq jinoyat qayta sodir etilgan taqdirda, toʻlanmagan soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlarni 2 baravar miqdorida, uch va undan ortiq ushbu turdagi jinoyat sodir etilgan boʻlsa, 4 baravar miqdorida, shu jumladan penya va boshqa moliyaviy sanksiyalar tarzida davlatga yetkazilgan zararning oʻrni toʻliq qoplansa, shaxsni javobgarlikdan ozod qilish taklif qilinadi.

Toʻrtinchidan, iqtisodiy huquqbuzarliklar uchun muqobil sanksiyalarni joriy etish taklif qilinadi. Soliq toʻlashdan boʻyin tovlagan yoki qarzi maʼlum bir miqdordan oshgan soliq toʻlovchilarni obroʻsizlantirish maqsadida ularni har chorakda qarzdorlar roʻyxatida eʼlon qilish amaliyotini joriy etish taklif qilinadi.

Beshinchidan, Soliq kodeksining 223-moddasiga asosan yuridik shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilishi belgilangan boʻlsa-da, MJtK va Jinoyat kodeksida yuridik shaxsning javobgarligi nazarda tutilmagan. Ayrim hollarda iqtisodiy huquqbuzarliklarning aynan kim tomonidan sodir etilganligini aniqlash va isbotlash murakkabligi hamda boshqa muammolarni inobatga olib, yuridik shaxslar uchun javobgarlikni belgilash taklif qilinadi.

Oltinchidan, korrupsiya, iqtisodiy huquqbuzarliklar va xufiyona faoliyat yuritayotgan shaxslar haqida anonim tarzda yoki arizachining shaxsi sir saqlanishini taʼminlagan holda turli vositalar yordamida (elektron, ogʻzaki yoki yozma shaklda) murojaat qilish imkoniyatlarini kengaytirish, bunda nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining ishtirokini kengaytirish orqali jamoatchilik nazorati mexanizmlaridan samarali foydalanishni ragʻbatlantirish zarur[5].

Mazkur chora-tadbirlar iqtisodiy huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni yanada liberallashtirish va takomillashtirish, insofli tadbirkorlarni ragʻbatlantirish, iqtisodiy huquqbuzarlik holatlarini ixtiyoriy bartaraf etilishi va oʻzaro hamkorlikni ragʻbatlantirish hamda sudgacha kelishuv instituti imkoniyatlaridan kengroq foydalanishga xizmat qiladi.

Oʻzbekistonda jinoyiy xufiyona iqtisodiyotga va korrupsiyaga qarshi kurashning uzoq muddatli strategiyasi ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda. Bu strategiya doirasidagi jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurash yoʻnalishlari quyidagilardan iborat:

1. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish yoʻlidan yanada izchil borish.
2. Halol tadbirkorlik uchun chinakam erkinlikni taʼminlash.
3. Oʻzbekistonda huquq va sud tizimini takomillashtirish hamda isloh qilish.
4. Fuqarolarning turli, jumladan, iqtisodiy huquqbuzarlikka qarshi ichki imkoniyatlari va yuksak darajadagi axloqi jinoyatchilik va korrupsiya jamiyatga olib kiradigan yemirilishdan eng yaxshi himoya hisoblanadi.
5. Jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi murosasizlik muhitini vujudga keltirish.

Xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurashish uchun korxonalar xoʻjalik-moliyaviy faoliyati, jismoniy shaxslarning daromad olishi va xarajatlari toʻgʻrisidagi haqqoniy axborotlarni toʻplash, tahlil qilish asosida iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarni keng qamrovli nazorat qilish tizimini shakllantirish lozim. Bunda davlat boshqa organlar, nodavlat tashkilotlar, uyushmalar bilan oʻzaro bogʻliqlikda aloqadorlik va hamkorlikni yoʻlga qoʻyishi kerak boʻladi[6].

Xulosa qilib aytganda, bir qator olimlar va amaliyotchilarning fikrlarini tahlil qilgan holda jinoyat faoliyatidan olingan daromadlarni legallashtirish — bu jinoyat faoliyati natijasida olingan mol-mulkni topshirish, konversiya qilish yoki almashtirish, shuningdek, asl mohiyatini, manbasini, kelish yoʻlini va manbasini yashirish yoki yashirish orqali egalik qilish, mulkka yoki uning mulkiga nisbatan asl huquqlarni boshqa shaxsga oʻtkazish, agar bunday mulk jinoyat faoliyati natijasida olingan boʻlsa — obyektiv tomon deb hisoblash darkor. Bu esa, oʻz navbatida, jinoyat yoʻli bilan topilgan daromadlarni legallashtirish jinoyatlari uchun sud hukmi chiqarishda yengillashtiruvchi va ogʻirlashtiruvchi alomatlar mavjudligini hisobga oluvchi jarayon ekanligi aniqdir.

Mamlakatimizda xufiyona iqtisodiyotni qisqartirish boʻyicha strategik yoʻnalishlarni belgilash va bunda barcha manfaatdor vazirlik va idoralarni safarbar etgan holda quyidagi yoʻnalishlarda chora-tadbirlarni amalga oshirish: 2023–2024 yillarda alohida korxona yoki

tarmoqlarga berilgan imtiyozlarni toʻliq tanqidiy xatlovdan oʻtkazish va bekor qilish orqali barcha bozor ishtirokchilari uchun teng imkoniyatlar hamda sogʻlom raqobat muhitini yaratish; import tovarlarining ichki bozordagi ulgurji savdosini faqat naqd pulsiz hisob-kitob shaklida amalga oshirilishini toʻliq taʼminlash va buni nazorat qilish uchun import mahsulotlari harakati boʻyicha yagona axborot tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish; soliqdan qochish holatlarida jazoning muqarrarligini taʼminlash, rasmiy iqtisodiyotda ishlashni yashirin iqtisodiyotda faoliyat yuritishdan koʻra manfaatli qilish, bu boradagi toʻsiqlarni bartaraf etish, barcha axborot vositalari orqali tushuntirish ishlari koʻlamini kengaytirish; yuridik shaxslar tomonidan jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlariga moliyaviy yordam va qarz sifatida yoʻnaltirilayotgan mablagʻlarga nisbatan jismoniy shaxslarning daromad soligʻiga tortish amaliyotini joriy etish, mablagʻlar toʻliq qaytarilganda ushbu tushumlarni soliq bazasidan chiqarish; jinoyat faoliyatidan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish tizimi doirasida shubhali mijozlar va operatsiyalarni oldindan aniqlash indikatorlarini joriy etish va monitoringini kuchaytirish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

**Adabiyotlar/Литература/References:**


1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar. // Xalq soʻzi, 2020 yil 25 yanvar.
2. Kochergina T.E. “Экономическая безопасность”. – Rostov-na-Donu: Feniks, 2007. – S. 171.
3. Land P. “Организованная преступность тайная история самого прибыльного бизнеса в мире: пер с англ”. – M.: AST: Astral’, 2005. – S. 11–43.
4. Qobilov Sh.R. Globallashuv va xavfsizlik. – T.: OʻzR IIB Akademiyasi, 2006. 27–38-betlar.
5. Директива Европейских Сообществ (CEC) от 10 июня 1991 г. о Abulqosimov X.P. Iqtisodiy xavfsizlik. Oʻquv qoʻllanma. – T.: Akademiya, 2006.
6. Abulqosimov H.P., Abulqosimov M.H. Iqtisodiy xavfsizlik: nazariya va amaliyot. Oʻquv qoʻllanma. – T.: Nashirlik yoʻgdusi, 2019.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ KYC В СЕКТОРЕ ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

**Пулатов Темурбек Гайратжон угли**
преподаватель кафедры "Кибер право" ТГЮУ
E-mail: tiimur.p.001@gmail.com
Тел: +998 93 820 05 71

**Аннотация.** Статья анализирует правовые аспекты применения технологий «Знай своего клиента» (KYC) в финтехе. Рассматриваются международные стандарты, национальные режимы Индии, Индонезии, Узбекистана, а также инновационные решения блокчейна и e-KYC, их риски, преимущества и пути соблюдения конфиденциальности.

**Ключевые слова:** KYC, финтех, блокчейн, e-KYC, правовое регулирование, конфиденциальность.

# МОЛИЯВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАР СОҲАСИДА KYC ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ҚЎЛЛАШНИНГ ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ

**Полатов Темурбек Гайратжон огли**
ТДЮУ "Кибер ҳуқуқ" кафедраси ўқитувчиси

**Аннотация.** Мақолада финтех секторида «Мижозингиз билинг» (KYC) технологияларини ҳуқуқий қўллашнинг долзарб жиҳатлари таҳлил қилинади. Халқаро стандартлар, миллий қонунчилик ҳамда блокчейн ва e-KYC каби инновациялар орқали ҳуқуқий хатарлар ва имкониятлар кўрсатилади, шунингдек рақамли махфийликни таъминлаш йўллари таклиф этилади.

**Калит сўзлар:** KYC, финтех, блокчейн, e-KYC, ҳуқуқий мувофиқлик, махфийлик.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N32

**Введение.** На сегодняшний день перед финансовым сектором поставлены следующие задачи, связанные с повышением качества и расширения спектра финансовых услуг посредством внедрения современных информационных технологий: широкое применение автоматизированной скоринговой системы, цифровой идентификации и кредитного конвейера; повышение информационной безопасности банковских данных и систем[24]. Стремительное развитие финансовых технологий (FinTech) радикально меняет способы предоставления и получения финансовых услуг. При этом устойчивость рынка и доверие пользователей зависят от способности участников надёжно идентифицировать клиентов и противодействовать финансовым преступлениям. Процедура «Знай своего клиента» (Know Your Customer, KYC) является ядром этой функции и одновременно объектом жёсткого правового регулирования в большинстве юрисдикций. На фоне глобализации платёжных сервисов и появления децентрализованных решений (Decentrilized Finance) традиционные KYC-механизмы

сталкиваются с проблемами масштабируемости, стоимости и соблюдения конфиденциальности данных. Это побуждает регуляторов и индустрию внедрять электронные (e-KYC) и распределённые (blockchain-KYC) модели, что, в свою очередь, требует переосмысления нормативной базы [1]–[4]. Цель настоящего исследования — проанализировать действующие правовые рамки KYC, сопоставить их с технологическими инновациями и выявить направления дальнейшего совершенствования регулирования в сфере финтеха.

**Методология.** Исследование основано на нормативно-правовом анализе международных стандартов (рекомендации ФАТФ, GDPR, руководства Базельского комитета), национальных актов (РФ 115-ФЗ, RBI KYC Directions 2016, POJK 23/2019, Закон Узбекистана об AML/CTF и др.) и академической литературы. Применялся сравнительный подход к оценке традиционных и технологических KYC-моделей, а также к сопоставлению регулирования в ЕС, Индии, Индонезии, России, Таиланде, Украине и Узбекистане. Дополнительно использовались кейс-стади внедрения блокчейн-KYC, e-KYC и RegTech-решений (Masterchain, India Stack, Plaid, Trulioo). Анализ проводился сквозь призму принципов законности, пропорциональности и технологической нейтральности.

**Результаты. Международные стандарты.** ФАТФ (Группа разработки финансовых мер по борьбе с отмыванием денег — Financial Action Task Force) рассматривает процедуру «Знай своего клиента» (KYC) как один из центральных элементов комплексной системы мер по противодействию отмыванию доходов, полученных преступным путём, и финансированию терроризма. В соответствии с Рекомендацией № 10 ФАТФ, государства обязаны ввести обязательные процедуры идентификации клиентов финансовых учреждений, их верификации на основе надёжных источников информации и последующего мониторинга транзакционной активности. KYC-процедуры должны применяться как на этапе установления деловых отношений, так и в процессе их продолжения, с целью выявления подозрительных операций, оценки уровня риска и соблюдения принципа должной осмотрительности. Это требование распространяется не только на банки, но и на иные субъекты финансового сектора, включая страховые компании, кредитные организации, провайдеров платёжных услуг и финтех-компании[19].

При этом соблюдение требований международных стандартов должно сочетаться с выполнением норм о защите персональных данных, особенно в юрисдикциях, где действует Общий регламент по защите данных Европейского союза (GDPR). Согласно GDPR, субъекты данных имеют закреплённое право контролировать свои персональные данные, включая право на доступ, корректировку, переносимость и удаление информации («право на забвение»). Это ставит под сомнение возможность хранения персональных идентификаторов на технологиях распределённого реестра (таких как блокчейн), которые по своей природе являются неизменяемыми и не позволяют произвольно удалять или изменять уже записанную информацию. В таком контексте многие регуляторы подчёркивают необходимость выработки гибридных решений, при которых персональные данные хранятся вне реестра, а в блокчейне сохраняются лишь хэш-ссылки или зашифрованные подтверждения[16].

Кроме того, Базельский комитет по банковскому надзору в своих документах указывает на прямую ответственность органов управления и высшего менеджмента банков за внедрение, контроль и периодическую актуализацию политики KYC и систем управления рисками клиентов. Кроме того, высокий спрос на кредиты в современных бизнес-практиках, а также потребность в эффективных банковских механизмах делают правовую регуляторную систему банковского сектора весьма актуальной[26].

Согласно Принципам эффективного банковского надзора, надзорные органы обязаны проверять, насколько глубоко и системно KYC-политики внедрены в практику конкретного финансового учреждения, как осуществляется оценка уровня риска клиентов, и насколько полноценно реализуется мониторинг операций[23][25]. Недостаточное выполнение этих процедур может привести не только к утрате лицензии или наложению крупных штрафов, но и к рискам репутационного характера, что особенно критично в условиях глобализированной финансовой среды[23].

Таким образом, международные нормативно-правовые акты задают обязательный регуляторный каркас в виде принципов, подходов и минимальных требований к реализации политики KYC. Однако они не содержат прямых указаний на конкретные методы или технологии, оставляя это на усмотрение национальных регуляторов и самих финансовых институтов. Такая гибкость, с одной стороны, позволяет адаптировать KYC-практики к локальному законодательству и техническому уровню развития, а с другой — создаёт вызовы для обеспечения трансграничной совместимости, взаимного признания электронных форм идентификации и согласованности стандартов между странами[16][23].

**Национальные правовые режимы.**

**Индия.** RBI KYC Directions 2016 обязывают банки обновлять данные от 2 до 10 лет в зависимости от риск-профиля клиента и допускают удалённую идентификацию через India Stack, что снизило стоимость проверки с 15 долл. до 0,5 долл. и время с 5 дней до секунд [8], [15], [17].

**Индонезия.** Регламент POJK 23/2019 закрепил e-KYC с обязательной двухфакторной аутентификацией и использованием национального идентификатора; финтех-компании могут заключать договоры с провайдерами цифровой подписи [8], [20].

**Россия.** Закон 115-ФЗ и Указание ЦБ 499-П требуют полной идентификации клиентов, а регуляторная «песочница» Банка России тестирует блокчейн-обмен KYC-анкетами на платформе «Мастерчейн» [4], [6], [21].

**Узбекистан.** Закон «О противодействии легализации доходов…» (2019) возлагает обязанность KYC на все финансовые организации; предлагается создание национальной платформы идентификации и типовых анкет [7], [18].

**Таиланд.** AML Act 2542 и руководства AMLO допускают упрощённый due diligence для клиентов низкого риска и регламентируют биометрический e-KYC при открытии счетов онлайн [11], [22].

Блокчейн обеспечивает неизменяемость и совместное использование данных, но противоречит принципу «права на забвение» GDPR; поэтому персональные данные выносятся за пределы реестра, а в блокчейне хранятся лишь хеши и метаданные [1]. e-KYC с биометрией и ИИ повышает точность верификации, однако усиливает риски

утечки данных и требует строгих регламентов по хранению биометрических шаблонов [3], [14]. RegTech-платформы на базе NLP и RPA автоматизируют мониторинг транзакций и отчётность, снижая затраты на комплаенс до 30–50 % [9], [13], но сталкиваются с регуляторной неопределённостью относительно алгоритмической прозрачности. Массовое внедрение e-KYC повышает финансовую инклюзию: в Индии доля взрослых с доступом к цифровым платежам выросла до 82 % [15]. В Узбекистане планируется сократить время регистрации и подключения малых предприятий и мигрантов к цифровым услугам на 60 %, что соответствует целям программы «Цифровой Узбекистан 2030».[18]. Одновременно риски кибербезопасности и нарушения конфиденциальности остаются ключевым барьером доверия пользователей [5].

**Обсуждение.** Сравнительный анализ международных и национальных правовых норм показывает, что регулирование в сфере идентификации клиентов стремительно эволюционирует: акцент смещается с жёсткого требования физического присутствия клиента при прохождении процедур идентификации на использование универсальных, технологически нейтральных критериев, направленных на проверку достоверности, целостности и неизменности передаваемых данных. Это позволяет применять современные цифровые инструменты, включая биометрические технологии, цифровые подписи и средства удалённой верификации, без необходимости обязательной очной идентификации. Однако, несмотря на прогресс в области цифровой трансформации и технологической адаптации нормативных требований, остаётся нерешённой серьёзная правовая дилемма, связанная с противоречием между принципами защиты персональных данных, закреплёнными, например, в Европейском регламенте GDPR, и особенностями технологий распределённого реестра, таких как блокчейн, обладающих свойством неизменяемости и публичности хранимых записей. Это противоречие выражается в невозможности удаления уже записанных персональных данных, несмотря на наличие у субъектов права на забвение, и требует правовой реконструкции подходов к хранению чувствительной информации.

Одним из возможных решений этой коллизии выступает концепция «off-chain data», предусматривающая хранение персональных данных за пределами самого блокчейна, а в самом реестре фиксируются только хэши или ссылки, удостоверяющие неизменность данных, размещённых во внешних зашифрованных хранилищах. Такая архитектура дополняется механизмами управляемого доступа, в рамках которых пользователи и уполномоченные органы могут контролировать, кому и в каких условиях предоставляется доступ к их идентификационным атрибутам [1], [12].

На практике особую актуальность эта проблема приобретает в странах с развивающейся цифровой инфраструктурой и правовой системой, таких как Узбекистан и Индонезия. Здесь одним из ключевых вызовов остаётся отсутствие стандартизированных и юридически признанных форм идентификационных атрибутов — таких как единые форматы идентификационных номеров, биометрических параметров, цифровых удостоверений — что делает затруднительным внедрение эффективных KYC-механизмов. Дополнительно, финтех-компании в этих юрисдикциях часто сталкиваются с институциональными барьерами при получении доступа к государственным базам данных и реестрам, таким как регистры населения, налоговые

базы или платформы цифровой идентификации. В результате ограничивается их способность проводить своевременную и юридически надёжную идентификацию пользователей, что снижает эффективность AML/CFT-мер и препятствует формированию доверительной цифровой среды [8].

Развитие технологий искусственного интеллекта позволило интегрировать в процессы идентификации клиентов так называемые AI-driven KYC-системы. Такие решения обеспечивают возможность комплексного и превентивного мониторинга транзакционного поведения, прогнозирования риска клиента, а также автоматического выявления подозрительных шаблонов. Однако широкомасштабное внедрение таких систем сопряжено с рядом правовых и этических рисков. Прежде всего, возникает проблема соответствия фундаментальным правовым принципам, включая соблюдение процедуры должной правовой защиты (due process), что предполагает прозрачность принятия решений, возможность обжалования и наличие человеческого контроля. В связи с этим важно использовать исключительно объяснимые модели искусственного интеллекта (explainable AI), результаты работы которых могут быть интерпретированы как клиентами, так и регуляторными органами [14].

С целью повышения нормативной предсказуемости и снижения регуляторной фрагментации, в ряде стран регуляторы начали публиковать национальные гайдлайны и рекомендации по применению так называемого «ответственного искусственного интеллекта» (responsible AI), направленного на обеспечение соблюдения прав субъектов данных, этичности алгоритмов и возможности последующего контроля[25]. Тем не менее, отсутствие универсального подхода к международной гармонизации подобных стандартов создаёт риск регуляторного арбитража, при котором компании целенаправленно выбирают юрисдикции с наименее жёсткими требованиями к обработке данных и алгоритмической прозрачности, снижая тем самым эффективность глобального комплаенса.

В этих условиях, для минимизации правовых и технологических рисков, эксперты и международные организации предлагают ряд стратегических решений:

– **Во-первых**, необходимо разработать и внедрить глобальные технические и процедурные стандарты для электронного KYC (e-KYC), находящиеся под координацией ФАТФ и учитывающие при этом ключевые положения GDPR, в частности, касающиеся права на согласие, доступа и удаления данных [1];

– **Во-вторых**, рекомендуется сформировать многосторонние KYC-платформы (так называемые KYC-утилиты), предполагающие совместное участие финансовых учреждений, регистров персональных данных и аккредитованных поставщиков удостоверяющих услуг. В такой модели ответственность за достоверность, актуальность и защиту данных будет разделена между участниками, что повысит прозрачность и устойчивость всей системы [12];

– **В-третьих**, следует обязать поставщиков решений на базе искусственного интеллекта, применяемых для KYC, публиковать техническую документацию по объяснимости своих моделей, логи принятия решений, показатели точности и метрики предвзятости. Эти данные должны быть доступны для проведения независимого регуляторного аудита;

– **В-четвёртых**, в условиях Узбекистана целесообразно создание национальной цифровой платформы уровня RegTech, которая будет интегрирована с Единой системой идентификации граждан и обеспечит юридически значимую верификацию как для государственных, так и для частных структур. Такая инфраструктура должна также поддерживать функции кросс-платформенной совместимости и обеспечивать соблюдение стандартов кибербезопасности и защиты персональных данных. Всё это позволит не только повысить доверие к цифровым финансовым услугам, но и гармонизировать регуляторные подходы, сбалансировать технологические инновации с правовыми гарантиями, а также обеспечить устойчивое развитие финтех-сектора в глобальной и региональной перспективе.

**Заключение.** KYC остаётся краеугольным камнем правового режима финансовых услуг, обеспечивая баланс между инновациями финтеха и общественными интересами в сфере отмывания денег и противодействию финансирования терроризмв. Технологические решения — блокчейн, e-KYC, AI — способны радикально снизить транзакционные издержки и расширить финансовую инклюзию, но их успешная имплементация невозможна без адаптивного и гармонизированного регулирования. Анализ показал, что наиболее эффективными являются гибридные модели, совмещающие децентрализованное хранение атрибутов, централизованную валидацию и многосторонние утилиты обмена KYC-данными. Международная координация стандартов, повышение прозрачности алгоритмов и развитие национальных цифровых идентификаторов являются ключевыми направлениями дальнейших реформ.

**Adabiyotlar/Литература/References:**


1. Kumar, M., Nikhil, and P. Anand. “A Blockchain Based Approach for an Efficient Secure KYC Process with Data Sovereignty.” *International Journal of Scientific & Technology Research* 9, no. 1 (2020): 3403–3407.
2. Sloboda, L. Y., and O. M. Demianyk. “Prospects and Risks of the Fintech Initiatives in a Global Banking Industry.” *Problems of Economics* 1, no. 43 (2020): 275–282.
3. Zentoni, S., B. Santoso, D. M. L. Tobing, and Z. J. Fernando. “Know Your Customer (KYC) Model: A Legal Reform Strategy to Prevent Abuse of Financial Services in Child Sexual Exploitation Transactions.” *Journal of Law and Legal Reform* 6, no. 1 (2025): 239–262.
4. Povetkina, N. A., and Y. V. Ledneva. “Fintekh and Regtekh: Boundaries of Legal Regulation.” *Pravo. Zhurnal Vysshey Shkoly Ekonomiki* 2 (2018): 46–67.
5. Mogilevtsev, G. V. “Innovatsionnye Tekhnologii v Finansovom Sektore: Rol’ Fintekha v Preobrazovanii Traditsionnykh Modeley.” *Universum: Ekonomika i Yurisprudentsiya* 2, no. 124 (2025).
6. Maslennikov, V. V., M. A. Fedotova, and A. N. Sorokin. “Novye Finansovye Tekhnologii Menyayut Nash Mir.” *Vestnik Finansovogo Universiteta* 21, no. 2 (2017): 6–11.
7. Fazilov, F. M. “Rol’ i Znachenie Sistemy ‘KYC’ v Preduprezhdenii Otmyvaniya Deneg.” *Universum: Ekonomika i Yurisprudentsiya* 7, no. 82 (2021).
8. Ghozi, A. “The Urgency of Electronic Know Your Customer (e-KYC): How Electronic Customer Identification Works to Prevent Money Laundering in the Fintech Industry.” *Diponegoro Law Review* 7, no. 1 (2022): 34–52.

9. Masan, S. "Innovations in Fintech and RegTech: Strengthening Fraud Detection and Financial Security." ResearchGate, 2025.
10. Siah, R., M. K. M. Nasution, and I. Hussein. "Dynamic Supervision Control (OJK) for Customer Behaviour Growth Using KYC System." *International Journal of Advanced Science and Technology* 29, no. 8 (2020): 1110–1119.
11. Fanvichita, S. "Fintech and the Duty of Customer Compliance with the Anti-Money Laundering Law." *PSAKU International Journal of Interdisciplinary Research* 7, no. 2 (2018): 31–38.
12. Arner, D. W., D. A. Zetzsche, R. P. Buckley, and D. N. Barberis. *The Identity Challenge in Finance: From Analogue Identity to Digitized Identification to Digital KYC Utilities.* EBI Working Paper 28, 2018.
13. Chen, C.-C., H.-H. Huang, and H.-H. Chen. "NLP in FinTech Applications: Past, Present and Future." Working paper, National Taiwan University, 2019.
14. Harrison, W. *AI for Anti-Money Laundering (AML) and Know Your Customer (KYC) Compliance.* ResearchGate, 2024.
15. Liu, F., and A. K. Lyons. "FinTech Applications." In *Emerald Handbook of FinTech: Reimagining Finance*, edited by H. K. Baker, G. Filbeck, and K. Black. Bingley: Emerald, in press.
16. European Union. *Regulation (EU) 2016/679 (General Data Protection Regulation).* Official Journal of the European Union, 2016.
17. Reserve Bank of India. *Master Direction – Know Your Customer (KYC) Direction, 2016.* Mumbai: RBI, updated 2023.
18. Republic of Uzbekistan. *Law on Counteracting Legalization of Proceeds of Crime and Financing Terrorism,* No. 660-II, 2019.
19. Financial Action Task Force. *International Standards on Combating Money Laundering and the Financing of Terrorism & Proliferation – the FATF Recommendations.* Paris: FATF, updated 2024.
20. Indonesian Financial Services Authority. *Regulation No. 23/POJK.01/2019 on AML/CTF Implementation in the Financial Sector.* Jakarta: OJK, 2019.
21. Russian Federation. *Federal Law No. 115-FZ On Counteracting Legalization of Criminally Obtained Incomes and Financing of Terrorism,* 2001 (as amended).
22. Thailand. *Anti-Money Laundering Act B.E. 2542,* Bangkok: Royal Thai Government, 1999.
23. Basel Committee on Banking Supervision. *Sound Management of Risks Related to Money Laundering and Financing of Terrorism.* Basel: BIS, 2020.
24. Muradova, N. U. 2022. "Issues of the Digital Ecosystem of Financial Technologies in the Republic of Uzbekistan." *Ekonomika i Sotsium* 5 (96-1): 1131–1134. https://www.iupr.ru
25. Yakubov, A. (2022). *The legal nature of cryptocurrency and blockchain technology as an object of digital property*. *Society and Innovation*, 3(1/S), 1–12.
26. Gulyamov, S., Rustambekov, I., & Khujayev, S. (2021). Topical issues of improvement of banking system and legislation in Uzbekistan. *International Journal of Social Science and Human Research, 4*(6), 1460–1469. https://doi.org/10.47191/ijsshr/v4-i6-33

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI – PEDAGOGICAL SIENCES

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARINING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA FANLARARO INTEGRATSIYA

**Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich**
Pedagogika fanlari bo'yicha (PhD), dotsent
O'zDJTSU "Ta'lim jarayonini tashkil etish va
boshqarish" bo'limi boshlig'i
E-mail: fazliddin.yaqubov.89@mail.ru
Tel:+998 97 155 89 11

**Annotatsiya.** Fanlararo integratsiya sportni fan bilan, texnologiyani tajriba bilan, nazariyani amaliyot bilan bog'lashga xizmat qiladi. Bu yondashuv jismoniy tarbiya va sport sohasining rivojlanishida ham, ilmiy kadrlar salohiyatining oshishida ham strategik ahamiyatga ega. Mazkur maqola ayni shu masalalar tahliliga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** fan, integratsiya, fanlararo integratsiya, jismoniy tarbiya, sport, mutaxassis, ilmiy tadqiqot, kompetensiya, kompetentlik, ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyasi.

# INTERDISCIPLINARY INTEGRATION IN DEVELOPING THE SCIENTIFIC RESEARCH COMPETENCE OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS SPECIALISTS

**Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich**
Pedagogical sciences doctor of Philosophy (PhD)
UsUPEAS head of the department "Organization
and management of the educational process"

**Abstract.** Interdisciplinary integration serves to connect sports with science, technology with experience, and theory with practice. This approach holds strategic importance both for the development of physical education and sports, as well as for enhancing the potential of scientific personnel. This article is dedicated to the analysis of these issues.

**Key words:** science, integration, interdisciplinary integration, physical education, sports, specialist, research, competence, competence, research competence.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N33

**Kirish.** Hozirgi zamonaviy ta'lim tizimi ilg'or va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashni maqsad qilgan bo'lib, bunda fanlararo integratsiya alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, zamonaviy ilm-fan va texnologiyalar rivojlanishining keskin sur'atlari, global muammolar yechimini izlashdagi murakkabliklar va kasbiy sohalarning tobora ixtisoslashib

borishi sharoitida ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish oʻta dolzarb masalalardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Bu jarayonda fanlararo integratsiyani taʼminlash orqali boʻlajak mutaxassislarda keng qamrovli ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, muammolarga kompleks yondashuvni yoʻlga qoʻyishga erishish mumkin. Bu borada jismoniy tarbiya va sport mutaxassisligi magistr talabalarining ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishda fanlararo yondashuv ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishga, chuqur tahlilga va kompleks fikrlashga yordam beradi. Zero, magistratura bosqichida taʼlim olayotgan talabalar uchun ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligi kelajakdagi ilmiy va professional faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Magistratura bosqichi oliy taʼlim tizimining muhim qismi boʻlib, unda talabalarning fundamental ilmiy bilimlari shakllanadi, innovatsion yondashuvlar qoʻllaniladi va ilmiy tadqiqotlar olib borish malakasi rivojlantiriladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligining rivojlanishi nafaqat individual taʼlim jarayoni, balki pedagogik texnologiyalar, tadqiqot metodologiyasi, fanlararo integratsiya va raqamli texnologiyalarning qoʻllanilishiga ham bogʻliq. Fanlararo integratsiya – bu turli sohalarning bilim va metodlarini uygʻunlashtirgan holda yangi bilimlar yaratish jarayonidir. Oʻquv jarayonida fanlararo aloqadorlikning amalga oshirilishi taʼlim sifatining oshirilishiga jiddiy taʼsir koʻrsatib, taʼlimni modernizatsiyalash, innovatsion oʻqitish imkoniyatlarini kengaytiradi [1]. Hozirgi kunda fanlararo integratsiya masalasini tadqiq qilayotgan tadqiqotchilarning tadqiqotlarini amaliyotga joriy qilish muammosi dolzarb hisoblanadi [2]. Jismoniy tarbiya va sport yoʻnalishida, ayniqsa ilmiy izlanishlar olib borayotgan magistrantlar uchun bu yondashuv innovatsion fikrlashni, ilmiy muammolarga tizimli yondashishni va kompleks tadqiqotlarni amalga oshirishni oʻrgatadi.

Fanlararo integratsiya — bu turli fanlar oʻrtasidagi ilmiy, nazariy va amaliy bogʻliqliklarni chuqur oʻrganish va ularni uygʻunlashtirilgan tarzda tadqiqotlarda qoʻllash jarayonidir [3]. Ushbu yondashuv nafaqat ilmiy fikrlash doirasini kengaytiradi, balki yangi bilimlarni yaratish, mavjud bilimlar orasidagi aloqadorlikni anglash va innovatsion gʻoyalarni ilgari surish imkonini ham beradi. Shuning uchun bugungi kunda ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishda fanlararo integratsiyaga asoslangan yondashuv zamon talabi hisoblanadi. Buning ahamiyati quyidagilarda namoyon boʻladi:

- birinchidan, fanlararo integratsiya talaba va yosh tadqiqotchilarning muammolarga faqat oʻz sohasining doirasida emas, balki boshqa fanlar bilan bogʻliq holda yondashish koʻnikmalarini shakllantiradi. Masalan, sport sohasidagi tadqiqotlar nafaqat jismoniy tarbiya bilimlariga, balki pedagogika, psixologiya, biologiya, axborot texnologiyalari kabi fanlar bilan integratsiya qilinishi natijasida yanada samarali natijalar beradi. Bu esa ilmiy izlanishlarning chuqurligi va amaliy ahamiyatini oshiradi;

- ikkinchidan, fanlararo integratsiya tadqiqotchilarda tanqidiy fikrlash, tahliliy yondashuv, innovatsion qarorlar qabul qilish kabi zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bugungi mehnat bozori va ilmiy maydon ana shunday universal kompetensiyalarga ega mutaxassislarni talab qilmoqda. Xususan, magistratura bosqichida oʻqiyotgan talabalar uchun bu kabi koʻnikmalarni shakllantirish ularning professional rivojlanishida muhim rol oʻynaydi.

**Muhokama va natijalar.**

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishda fanlararo integratsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv nafaqat

sportchilar natijalarini yaxshilash, balki zamonaviy pedagogik va ilmiy metodlarni joriy qilish orqali sport ta’limi tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatida turli fanlar uygʻunligidan samarali foydalanish sport mutaxassislarining ilmiy salohiyatini oshirishga katta hissa qoʻshadi [4].

Tadqiqotlar shuni koʻrsatmoqdaki, jismoniy tarbiya va sport mutaxassisligi magistrant talabalari oʻquv jarayonida belgilangan ilmiy-tadqiqot vazifalarini yuqori darajada bajarsalar-da, ilmiy izlanishlar jarayonida mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va ijodiy faollik jihatidan yetarli darajada faol ishtirok etmaydilar. Bu holat ilmiy-tadqiqotchilik salohiyatining toʻlaqonli shakllanishiga toʻsqinlik qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan jismoniy tarbiya va sport mutaxassisligi magistratura bosqichidagi ta’limning dolzarb vazifalaridan biri – magistrant shaxsida reflektiv tafakkur qobiliyatini hamda zamonaviy ilmiy-tadqiqotchilik koʻnikmalarini rivojlantirishdan iboratdir. Bu vazifa hozirgi zamon ta’lim konsepsiyalarida ilgari surilayotgan kompetensiyaviy yondashuv asosida amalga oshiriladi. Mazkur yondashuvga koʻra, umumkasbiy kompetensiyalar tarkibida jismoniy tarbiya va sport sohasida yuzaga keladigan muammoli holatlarni zamonaviy ilmiy-tadqiqot uslublari, shuningdek, turdosh fanlar – pedagogika, sotsiologiya, psixologiya, fiziologiya va boshqa fanlarning yondashuvlari orqali tahlil qilish va ilmiy asosda yechimlar ishlab chiqish kerak boʻladi. Mazkur yondashuv boʻlajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining nafaqat kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish, balki ularning ilmiy izlanishlarga boʻlgan motivatsiyasini kuchaytirish, tanqidiy va tahliliy fikrlash salohiyatini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

**1-jadval. Jismoniy tarbiya va sportda fanlararo integratsiyaning vosita va shakllari**

| № | Integratsiya vositasi | Tavsifi | Natijasi |
|---|---|---|---|
| I | **Modulli oʻqitish** | Har bir modulda turli fanlar boʻyicha bilimlar uygʻunlashtirish | Kompleks koʻnikmalar shakllanadi |
| II | **Loyihaviy faoliyat** | Talaba turli fanlardan foydalanib, real ilmiy muammoni hal etish | Tadqiqotchilik kompetentligini mustahkamlanadi |
| III | **Interaktiv mashgʻulotlar** | Munozaralarni, case-study qoʻllash | Tahliliy va ijodiy fikrlash rivojlanadi |
| IV | **Multidisiplinar seminarlar** | Bir nechta fan vakillari ishtirokidagi seminar yoki davra suhbatlari tashkil qilish | Yangi yondashuvlar va ilmiy sintezlar hosil boʻladi |

Bugungi kunda sport nafaqat jismoniy mashqlar va natijalar bilan belgilanadi, balki u psixologiya, sotsiologiya, fiziologiya, biokimyo, axborot texnologiyalari, pedagogika va tibbiyot kabi koʻplab fanlar bilan chambarchas bogʻliq. Masalan: sportchilarning tayyorgarlik holatini baholashda biokimyoviy tahlillar qoʻllaniladi, ularning ruhiy holatini aniqlashda psixodiagnostika usullari ishlatiladi. Shuningdek, sport mashgʻulotlari samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalari, ayniqsa simulyatsiyalar va sun’iy intellekt asosida ishlab

chiqilgan dasturlar keng qoʻllanilib, statistik tahlil orqali natijalarni prognoz qilish ilmiy qarorlar uchun asos boʻladi.

Fanlararo integratsiyaga asoslangan tadqiqotlar orqali yangi ilmiy gʻoyalar, nazariy yondashuvlar va metodologiyalar yuzaga keladi. Bu esa fanlar rivojiga turtki beradi, ijtimoiy ehtiyojlarni hisobga olgan holda yangi yechimlar ishlab chiqishga imkon yaratadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishda fanlararo hamkorlik va integratsiya vositasida sifat jihatidan yangi bosqichga erishish mumkin. Biz shu fikrlarimizdan kelib chiqib, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishda fanlararo integratsiyani amalga oshirish mexanizmini quyidagicha taklif qildik:

**2-jadval. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishda fanlararo integratsiyani amalga oshirish mexanizmi**

| № | Bosqich | Amalga oshiriladigan ishlar | Ishtirok etuvchi fanlar | Kutilayotgan natija |
|---|---|---|---|---|
| I | **Diagnostika** | Sportchilarning holatini baholash, boshlangʻich maʼlumotlarni yigʻish | Biologiya, psixologiya, tibbiyot | Tadqiqot obyekti haqida kompleks maʼlumotga ega boʻlinadi |
| II | **Rejalashtirish** | Integratsiyalashgan tadqiqot rejasini tuzish | Pedagogika, statistika, axborot texnologiyalari | Metodologik yondashuv rivojlanadi |
| III | **Tadqiqot** | Sportchilar bilan tajriba oʻtkazish, usullarni qoʻllash | Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi, sport biomekanikasi, IT | Ilmiy asoslangan natijalarni toʻplash tajribasi takomillashadi |
| IV | **Tahlil** | Olingan maʼlumotlarni matematik va statistik tahlil qilish | Statistika, axborot texnologiyalari | Obyektiv xulosalar chiqariladi |
| V | **Taqdimot** | Tadqiqot natijalarini hisobot, maqola yoki loyiha sifatida taqdim etish | Pedagogika, sotsiologiya, dizayn | Tadqiqot natijalarini yetkazish va himoya qilish malakasi rivojlanadi |

Ushbu mexanizmga koʻra jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishda fanlararo integratsiyani amalga oshirishga “Pedagogika” fani ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligini shakllantirishga yoʻnaltirilgan taʼlim metodlarini ishlab chiqishga; “Psixologiya” fani tadqiqotchilarning analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, sport psixologiyasi boʻyicha tadqiqotlarni olib borishga; “Biologiya” fani sportchilarning jismoniy imkoniyatlarini tahlil qilishga; “Sport fiziologiyasi” fani jismoniy yuklamalar, reabilitatsiya jarayonlari va ovqatlanish rejimlarini ilmiy asoslashga; “Sport biomekanikasi” fani sportchilar uchun optimal reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqishga; “Axborot texnologiyalari” fani sportda raqamli texnologiyalarni joriy qilishga; “Sotsiologiya” fani sport ommaviyligini oshirish, yoshlar orasida sogʻlom turmush tarzini targʻib qilishga

ilmiy-uslubiy jihatdan kompleks koʻmaklashadi. Shuning uchun bu fanlar jismoniy tarbiya va sport mutaxassislariga oʻqitilishi har tomonlama zarurdir.

Shunday qilib fikrlarimizga yakun yasagan holda aytishimiz mumkinki, jismoniy tarbiya va sport sohasi boʻyicha mutaxassislar tayyorlashda ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishda fanlararo integrativ yondashuv ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishga, chuqur tahlilga va kompleks fikrlashga yordam beradi.

**Xulosa.** Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini zamonaviy ehtiyojlar darajasida tayyorlash uchun fanlararo integratsiyalashgan oʻquv va tadqiqot yondashuvi zaruriy ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv orqali ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish, mustaqil fikrlaydigan, kreativ va innovatsion mutaxassislarni tayyorlash mumkin boʻladi.

## Adabiyotlar/Литература/References:


1. Раҳимова Р.Э. Таълимда фанлараро алоқадорликнинг аҳамияти // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences – 2022. VOLUME 2 | ISSUE 12 ISSN 2181-1784. 897-901.
2. Joshua Newman (2024) Promoting Interdisciplinary Research Collaboration: A Systematic Review, a Critical Literature Review, and a Pathway Forward, Social Epistemology, 38:2, 135-151, DOI: 10.1080/02691728.2023.2172694
3. Shopulatov A.N. Jismoniy tarbiya va sport sohasida malakali kadrlar tayyorlash tizimining ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. Toshkent: OʻZKITOBSAVDONASHRIYOTI, 2022. -136 b.
4. Бурханова И.Ю., Дмитриев С.В. Тенденции развития, векторы и градиенты образовательной деятельности магистрантов – от внешней детерминации к самодетерминации и метасистемному мышлению // Антропные образовательные технологии в сфере физической культуры: сб. статей по материалам II Всерос. науч.-практ. конф. Н. Новгород: Мининский университет, 2016. С. 42–56.
5. www.sport-science.uz

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# TIBBIYOT OLIYGOHLARIDA "TIBBIY BIOLOGIYA" HAMDA "UMUMIY GENETIKA" FANLARINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLAR SAMARADORLIGI

**Sharipova Farida Salimdjanovna**
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali katta oʻqituvchisi,
pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: Sharipovafarida781@gmail.com

**Qoʻngʻirotova Anorxol Inoyatovna**
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali oʻqituvchisi
E-mail: kongirotovaanorxol@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida "Tibbiy biologiya" hamda "Umumiy genetika" fanlarini oʻqitishda interfaol ta'lim metodlaridan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, interfaol usullarni qoʻllash orqali talabalarning fanga boʻlgan qiziqishini oshirish, bilimlarni mustahkamlash, tahliliy fikrlash va amaliy koʻnikmalarni shakllantirishdagi ijobiy natijalar tahlil qilingan. Tadqiqot davomida an'anaviy va interfaol oʻqitish metodlarining taqqosiy tahlili berilgan hamda interfaol yondashuvlarning ustun jihatlari ilmiy asosda bayon etilgan. Maqolada amaliy misollar asosida oʻquv jarayonini interfaol tashkil etish boʻyicha tavsiyalar ham keltirilgan.

**Kalit soʻzlar:** Tibbiy biologiya, umumiy genetika, interfaol metodlar, zamonaviy pedagogika, tibbiyot ta'limi, ta'lim samaradorligi, case-study, rol oʻynash, guruhda ishlash, talaba faolligi, analitik tafakkur.

# EFFECTIVENESS OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING THE SUBJECTS OF "MEDICAL BIOLOGY" AND "GENERAL GENETICS" IN MEDICAL UNIVERSITIES

**Sharipova Farida Salimdjanovna**
Senior Lecturer, Termez Branch of the Tashkent Medical Academy,
doctor of philosophy (PhD) in pedagogical sciences

**Kongirotova Anorkhol Inoyatovna**
Teacher, Termez Branch of the Tashkent Medical Academy

**Abstract.** This article discusses the issues of effective use of interactive teaching methods in teaching the subjects "Medical Biology" and "General Genetics" in higher medical educational institutions. The positive results of using modern pedagogical technologies, in particular interactive methods, in the educational process in increasing students' interest in science, consolidating knowledge, developing analytical thinking and practical skills are analyzed. During the study, a comparative analysis of traditional and interactive teaching methods is given, and the advantages of interactive approaches are scientifically described. The article also provides recommendations for interactive organization of the educational process based on practical examples.

**Keywords:** Medical biology, general genetics, interactive methods, modern pedagogy, medical education, educational effectiveness, case study, role-playing, group work, student activity, analytical thinking.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N34

**Kirish.**

Hozirgi davrda oliy tibbiyot ta’limida fanlarni oʻqitishda yangicha yondashuvlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, “Tibbiy biologiya” hamda “Umumiy genetika” fanlari zamonaviy tibbiyotning asosiy yoʻnalishlaridan biri boʻlib, ushbu fanlar orqali talabalarda biologik jarayonlar mohiyati, irsiyat qonuniyatlari va organizmda yuz beruvchi molekulyar darajadagi oʻzgarishlar haqida chuqur bilim shakllantiriladi [4].

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.**

An’anaviy ma’ruza va seminar mashgʻulotlari oʻrniga interfaol metodlarni qoʻllash ta’lim jarayonini yanada jonlantiradi, talabalarning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish va amaliy masalalarni yechish koʻnikmalarini rivojlantiradi. Shundan kelib chiqib, ushbu maqolada interfaol metodlar asosida “Tibbiy biologiya” va “Umumiy genetika” fanlarini oʻqitishning samaradorligini tahlil qilish hamda mavjud tajriba asosida tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilib olingan.

XXI asr tibbiyoti tobora molekulyar va individual yondashuvlar sari rivojlanmoqda. Bu jarayonda zamonaviy biotexnologiya, genetik muhandislik, diagnostika va personalizatsiyalashgan tibbiyotning asoslarini tashkil qiluvchi fanlar – “Tibbiy biologiya” va “Umumiy genetika” alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida mazkur fanlar talabalarning kasbiy shakllanishida poydevor sifatida xizmat qiladi [2].

**Muhokama.**

Tibbiyot sohasida yetuk mutaxassis tayyorlash uchun nafaqat klinik koʻnikmalar, balki organizmning molekulyar va hujayraviy darajadagi tuzilishi, irsiy kasalliklarning sabablari, irsiyat va muhit omillarining oʻzaro ta’siri kabi muhim tushunchalarni chuqur oʻzlashtirish zarur. Bu bilimlar aynan tibbiy biologiya va genetika fanlari orqali beriladi.

**Tibbiy biologiya –** bu biologiya fanining tibbiyot bilan bogʻliq boʻlgan maxsus tarmogʻi boʻlib, odam organizmining tuzilishi, hujayra va toʻqima darajasida faoliyat yuritishi, yashash va moslashuv qonuniyatlarini oʻrgatadi hamda quyidagi asosiy yoʻnalishlarni oʻz ichiga oladi:

Hujayra va toʻqimalarning tuzilishi va funksiyasi;

Molekulyar biologiya asoslari;

Odam organizmida hayotiy muvozanatni saqlash mexanizmlari;

Parazitologiya asoslari;

Ekologik omillarning odam salomatligiga ta’siri.

**Tibbiy biologiya fanining vazifalari sifatida t**alabada hayotiy jarayonlarning umumiy qonuniyatlarini tibbiyot nuqtai nazaridan tushuntirish, kasalliklarning molekulyar va biologik mexanizmlarini anglash uchun zamin yaratish, tibbiy fanlarga tayanch bilim sifatida xizmat qilish (anatomiya, fiziologiya, patofiziologiya, farmakologiya va boshqalar) kabilarni keltirish mumkin [4].

**Genetika** – bu tirik organizmlarning irsiyat va oʻzgaruvchanlik qonuniyatlarini oʻrganadigan fan. “Umumiy genetika” tibbiy fanlar tizimida alohida oʻrin egallaydi, chunki u irsiy kasalliklarning sabablari va mexanizmlarini tushuntiradi, molekulyar diagnostika va genetik muolajalarning asosini tashkil etadi, biotibbiy muammolarning (masalan, onkologiya, immunologiya, reproduktiv tibbiyot) chuqur tahlilini ta’minlaydi [3].

**Umumiy genetika fanining asosiy yoʻnalishlari** Mendel qonunlari va irsiylik nazariyasi; Genetik material – DNK va RNK struktura va funksiyasi; Genetik muhandislik va biotexnologiyaning tibbiyotdagi qoʻllanilishi; Genetik maslahat va profilaktika; Irsiy kasalliklar, xromosoma sindromlari hisoblanadi. Bugungi kunda genetik tahlillar asosida perenatal diagnostika, onkologik kasalliklarning erta aniqlanishi, dorilar taʼsirining individual xususiyatlari (farmakogenetika), kasallikka moyillikni aniqlash, genetik maslahat va oilani rejalashtirish imkoniyatlari mavjud.

Tibbiy biologiya va genetika oʻzaro chambarchas bogʻliq boʻlib, ularni birgalikda oʻrganish orqali talabalarda: organizmni tizimli tahlil qilish, irsiy va ekologik omillarning taʼsirini farqlash, individual terapiya yondashuvlarini ishlab chiqish, zamonaviy laboratoriya tadqiqot metodlarini oʻzlashtirish imkoniyatlari shakllanadi. Shu jihatdan, zamonaviy tibbiy taʼlim konsepsiyasi bu fanlarni faqatgina nazariy asosda emas, balki laboratoriya amaliyoti, interfaol darslar, loyihaviy taʼlim, klinik holatlarni tahlil qilish kabi zamonaviy uslublar orqali oʻqitishni talab etadi [1].

**Natijalar.**

“Anatomiya, fiziologiya, patologiya” kabi klinik fanlar tibbiy biologik bilimlar zaminida rivojlanadi. Genetika esa quyidagi yoʻnalishlar bilan bevosita bogʻlangan:

**Pediatriya** – irsiy sindromlar, tugʻma nuqsonlar;

**Onkologiya** – genetik mutatsiyalar, protoonkogenlar;

**Ginekologiya** – genetik maslahat, nasldorlik muammolari;

**Nevrologiya** – neyrogenetik sindromlar;

**Farmakologiya** – individual farmakogenetik yondashuvlar.

Shu boisdan ham “Tibbiy biologiya” va “Umumiy genetika” fanlari nafaqat dastlabki kurslarda, balki yuqori bosqich klinik kurslar bilan uzviy bogʻlangan holda oʻrgatilishi maqsadga muvofiq. Zamonaviy tibbiy taʼlimda **interfaol oʻqitish metodlarining afzalliklari quyidagi jadvalda aks etadi:**

| **Metod nomi** | **Metodning maqsadi** | **Amaliy qoʻllanishi** | **Afzalliklari** |
|---|---|---|---|
| Aqliy hujum | Erkin fikrlash va tezkor gʻoya ilgari surish koʻnikmasini rivojlantirish | Talabalarga bir muammo beriladi va ular qisqa vaqt ichida koʻplab gʻoyalar taklif etishadi. Masalan: genetik kasalliklar sabablarini aniqlash. | Tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va tez qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi. |
| Kichik guruhlarda ishlash | Hamkorlikda muammolarni hal qilish, muloqotni rivojlantirish | Talabalar 4–5 kishilik guruhlarga boʻlinib, topshiriqlar ustida ishlaydi. Masalan: DNK tuzilishini model qilish. | Jamoaviy ishlash koʻnikmasini shakllantiradi, ijtimoiy faollikni oshiradi. |
| Case-study (Vaziyatli tahlil) | Haqiqiy yoki shartli holatlarni tahlil qilish orqali | Klinik holatga oid vaziyat (kasallik tarixi, simptomlar, analiz | Amaliy bilimni mustahkamlash, klinik tafakkurni shakllantirish. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | muammoni hal qilish | natijalari) asosida tahlil va tavsiya berish. | |
| Rol oʻynash | Klinik vaziyatni jonlantirib, kasbiy koʻnikmalarni mustahkamlash | Talabalar shifokor, bemor yoki laboratoriya mutaxassisi rollarini bajarib, sahnalashtirilgan darsda ishtirok etadi. | Real vaziyatda ishlashga tayyorgarlik, kommunikativ salohiyatni oshiradi. |
| Klaster usuli | Mavzularni vizual tarzda tartibga solish va tushunchalar oʻrtasidagi bogʻliqlikni koʻrsatish | Mavzu asosiy tushunchalarga boʻlinadi va klaster diagrammasi tuziladi. Masalan: hujayra organellari funksiyasi. | Tizimli fikrlashni rivojlantiradi, mavzuni yaxlit tasavvur qilish imkonini beradi. |
| Blits-soʻrov | Qisqa va tezkor savol-javob orqali bilim darajasini aniqlash | Oʻqituvchi tomonidan tezkor savollar beriladi, talabalar navbatma-navbat javob beradi. | Faollikni oshiradi, e’tiborni jamlashga yordam beradi. |
| Debat (Bahs munozara) | Qarama-qarshi fikrlarni tahlil qilish va himoya qilish qobiliyatini rivojlantirish | Talabalar ikki guruhga boʻlinadi, masalan: genetik muhandislikning foyda va xavf-xatarlari mavzusida bahs yuritishadi. | Tanqidiy va mantiqiy fikrlash, nutq madaniyatini rivojlantiradi. |
| Fishbone (Tuxum suyak) diagrammasi | Sabab-natijaviy tahlil qilish | Muammo (masalan, irsiy kasallik) markazga olinadi, unga olib keluvchi sabablar turkumlanadi. | Muammoga chuqur yondashuvni shakllantiradi, sabablarni tizimlashtirish osonlashadi. |
| Test savollarini birga tuzish | Talabalarni baholash mezonlariga jalb qilish | Talabalarning oʻzi mavzu asosida savollar tuzadi va javob variantlarini ishlab chiqadi. | Bilimni chuqur anglashga yordam beradi, oʻz-oʻzini baholashni shakllantiradi. |

**Amaliyot bilan bogʻliq yondashuv:**

Oʻqitish laboratoriya tajribalari, mikroskopik kuzatuvlar, biologik preparatlarni tayyorlash va genetik tahlil metodlarini oʻz ichiga oladi. Bu jarayonda talabalar: DNK ekstraksiyasi va PCR texnologiyasi, Kariotip tahlili, Genetik maslahat berish simulyatsiyasi, Irsiy kasalliklar boʻyicha testlar tahlili bilan shugʻullanadilar [2].

Tibbiyot oliygohlarida “Tibbiy biologiya” va “Umumiy genetika” fanlarini oʻqitishda interfaol metodlardan foydalanish talabalarning bilim va koʻnikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu metodlar talabalarning dars jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlab, oʻzlashtirish samaradorligini oshiradi.

Interfaol metodlarning afzalliklari quyidagilardan iborat:

Nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy qoʻllash: Interfaol metodlar, masalan, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va rolli oʻyinlar, talabalarga nazariy bilimlarini amaliyotda qoʻllash imkoniyatini beradi. Bu usullar orqali talabalar real klinik holatlar bilan tanishib, tahlil qilish va yechim topish koʻnikmalarini rivojlantiradilar.

Tanqidiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish: Interfaol usullar talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshiradi. Masalan, muammoli izlanish metodlari orqali talabalar murakkab masalalarni tahlil qilib, mustaqil ravishda xulosalar chiqarishga oʻrganadilar [2].

Jamoaviy ishlash va kommunikativ koʻnikmalarni shakllantirish: Guruh boʻlib ishlashni talab qiladigan interfaol metodlar talabalarning jamoaviy ishlash qobiliyatini rivojlantiradi. Bu esa kelajakdagi tibbiy amaliyotda muhim ahamiyatga ega boʻlgan kommunikativ koʻnikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Oʻquv jarayoniga qiziqishni oshirish: Interfaol metodlar darslarni qiziqarli va jonli qiladi, bu esa talabalarning oʻquv jarayoniga boʻlgan motivatsiyasini oshiradi. Masalan, simulyatsiya asosidagi oʻquv muhitlari talabalarning oʻrganish jarayoniga boʻlgan qiziqishini kuchaytiradi.

**Xulosa.**

Xulosa qilib aytganda, “Tibbiy biologiya” va “Umumiy genetika” fanlarini interfaol metodlar asosida oʻqitish talabalarning faolligi, mustaqil fikrlashi, tahliliy yondashuvi va amaliy koʻnikmalarini samarali shakllantirish imkonini beradi. An’anaviy usullar bilan solishtirganda, interfaol yondashuvlar natijadorlik boʻyicha ancha ustun ekanligi amaliy tajriba orqali isbotlandi. Kelgusida ushbu fanlarni oʻqitishda interfaol metodlarning ulushini yanada oshirish, metodik qoʻllanmalar va elektron resurslar bilan boyitish, oʻquv jarayonida multimedia vositalaridan keng foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, oʻqituvchilarning zamonaviy pedagogik yondashuvlar boʻyicha malakasini oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. “Tibbiy biologiya” va “Umumiy genetika” fanlarini samarali oʻqitish orqali talabalarning fundamental biologik va genetik bilimlari mustahkamlanadi, klinik fikrlash va kasbiy kompetensiyalar shakllanadi, kasalliklarning kelib chiqish sabablari va ularning oldini olish yoʻllari chuqur oʻzlashtiriladi.

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Ermetov E.Ya., Yakhshiboyeva D.E., Maxsudov V.G. Tibbiy ta’limda didaktika. – Toshkent. 2002. 194 b.
2. Nishonboyev K., Hamidov J. Tibbiy biologiya va genetika. – Toshkent. 2019. – 328 b.
3. Nishonboyev K.N., Hamidov J.H. Tibbiy biologiya va irsiyatdan qoʻllanma. ¬¬– Toshkent. 2005. – 132 b.
4. Xoliqov P. X. Tibbiy biologiya va genetika. – Toshkent. 2002. 291 b.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# МЕТОДИКА ИНТЕРАКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ В РАЗВИТИИ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

**Собирова Гулибарно Зайнитдин кизи**
Докторант, Наманганский государственный университет
E-mail: gulibarnosobirova2205@gmail.com

**Аннотация.** В данной статье рассматривается эффективность интерактивных методов обучения в развитии критического мышления на уроках русского языка. Интерактивные методы предоставляют учащимся возможность активно участвовать, выражать свои мысли и вести диалог. В статье обсуждаются значимость критического мышления в образовании, теоретические и практические аспекты интерактивных методов, а также деятельность и взаимодействие учащихся. Результаты исследования помогают определить роль интерактивных методов в развитии критического мышления. Данное исследование служит основой для разработки важных рекомендаций по оптимизации учебного процесса и развитию навыков самостоятельного мышления у учащихся.

**Ключевые слова:** критическое мышление, интерактивное обучение, творческие способности, решение проблем, методология, исследование, формативная оценка, групповая работа.

# RUS TILI DARSLARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA INTERAKTIV O‘QITISH USULLARI

**Sobirova Gulibarno Zaynitdin qizi**
Namangan davlat universiteti doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada rus tili darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda interaktiv ta’lim usullarining samaradorligi o‘rganiladi. Interaktiv usullar, o‘quvchilarga faol ishtirok etish, o‘z fikrlarini ifodalash va muloqot qilish imkonini beradi. Maqolada tanqidiy fikrlashning ta’limdagi ahamiyati, interaktiv usullarning nazariy va amaliy jihatlari, shuningdek, o‘quvchilarning faoliyati va o‘zaro munosabatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari interaktiv metodlarning tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi rolini aniqlashga yordam beradi. Ushbu tadqiqot, ta’lim jarayonini samaralilashtirish va o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muhim takliflar ishlab chiqishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** tanqidiy fikrlash, interfaol ta’lim, ijodkorlik, muammolarni hal qilish, metodologiya, tadqiqot, formativ baholash, guruhda ishlash.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N35

**Введение.** Критическое мышление занимает центральное место в современной образовательной парадигме, обеспечивая не только осмысленное усвоение знаний, но и формирование у учащихся аналитических, оценочных и творческих способностей. Это комплексное когнитивное умение предполагает не просто восприятие информации, но и способность к её анализу, интерпретации, аргументации и формулированию

обоснованных выводов. Развитие данных навыков особенно важно в контексте решения нестандартных задач, выработки самостоятельной позиции и успешной адаптации к условиям современного общества.

Одним из действенных средств формирования критического мышления выступают интерактивные методы обучения, создающие условия для активного включения учащихся в образовательный процесс. Эти методы способствуют не только освоению учебного материала, но и развитию умений выражать собственное мнение, аргументировать суждения, принимать участие в обсуждениях, а также учитывать различные точки зрения. Таким образом, интерактивное обучение трансформирует учащихся из пассивных получателей информации в активных участников познавательной деятельности, способствуя формированию у них навыков критического осмысления действительности [3].

Современные образовательные стандарты, ориентированные на компетентностный подход, также акцентируют внимание на необходимости формирования у учащихся критического мышления как одного из приоритетных направлений обучения. В связи с этим применение интерактивных методов становится важным условием активизации учебной деятельности, развития познавательной инициативы, а также подготовки школьников к эффективному решению учебных и жизненных задач.

Результаты ряда научных исследований подтверждают эффективность использования интерактивных методов в процессе формирования критического мышления и позволяют уточнить их дидактические возможности и направления реализации в школьной практике.

Целью настоящей статьи является анализ педагогического потенциала интерактивных методов обучения в контексте развития критического мышления учащихся на уроках русского языка. В рамках исследования рассматриваются значимость критического мышления в образовательном процессе, теоретико-практические аспекты применения интерактивных методик, а также условия и проблемы, влияющие на успешность их внедрения в школьную практику.

**Анализ литературы.** Проблема развития критического мышления является предметом научного интереса как зарубежных, так и отечественных исследователей. Одним из первых ученых, кто ввел в научный оборот понятие «критическое мышление», был американский философ и педагог Джон Дьюи [2]. Он трактовал критическое мышление как «рефлексивное мышление», определяя его как «активное, настойчивое и внимательное рассмотрение любой веры или предполагаемой формы знания с учетом оснований, на которых они опираются, и дальнейших выводов, к которым они ведут».

Дальнейшее теоретическое развитие понятия критического мышления связано с работами Ричарда Пола. В своей модели (1995) он выделяет два уровня критического мышления — «сильное» и «слабое» [1]. Слабая форма характерна для человека, обладающего высоким уровнем интеллектуального развития, но использующего свои навыки в эгоистичных целях, не задумываясь о моральной составляющей собственных решений. Напротив, сильное критическое мышление предполагает способность объективно и беспристрастно анализировать проблему, преодолевая эгоцентризм и социоцентризм, и стремление к справедливым и обоснованным суждениям [4].

Психолог Диана Халперн рассматривает критическое мышление как целенаправленную, управляемую, аргументированную и осмысленную когнитивную деятельность, направленную на достижение логически выверенных и практически значимых выводов [5; 7]. Она подчеркивает, что эффективное применение критического мышления возможно лишь при наличии соответствующих интеллектуальных умений и стратегий, адаптированных к конкретному типу задачи, включая решение проблем, формулирование выводов, оценку вероятностей и принятие решений.

Современный исследователь Р. Эннис предлагает структуру, включающую ключевые диспозиции критически мыслящей личности, такие как: стремление к ясности выражения мысли; поиск обоснований; готовность рассматривать альтернативные точки зрения; стремление быть информированным; открытость новым идеям; и отказ от поспешных выводов при отсутствии достаточных оснований [6].

В отечественной педагогической науке проблема развития критического мышления также получила широкое освещение. В частности, узбекские ученые А. Мирзаев, Н. Тураев, А. Камалов, А. Солиев и Ф. Саидуллаев акцентируют внимание на важности применения современных образовательных технологий, включая интернет-ресурсы и мультимедийные средства, как эффективных инструментов развития аналитических, оценочных и синтезирующих способностей учащихся [7].

Несмотря на существующее разнообразие подходов к определению и классификации критического мышления, в настоящем исследовании рассматриваются наиболее обоснованные и практико-ориентированные концепции, позволяющие выявить потенциал интерактивных методов в его формировании.

**Методология исследования.** Методология настоящего исследования направлена на изучение интерактивных методов обучения, предназначенных для развития критического мышления у учащихся на уроках русского языка. Основу методологии составляют несколько ключевых этапов, которые позволяют всесторонне изучить влияние этих методов на когнитивное развитие школьников.

Первоначально на этапе разработки методологии определяются цель и задачи исследования, что включает формулировку темы, а также определение методов и теоретических основ, которые лежат в основе развития критического мышления на уроках русского языка. На этом этапе уточняются понятия и подходы, такие как модели критического мышления, предложенные учеными (например, Р. Эннисом [6] и Дианой Халперн [5]), а также принципы применения интерактивных методов в образовательной практике.

Для сбора эмпирических данных в рамках исследования применяются как количественные, так и качественные методы. Количественные методы включают использование опросников для учащихся с целью оценки уровня их критического мышления до и после применения интерактивных методов обучения. Качественные методы предполагают проведение интервью и анализ открытых ответов, что позволяет глубже понять восприятие учащимися учебного процесса и выявить ключевые аспекты их аналитических и оценочных способностей.

Экспериментальный подход включает проверку эффективности различных интерактивных методов, таких как групповые обсуждения, ролевые игры,

использование мультимедийных материалов и онлайн-ресурсов. Эти методы применяются на уроках русского языка для создания условий, способствующих развитию критического мышления, как это рекомендовано в работах узбекских ученых, таких как А. Мирзаев и Н. Тураев [7].

На этапе анализа данных оценивается влияние интерактивных методов на уровень развития критического мышления учащихся. Процесс анализа включает статистическую обработку количественных данных и интерпретацию качественных выводов, что позволяет оценить значимость и результативность применяемых методов.

Заключительный этап исследования включает подготовку презентации, в которой обобщаются полученные результаты и формулируются рекомендации по совершенствованию учебного процесса. Эти рекомендации направлены на оптимизацию использования интерактивных методов обучения для более эффективного развития критического мышления учащихся.

Таким образом, методология исследования основывается на комплексном подходе, объединяющем теоретические разработки и практическую реализацию интерактивных методов, что способствует всестороннему развитию когнитивных способностей учащихся и формированию навыков критического мышления.

**Обсуждение основных результатов.** Критическое мышление представляет собой сложный когнитивный процесс, включающий анализ информации, оценку утверждений, различение правильных и неправильных суждений, а также способность делать обоснованные выводы. Это понятие требует не только запоминания фактов, но и более глубокого понимания, осмысления и эффективного решения проблем. Развитие критического мышления способствует улучшению логического и аналитического мышления, а также помогает учащимся находить творческие решения и принимать независимые решения. Основными компонентами критического мышления являются: анализ, оценка, синтез и независимость [2].

Одной из ключевых причин важности критического мышления в современном обществе является его способность помогать решать сложные проблемы. Для эффективного преодоления таких проблем учащиеся должны обладать навыками критического мышления. Эти навыки обеспечивают творческий подход к поиску решений и эффективному реагированию на проблемы в реальной жизни. Кроме того, развитие критического мышления позволяет учащимся точно и эффективно выражать свои мысли, что способствует развитию их творческих способностей [10].

Критическое мышление также оказывает заметное влияние на личностное развитие учащихся. Оно способствует принятия обоснованных решений, самооценке и личностному росту. Развитие критического мышления улучшает творческое мышление, стимулирует создание новых идей и концепций, а также активное применение существующих знаний.

Критическое мышление играет ключевую роль в развитии аналитических и творческих способностей учащихся [9]. Основные аспекты, которые его характеризуют, включают:

1. **Аналитические способности**: Критическое мышление способствует

улучшению способности учащихся анализировать информацию. Они становятся более внимательными к фактам, интересам и структурам, что облегчает понимание сложных данных.

2. **Творческие способности**: Критическое мышление стимулирует учащихся создавать новые идеи и концепции. Они начинают применять творческий подход к решению проблем.

3. **Решение проблем**: Развитие критического мышления способствует улучшению способности учащихся решать проблемы, активно участвуя в процессе выявления, анализа и нахождения эффективных решений.

4. **Взаимные обсуждения**: Критическое мышление поощряет учащихся к обсуждению своих мыслей с другими. Это способствует развитию их коммуникативных навыков и помогает готовиться к участию в конкурсных обсуждениях.

Эти аспекты подчеркивают важность развития критического мышления в образовательном процессе, поскольку оно напрямую связано с будущим успехом учащихся в различных сферах жизни.

Интерактивные методы обучения представляют собой разнообразные методические подходы, направленные на активное участие учащихся в учебном процессе, развитие их способности к анализу, обсуждению и нахождению творческих решений. Эти методы способствуют укреплению взаимосвязей и сотрудничества между учащимися. В отличие от традиционных методов обучения, интерактивные подходы повышают активность и инициативность учащихся, что имеет критическое значение для развития их критического мышления [11].

Одним из наиболее распространенных интерактивных методов является работа в группах. Этот метод включает деление учащихся на небольшие группы, которым предлагается обсудить определенную проблему или тему. Например, на тему «Основные темы в русском языке» учащиеся делятся своими мыслями и знаниями, что способствует обмену мнениями и принятия обоснованных решений. Исследования показывают, что групповая работа способствует развитию социальных навыков учащихся и улучшению их аналитических способностей.

Ролевые игры — еще один эффективный метод, который позволяет учащимся моделировать реальные жизненные ситуации.

Например, на тему «Социальные сети и общественность» учащиеся принимают на себя различные роли, что помогает им развивать критическое мышление, поскольку для выполнения каждой роли необходимо тщательно изучить соответствующую информацию. Исследования подтверждают, что ролевые игры способствуют развитию эмпатии и понимания среди учащихся [12].

Метод решения проблем предлагает учащимся решать реальные задачи, связанные с русским языком. Например, на тему «Фразы на русском языке и их значения» учащимся может быть предложено определить и описать особенности различных жанров. Этот метод способствует развитию аналитического мышления и повышению навыков нахождения творческих решений. В процессе обсуждения учащиеся учатся четко, правильно и эффективно выражать свои мысли, что способствует улучшению их навыков анализа текстов и творческого письма.

Дискуссии в классе предоставляют учащимся возможность свободно обсуждать

свои мнения, например, на тему «Технологии и образование». Этот интерактивный процесс способствует развитию критического мышления и открытости мнений между учащимися. Исследования показывают, что обсуждения усиливают обмен мнениями и способствуют более глубокому осмыслению рассматриваемых вопросов [14].

Метод проектного обучения имеет большое значение для развития критического мышления, вовлекая учащихся в создание проектов, которые требуют интеграции теоретических знаний и практических навыков. Например, в проекте «Игры на уроке русского языка» учащиеся собирают, анализируют и представляют информацию о различных играх. Этот метод развивает навыки командной работы и способствует творческому подходу к решению учебных задач [15].

Таким образом, использование интерактивных методов обучения значительно улучшает развитие критического мышления учащихся, стимулирует их аналитические и творческие способности, а также способствует формированию навыков, необходимых для успешного решения проблем в реальной жизни.

Это можно увидеть в приведенной ниже таблице 1.

**1-таблица**

**Применение интерактивных методов в развитии критического мышления**

| **Метод** | **Цель** | **Формат использования** |
|---|---|---|
| Дискуссии | Обмен мнениями | Групповые обсуждения |
| Ролевые игры | Моделирование реальных ситуаций | Активные занятия |
| Работа в группах | Сотрудничество | Групповая работа |
| Метод решения проблем | Анализ и нахождение решений | Практические задания |
| Проектное обучение | Интеграция знаний и навыков | Разработка проектов |

Каждый интерактивный метод вносит уникальный вклад в развитие критического мышления учащихся. Работа в группах улучшает навыки выражения собственных мыслей, оценки мнений друг друга и совместного решения проблем. Ролевые игры обучают учащихся креативному мышлению, эмпатии и принятию сбалансированных решений. Решение задач развивает аналитические навыки учащихся через решение реальных проблем. Дискуссии помогают учащимся защищать свои мнения и быть открытыми к мнениям других. Проектное обучение способствует развитию критического мышления через креативность и командную работу.

Эти методы помогают развивать критическое мышление учащихся, подготавливая их к тому, чтобы они становились эффективными и независимыми мыслителями, способными решать проблемы.

Внедрение интерактивных методов на уроках русского языка имеет значительное значение для повышения активности учащихся, с целью их трансформации из пассивных наблюдателей в активных участников образовательного процесса. Для достижения данной цели учителя могут следовать следующим этапам, описанным в литературе [16]:

1. Подготовка преподавателя — учитель должен овладеть основами

интерактивных методов и соответствующих методологий. Эффективное использование этих методов требует постоянного повышения квалификации через участие в семинарах, тренингах и онлайн-курсах, что позволяет интегрировать новейшие педагогические практики в процесс обучения.

2. Определение тем — для успешной интеграции интерактивных методов необходимо учитывать интересы учащихся. Приближение учебных тем к реальной жизни и актуальным вопросам студентов способствует их активному вовлечению в процесс обучения.

3. Выбор методов — важно выбрать оптимальное сочетание различных интерактивных методов, таких как дискуссии, ролевые игры, работа в группах и проектное обучение. Каждый метод должен быть адаптирован с учетом целей и задач урока, чтобы эффективно способствовать развитию критического мышления учащихся.

4. Использование технологий — современные цифровые инструменты, такие как интерактивные презентации, онлайн-платформы и мобильные приложения, могут сыграть важную роль в внедрении интерактивных методов. Технологии служат мощным стимулом для повышения интереса учащихся и их вовлеченности в учебный процесс.

5. Обмен мнениями — регулярное сбор и анализ мнений учащихся в процессе урока помогает повысить их активность. Оценка и поощрение высказываний учащихся способствует развитию аналитического мышления и способности к самовыражению.

Примеры применения интерактивных методов:

На дискуссии на тему «Технологии и образование» учащимся предлагается обсудить роль технологий в образовательном процессе. В ходе обсуждения высказываемые мнения учащихся оцениваются, что способствует развитию их критического подхода к рассматриваемому вопросу.

В рамках ролевых игр на тему «Использование ресурсов в библиотеке» учащиеся разыгрывают роли библиотекаря и клиента. Это помогает им развить практические навыки использования библиотеки, а также улучшает грамматические и лексические навыки на русском языке.

На уроках по теме «Национальные ценности» учащиеся делятся на группы, каждая из которых готовит презентацию, отражающую особенности своих национальных ценностей. Этот метод развивает навыки командной работы и способствует углубленному изучению культурных особенностей.

В рамках проектной деятельности на тему «Основные произведения русской литературы» учащиеся исследуют и анализируют литературные произведения, после чего представляют результаты своей работы. Этот метод способствует развитию творческого мышления и аналитических навыков в области русской литературы.[8]

Внедрение этих методов значительно повышает активность учащихся, способствует развитию критического мышления и повышает общую эффективность учебного процесса. Исследования подтверждают, что использование интерактивных методов способствует более глубокому усвоению знаний и делает образовательный процесс более увлекательным и продуктивным.

Активное участие учащихся в интерактивном процессе является важным фактором повышения эффективности образовательного процесса. Активное

вовлечение учащихся способствует развитию их навыков усвоения знаний, креативного мышления и способности решать проблемы. Для стимулирования активного участия можно использовать следующие методы [16]:

1. Повышение мотивации — важно эффективно мотивировать учащихся, демонстрируя им результаты применения интерактивных методов. Важным аспектом является внедрение системы оценки и поощрения, а также учет интересов учащихся при планировании уроков.

2. Привлечение учащихся к интерактивной деятельности — ролевые игры, дискуссии, групповая работа и проектное обучение служат эффективными методами стимулирования активности. Они способствуют вовлечению учащихся в учебный процесс и формируют у них навыки работы в команде, аналитического мышления и саморазвития.

3. Создание открытой и положительной атмосферы — для успешного проведения интерактивных методов важно создать условия, в которых учащиеся могут свободно выражать свои мысли и активно участвовать в обсуждениях. Такая атмосфера способствует развитию креативного мышления и уверенности учащихся в своих силах.

Одним из эффективных методов для повышения активности учащихся является голосование. Регулярное использование голосования для определения мнений учащихся помогает собрать обратную связь и активизировать их участие в обсуждениях. Это также способствует лучшему пониманию позиций участников обсуждения.

Оценочные методы, такие как формативное и суммативное оценивание, играют важную роль в процессе интерактивного обучения. Формативное оценивание позволяет отслеживать прогресс учащихся и корректировать учебный процесс в реальном времени, а суммативное оценивание используется для оценки общей эффективности обучения.[13]

Важным аспектом является предоставление учащимся времени для выражения мнений. В определенной части урока учащиеся должны иметь возможность выразить свои мысли и замечания, как в письменной, так и в устной форме. Это развивает их независимое мышление и креативность.

Эти методы способствуют активному вовлечению учащихся в процесс обучения, развивают их аналитические, творческие и коммуникативные навыки, а также способствуют более глубокому усвоению знаний. Исследования подтверждают, что стимулирование активного участия учащихся значительно повышает эффективность учебного процесса.

**Заключение**

Интерактивные методы обучения, являясь неотъемлемой частью современного образовательного процесса, играют ключевую роль в развитии критического мышления учащихся. Эти методы способствуют активному вовлечению студентов в процесс обучения, стимулируя их креативное мышление и улучшая способности к решению проблем. Применение интерактивных методик способствует повышению активности учащихся, развитию их коммуникативных навыков, а также навыков сотрудничества. В результате этого учащиеся становятся более подготовленными к решению сложных проблем, эффективному анализу информации и активному участию в обсуждениях в классе.

Кроме того, интерактивные методы оказывают значительное влияние на развитие критического мышления у учащихся. Это способствует формированию их способности к самооценке, принятию независимых решений и применению креативных подходов к решению различных задач. Важную роль в этом процессе играют мнения, выборы и размышления учащихся, что дополнительно активизирует их участие в образовательном процессе. Таким образом, интерактивные методы не только способствуют глубокой проработке учебного материала, но и развивают учащихся как независимых, критически мыслящих личностей, готовых к решению реальных проблем в различных сферах жизни.

Применение таких методов в образовательной практике подтверждает их эффективность в развитии критического мышления, а также в подготовке учащихся к успешной социальной и профессиональной жизни в условиях динамично меняющегося мира.

**Рекомендации**

1. **Подготовка педагогов**: Для эффективного внедрения интерактивных методов обучения учителям необходимо регулярно участвовать в специализированных тренингах, семинарах и курсах повышения квалификации. Это позволит педагогам овладеть современными педагогическими методами, наладить продуктивное взаимодействие с учащимися и организовывать эффективные формы интерактивного обучения. Постоянное профессиональное развитие педагогов будет способствовать повышению качества образовательного процесса и более успешному применению интерактивных методов в практике.

2. **Выбор тем и методов**: При подборе тем и методов обучения важно учитывать интересы и жизненный опыт учащихся. Адаптация образовательных материалов и методов под реальные потребности и предпочтения обучающихся активизирует их участие и способствует более глубокому усвоению знаний. Выбор тем, которые близки учащимся, способствует не только их мотивации, но и стимулирует развитие критического мышления, позволяя интегрировать учебный процесс с реальной жизнью.

3. **Внедрение технологий**: Современные информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), такие как интерактивные презентации, онлайн-платформы и мобильные приложения, могут существенно повысить интерес учащихся к учебному процессу и усилить их участие в интерактивных активностях. Учителям следует освоить эффективные способы применения технологий на уроках, что способствует не только усилению вовлеченности учащихся, но и оптимизации образовательного процесса в целом.

4. **Создание атмосферы обмена мнениями**: Важно обеспечить условия для свободного выражения мнений и идей учащимися. Это необходимо для развития их креативного мышления, способности к независимому принятию решений и формированию навыков конструктивного общения. Создание открытого образовательного пространства, где учащиеся могут обсуждать свои мысли и идеи, способствует не только их личностному росту, но и улучшению качества учебного взаимодействия.

5. **Оценка и поощрение**: Для стимулирования активности учащихся важно внедрить систему оценивания, включающую формативное и суммативное оценивание,

а также методы поощрения за активное участие. Оценка результатов учеников должна быть направлена на выявление их усилий в процессе обучения и способствовать их мотивации к дальнейшему развитию. Такие меры также помогут отслеживать успешность усвоения материала и корректировать учебный процесс, если это необходимо.

Данные рекомендации играют важную роль в повышении эффективности применения интерактивных методов обучения и в развитии критического мышления у учащихся. Интерактивные методы, направленные на развитие активности, креативного подхода и независимости, закладывают фундамент для успешной образовательной и профессиональной деятельности учащихся в будущем.

**Adabiyotlar/Литература/References:**


1. Бутенко А.В., Ходос Е.А. Критическое мышление: метод, теория, практика: Учеб.-метод. пособие. М.: — Мирос, 2009.
2. Выготский Л.С. Мышление и речь.-М.:Лабиринт, 2012.
3. Жан Пиаже: теория, эксперименты, дискуссия. Под ред. Л.Ф.Обуховой и Г.В. Бурменской.- Изд.Академика, 2001.- ИСБН 5-8297-0093-Х.
4. Загашев И.О. Критическое мышление: технология развития. М.:– Санкт-Петербург, Альянс-Дельта, 2003. -284 с.
5. Канеман Д., Думай медленно… Решай быстро. Д. Канеман. – Москва : АСТ, 2014. – 331 с. – ISBN 978-5-17-080053-7.
6. Махмутов М.И., Интеллектуальный потенциал россиян: причины и следствия / Георессурсы. – 2001. – № 34 (7). – С. 6-7.
7. Мезенцева С. В. Приёмы (технологии) критического мышления. Вестник науки. – 2021. – № 4 (37). – С. 47-50.
8. Муштавинская, И. В. Технология развития критического мышления на уроке и в системе подготовки учителя : учебно-методическое пособие. – Санкт-Петербург : КАРО, 2013. – 140 с. – ISBN 978-5- 9925-0903-8.
9. Раимбекова, Г. К. Использование технологии развития критического мышления через чтение и письмо на уроках русского языка и литературы. European research. 2016. – С. 84-86.
10. Селевко Г.К. Энциклопедия образовательных технологий / Г.К.Селевко. – Москва: Народное образование, 2005. – 535 с.
11. Собирова Г.З. Эффективные методы развития критического мышления у старшеклассников на уроках русского языка в школах с узбекским языком обучения. Т.: Foreign Linguistics and Linguodidactics Journal. 2024 йил декабр, ISSN 2181-3701. DOI: https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1/S-pp80-91
12. Собирова Г.З. Технологии развития навыков критического мышления на уроках русского языка. Т.: Science Problems.uz Journal. 2024 йил декабрь, 10/S-сон(4-жилд) ISSN 2181-1342. DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI10Y2024N44
13. Собирова Г.З. Развитие критического мышления на уроках русского языка в школах с узбекским языком обучения: содержание и модель. Т.: Таълим, фан ва инновация журнали. 2025 йил 1-сон, ISSN 2181-8274.

14. Халперн, Д. Психология критического мышления. М.:– Санкт-Петербург: Питер, 2000. – 512 с. – ISBN 5-314-00122-5.
15. Чатфилд, Т. Критическое мышление: Анализируй, сомневайся, формируй свое мнение. – М.: Альпина Паблишер, 2019. – 328 с. –. ISBN 978-5-9614-2081-4.
16. Шакирова, Д. М. Критическое мышление. М.:– Казань: ГАОУ ДПО ИРО РТ, 2019. – 146 с. – ISNB 978-5-6042481-5-7.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# ZAMONAVIY JISMONIY TAYYORGARLIKNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

**Salayev Donyor Baxtiyarovich**
Alfraganus university
“Sport faoliyati”kafedrasi v.b dotsenti

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada jismoniy tarbiya va sport olamida zamonaviy jismoniy tayyorgarlikning nazariy va amaliy asoslari hamda uning xususiyatlari haqida bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** jismoniy tayyorgarlik, sport faoliyati, shaxs madaniyati, insonparvarlik sifatlari, moslashuvchanlik, jismoniy rivojlanish, jismoniy mashqlar, funksional tayyorgarlik.

# THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF MODERN PHYSICAL TRAINING

**Salaev Donyor Bakhtiyarovich**
Alfraganus University Associate Professor
of the Department of "Sports Activities"

**Abstract.** This scientific article describes the theoretical and practical foundations of modern physical training in the world of physical education and sports, as well as its features.

**Key words:** physical training, sports activity, personality culture, human qualities, flexibility, physical development, physical exercises, functional training.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N36

**Kirish.** Bugungi kunda yurt kelajagi bo‘lgan yoshlarni vatanparvar, mamlakat taraqqiyotiga daxldor, ijtimoiy mas’uliyatli qilib tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sport asosiy vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu jihatdan jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, bu sohadagi muammolarni falsafiy, huquqiy, sotsiologik yondashuvlar orqali hal qilish, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini raqobatbardosh kadrlar qilib tayyorlash, ularning tafakkur tarzini takomillashtirish asosiy vazifalarimizdan biridir.

**Tadqiqotimizning metodlari va uslublari.** Ilmiy tadqiqot jarayonida ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, kuzatish, pedagogik-psixologik hodisalarning tizimli tahlili va natijalarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi.** Mazkur muammolarni bartaraf etishda jismoniy tarbiya va sportga tarbiya vositalaridan biri sifatida yondoshish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek mamlakatimizda jismoniy tarbiya va jismoniy tayyorgarlikning dolzarbligi muhim vazifalaridan biri sifatida quyidagilarni ham e’tirof etish lozim:

- yosh bolalar va oʻsmir yoshlarning uygʻun jismoniy rivojlanishi, ularning muvaffaqiyatli mehnat faoliyatiga, harbiy xizmat qilishga jismoniy tayyorgarligi;

- aholi salomatligini mustahkamlash va ish qobiliyatini oshirish, organizmning noqulay omillar taʼsiriga chidamliligini rivojlantirish;

- turli hil ekstremal sharoitlarda kasbiy vazifalarni bajaradigan mutaxassislarning tayyorlash va samarali jismoniy tayyorgarligini oshirish;

- Harbiy qurolli kuchlar tuzilmalarida zamonaviy jangovar tayyorgarlik vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish darajasini taʼminlash;

- inson salomatligida yuzaga keladigan kasalliklar, jarohatlar, turli xil shikastlanishlardan keyin organizmning tez tiklanishi;

- yoshga oid oʻzgarishlarning oldini olish, har qanday mutaxassislarning kasbiy uzoq umr koʻrishini taʼminlash kabi masalalar.

Ayni shu omil, milliy gʻurur, Vatan uchun faxrlanmoq, or-nomus, yurt shaʼni kabi tuygʻular shakllanishining asosi sanaladi.

Bizga maʼlumki soʻnggi yillarda Oʻzbekiston sportchilari xalqaro maydonda ajoyib natijalarga erishdilar: 2016-yilgi Rio de Janero Olimpiya oʻyinlarida, 2021-yildagi Tokio Olimpiya oʻyinlarida, 2024-yildagi Parij Olimpiya oʻyinlarida Markaziy Osiyo davlatlar ichida yuqori koʻrsatkichlarni qayd etdilar.

Biroq, mamlakatimizda ommaviy jismoniy tarbiyadan foydalanish natijalari dunyoning yetakchi mamlakatlarida erishilgan natijalardan orqada qolmoqda. Bu ayniqsa jismoniy mashqlar bilan muntazam shugʻullanuvchilar soni, qoʻllanilayotgan vositalar va mashgʻulot usullarining samaradorligi hamda aholining oʻrtacha umr koʻrish davomiyligi boʻyicha koʻzga tashlanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida olimpiya va paralimpiya harakatini yanada rivojlantirish, ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish hamda aholi jismoniy faolligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishida "oʻrganishlarga koʻra, aholimizning 44 foizi jismoniy faol emasligi, 36 foizi toʻgʻri ovqatlanish qoidalariga amal qilmasligi aniqlangan. Aholi orasida sogʻlom turmush tarzini targʻib qilishda nafaqat sport, balki toʻgʻri ovqatlanish ham dolzarb ahamiyatga ega" deb taʼkidlashgan. [1]

Shu jumladan jismoniy mashqlarni qoʻllashning baʼzi muhim ilmiy-uslubiy masalalari hali ham oʻz yechimini topmagan. Jismoniy mashqlarning inson organizmiga taʼsir koʻrsatish mexanizmlarini ilmiy asoslash va jismoniy tayyorgarlik nazariyasining bugungi kundagi holati zamonaviy fan yutuqlari darajasiga toʻla muvofiq emas.

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi yetakchi oliy oʻquv yurtlarida jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati boʻyicha bir qancha darsliklar tayyorlangan. Ushbu darsliklarda mualliflar jismoniy mashqlarning insonning keyingi kasbiy faoliyatiga taʼsirini va uning tayyorgarlikning nazariyasi bilan izohlaydilar. Biroq, bu nazariya zamonaviy ilmiy asoslarga ega emas va inson organizmidagi funksional oʻzgarishlarni hisobga olmaydi. Aslida, aynan shu oʻzgarishlar insonning faoliyati samaradorligini belgilaydi. [2]

Ushbu muammo fundamental fan tomonidan fiziologik moslashuv nuqtai nazaridan oʻrganiladi va amaliy masalalarni yechishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo jismoniy mashqlarning inson organizmiga taʼsiri haqidagi koʻplab nashrlar orasida, moslashuv oʻzgarishlarining ilmiy tahlili faqat ayrim ishlardagina mavjud. Bu esa jismoniy

takomillashtirishning samaradorligiga va aholi salomatligini mustahkamlashga yordam bermayapti. Shuning uchun maktab oʻquvchilari, talabalar, harbiy xizmatga chaqiriluvchilar va katta yoshdagi insonlarning jismoniy tayyorgarligi hamda sogʻligʻi holatining yomonlashishi bejiz emas.

Organizmdagi moslashuv oʻzgarishlarini tahlil qilish va hisobga olishning muhimligi hamda zarurligini akademik L.A. Orbeli ham ta’kidlab oʻtgan edi. U shunday degan: “Jismoniy tarbiyada biologiyaning ahamiyatini faqat harakat jarayonini oʻrganish bilangina cheklab qoʻyish notoʻgʻri boʻlardi. Organizmning barcha tizim va vazifalarining harakat vazifasini bajarishga moslashuvini ta’minlovchi barcha muvofiqlashtirish munosabatlarini inobatga olish zarur”.[3]

Mavjud jismoniy tayyorgarlikni nazariyasi inson organizmidagi moslashuv jarayonlarini e’tiborga olmaydi, jismoniy mashqlarni qoʻllash imkoniyatlarini cheklaydi, jismoniy tayyorgarlik nazariyasining rivojlanishiga toʻsiq boʻladi hamda zamonaviy jamiyatda sogʻlomlashtirish va amaliy vazifalarni samarali hal etishni ta’minlay olmaydi.

Shubhasiz, jismoniy mashqlarning inson salomatligiga, kasalliklarning oldini olishga, yoshga bogʻliq oʻzgarishlarga, organizmning moslashuv reaksiyalarini shakllantirishga ta’siri boʻyicha aniq ilmiy nazariyaning yoʻqligi ommaviy jismoniy tarbiya natijalariga salbiy ta’sir koʻrsatishi mumkin.

Insonning moslashuv imkoniyatlarini takomillashtirish bu masalalarni muvaffaqiyatli hal qilishga imkon beradi. Hozirgi vaqtgacha turli mutaxassislarning jismoniy tayyorgarligini asoslashda moslashuv reaksiyalarining kechish qonuniyatlari va ularni jismoniy tayyorgarlik vositalari bilan kuchaytirish imkoniyatlari deyarli e’tiborga olinmagan.

Jismoniy tayyorgarlik organizmning muhim xususiyatlarini takomillashtirish imkonini beradi:

- funksional imkoniyatlarini oshirish;
- fiziologik tizimlar faoliyat koʻrsatishining tejamkorligini ta’minlash;
- organizmning tashqi va ichki muhitning noqulay ta’sirlariga chidamliligini oshirish.

Buning natijasida, insonning moslashuvchanlik qobiliyati va har qanday faoliyat hamda tashqi muhit sharoitlarida ishlash samaradorligi oshadi. Bu esa hozirgi kunda murakkab iqlim-geografik sharoitlarda vazifalarni bajaradigan mutaxassislarni, harbiy xizmatchilarni, barcha kuch tuzilmalari xodimlarini va vaxta usulida ishlaydigan mutaxassislarni tayyorlash uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlar shuni koʻrsatdiki, fiziologik funksiyalarning barqarorligi, insonning tashqi muhit yoki kasbiy faoliyatning ekstremal sharoitlarida ishlash qobiliyati, oxir-oqibat, u yoki bu jismoniy fazilat yoki harakat koʻnikmasining rivojlanish darajasi bilan emas, balki ushbu fazilatlarni takomillashtirishda shakllangan organizmning moslashuvchanlik imkoniyatlari darajasi bilan belgilanadi.

Organizmning moslashuv imkoniyatlarini shakllantirish — insonlarni muvaffaqiyatli faoliyatga tayyorlashning, yangi tabiiy va ishlab chiqarish sharoitlariga samarali moslashishining asosiy yoʻnalishi boʻlib, bunda jismoniy mashqlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday kasbiy faoliyatning samaradorligi mutaxassisning moslashish imkoniyatlari darajasiga bogʻliq. Faqat faoliyatning oʻzidagi yuklamalar va zoʻriqishlarga bogʻliq holda moslashish imkoniyatlarining darajalari turlicha boʻlishi mumkin. Moslashuvchanlik

imkoniyatlarining samarali takomillashuvini moslashuvchanlik reaksiyalarining shakllanish qonuniyatlari asosida qoʻllaniladigan jismoniy mashqlar taʼminlaydi. Jismoniy tayyorgarlik, jismoniy madaniyat, sport mashgʻulotlari tamoyillari ham organizm faoliyatining fiziologik qonuniyatlariga, fiziologik moslashuvlar qonuniyatlariga asoslanadi.

Shunday qilib, moslashuv qonuniyatlari zamonaviy jismoniy tayyorgarlik, jismoniy madaniyat va jismoniy mashgʻulotlarning nazariy asosini tashkil etadi. Ularni samarali qoʻllash orqali har qanday soha mutaxassislarining jismoniy tayyorgarligida hamda barcha sport turlari boʻyicha sportchilarni tayyorlashda yuqori natijalarga erishish mumkin.

Turli sport turlari vakillari boʻlgan koʻplab sportchilar, jahon chempionlari va rekordchilari mashgʻulot jarayonida organizmning moslashuv imkoniyatlarini takomillashtirish vositalari va usullaridan foydalanib kelganlar va hozir ham foydalanmoqdalar. Ular orasida ogʻir atletika boʻyicha Olimpiya chempioni Yuriy Vlasov, motokross boʻyicha uch karra jahon chempioni Gennadiy Moiseev, kurashchi Fedor Yemelyanenko, 800, 1000, 1500 metr va 1 milya (1609 metr) masofalarga yugurish boʻyicha Olimpiya chempioni hamda jahon rekordchisi boʻlgan ingliz Sebastyan Kou va boshqalar bor.

Sportchining mashgʻulot mashqlarida asosiy eʼtibor toʻqima moslashuvi mexanizmini (uzoq muddatli moslashish) takomillashtirishga qaratildi. Buning uchun muayyan mashq vositalari tanlab olindi. Bunday mashqlarni bajarish uzoq vaqt davomida sezilarli darajada kislorod yetishmovchiligiga olib kelardi. Mazkur yondashuv uzoq muddatli moslashuv mexanizmini samarali takomillashtirishni taʼminladi va shubhasiz, oʻrta masofalarga yugurish boʻyicha sport natijalarining oʻsishiga ijobiy taʼsir koʻrsatdi.

Qoidasiz janglar boʻyicha jahon chempioni Fedor Yemelyanenko muntazam ravishda oʻz mashgʻulot jarayoniga 8 kilometrlik masofa boʻylab yugurish mashqini kiritadi. Bu yondashuv sportchining organizmida moslashuvchanlik zaxiralarini shakllantiradi hamda butun jang davomida uning yuqori harakat tezligi, chidamliligi va emotsional barqarorligini taʼminlaydi.

Shuningdek insonning moslashuv qobiliyatlarini shakllantirishga oid boshqa ilmiy-amaliy masalalarni koʻrib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mushaklar faoliyati organizmning barcha vazifalariga taʼsir koʻrsatib, uning moslashuvchanligini, ishonchliligini va noqulay omillarga bardoshliligini oshiradi. Bu fikr jismoniy yuklamalarga moslashishning hozirga qadar isbotlangan himoya taʼsiriga asoslanadi. Yaʼni, agar inson jismoniy yuklamalarga moslashgan va ularni oson oʻtkazsa, u holda jismoniy yuklamalarga moslashish jarayonida shakllangan organizmning yuqori moslashuvchanlik qobiliyati tufayli har qanday kasbiy faoliyatda yuqori samaradorlikni taʼminlay oladi.

Jamiyat rivojlanishining zamonaviy bosqichida jismoniy madaniyatning ahamiyati va har bir insonning moslashuvchanlik qobiliyatlarini takomillashtirish zaruriyati aynan shu bilan izohlanadi. Ammo, barcha jismoniy mashqlar ham inson organizmining moslashuv imkoniyatlarini samarali shakllantirish va uning yuqori ish qobiliyatini taʼminlash uchun mos kelavermaydi. Bunday mashqlarni tanlash fiziologik moslashishlar qonuniyatlari haqidagi zamonaviy nazariyalarga asoslanadi.

Organizmning samarali takomillashuvi va uning funksional imkoniyatlarining kengayishi faqatgina sezilarli darajada yuqori intensivlikdagi mushak faoliyati orqali amalga oshadi. Shu bilan birga, mashgʻulot yuklamalarining asta-sekin ortib borishi organizmning ularga moslashishini osonlashtiradi. Zarur natijalarga erishish maqsadga muvofiqligi va shugʻullanuvchilarning funksional imkoniyatlarini baholash nuqtai nazaridan, organizmni

jismoniy yuklamalarga moslashtirish jarayonida ushbu ikki qonuniyatni ham hisobga olish lozim.

Jismoniy tayyorgarlik vositalari orqali insonning moslashuv imkoniyatlarini samarali shakllantirish va uning kasbiy faoliyatdagi ish qobiliyatini oshirish qanday amalga oshiriladi? Koʻpchilik moslashuv reaksiyalarining rivojlanishida ikki bosqich kuzatiladi:

a) dastlabki tez, ammo mukammal boʻlmagan moslashuv bosqichi;

b) keyingi mukammal uzoq muddatli moslashuv bosqichi.

Tashqi muhitning turli xil kuchli omillari yoki faoliyat ta’sir qilganda (gʻayritabiiy sharoitlarda vazifalarni bajarish paytida yuz berishi mumkin), organizm funksiyalarining barqarorligi va insonning ish qobiliyati bir xil tizimlar – birinchi navbatdagi safarbarlik tizimlari tomonidan ta’minlanadi. Agar bu tizimlar organizmning muhit yoki faoliyat omillari ta’siriga moʻtadil javobini ta’minlasa, moslashuv qisqaroq muddatda va kamroq fiziologik sarflar bilan, ya’ni ish qobiliyatining yuqoriroq darajasida kechadi. Jismoniy mashqlar birinchi navbatdagi safarbarlik (tezkor moslashuv) tizimlarining funksional imkoniyatlarini samarali oshirishi va shu orqali insonning mehnat faoliyatiga moslashuvini tezlashtirishi, uning ish samaradorligini ta’minlashi mumkin. Bu qanday sodir boʻladi?

Safarbarlikning birinchi navbatidagi fiziologik tizimlarga yurak-qon tomir, nafas olish va qon tizimlari kiradi. Ular organizmni kislorod bilan ta’minlash vazifasini bajaradi. Ushbu tizimlarning samarali ishlashi (funksional imkoniyatlarini oshirish) uchun kislorodning asosiy iste’molchilari hisoblangan koʻp sonli yirik mushak guruhlari ishtirok etadigan jismoniy mashqlarni qoʻllash zarur. Bunday mashqlarga yugurish, changʻida yurish, velosiped minish va suzish kiradi. Yana bir muhim koʻrsatkich mushak ishining maqsadga muvofiq quvvatidir.

Turli quvvatdagi (maksimal, submaksimal, katta, oʻrtacha) ishlarni tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, yurak-qon tomir tizimi, nafas olish tizimi va qonning funksional imkoniyatlari katta quvvatdagi ishda eng koʻp namoyon boʻladi. Katta quvvatli mushak ishi mazkur tizimlarning funksional imkoniyatlarini samarali takomillashtirish imkonini beradi. Katta quvvatli mashqlarga inson 5-6 daqiqadan 20-30 daqiqagacha bajara oladigan mashqlar kiradi. Bular 2-6 kilometrga yugurish va 5 kilometrga changʻi poygasini oʻz ichiga oladi.

Shunday qilib, tezkor moslashuvning fiziologik tizimlarining funksional imkoniyatlarini oshiradigan, jismoniy chidamlilikni rivojlantiradigan mashqlarni qoʻllash organizm moslashuv qobiliyatini sezilarli darajada kuchaytirishi, mehnat faoliyati yoki tashqi muhitga moslashish jarayonlarini tezlashtirishi va insonning ish qobiliyatini yaxshilashi mumkin.

Kasbiy faoliyat omillariga uzoq muddatli moslashishning yanada takomillashgan bosqichi toʻqimalarning oʻzini ichki muhitda kislorod miqdori pasaygan sharoitda samarali ishlashga moslashishi va ularning chidamliligini oshirishdan iborat. Mazkur hodisalar submaksimal quvvatli mashqlarni bajarishda, eng yuqori fiziologik oʻzgarishlar sodir boʻlganda va ish sezilarli darajada kislorod etishmasligi bilan kechganda yaqqol namoyon boʻladi. Submaksimal quvvatda ishlash davomiyligi 20-30 soniyadan 3-5 minutgacha davom etadi. Bunday mashqlarga 200 metrdan 1500 metrgacha boʻlgan masofalarga yugurish, toʻsiqlar yoʻlagini bosib oʻtish va boshqa shu kabi mashqlarni kiritish mumkin.

Uzoq muddatli moslashuvni koʻrib chiqishda, moslashuv jarayonlarining nihoyatda muhim qonuniyatini ta’kidlash lozim — turli xil omillarga hujayra darajasida yagona moslashuv mexanizmining mavjudligi. Bu qonuniyatning ahamiyati shundaki, ma’lum bir omilga (masalan, jismoniy zoʻriqishlarga) moslashgan organizm sharoit oʻzgarganda (baland

togʻlarga koʻchish kabi) moslashuv reaksiyalarini ancha qulay holatda shakllantiradi. Chunki u hujayra darajasida allaqachon shakllangan moslashuv mexanizmiga ega boʻladi. Bu esa ish qobiliyatini keskin pasaytirmasdan, moslashuv reaksiyalarini tizimli darajadan yanada takomillashgan toʻqima darajasiga tezroq oʻtkazish imkonini beradi.

Shuni taʼkidlash joizki, yuklama miqdori (katta va submaksimal quvvatli) har bir inson uchun oʻziga xos boʻlib, organizmning funksional imkoniyatlariga bogʻliq. Bu holat mashgʻulotlarni oʻtkazishda eʼtiborga olinishi lozim.

Jismoniy tayyorgarlik vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari quyidagilardan iborat: moslashuv qobiliyatini shakllantirish, insonlarning mehnat faoliyati va tashqi muhitga moslashishini tezlashtirish hamda ularning ish qobiliyatini taʼminlash.

Moslashuv imkoniyatlarini eng samarali takomillashtirish uchun siklik mashqlar eng maqbul hisoblanadi. Bu mashqlar jismoniy chidamlilikni oshiradi va tananing koʻp sonli yirik mushak guruhlarini — kislorodning asosiy isteʼmolchilarini ishga soladi. Chidamlilikni rivojlantirish sogʻliqni mustahkamlash va yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olishning yagona keng qoʻllaniladigan usuli hisoblanadi.

Ushbu yondashuv aholining barcha qatlamlari uchun dolzarbdir. Biroq, jismoniy chidamlilikni rivojlantirish vositalari va usullarini tanlash, ayniqsa keksa yoshdagi, harakatlanish imkoniyati cheklangan va sogʻligʻida muammolari bor insonlar uchun gʻoyat muhimdir. Bu masalani hal qilishning zaruriy sharti shugʻullanuvchilarning sogʻligʻi holatini, funksional imkoniyatlarini tibbiy koʻrikdan oʻtkazish hamda shifokorning mashgʻulot va oʻz-oʻzini nazorat qilishning mos vositalari va usullaridan foydalanish boʻyicha tavsiyalari hisoblanadi. Bunday insonlar uchun asosiy mashq meʼyorlangan yurish va boshqa ular bajara oladigan mashqlar boʻlishi mumkin.

Kuch mashqlari organizmning zararli taʼsirlarga chidamliligini oshirishga, uning moslashuv qobiliyatiga, yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarining faoliyatini takomillashtirishga kam taʼsir koʻrsatadi. Qoʻl va gavda mushaklarini kuchaytirish insonga mehnat faoliyatidagi vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish va uygʻun rivojlanish uchun zarur, biroq chidamlilikni rivojlantirish asosiy oʻrinda turishi lozim. Tirik organizmning evolyutsiya jarayonida shakllangan ikkita muhim xususiyati mavjud — moslashish qobiliyati va organizmning yuqori darajadagi moslashuvini, hayotiy faoliyatini uzoq vaqt davomida saqlab qolish qobiliyati. [4] Moslashuvning yuqori darajasini saqlab qolish qobiliyati deyarli har qanday yoshda va har qanday sharoitda insonlarning salomatligi va mehnat qobiliyatini taʼminlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, moslashish qonuniyatlari jismoniy tarbiya, jismoniy tayyorgarlik va sportning inson organizmiga taʼsirining zamonaviy nazariy asosini tashkil etadi. Moslashuv imkoniyatlarini samarali takomillashtirishning asoslangan usullari esa aholining barcha qatlamlari uchun jismoniy tayyorgarlikning zamonaviy amaliyoti hisoblanadi.

**Xulosa.** Shunday qilib, inson jismoniy tayyorgarligining nazariyasi va amaliyoti ilk bor fundamental fan yutuqlari asosida asoslanib, zamonaviy jamiyatdagi vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishni taʼminlash imkonini berdi. Bu ilmiy yondashuv mamlakatimiz aholisi salomatligini samarali mustahkamlash, va harbiy xizmat sohalarida jangovar tayyorgarligini taʼminlashga xizmat qiladi. Bunda mutaxassislarning kasbiy faoliyatga jismoniy tayyorgarligini xolisona baholashga faqatgina u yoki bu jismoniy sifatning erishilgan darajasini emas, balki

organizmning moslashuv imkoniyatlarini ta’minlovchi asosiy fiziologik tizimlar holatini ham tahlil qilish orqaligina erishish mumkin.

**Adabiyotlar/Литература/References:**


1. Sh.Mirziyoyev “Sport – sog‘lom xalq, sog‘lom avlodning tayanch ustuni” 2025-yil 13-fevral kuni olimpiya va paralimpiya harakati, ixtisoslashtirilgan va ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish hamda aholi jismoniy faolligini oshirish chora-tadbirlari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida so‘zlagan nutqi.
2. Солодков А.С., Сологуб Е.Б. Физиология человека. Общая. Спортивная. Возрастная: учебник / А.С.Солодков, Е.Б.Сологуб. – Изд. 4-е испр. и доп. – М.: Советский спорт, 2012. – 620 с.
3. Орбели Л.А. О физической культуре. – Избр. Труды. – М.–Л.: Изд-во АН СССР, 1961. – Т.1. – С.203-213.
4. Попов Ю.А. Опыт подготовки бегуна С.Коу // Научно-спортивный вестник, 1985, №5. – С. 29–34 (Изд-во «Ф и С»).

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# OLIY TA'LIM MUASSASASIDA BOKS MURABBIYLARINI KASBGA YO'NALTIRISH TIZIMINING XUSUSIYATLARI

**Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich**
Termiz davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat kafedrasi, Katta o'qituvchi

**Annotatsiya.** Maqolada oliy ta'lim muassasalarida boks murabbiylarini kasbga yo'naltirish tizimining mazmuni, tuzilmasi va amaliyotdagi qo'llanilish xususiyatlari keng yoritilgan. Muallif kasbga yo'naltirish tushunchasini pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqadi va uning boks murabbiyi kasbiy faoliyatiga moslashtirilgan modelini ishlab chiqishga harakat qiladi. Tadqiqot davomida sport sohasi, xususan, boks bo'yicha mutaxassis tayyorlashda kasbga yo'naltirish tizimining psixologik, pedagogik, ijtimoiy va amaliy omillari chuqur tahlil etilgan. Shuningdek maqolada boks murabbiylarining kasbiy qiziqishlarini shakllantirish, kasbiy faoliyatga nisbatan ijobiy motivatsiyani rivojlantirish, murabbiylik faoliyatiga zarur kompetensiyalarni bosqichma-bosqich egallash jarayoni o'rganilgan. Oliy ta'lim jarayonida nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar uyg'unligini ta'minlash, o'quv dasturlarining zamonaviy talablar asosida takomillashtirilishi, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va joriy etish zarurligi asoslab berilgan. Muallif tomonidan taqdim etilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar boks murabbiylarini tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularni mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllantirish, kasbiy o'sishlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur maqola sport pedagogikasi, kasbga yo'naltirish metodikasi hamda murabbiylik faoliyatining zamonaviy tamoyillarini chuqur o'rganishga qaratilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar va amaliyotchilar uchun muhim ilmiy-uslubiy manba bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** kasbga yo'naltirish tizimi, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy va amaliy ko'nikmalar, boks murabbiyi, oliy ta'lim, sport pedagogikasi, o'qitish usuli.

# FEATURES OF THE PROFESSIONAL ORIENTATION SYSTEM FOR BOXING COACHES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

**Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich**
Termez State Pedagogical Institute
Department of Physical Education, Senior Lecturer

**Abstact.** This article provides a comprehensive overview of the content, structure, and practical application features of the professional orientation system for boxing coaches in higher education institutions. The author considers the concept of professional orientation as an essential component of the pedagogical process and seeks to develop a model adapted to the professional activities of a boxing coach. Throughout the study, the psychological, pedagogical, social, and practical factors of the professional orientation system in training specialists in the field of sports — particularly in boxing — are thoroughly analyzed. The article also explores the processes of forming professional interests among future boxing coaches, developing positive motivation toward professional activity, and gradually mastering the necessary competencies for coaching. It substantiates the need to ensure the integration of theoretical knowledge and practical skills in higher education, improve curricula based on modern requirements, and study and implement advanced international practices. The scientific conclusions and practical recommendations presented by the author aim to improve the training system for boxing coaches, shape them as competitive professionals in the labor market, and support their professional growth. This article is dedicated to the in-depth study of sports pedagogy, professional orientation methodology, and modern

principles of coaching and serves as an important scientific and methodological resource for researchers and practitioners working in this field.

**Keywords:** professional orientation system, professional training, professional and practical skills, boxing coach, higher education, sports pedagogy, teaching methodology.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N37

**Kirish.** Boʻlajak boks murabbiylarini tayyorlash va kasbga yoʻnaltirish tizimi — bu oliy taʼlim muassasalarida murabbiylik faoliyatiga tayyorlanayotgan talabalarda zarur kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, ularning kasbga boʻlgan munosabati, motivatsiyasi, bilim va koʻnikmalarini tizimli ravishda rivojlantirishga yoʻnaltirilgan pedagogik faoliyat majmuasidir [5; 423-b]. Keling ushbu pedagogik faoliyat majmuasi haqida qisqacha maʼlumot beraylik.

Kasbga yoʻnaltirish mazmuni asosan quyidagi tarkibiy qismlarni oʻz ichiga oladi:

- Kasbiy maʼlumot berish. Boks murabbiyligi faoliyatining mohiyati, vazifalari, murabbiyning jamiyatdagi oʻrni va sportchilar hayotidagi roli haqida bilim berish.
- Kasbiy motivatsiyani shakllantirish. Talabalarda murabbiylik faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabat, qiziqish va ongli intilishni rivojlantirish.
- Amaliy koʻnikmalarni egallash. Sport mashgʻulotlarini tashkil etish, musobaqalarga tayyorlash, psixologik va pedagogik yondashuvlar asosida ishlash boʻyicha amaliy tajriba orttirish.
- Kasbiy shaxs sifatlarini rivojlantirish. Yetakchilik, muloqot qobiliyati, masʼuliyatlilik, tashabbuskorlik, iroda kuchi kabi shaxsiy sifatlarni shakllantirish.

Kasbga yoʻnaltirish tizimi murakkab, koʻp bosqichli struktura boʻlib, u quyidagi tarkibiy elementlardan iborat:

1. Kasbiy-kommunikativ komponent. Kasb haqida toʻliq maʼlumot berish, kasbiy suhbatlar, murabbiylik faoliyati bilan tanishtiruvchi maʼruzalar, seminarlar olib borish.
2. Psixologik-pedagogik komponent. Kasbiy oʻzini anglash, kasbiy yoʻnalishning psixologik asoslarini shakllantirish, shaxsiy motivatsiyani mustahkamlash.
3. Amaliy-taʼlimiy komponent. Mashgʻulotlar, sport yigʻinlari, stajirovkalar orqali bevosita murabbiylik faoliyatiga yaqinlashish.
4. Monitoring va refleksiya komponenti. Talabalar oʻzining kasbiy tayyorgarligi holatini baholashi, ustuvor yoʻnalishlarni aniqlashi va oʻzini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishi.

Amaliyotda bu tizim quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- Integratsiyalashgan oʻquv kurslari. Boks nazariyasi, pedagogik mahorat, sport psixologiyasi, sogʻlomlashtirish texnologiyalari kabi fanlarni oʻzaro uygʻunlashtirish orqali.
- Murabbiylik amaliyotlari. Taʼlim jarayonida talabalar sport maktablari, sport klublari va federatsiyalarda murabbiy sifatida faoliyat olib borish orqali tajriba orttiradilar.
- Mentorlik tizimi. Tajribali murabbiylar tomonidan yosh mutaxassislarga maslahat, amaliy koʻrsatmalar berish va motivatsiya jihatidan qoʻllab-quvvatlash.
- Sport tadbirlarida ishtirok etish. Talabalar boks boʻyicha musobaqalar, seminarlar, master-klasslarda qatnashish orqali kasbga yaqinlashadi.

Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, virtual treninglar, onlayn maʼruzalar va zamonaviy baholash vositalarining qoʻllanilishi bu tizimning samaradorligini yanada oshiradi.

Yuqori malakali boks murabbiylarini tayyorlash — oliy taʼlim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy sportda murabbiy nafaqat boks sohasida

professional bilimlarga ega boʻlishi, balki pedagogik, psixologik, tibbiy va boshqaruv kompetensiyalariga ham ega boʻlishi kerak. Uning faoliyati faqat sportchilarni oʻqitish bilan cheklanib qolmay, balki mashgʻulot dasturlarini ishlab chiqish, sportchilarning holatini tahlil qilish, zamonaviy texnologiyalar va tayyorgarlik usullaridan foydalanishni ham oʻz ichiga oladi [1; 76-b., 3; 43-b.].

Boks murabbiyining kompetentligi bir qator muhim sifat va koʻnikmalarni oʻz ichiga oladi. U sport mashgʻulotlari nazariyasi va metodikasi boʻyicha chuqur bilimga ega boʻlishi, harakatlar biomexanikasini tushunishi, sport fiziologiyasi va psixologiyasi asoslarini bilishi lozim. Pedagogik mahorati, sportchilarni ragʻbatlantirish, ularning texnikasini toʻgʻrilash va ruhiy barqarorlikni shakllantirish qobiliyati muhim oʻrin tutadi. Shuningdek, murabbiy tayyorgarlikning innovatsion texnologiyalarini, jumladan, janglarning videotahlilini, raqamli trenajyorlardan foydalanish va individuallashtirilgan mashgʻulot dasturlarini qoʻllashni yaxshi bilishi kerak [2; 150-b., 4; 77-b.].

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi sportning rivojlanishi, musobaqa jarayonining murakkablashuvi va ilmiy asoslangan tayyorgarlik metodlarini joriy etish zarurati bilan bogʻliq. Mashgʻulot jarayonining samaradorligi mutaxassisning tayyorgarlik darajasi, oʻzgaruvchan shart-sharoitlarga moslashish qobiliyati va zamonaviy ta’lim hamda trenirovka texnologiyalarini qoʻllash mahoratiga bogʻliq.

Ushbu maqolaning maqsadi — oliy oʻquv yurtlarida boks murabbiylarini kasbga yoʻnaltirish tizimining xususiyatlarini tahlil qilish, ta’lim jarayonining asosiy tarkibiy qismlarini aniqlash va uni takomillashtirish boʻyicha takliflar berishdan iborat.

**Adabiyotlar tahlili.** Hozirgi kunda boks murabbiylarini tayyorlash va kasbga yoʻnaltirish sohasidagi ilmiy tadqiqotlar nazariy bilimlar, amaliy koʻnikmalar va ilmiy faoliyatni uygʻunlashtirgan kompleks yondashuvning muhimligini ta’kidlaydi [6; 65-b.]. Mavjud ishlar tahlili shunday natijani koʻrsatadiki, samarali tayyorgarlik anatomiya va fiziologiya asoslari, mashgʻulot jarayoni metodikasi, psixologik tayyorgarlik va pedagogik texnologiyalarni oʻz ichiga oladi.

S.A. Lyapkin tadqiqotlarida bokschilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mashgʻulot metodikasini chuqur ishlab chiqish zarurligi koʻrsatilgan. Bu mashgʻulot jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi[10; 87-b.]. Z.D. Kuznetsova esa murabbiylarni nazariy tayyorgarligi, jumladan, anatomiya, fiziologiya va psixologiyani oʻrganishning ahamiyatini ta’kidlaydi. Bu bilimlar mashgʻulotlarni ongli rejalashtirish va jarohatlarning oldini olishga xizmat qiladi [9; 114-b.].

C. Cushion oʻz tadqiqotlarida sportchilarni tayyorlashning psixologik jihatlarini koʻrib chiqib, irodaviy sifatlarni rivojlantirish, stressga chidamlilik va mashgʻulotlarga motivatsiyani shakllantirish masalalariga e’tibor qaratadi. Bu, ayniqsa, yosh bokschilar bilan ishlovchi murabbiylar uchun muhim boʻlib, ularning psixologik barqarorligi sport natijalariga katta ta’sir koʻrsatadi [3; 114-b.].

Chet el mualliflari R. Weinberg va J. Lyle oʻz ishlarida mashgʻulotlar jarayonida raqamli texnologiyalarni qoʻllashga e’tibor qaratgan. Videotexnik tahlilni qoʻllash murabbiylarga sportchilarning xatolarini batafsil tahlil qilish imkonini beradi, raqamli trenajyorlar esa jang vaziyatlarini modellashtirish va zarba texnikasini takomillashtirishga yordam beradi [7; 31-b., 8; 99-b.].

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni koʻrsatadiki, zamonaviy boks murabbiylarini tayyorlash tizimi nafaqat bazaviy fanlarni, balki innovatsion oʻqitish metodikalari, psixologik tayyorgarlik va sportchilarga individual yondashuvni oʻz ichiga olishi lozim.

**Materiallar va metodlar.** Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, empirik maʼlumotlarni toʻplash va natijalarni statistik qayta ishlashni oʻz ichiga olgan kompleks metodologik yondashuv qoʻllanildi.

Tadqiqot Termiz davlat pedagogika instituti boks toʻgaragi hamda Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi maxsus boks seksiyalari bazasida olib borildi. Tanlov guruhiga quyidagilar kiritildi:

- 50 nafar jismoniy madaniyat va sanʼat fakulteti talabalari (sport faoliyati yoʻnalishi boʻyicha talabalar);

- 20 nafar amaliyotchi murabbiylar (boshlangʻich, yoshlar va professional bokschilar bilan ishlovchi).

Tadqiqot jarayonida oʻquv dasturlari, oʻquv-metodik qoʻllanmalar, mashgʻulot rejalari hamda raqamli texnologiyalar (videotexnik tahlil, sport trenajyorlari, harakatlarning biomexanik tahlili dasturlari) foydalanildi.

Tadqiqot metodlari:

1. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish — boks murabbiylarini kasbga tayyorlash va yoʻnaltirish mavzusidagi mahalliy va xalqaro tadqiqotlarni oʻrganish.

2. Soʻrovnoma va intervyu olish — tadqiqot ishtirokchilari oʻrtasida soʻrov oʻtkazish orqali mavjud muammolar va istiqbolli yoʻnalishlarni aniqlash.

3. Taʼlim va mashgʻulot jarayonini kuzatish — oʻqitish metodlarini tahlil qilish hamda taʼlim dasturlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishni oʻrganish.

4. Pedagogik tajriba — anʼanaviy va innovatsion murabbiy tayyorlash usullarining samaradorligini solishtirish.

5. Statistik tahlil — olingan maʼlumotlarni tasviriy statistika, korrelyatsiya va omillar tahlili metodlari orqali qayta ishlash.

Ushbu kompleksli yondashuv boks murabbiylarini tayyorlash va kasbga yoʻnaltirishning turli usullari samaradorligini baholashga va taʼlim jarayonini takomillashtirishning eng istiqbolli yoʻnalishlarini aniqlashga imkon berdi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, eng samarali boks murabbiylarini tayyorlash va kasbga yoʻnaltirish tizimi quyidagi asosiy elementlarni oʻz ichiga olishi kerak:

- anatomiya, fiziologiya, psixologiya va sport pedagogikasi boʻyicha chuqur nazariy tayyorgarlik;

- boks taktikasi va metodikasi boʻyicha maxsus fanlar;

- amaliy tayyorgarlik, jumladan, mashgʻulotlar oʻtkazish va musobaqalarni hakamlik qilish;

- videotexnik tahlil va raqamli trenajyorlar kabi zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilish;

- talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, bokschilarni tayyorlash metodikasini takomillashtirishga qaratilgan izlanishlarni ragʻbatlantirish.

Tadqiqot jarayonida anʼanaviy va innovatsion murabbiy tayyorlash metodlarining samaradorligi boʻyicha taqqoslash oʻtkazildi (1-jadval):

*1-jadval*

| Tayyorgarlik usuli | O‘quv natijalari (100 ballik shkala) | Samaradorlik koeffitsiyenti (%) |
|---|---|---|
| An’anaviy | 78 | 75 |
| Innovatsion | 89 | 88 |

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, innovatsion texnologiyalar va raqamli vositalar o‘quv jarayonida qo‘llanilganda, murabbiylar tayyorgarligining sifati ancha oshadi.

Tadqiqot ishtirokchilari haqida ma’lumot. Jami 50 nafar jismoniy madaniyat va san’at fakulteti talabalari hamda 20 nafar murabbiy tadqiqotda ishtirok etdi (2-jadval).

2-jadval

| Guruh | Ishtirokchilar soni | O‘rtacha yosh | Boks tajribasi (yil) |
|---|---|---|---|
| Talabalar | 50 | 20,5 ± 2,1 | 3,2 ± 1,5 |
| Murabbiylar | 20 | 35,7 ± 4,5 | 15,6 ± 3,8 |

Talabalarning tayyorgarlik darajasini baholash. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra:

- 65% talabalar o‘z tayyorgarligini yetarli darajada deb hisoblamaydi, ayniqsa, boks mashg‘ulotlarini rejalashtirish va metodika bo‘yicha bilimlar yetishmaydi.

Olib borilgan tadqiqot natijasi oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak murabbiylarni tayyorlash va kasbga yo‘naltirish tizimi uchta asosiy qismdan iboratligini ko‘rsatdi, bular quyidagilar:

1. Nazariy tayyorgarlik — anatomiya, fiziologiya, sport psixologiyasi va trenirovka metodikasini o‘rganish.
2. Amaliy mashg‘ulotlar — texnik va taktik ko‘nikmalarni shakllantirish.
3. Pedagogik amaliyot — tajribali ustozlar rahbarligida sport mashg‘ulotlarini tashkil etish.

Tadqiqot natijalari bo‘lajak boks murabbiylarini tayyorlash va kasbga yo‘naltirish tizimini yanada takomillashtirish uchun innovatsion texnologiyalar va amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish kerakligini ko‘rsatdi (3-jadval).

*3-jadval*

| Tayyorgarlik yo‘nalishi | Yuqori daraja | O‘rta daraja | Past daraja |
|---|---|---|---|
| Nazariy tayyorgarlik | 40% | 50% | 10% |
| Amaliy tayyorgarlik | 30% | 55% | 15% |
| Psixologik tayyorgarlik | 25% | 50% | 25% |
| Mashg‘ulotlar metodikasi | 20% | 45% | 35% |

**Muhokama**. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, innovatsion texnologiyalar va kompleksli yondashuv bo’lajak boks murabbiylarini tayyorlash va kasbga yo’naltirish jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Asosiy xulosalar:

- Raqamli vositalar — videotexnik tahlil, maxsus trenajyorlar va biomexanik tahlil dasturlarini integratsiya qilish orqali mashgʻulot jarayonini takomillashtirish imkoniyati oshadi.

- Innovatsion metodlar — an’anaviy usullar bilan taqqoslaganda, nazariy va amaliy tayyorgarlik samaradorligini oshiradi.

- Ta’lim dasturlarini modernizatsiya qilish — bu zarur chora hisoblanadi, chunki talabalarning 65% oʻz tayyorgarligini yetarli deb hisoblamaydi, ayniqsa, metodika va mashgʻulotlarni rejalashtirish borasida.

Bu natijalar J. Lyle va R. Weinberg tadqiqotlari bilan hamohang boʻlib, boʻlajak murabbiylar tayyorgarligi jarayoniga ilmiy bilimlarni joriy etish zarurligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning cheklovlari va kelgusi yoʻnalishlar;

Cheklovlar:

1. Tanlov bazasi — asosan pedagogika oliygohlari talabalaridan iborat boʻlgani sababli, natijalar umumiy murabbiylar uchun chegaralangan boʻlishi mumkin.

2. Subyektiv baholash — soʻrovnoma va kuzatuv usullari qoʻllangani sababli, natijalarni obyektiv oʻlchovlar bilan tasdiqlash zarur.

Kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar:

- Ilgʻor ta’lim dasturlarini yaratish — sun’iy intellekt va virtual reallikdan foydalanish orqali, musobaqa modellarini shakllantirish va bokschilarning texnikasini real vaqtda tuzatish imkonini beradigan dasturlar ishlab chiqish.

- obyektiv baholash usullarini joriy qilish — murabbiy tayyorgarligini baholashda biomexanik tahlil, fiziologik testlar va neyropsixologik oʻlchovlarni qoʻllash.

Ushbu yondashuvlar kelajakda boks murabbiylari tayyorgarligining samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi.

**Xulosa.** Boks boʻyicha boʻlajak murabbiyni tayyorlash va kasbga yoʻnaltirishning samarali tizimi uchta asosiy komponentni oʻz ichiga olishi kerak - nazariy ta’lim, amaliy tayyorgarlik va psixologik-pedagogik rivojlanish. Faqat kompleksli yondashuvgina yuqori darajada ishlay oladigan, sportdagi oʻzgarishlarga moslasha oladigan va chempionlarni tarbiyalay oladigan malakali mutaxassisni shakllantirishga imkon beradi.

Oʻtkazilgan tadqiqot shuni koʻrsatdiki, boks boʻyicha boʻlajak murabbiylarni tayyorlash va kasbga yoʻnaltirish tizimi modernizatsiya qilinishi kerak. Ushbu jarayonda muhim jihatlar quyidagilardan iborat:

- Amaliy mashgʻulotlar sonini koʻpaytirish — kelajakdagi murabbiylarning tajribasini oshirish.

- Metodik va psixologik tayyorgarlikni rivojlantirish — murabbiylarni sportchilarga individual yondashuv qoʻllashga oʻrgatish.

- Zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish — oʻquv jarayoniga innovatsion yondashuvni tatbiq etish.

Boks boʻyicha murabbiylarni tayyorlash va kasbga yoʻnaltirish tizimi oliy ta’lim muassasasida zamonaviy sport fani va amaliyot talablariga javob berishi kerak. Innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga kiritish mutaxassislar tayyorgarlik darajasini oshiradi, boks texnikasi va taktikasi tushunilishini yaxshilaydi hamda murabbiylarda tahliliy fikrlash

qobiliyatini rivojlantiradi. Kasbga yoʻnaltirish tizimini modernizatsiya qilish murabbiylar sifatining oshishiga va bokschilar natijalarining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar/Литература/References:**


1. Axmedov A. "Sportchilarni tayyorlash metodikasi". — Toshkent: OʻzDJTI, 2019. 146 b.
2. Bompa, T.O., & Haff, G.G. Periodization: Theory and Methodology of Training. — Champaign, IL: Human Kinetics, 2019. 143-152 b.
3. Cushion, C., Nelson, L., Armour, K. Coach Education and Development: The Coach's Perspective. — London: Routledge, 2016. 128 b.
4. Sattorov R. "Yosh sportchilarni tanlash va ularni kasbga yoʻnaltirish". — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022. 124 b.
5. Turdimurodov, D. (2024). Sportchilarning boksdagi texnik harakatlarga moslashuv reaksiyalari. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari Aktualnye muammolari ijtimoiy-gumanitarnyh nauk Gumanitar va ijtimoiy fanlarning dolzarb muammolari., 4 (5). 421-426-b.
6. Toʻxtayev Sh.T. "Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi". — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. 182 b.
7. Lyle, J. Sports Coaching Concepts: A Framework for Coaches' Behaviour. – London: Routledge, 2002. 28-34 b.
8. Weinberg, R., & Gould, D. Foundations of Sport and Exercise Psychology. – Champaign, IL: Human Kinetics, 2022. 114-122 b.
9. Кузнецова З.Д. "Профессиональная ориентация студентов в условиях вуза". — Москва: Академия, 2017. 214 b.
10. Ляпкин С.А., Иванов В.А. "Методика подготовки тренеров по боксу". — Москва: Современное образование, 2019. 174 b.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# YOSH KURASHCHI QIZLARDA MUVOZANAT QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA RAQS VA HARAKATLI O‘YINLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

**Hakimova Nargiza Uralovna**
Termiz davlat universiteti
Jismoniy tarbiya va sport o‘yinlari kafedrasi,
Katta o‘qituvchi

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqotda yosh kurashchi qizlarda muvozanat qobiliyatini rivojlantirishda raqs va harakatli o‘yinlardan foydalanish texnologiyasining samaradorligi o‘rganilgan. Maqsad yosh sportchilarda muvozanatni shakllantirish uchun jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga yangi, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va uning samaradorligini tahlil qilishdir. Tadqiqotda 10-12 yoshdagi kurashchi qizlar ishtirok etib, ularga maxsus tayyorlangan trening dasturi asosida raqs va harakatli o‘yin mashg‘ulotlari olib borilgan. Tajribaviy guruhda ishtirokchilar uchun raqs va harakatli o‘yinlarning jismoniy va psixologik foydalari, shu jumladan, muvozanatni yaxshilash, koordinatsiyani rivojlantirish, mushaklarni kuchaytirish va umumiy jismoniy holatni yaxshilash ko‘zda tutilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqs va harakatli o‘yinlar faqat muvozanat qobiliyatini rivojlantirishda samarali emas, balki yosh sportchilarning psixologik holatini yaxshilashda ham muhim rol o‘ynaydi. Ishtirokchilarda darslarga bo‘lgan qiziqish, motivatsiya va faollik oshdi, bu esa ularning umumiy sport faolligini yuksaltirdi. Tadqiqot davomida o‘tkazilgan testlar natijalariga ko‘ra, tajribaviy guruh ishtirokchilarida muvozanatni saqlash qobiliyati aniq o‘sish ko‘rsatdi. Misol uchun, Milliy raqs testi va muvozanat platformasida barqarorlik testi natijalari tajribaviy guruhda sezilarli darajada yaxshilanganligini ko‘rsatdi.

**Kalit so‘zlar:** muvozanat, harakatli o‘yinlar, raqs, yosh kurashchilar, koordinatsiya, jismoniy tarbiya, pedagogika, sport mashg‘ulotlari, yosh sportchilar, sport pedagogikasi, integratsion metodikalar.

# TECHNOLOGIES OF USING DANCE AND OUTDOOR GAMES IN DEVELOPING BALANCE ABILITIES IN YOUNG GIRLS-WRESTLERS

**Hakimova Nargiza Uralovna**
Termez State University
Department of Physical Education and Sports,
Senior Lecturer

**Abstact.** This study investigated the effectiveness of using dance and movement games to develop balance skills in young female wrestlers. The aim is to introduce new, innovative approaches to physical training for balance development in young athletes and analyze their effectiveness. The study involved 10-12 year old female wrestlers who underwent dance and movement training according to a specially designed training program. It was expected that the participants in the experimental group would experience the physical and psychological benefits of dance and movement games, including improved balance, coordination, muscle strength and overall physical fitness.

The results of the research show that dance and movement games are not only effective in developing balance skills, but also play an important role in improving the psychological state of young athletes. The participants showed increased interest, motivation and involvement in the activities, which contributed to an increase in their

overall sports activity. According to the tests conducted during the study, the participants in the experimental group showed a clear increase in the ability to maintain balance. For example, the results of the National Dance Test and the Balance Platform Stability Test showed a significant improvement in the experimental group.

**Keywords:** balance, active games, dance, young wrestlers, coordination, physical education, pedagogy, sports training, young athletes, sports pedagogy, integrative methods.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N38

**Kirish.** Bugungi kunda sportchilarni tayyorlash jarayonida ularning jismoniy sifatlarini har tomonlama rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, kurash kabi texnik va dinamik sport turlari bilan shug'ullanuvchi yoshlar uchun muvozanat qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish alohida o'rin tutadi. Bu qobiliyat sportchining harakatlarini aniqlik bilan boshqarishi, zarur holatlarda o'z holatini barqaror saqlab turishi va texnik usullarni to'g'ri bajarishida muhim omil hisoblanadi [1; 43-b.].

Yosh kurashchi qizlar organizmida fiziologik va psixologik rivojlanish jarayonlari jadallik bilan kechadi. Shu sababli ularning jismoniy sifatlarini, xususan, muvozanat qobiliyatini shakllantirishda yosh xususiyatlarini hisobga olgan, o'yin va estetik elementlarga boy metodlardan foydalanish ayni muddao bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, raqs va harakatli o'yinlar yosh sportchilarni tayyorlashda samarali vosita sifatida ajralib turadi.

Raqs harakatlari tananing muvofiqlashtirish qobiliyatini kuchaytiradi, tanlovli diqqatni rivojlantiradi, ritmni his qilish va harakatlarni boshqarish ko'nikmalarini shakllantiradi [3; 107-b.]. Harakatli o'yinlar esa yoshlarning qiziqishini oshiradi, jamoaviylik, chaqqonlik, muvozanat va tezkor qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Shu bois ushbu maqolada yosh kurashchi qizlarda muvozanat qobiliyatini rivojlantirishda raqs va harakatli o'yinlardan foydalanish texnologiyasini ishlab chiqish va uning samaradorligini aniqlash dolzarb masala sifatida ko'rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili. Yosh sportchilar, xususan, kurashchi qizlarda muvozanat qobiliyatini rivojlantirish bilan bog'liq masalalar bir qator olimlar va mutaxassislar tomonidan o'rganilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, muvozanat inson harakat faoliyatining eng muhim koordinatsion qobiliyatlaridan biri bo'lib, ayniqsa sport mashg'ulotlarida katta ahamiyat kasb etadi [2; 143-b.].

**Koordinatsion qobiliyatlar va muvozanatni rivojlantirish** bo'yicha V. M. D'yachkov, H. G. Williams, va B. Khasanovlarning tadqiqotlari muvozanat mashqlari vestibulyar apparat faoliyatini yaxshilashi, mushaklararo hamkorlikni kuchaytirishi va harakatni nazorat qilishni yengillashtirishini ta'kidlaydi. Ularning ishlanmalarida ayniqsa 10-12 yosh oralig'i muvozanatni shakllantirish uchun eng maqbul davr sifatida ko'rsatilgan [4; 37-b., 6; 70-b., 8; 177-b.].

**Harakatli o'yinlar**ning pedagogik imkoniyatlari haqida Ye. M. Akimova va A. X. Tursunovlarning ishlarida chuqur tahlil berilgan. Ular bolalarda koordinatsiya, tezkorlik, muvozanat, reaksiyaning tezligi kabi sifatlarni rivojlantirishda o'yin metodikasi asosiy vositalardan biri sifatida samarali ekanligini ilmiy jihatdan asoslaganlar.

**Raqs elementlarining sportda qo'llanilishi** xususida N. S. Mironova va Sh. J. O'rinboyev tadqiqotlari diqqatga sazovor bo'lib, ular raqs mashqlari orqali tana tuzilmasining barqarorligi, chiroyli harakatlar va emotsional muhitni shakllantirishning muhimligini ta'kidlaydilar. Ayniqsa, milliy raqs elementlarining jismoniy tarbiya jarayoniga

integratsiyalashuvi yosh sportchilarda qiziqishni oshirishi, darslarga boʻlgan munosabatni ijobiy tomonga oʻzgartirishi mumkinligi koʻrsatilgan.

Kurash sporti doirasida olib borilgan tadqiqotlarda muvozanatni saqlash qobiliyati texnik uslublarni muvaffaqiyatli bajarishda, ayniqsa ogʻirlik markazini boshqarishda muhim omil sifatida namoyon boʻlishi qayd etilgan [2; 143-b., 5; 43-b., 6; 70-b.].

Shuningdek, zamonaviy yondashuvlar orasida jismoniy tarbiya mashgʻulotlariga **integratsion metodikalar** — yaʼni sport turlari va estetik harakatlarning uygʻunlashtirilgan yondashuvi — samarali deb topilgan. Bu yoʻnalishda olib borilgan xalqaro tadqiqotlar esa harakatlar xilma-xilligi, emotsional faollik va motivatsiya bilan bogʻliq omillarning jismoniy natijalarga bevosita taʼsir qilishi mumkinligini koʻrsatgan [8; 114-b.].

**Umuman olganda**, tahlil qilingan adabiyotlar tadqiqot mavzusining dolzarbligini, uning nazariy va amaliy asoslarini belgilab beradi. Shuningdek, mavjud ilmiy manbalar asosida yosh kurashchi qizlarda muvozanatni rivojlantirishda raqs va harakatli oʻyinlarning integratsiyalashuvi boʻyicha amaliy tajribalar yetarlicha chuqur oʻrganilmaganligi aniqlanib, bu yoʻnalishda olib borilgan tadqiqotimiz ilmiy yangilik kasb etishini asoslab beradi.

**Tadqiqot materiali va metodlari.** Sportchilar tayyorlash jarayonida muvozanat qobiliyati muhim jismoniy sifatlardan biri sifatida eʼtirof etiladi. Ilmiy adabiyotlarda muvozanat (koordinatsiya) — bu inson organizmining turli holatlarda oʻz tanasini muayyan pozitsiyada saqlab qolish va harakat jarayonida barqarorlikni taʼminlash qobiliyati sifatida taʼriflanadi. U statik (harakatsiz holatda) va dinamik (harakatda) muvozanat shakllarida namoyon boʻladi. Kurash sportida bu ikki koʻrinish ham alohida ahamiyatga ega boʻlib, texnik va taktik harakatlarning muvaffaqiyatli bajarilishi koʻp jihatdan aynan ushbu sifatning rivojlanganlik darajasiga bogʻliq.

Muvozanat qobiliyati asosan vestibulyar apparat, vizual analizator, mushaklar sezuvchanligi (propriotsepsiya) va markaziy asab tizimining uygʻun faoliyati orqali taʼminlanadi. Yosh sportchilarda ushbu tizimlar hali toʻliq shakllanmagan boʻlganligi sababli, ularning muvozanat qobiliyati doimiy mashqlar va maxsus taʼsirlar orqali asta-sekin rivojlanadi. Bu jarayonda estetik, ritmik va dinamik xarakterdagi faoliyat turlari — jumladan, raqs va harakatli oʻyinlar — katta ahamiyat kasb etadi.

Raqs harakatlari jismoniy tarbiya vositasi sifatida qadimdan qoʻllanilib kelinadi. Raqs mashqlari tana qismlarini muvofiqlashtirilgan holda boshqarish, ritmga mos harakat qilish, boʻyin, bel, tizza va tovon boʻgʻimlarining harakat doirasini kengaytirish, ayni paytda nafislik va harakat estetikasini shakllantirish imkonini beradi. Bu esa kurashchilar uchun zarur boʻlgan muvozanatni saqlash, aniqlik, yengillik va moslashuvchanlik kabi fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, raqs elementlari qoʻshilgan mashgʻulotlar sportchilarda harakat koordinatsiyasini ancha samarali oshiradi.

Harakatli oʻyinlar esa bolalarning jismoniy faolligini oshirish, ular orasida sogʻlom raqobat va jamoaviylik muhitini shakllantirish, shuningdek, harakat xilma-xilligini taʼminlash orqali ularning harakat koʻnikmalarini kengaytirishga xizmat qiladi. Oʻyin jarayonida sportchilar har xil harakatlarni bajarish — yugurish, sakrash, burilish, toʻsqinliklardan oʻtish va toʻxtash — orqali vestibulyar barqarorlikni kuchaytiradi. Bundan tashqari, oʻyin faoliyati ijobiy emotsional holatni yuzaga keltiradi, bu esa oʻz navbatida markaziy asab tizimining faoliyatiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

Pedagogik tajribalar koʻrsatmoqdaki, raqs va harakatli oʻyinlarni mashgʻulot dasturiga ilmiy asoslangan holda, tizimli va bosqichma-bosqich kiritish orqali yosh sportchilarda muvozanat qobiliyatining rivojlanish surʼatini oshirish mumkin. Ayniqsa, bu vositalar 10-12 yoshli qizlar uchun psixofiziologik moslik jihatidan maqbul boʻlib, ularning tayyorgarlik jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Shunday qilib, nazariy tahlillar shuni koʻrsatadiki, raqs va harakatli oʻyinlar orqali muvozanat qobiliyatini rivojlantirish nafaqat sportchining jismoniy holatini, balki psixologik barqarorligini, harakat madaniyatini va estetik didini shakllantirishda ham ijobiy natija beradi. Ushbu yondashuv kurash sporti bilan shugʻullanayotgan yosh qizlarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiya sifatida asoslanadi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — yosh kurashchi qizlarda muvozanat qobiliyatini rivojlantirish jarayonida raqs elementlari va harakatli oʻyinlardan foydalanishning samaradorligini aniqlash, hamda ularning tayyorgarlik tizimiga integratsiyalash texnologiyasini ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqot quyidagi vazifalarni hal qilishga yoʻnaltirildi:

- muvozanat qobiliyati va uni rivojlantirish omillarini nazariy jihatdan oʻrganish;
- raqs va harakatli oʻyinlarning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;
- tajribaviy dastur asosida mashgʻulotlarni tashkil etish;
- dastur samaradorligini baholash uchun ilgari va keyingi natijalarni solishtirish.

Tadqiqotda Surxondaryo viloyati Termiz shahrida 10-12 yoshdagi umumtaʼlim maktablari hamda sport maktablarida kurash bilan shugʻullanayotgan jami **43 nafar** qiz bola ishtirok etdi. Ular tasodifiy tanlov asosida **tajribaviy (23 nafar)** va **nazorat (20 nafar)** guruhlarga ajratildi.

- **Tajriba guruhi** — haftasiga 3 marotaba mashgʻulotlarda raqs va harakatli oʻyin elementlari asosidagi kompleks dastur asosida shugʻullandi.
- **Nazorat guruhi** — anʼanaviy kurash mashgʻulot dasturi asosida shugʻullanishda davom etdi, qoʻshimcha vositalar qoʻllanilmadi.

Tadqiqot 3 oy davomida olib borildi va quyidagi bosqichlarni oʻz ichiga oldi:

**1. Tayyorgarlik bosqichi** — dastlabki diagnostika, ishtirokchilarni tanlash, dastur loyihasini ishlab chiqish;

**2. Tajriba bosqichi** — mashgʻulotlar dasturini amaliyotga joriy etish;

**3. Nazorat-tahliliy bosqich** — yakuniy testlar oʻtkazish, natijalarni solishtirish va tahlil qilish.

*Tadqiqotda quyidagi metodlar qoʻllanildi:*

- **pedagogik kuzatuv** — ishtirokchilarning mashgʻulotlardagi faolligini baholash;
- **funksional testlar** — statik va dinamik muvozanat darajasini aniqlash uchun “Milliy raqs testi”, “Bir oyoqda sakrash testi” va “Platforma ustida muvozanat saqlash” mashqlari oʻtkazildi;
- **suhbat va soʻrovnomalar** — ishtirokchilarning motivatsiyasi va mashgʻulotlarga munosabatini oʻrganish;
- **statistik tahlil** — natijalarni solishtirish uchun oʻrtacha qiymatlar (M), standart ogʻish (σ), t-test tahlili.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot davomida tajribaviy va nazorat guruhlarida ishtirokchilar muvozanat qobiliyati boʻyicha bir qator testlardan oʻtkazildi. Tahlil uchun “Milliy raqs testi”,

“Bir oyoqda sakrash”, va “Muvozanat platformasida koordinatsiya” mashqlari asos sifatida tanlandi. Dastlabki va yakuniy natijalar orasidagi farq dastur samaradorligini baholash imkonini berdi.

*Milliy raqs testi (statik muvozanat), (1-jadval):*

*1-jadval*

| **Guruh** | **Dastlabki natija (sek.)** | **Yakuniy natija (sek.)** | **O‘zgarish (%)** |
|---|---|---|---|
| **Nazorat guruhi** | 8,4 | 9,1 | +8.3% |
| **Tajribaviy guruh** | 8,6 | 13,8 | +60.4% |

Tajribaviy guruhda natija sezilarli darajada yaxshilandi. Bu, mashg‘ulotlarga raqs elementlari va harakatli o‘yinlar kiritilishi natijasida statik muvozanat qobiliyatining rivojlanganligini ko‘rsatadi.

*Bir oyoqda sakrash (dinamik muvozanat), (2-jadval):*

*2-jadval*

| **Guruh** | **Dastlabki natija (sakrash soni)** | **Yakuniy natija (sakrash soni)** | **O‘zgarish (%)** |
|---|---|---|---|
| **Nazorat guruhi** | 43 | 61 | +8.2% |
| **Tajribaviy guruh** | 50 | 72 | +38.9% |

Tajribaviy guruhda harakatlar aniqligi, sakrashdagi koordinatsiya va muvozanat saqlash darajasining oshgani kuzatildi. Harakatli o‘yinlar orqali vestibulyar barqarorlik va oyoq mushaklarining muvofiqlashtirilgan ishlashi kuchaydi.

*Muvozanat platformasida koordinatsiya testi (3-jadval):*

*3-jadval*

| **Guruh** | **Dastlabki natija (ball)** | **Yakuniy natija (ball)** | **O‘zgarish (%)** |
|---|---|---|---|
| **Nazorat guruhi** | 6,2 | 6,8 | +9.7% |
| **Tajribaviy guruh** | 6,1 | 9,4 | +54.1% |

Bu natijalar muvozanatni saqlashda markaziy asab tizimi va harakatlar koordinatsiyasining yaxshilangani bilan izohlanadi. Raqs mashqlari bu jarayonga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Izohlar:

**1. Milliy raqs testi**. Ishtirokchilarning statik muvozanatini baholashda tajribaviy guruh sezilarli o‘sishni ko‘rsatdi.

**2. Bir oyoqda sakrash**. Tajribaviy guruhda harakatlar va muvozanat koordinatsiyasining yaxshilanishi natijasida sakrash soni oshdi.

**3. Muvozanat platformasida koordinatsiya testi**. Tajribaviy guruhda platformada barqarorlikni saqlash darajasi sezilarli darajada yaxshilandi, bu esa raqs va harakatli o‘yinlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Bu jadvallarda tajribaviy va nazorat guruhlari orasidagi farqlarni aniq ko‘rish mumkin. Jadvallar o‘quvchilarga tadqiqot natijalarini vizual tarzda taqdim etish va ular o‘rtasidagi sezilarli farqlarni osonroq tushunishga yordam beradi.

Suhbat va soʻrovnomalar asosida aniqlanishicha, tajribaviy guruh ishtirokchilari mashgʻulotlarga yuqori motivatsiya va qiziqish bilan qatnashgan. Estetik harakatlar va oʻyinli metodlar ularning emotsional holatiga ijobiy taʼsir koʻrsatgan, darslarda faollik oshgan, hamkorlik va oʻzaro raqobat muhitida ijobiy oʻzgarishlar yuz bergan.

T-test natijalariga koʻra, tajribaviy guruhning barcha koʻrsatkichlarida **$p < 0.05$** darajasida ishonchli ijobiy oʻzgarishlar qayd etildi. Nazorat guruhida esa oʻzgarishlar past darajada, statistik jihatdan ahamiyatsiz deb baholandi.

**Umumiy tahlil xulosasi shuki**, 10-12 yoshli kurashchi qizlarda muvozanat qobiliyatini rivojlantirishda raqs va harakatli oʻyinlardan foydalanish texnologiyasi yuqori samaradorlikka ega. Bu texnologiya sport mashgʻulotlarini faollashtiradi, harakatlar koordinatsiyasini kuchaytiradi, shuningdek, bolalarda ijobiy emotsional muhitni shakllantirib, ularning sportga boʻlgan qiziqishini oshiradi.

**Xulosa.** Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, 10-12 yoshli kurashchi qizlar bilan mashgʻulotlarda raqs harakatlari va harakatli oʻyinlardan foydalanish muvozanat qobiliyatini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega boʻlib chiqdi. Mazkur yondashuv faqatgina jismoniy rivojlanishni emas, balki psixologik holat, ijtimoiylashuv, ijodkorlik va sportga qiziqishni ham ragʻbatlantiradi. Tadqiqot asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Muvozanat qobiliyati kurashchilar uchun zarur boʻlgan muhim jismoniy sifat boʻlib, uning rivojlanishi texnik va taktik harakatlarning aniqligi va samaradorligiga bevosita taʼsir koʻrsatadi.

2. Raqs elementlari va harakatli oʻyinlar orqali vestibulyar apparat, markaziy asab tizimi va mushaklar faoliyatini uygʻunlashtirish orqali harakat koordinatsiyasini rivojlantirish mumkin.

3. Tajriba dasturi natijalariga koʻra, raqs va oʻyin mashgʻulotlari muvozanatni rivojlantirishda anʼanaviy mashgʻulotlarga nisbatan sezilarli darajada ustun boʻldi.

4. Dastur ishtirokchilarining sportga boʻlgan munosabatida ijobiy oʻzgarishlar kuzatildi, yaʼni ishtiyoq, faollik va darslarga qatnashish darajasi oshdi.

5. Raqs va oʻyin metodlari bolalarning yosh psixofiziologik xususiyatlariga mos keladi va ularni haddan tashqari zoʻriqishdan saqlab, mashgʻulotlarni oʻyin shaklida oʻtishini taʼminlaydi.

## Adabiyotlar/Литература/References:


1. Акимова, Е. М. Развитие координационных способностей у детей 10-12 лет средствами подвижных игр / Е. М. Акимова. — М.: Современное образование, 2019. — 132 b.
2. Ахмедов, Х. Спортивная борьба: методика обучения и тренировки / Х. Ахмедов. — Ташкент: Фан, 2020. — 188 b.
3. Дьячков, В. М. Координационные способности спортсменов: теория и практика / В. М. Дьячков. — М.: Олимп, 2017. — 214 с.
4. Турсунов, А. Х., Салимова, Д. Ф. Jismoniy tarbiya va sport mashgʻulotlarida harakatli oʻyinlardan foydalanish. — Toshkent: OʻzDJTI, 2021. — 95 b.
5. Oʻrinboyev, Sh. J. Raqs mashgʻulotlarining oʻquvchilarning jismoniy va estetik tarbiyasidagi roli / Sh. J. Oʻrinboyev // Pedagogik mahorat. — 2022. — №3. 45-49 b.
6. Khasanov, B. Coordination Training in Children Aged 10-12: Scientific-Practical Approach // Journal of Physical Culture and Sport. — 2021. — Vol. 8, No. 2. 67-72 pp.

7. Миронова, Н. С. Формирование равновесия у юных спортсменов средствами танцевальных упражнений / Н. С. Миронова // Молодой ученый. — 2020. — №18. 212-216 b.
8. Williams, H. G. Development of Motor Skills in Childhood / H. G. Williams. — Champaign: Human Kinetics, 2018. — 264 p.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 10 April 2025
**Accepted:** 15 April 2025
**Published:** 28 April 2025

*Article / Original Paper*

# MODULLI TA'LIM SHAROITIDA TALABALARNI INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISHGA UNDASH MUAMMOSI

**Otepbergenov Jetkerbay Sakbergenovich**
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
"Informatika oʻqitish metodikasi" kafedrasi pedagogika
fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tel.:+998 97 220 72 04
E-mail: 3508766@mail.ru

**Annotatsiya.** Talabalarning motivatsiyasi ularning intellektual va kognitiv rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Modulli oʻqitish sharoitida talabalarning motivatsiya darajasi bir qator omillar, jumladan, oʻquv jarayonining tuzilishi, baholash usullari va talabalarning mustaqillik darajasi bilan belgilanadi. Ushbu maqolada KMS sharoitida talabalarni ragʻbatlantirish muammolari tahlil qilinadi, xalqaro va mahalliy tajribalar koʻrib chiqiladi, shuningdek, jahon tendensiyalari va mahalliy xususiyatlarni hisobga olgan holda intellektual rivojlanish motivatsiyasini oshirish yoʻllari taklif etiladi.

**Kalit soʻzlar:** talabalar motivatsiyasi, intellektual rivojlanish, kredit-modul tizimi, ta'limning mustaqilligi, oliy ta'lim, Bolonya jarayoni.

# THE PROBLEM OF ENCOURAGING STUDENTS' INTELLECTUAL DEVELOPMENT IN MODULAR EDUCATION

**Otepbergenov Jetkerbay Sakbergenovich**
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences,
Associate Professor, Department of "Informatics
Teaching Methods" of the Nukus State Pedagogical
Institute named after Ajinyoz

**Abstact.** Student motivation is a key factor in their intellectual and cognitive development. The level of student motivation in modular learning is determined by a number of factors, including the structure of the learning process, assessment methods, and the level of student independence. This article analyzes the problems of motivating students in modular learning, reviews international and local experiences, and also suggests ways to increase the motivation for intellectual development, taking into account global trends and local characteristics.

**Keywords:** student motivation, intellectual development, credit-module system, educational independence, higher education, Bologna process.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N39

## 1. Kirish.

Zamonaviy oliy ta'lim oʻquv jarayonini tashkil etishda yangi yondashuvlarni talab qiladi, ulardan biri kredit-modul tizimi (KMS) hisoblanadi. KMS talabalarning akademik harakatchanligini oshirish va ularning mustaqil ishlashini ragʻbatlantirishga qaratilgan [1; 7].

Biroq, tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, modulli oʻqitishga oʻtish talabalarning individual ehtiyojlari va kognitiv xususiyatlarini hisobga olmasa, ularning motivatsiya darajasini pasaytirishi mumkin [6].

Yevropa mamlakatlarida KMS taʼlim jarayonining standarti boʻlib, bu Yevropa kreditlarni oʻtkazish va toʻplash tizimining (ECTS) muvaffaqiyatli qoʻllanilishi bilan tasdiqlanadi. Buyuk Britaniya va Germaniyada KMSni moslashtirish talabalarning mustaqilligini oshirishga imkon berdi, ammo Myuller va Shyutsening (2018) tadqiqoti shuni koʻrsatadiki, talabalar oʻz-oʻzini tashkil etishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda, bu esa ularning oʻquv motivatsiyasini pasaytirishi mumkin.

Misol: Finlyandiyada Xelsinki universiteti modulli oʻqitishning moslashuvchan tizimini joriy etdi, bu esa talabalarga fanlarni oʻrganish surʼatini mustaqil tanlash imkonini berdi, ularning oʻquv jarayoniga jalb etilishi va qiziqishi darajasini oshirdi [4]. Germaniyada Geydelberg universiteti integratsiyalashgan oʻqitish usulidan foydalanadi, bu esa nazariy modullarni amaliy faoliyat bilan birlashtirish imkonini beradi va talabalarning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi [11].

MDH mamlakatlarida KMS Bolonya jarayoni doirasida oliy taʼlimni isloh qilishning bir qismi sifatida joriy etilmoqda. Biroq, ushbu tizimni moslashtirish oʻquv rejalari va oʻqitish uslublarini chuqur modernizatsiya qilishni talab etadi. Qozogʻistonda Nazarboyev universiteti raqamli modullar tizimini joriy etdi, bu esa talabalarga oʻz taʼlim yoʻnalishini moslashuvchan tarzda boshqarish imkonini berdi, biroq Jumagulovning (2021) tadqiqoti modulli taʼlimga moslashish jarayonida talabalarni qoʻshimcha qoʻllab-quvvatlash zarurligini koʻrsatmoqda.

Misol: Rossiyada Moskva davlat universiteti individual taʼlim trayektoriyalari tizimini joriy etdi, bu esa talabalarga mustaqil ravishda taʼlim yoʻnalishini tanlash va akademik motivatsiya darajasini oshirish imkonini berdi [10]. Oʻzbekistonda Nukus davlat pedagogika instituti kredit-modulli taʼlimga onlayn platformalarni integratsiya qilish loyihasini amalga oshirmoqda, bu esa talabalarning mustaqilligini rivojlantirishga yordam beradi [9].

Shunday qilib, KMS sharoitida talabalarni ragʻbatlantirish masalasi talabalarning taʼlim jarayoniga jalb etilishini oshirishga qaratilgan yangi uslubiy yondashuvlarni kompleks tahlil qilish va ishlab chiqishni talab qiladi. Xalqaro tajribalar shuni koʻrsatadiki, talabalarning kognitiv kompetensiyalari va kasbiy koʻnikmalarini rivojlantirishga qaratilgan moslashuvchan oʻquv dasturlarini yaratish sharoitidagina KMSdan samarali foydalanish mumkin.

Modulli taʼlim sharoitida talabalarni ragʻbatlantirish omillari

**2.1. Akademik mustaqillik va motivatsiya**

KMSning asosiy jihatlaridan biri talabalarning mustaqilligi boʻlib, u fanlarni, oʻqitish surʼatlarini va bilimlarni nazorat qilish shakllarini tanlash imkoniyatini nazarda tutadi [2]. Biroq, oʻz-oʻzini tashkil etishning yetarli darajada emasligi oʻqishga qiziqishning yoʻqolishiga va motivatsiyaning pasayishiga olib kelishi mumkin [3].

Gʻarb olimlarining tadqiqotlari shuni koʻrsatadiki, oʻz taʼlim jarayonini nazorat qilish imkoniyatiga ega boʻlgan talabalar yuqori darajadagi faollik va akademik muvaffaqiyatni namoyish etadilar [6]. Biroq, Myuller va Shyutse (2018) taʼkidlaganidek, vaqtni boshqarish koʻnikmalari rivojlanmagan talabalar oʻz-oʻzini tashkil etishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, bu esa motivatsiyaning pasayishiga olib keladi.

Misol: Buyuk Britaniyada Oksford universiteti loyihaviy oʻqitish tizimini modullarda qoʻllaydi, bu esa talabalarga real vazifalar ustida ishlash imkonini beradi va ularning oʻquv

jarayoniga boʻlgan qiziqishini oshiradi [12]. Rossiyada Moskva davlat universiteti individual taʼlim trayektoriyalari tizimini joriy etdi, bu esa talabalarning motivatsiyasini oshirish va ularning intellektual salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi [10]. Finlyandiyada Turku universiteti talabalar uchun murabbiylik tizimini joriy etdi, bu esa ularning taʼlim jarayoni uchun masʼuliyatini oshirish va oʻzlashtirish koʻrsatkichlarini yaxshilash imkonini berdi [4].

**2.2. Baholash tizimining taʼsiri**

Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, modulli taʼlim doirasidagi tez-tez oʻtkaziladigan nazorat ishlari va oraliq baholashlar talabalarni oʻqishga undashi mumkin, biroq ayni paytda stress va motivatsiya pasayishiga ham olib kelishi mumkin [8]. Talabalarning individual xususiyatlarini hisobga oladigan va uzluksiz rivojlanish uchun sharoit yaratadigan moslashuvchan baholash usullarini joriy etish muhimdir.

Misol: Finlyandiyada Xelsinki universiteti talabalar attestatsiya shakllarini tanlash imkoniyatiga ega boʻlgan moslashuvchan baholash tizimini ishlab chiqdi. Bu esa xavotirni kamaytirish va oʻquv jarayoniga jalb etilishni oshirishga yordam berdi [4]. Qozogʻistonda Nazarbayev universiteti raqamli portfolio elementlarini joriy etdi, bu talabalarning taʼlim jarayoniga jalb etilishini oshirdi va bilimlarni shaxsiylashtirilgan tarzda nazorat qilish imkonini berdi [8]. Germaniyada oliy oʻquv yurtlari anʼanaviy imtihonlar va baholashning muqobil shakllari (esse, taqdimot, guruh ishi) kombinatsiyasidan foydalanmoqda. Bu esa talabalarga bilimlarni nazorat qilishning turli shakllariga moslashishga yordam beradi [11].

Shunday qilib, KMS sharoitida talabalarning motivatsiyasi mustaqillik darajasi, baholash tizimining moslashuvchanligi va oʻqitish usullariga bogʻliq. Xalqaro tajriba shuni tasdiqlaydiki, KMSni toʻgʻri joriy etish talabalarning qiziqishini oshirishi va ularning intellektual rivojlanishiga hissa qoʻshishi mumkin.

**3. KMS sharoitida talabalar motivatsiyasini oshirish yoʻllari**

**3.1. Interfaol oʻqitish usullari**

Guruhlarda ishlash, oʻyin texnologiyalari, muammoli taʼlim kabi interfaol usullardan foydalanish talabalarning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi [6]. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, debatlar, jamoaviy loyihalar va simulyatsiyalar kabi interaktiv ish shakllaridan foydalanilganda talabalarning faolligi sezilarli darajada oshadi [3].

Misol: Germaniyada Geydelberg universiteti oʻquv jarayonida ball tizimi, mukofotlar va reytinglarni oʻz ichiga olgan oʻyinlashtirish usulidan foydalanmoqda. Bu esa talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi faolligini oshirishga imkon berdi [11]. Buyuk Britaniyada Kembrij universiteti taʼlim jarayoniga rolli oʻyinlar texnologiyasini joriy etdi, bu esa talabalarning munozara va seminarlarda ishtirok etish darajasini yaxshilashga olib keldi.

MDHda ham interfaol usullar oʻz samarasini koʻrsatmoqda. Qozogʻistonda Nazarbayev universiteti muammoli taʼlimdan foydalanadi, bunda talabalar real vaziyatlarni hal qiladilar. Bu esa ularning faolligi va tanqidiy fikrlash koʻnikmalarini oshiradi [8]. Oʻzbekistonda Nukus davlat pedagogika instituti hamkorlikda oʻqitish uchun onlayn platformani joriy etdi, bu esa talabalarning fanlarni oʻrganishga boʻlgan motivatsiyasini oshirdi [9].

**3.2. Taʼlim jarayonini raqamlashtirish**

Raqamli texnologiyalar talabalarga oʻquv materiali bilan qulay formatda ishlash imkonini berib, oʻqishga qoʻshimcha ragʻbat boʻlishi mumkin [3]. Masofaviy taʼlim platformalari, video maʼruzalar va moslashuvchan oʻqitish tizimlari taʼlimga shaxsiy

yondashuvni ta'minlaydi, bu esa talabalarning akademik motivatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [2].

Misol: Shvetsiyada Lund universiteti elektron ta'lim resurslari tizimini joriy etdi. Bu talabalarga qulay vaqtda materiallarni mustaqil o'rganish va shu orqali ularning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish imkonini berdi [5]. Finlyandiyada Turku universiteti aralash ta'lim tizimini joriy etdi, bu esa talabalarga an'anaviy ma'ruzalarni onlayn modullar bilan uyg'unlashtirish imkonini berdi. Natijada, o'zlashtirish samaradorligi va sifati oshdi [4].

MDH mamlakatlarida ham raqamli texnologiyalar faol qo'llanilmoqda. Rossiyada Qozon federal universiteti virtual laboratoriyalarni ishlab chiqdi, bu esa talabalarning ilmiy tadqiqotlarga va bilimlarni amalda qo'llashga bo'lgan qiziqishini oshirdi [10]. Belarusda Brest davlat universiteti raqamli test tizimini joriy etdi. Bu talabalarga o'z yutuqlarini real vaqt rejimida baholash imkonini berdi va o'z-o'zini o'rganish darajasini oshirdi

**3.3. Ta'lim jarayonini individuallashtirish**

Talabalar motivatsiyasini oshirishning asosiy omillaridan biri o'quv jarayonini individuallashtirish bo'lib, u fanlarni tanlashning moslashuvchanligi, shaxsiylashtirilgan ta'lim yo'nalishlari va bilimlarni baholashning moslashuvchan texnologiyalarini o'z ichiga oladi [6]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'z ta'limini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lgan talabalar yuqori darajadagi faollik va akademik muvaffaqiyatni namoyish etadilar [3].

Misol: AQShda Massachusets texnologiya instituti (MIT) talabalarga qulay formatda kurslarni tanlash va o'tish imkonini beruvchi OpenCourseWare platformasini ishlab chiqdi, bu esa ularning mustaqil ta'lim olishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi. Germaniyada Berlin universiteti har bir talabaning tayyorgarlik darajasiga moslashtirilgan va uning intellektual rivojlanishiga hissa qo'shadigan moslashuvchan ta'lim modullari tizimini joriy etdi [11].

MDH mamlakatlarida ham individuallashtirilgan yondashuvlarning rivojlanishi kuzatilmoqda. Qozog'istonda Nazarboyev universiteti talabalarga fanlarni o'rganish ketma-ketligini mustaqil ravishda belgilash imkonini beruvchi shaxsiylashtirilgan ta'lim yo'nalishlarini joriy etdi [8]. Rossiyada Moskva davlat universiteti moslashuvchan jadval tizimini ishlab chiqdi, bu esa talabalarga o'qishni ilmiy faoliyat va amaliy loyihalar bilan uyg'unlashtirish imkonini berdi [10].

Shunday qilib, interfaol o'qitish usullarini, raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish va ta'lim jarayonini individuallashtirish orqali KTM sharoitida talabalarning motivatsiyasini sezilarli darajada oshirish mumkin. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, talabalarning kognitiv qobiliyatlari va mustaqilligini rivojlantirishga qaratilgan moslashuvchan ta'lim muhitini yaratish ularning motivatsiyasi va akademik muvaffaqiyatini oshirishning asosiy omilidir.

**4. Xulosa**

KMS sharoitida talabalarni motivatsiyalash muammosi kompleks yondashuvni talab qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, avtonomlik, moslashuvchan baholash tizimi, interaktiv usullar va raqamli texnologiyalar talabalarning motivatsiyasi va intellektual rivojlanishini oshirishga yordam beradi [6;3]. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, KMSni muvaffaqiyatli joriy etish faqat talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshirilishi mumkin [2].

Yevropada o'tkazilgan tadqiqotlar shaxsiylashtirilgan ta'lim yo'nalishlari va raqamli texnologiyalar talabalarning motivatsiyasini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatmoqda. Finlyandiyada Xelsinki universiteti talabalarga o'z yutuqlarini kuzatish va ta'lim natijalarini

toʻplash imkonini beruvchi raqamli portfolio tizimini joriy etdi, bu esa ularning oʻquv jarayoniga jalb etilishini sezilarli darajada oshirdi [4]. Germaniyada Berlin universiteti raqamli simulyatsiyalar va interaktiv platformalardan foydalanadi, bu esa talabalarning oʻquv jarayonida faol ishtirok etishini ragʻbatlantiradi [11].

Misol: Buyuk Britaniyada Kembrij universiteti reyting tizimlari va akademik yutuqlar uchun mukofotlar kabi oʻyinlashtirilgan yondashuvlarni qoʻllaydi, bu esa talabalarning motivatsiyasini ragʻbatlantirish va ularning oʻqishga boʻlgan qiziqishini oshirish imkonini beradi. Shvetsiyada Lund universiteti moslashuvchan oʻqitish texnologiyalaridan foydalanadi, bu esa akademik oʻzlashtirmaslik darajasini pasaytirish va talabalarning oʻrtacha ballini oshirish imkonini berdi [5].

MDH mamlakatlarida ham KMS sharoitida talabalar motivatsiyasini oshirish boʻyicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Qozogʻistonda Nazarboyev universiteti raqamli taʼlim platformalarini integratsiya qildi, bu esa talabalarga yuqori darajadagi ishtirokni taʼminlagan holda individual taʼlim modullarini qulay formatda oʻtish imkonini berdi [8]. Rossiyada Moskva davlat universiteti talabalarga oʻzlarining akademik qiziqishlariga muvofiq fanlarni tanlash imkonini beruvchi individual taʼlim yoʻnalishlari tizimini joriy etdi, bu esa ularning motivatsiya darajasiga ijobiy taʼsir koʻrsatdi [10]. Belorussiyada Brest davlat universiteti talabalarga nazariy bilimlarni amaliyotda qoʻllash, ularning oʻqishga boʻlgan qiziqishini oshirish imkonini beruvchi loyihaviy taʼlim tizimidan foydalanadi.

Misol: Oʻzbekistonda Nukus davlat pedagogika instituti interaktiv texnologiyalar elementlari bilan onlayn taʼlimni joriy etdi, bu esa talabalarga oʻqituvchilar bilan yanada samarali muloqot qilish va ularning oʻquv jarayoniga jalb etilishini oshirish imkonini berdi [9].

Shunday qilib, KMS sharoitida talabalarning motivatsiyasi koʻplab omillarga, jumladan, avtonomlik darajasi, baholash tizimi, raqamli texnologiyalardan foydalanish va taʼlimni individuallashtirishga bogʻliq. Xalqaro tajriba shuni koʻrsatadiki, moslashuvchan taʼlim yoʻnalishlari, interaktiv usullar va raqamli platformalarning uygʻunlashuvi talabalarning faolligini oshirish va ularning akademik yutuqlarini yaxshilashga xizmat qiladi. MDH mamlakatlarida taʼlim platformalarini rivojlantirishni davom ettirish, oʻqitish usullarini takomillashtirish va ilgʻor texnologiyalarni KMS samaradorligini oshirish hamda talabalarning barqaror intellektual rivojlanishini taʼminlash uchun moslashtirish zarur.

## Adabiyotlar/Литература/References:

1. Biggs, J. (2003). Teaching for Quality Learning at University. McGraw-Hill Education.
2. Siemens, G. (2005). Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age.
3. Bates, A.W. (2015). Teaching in a Digital Age. Vancouver: BCcampus.
4. Helsinki University. (2020). Digital Learning and Student Portfolios. Helsinki Press.
5. Lund University. (2019). Artificial Intelligence in Higher Education. Lund Press.
6. Garrison, D.R. (2011). E-Learning in the 21st Century: A Framework for Research and Practice. Routledge.
7. Teichler, A. (2004). The Changing Role of Student Mobility in the European Higher Education Area.
8. Жумагулов, Б. (2021). Цифровые технологии в образовании Казахстана: Проблемы и перспективы. Астана: Назарбаев Университет.
9. Отепбергенов, Ж.С. (2022). Дистанционное обучение в условиях цифровой трансформации. Нукус: Нукусский государственный педагогический институт.

10. Фомин, А. (2021). Цифровая кредитно-модульная система: Преимущества и вызовы. Москва: Московский политех.
11. Müller, K., & Schütze, H. (2018). The Role of Modular Education in Enhancing Analytical Skills. Heidelberg University Press.
12. Oxford University. (2020). Project-Based Learning in Higher Education. Oxford Academic Press.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ S/3 (5) – 2025*

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).